3. Kuroni Karim uzbekcha izokhli tarjima va isoqlar muallifi Alouddin Mansur. Chulpon. 1992, 263 b.
4. Cossack Lugansk Tales, tales and stories, part 4, St. Petersburg , Gutenberg printing house, 1846, p.503
5. Mustafo Bayeshanov // Sharq Yulduzi" №5 2018 from 140 – 146
6. Koran editorial and publishing department of the Tajik republican branch of the Soviet cultural fund translation by I. Yu Krachkovsky , 1990 p. 58
7. "A Thousand and One Nights", Selected Tales in three volumes, volume one M. Fiction, 1987, p. 223

#### **Internet:**

1. <https://folk-tale.ru/narodnye-skazki/nogaiskie-narodnye-skazki/skazka1007.shtml>
2. <http://klaw.ru/narodnie-skazki/kazaxskie-skazki/kazaxskie-narodnie-skazki-wise--sovi.html>

3. <https://folk-tale.ru/narodnye-skazki/kurdskie-narodnye-skazki/skazka1041.shtml>

**PROFESSIONAL TA'LIM JARAYONIDA EVRISTIK YONDASHUVNI JORIY  
ETISHNING MAQSADI VA MOHIYATI**

**Turdiyev Jamoliddin Pardaboy o'g'li**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi [turdiyevjamoliddin63@gmail.com](mailto:turdiyevjamoliddin63@gmail.com) (+99897-315-49-59)

**Qahramonov Mironshoh Sherali o'g'li**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi [turdiyevjamoliddin63@gmail.com](mailto:turdiyevjamoliddin63@gmail.com) (+99897-315-49-59)

**Oliy ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash va o'qitishning pedagogik texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar sho'basi.**

Bu maqolada professional ta'limdagi o'qitish jarayonida evristik yondashuvning asosiy maqsadi va vazifasi o'quvchilarda tanlagan kasbi (mutaxassisligi) bo'yicha kasbiy mahorat asoslarini shakllantirib, ularni egallayotgan kasbi bo'yicha bo'lg'usi kasbiy-mehnat faoliyatiga amaliy tayyorlashdan iboratdir. Shuningdek, evristik yondashuv o'qitish jarayonida tegishli zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish uchun kasb (mutaxassislik) bo'yicha bilimlar berilishi yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** professional ta'lif, evristik yondashuv, evristika, didaktik evristika, evristik ta'lif, umumtexnik tayyorgarlik, umumkasbiy, o'qitish mazmuni.

Professional ta'lif yo'nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar vositasida takomillashtirish uchun oliy ta'lif muassasalarida zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlash bo'lajak professional ta'lif o'qituvchisining umumtexnik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda ularning umumtexnik tayyorgarligining takomillashganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash lozim. Bu mezonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida32 o'z aksini topgan. "Professional ta'lif" yo'nalishi talabalarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar vositasida takomillashtirish uchun oliy ta'lif mazmuni va sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning jadal qo'llanilishi hamda evristik yondashuvlarni joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Evristik yondashuv Qadimgi Yunonistonda ishlab chiqilgan uslublarning butun majmui (kompleksi) asosida yangi nostandart masalalarni yechishda

keng qo'llanilgan. Bu uslublar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: masalalarni oxiridan boshlab yechish (regressiv fikrlash), tahlilning ikki turi – “topish va isbotlash”ga oid masalalarni yechish. Ular inson aql-zakovati va tasavvurini faollashtirishga qaratiladi. Intellektual xatti-harakatlar – bu mantiqiy va evristik qoidalari, amallar (operatsiya)lar tizimi bo‘lib, bunda olingan axborot tahlil etilib, qayta ishlanadi va yangi axborotga aylantiriladi. Texnik masalalarga nisbatan shuni ta’kidlash joizki, ularning intuitiv yechimi ko‘pincha texnik faoliyatdagi muhim tajribalar asosida amalga oshiriladi. Texnik masalani yechishda agar kerakli natijaga erishilmasa, “sinash va xato qilish” usuli qo’llanilaveradi, evristik izlanishlar asosida muqobil (alternativ) natijalar soni kamaytiriladi.

Evristika yunoncha heurisko so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, topish, izlash, kashf etish ma’nolarini anglatadi.

Evristika:

- 1) antik falsafada “haqiqatni topish san’ati”, nazariy tadqiqotlarning mantiqiy usullari va metodologik qoidalari tizimi sifatida talqin etiladi;
- 2) psixologiyaning fikriy faoliyat (amallar)ni o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, turli masalalarni yechishda, ya’ni evristik faoliyat jarayonida insonning samarali ijodiy fikrlashini o‘rganadi;
- 3) pedagogikada – talabalarning topqirligi, faolligini rivojlantirishga qaratilgan turli xil savollar qo‘yish orqali ularni ijodiy o‘qitish usuli;
- 4) evristika tor ma’noda – yangiliklarni kashf etish, yaratish jarayonida muammo yechimlarni izlashning maxsus uslubi va usullari yig‘indisi (evristik uslublar va metodlar)ni bildiradi.

Evristika yangi vaziyatlarda harakatlarni tashkil etish va amalga oshirish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan bўlib, evristik faoliyat – tevarak-atrofga, olamga faol munosabatda bo‘lish shaklidir. Evristika axborotni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirish va uni olishga yo‘naltirilgan turlicha fikrlash shakllarini nazarda tutadi. Harakatlarning evristik tizimi yangi ma'lumotlarni izlashdan iborat bo‘lib, murakkab masalalar asosan evristik usullar yordamida hal etiladi.

Evristikaning asosini psixologiya, xususan, uning ijodiy yoki samarali fikrlash psixologiyasi deb ataladigan bo‘limi evristikani tashkil etadi, degan fikr keng tarqalgan. Masalan, texnik ijodkorlikning evristik usullaridan foydalanish (bevosita va bilvosita aqliy hujumi, evristik metodlar va morfologik tahlil va sintez metodi) kompyuter muhandisligida talabalarning ijodiy tasavvurlari va ixtirochilikka - yangi texnik yechimlarni yaratishga birinchi qadamlarni qo‘yish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Evristika predmeti deyilganda yangi bilimlarni loyihalash qonuniyatları, mexanizmları

va metodologik vositalarini, tajriba natijalarini umumlashtirish va kelajak modelini aks ettirish asosida yaratiladigan faoliyat va muloqot usullarini aniqlash, qayta ishlash va tartiblashtirish tushuniladi.

Evristik yondashuv yoki evristik faoliyat deganda insonning atrof-olamga bo‘lgan o‘ziga xos munosabati tushunilib, ushbu munosabat asosida axborotni mantiqiy yo‘l bilan o‘zgartirish va qayta o‘zgartirishga yo‘naltirilgan evristik uslublar yotadi. Evristik faoliyat bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bochqichda - maqsad va masala ifodalanadi, ikkinchi bosqichda - shaxsiy tajribani hisobga olgan holda ob’ektlar o‘rtasidagi aloqalar belgilanadi va aniqlanadi, uchinchi bochqichda - masalani yechish rejası ishlab chiqiladi, to‘rtinchi bosqichada – masala o‘rganiladi va yechiladi.

Bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarining umumtexnik ijodiy qobiliyat va tayyorgarligini rivojlantirish muammosiga evristik yondoshish quyidagilarni nazarda tutadi:

- talabalarning o‘qituvchi bilan didaktik o‘zaro aloqada amalga oshiriladigan evristik faoliyati – bu ularning motivlarini, ichki mayilliklarini faollashtirish, izlash-bilish harakatlariga jalg etish; izlanish faoliyatini amalga oshirish, strategiyani shakllantirish, axborot va protsessual topish bo‘yicha potensial imkoniyatlarini ochish, muammolar orqali bilish masalalarini yechish rejasini tuzish va ularni amalga oshirish bo‘yicha talabalarning potensial imkoniyatlarini ochishda o‘qituvchining yordamini evristika qonununiylari asosida ta’minalash;

- o‘qituvchi tomonidan talabalarning evristik faoliyatini tashkil etish (rahbar bilan didaktik o‘zaro aloqada amalga oshirish) – pedagogikning bunday ta’sir ko‘rsatishi talabalarning izlanini faoliyatini tartibsiz holda emas, balki muayyan tizim asosida amalga oshirish imkonini beradi, uning tizimliligi va izchilligini ta’minalaydi;

- o‘qituvchining talabalar evristik faoliyatini boshqarishi – talabalarning tashabbuskorligiga, izlani faolitini tashkil etishi va amalga oshirishiga, yakunlashiga, strategiyanip shakllantirish bo‘yicha bilish yo‘nalishini tanashga, yechim rejasini shakllantirish va ularni axborot bilan ta’minalash uchun qat’iy belgilangan tarzda ta’sir ko‘rsatmasdan yordam berish. Talabalarning evristik faoliyatini boshqarish texnika va kibernetika sohasidagi boshqarishga asoslangan bo‘lib, bunda boshqaruv deganda maqsadga erishishga yaqinlashtiradigan ko‘plab real alternativalardan birini tanlash uchun vaziyat yaratish nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, texnika oliy ta’lim muassasalari professional ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligini evristik masalalar

vositasida takomillashtirishda ham protsessual, ham shaxsning ijodiy sifatlari takomillashib borishi lozim.

Demak, texnika oliy ta'lismuassasalari professional ta'lismi yo'nalishi bakalavrlarining umumtexnik tayyorgarligi kasbiy pedagogik tayyorgarlikning murakkab tuzilmasi bo'lib, uning faoliyatini aniqlab beradi va umummadaniy, umumtexnik bilimlar, mahorat, ko'nikmalar, umumtexnik ijodiy yondashuv, shaxsning ijtimoiy yo'naltirilganligi, umuman, umumtexnik masalalar samarasi yechim topishni ta'minlovchi majmuadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Turdiyev J.P. Professional ta'limga ishlab chiqarish ta'limining metodik ta'minoti masalalari. Ta'limga tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, №4, 2020. –B. 22-26.
2. Turdiyev J.P. Kasb-hunar kollejlarida nazariy va amaliy ta'limga tashkil etish J-I: Ta'limga tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar, №1, 2020.
3. Samadxodjayeva D., Turdiyev J.P., Ta'limga jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limga texnologiyalari. Garmonichno razvitoje pokoleniye – usloviye stabilnogo razvitiya Respublik O'zbekistan. Sbornik nauchno-metodicheskix statey. Tashkent, 2019 y. 216-218 bb.

## **INGLIZ TILIDA SPEAKING OSHIRISH USULLARI**

**Islomboyev Rustambek Umidjon o'gli**

SamDChTI talabasi:

Ilmiy raxbarlari: **Sh.O.Mamayoqubova**

**N.N. Zubaydova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda ko'plab xorijiy tillar o'r ganuvchilari yuzlanadigan asosiy muammolardan biri Speakingni ( Gapirish ) darajasini qanday qilib ravon ravishda chiqarish va qanaqa usullardan foydalanib, o'stirish va rivojlantirish haqida so'z yuritiladi .

**Kirish so'zlar.** Til imkoniyatlari, til kurslari, audiolar, sun'iy muhit, conversation club, og'zaki nutq, kundalik ehtiyoj, lingvistik kapital, ijodiy hamkorlik, ravon nutq uslubi, Shadowing uslubi, "native speaker"lar, tabiiy muhit .

### **METHODS OF IMPROVING ENGLISH SPEAKING**

**Annotation.** In this article, one of the main problems faced by many foreign language learners today is how to fluently release the level of Speaking and what methods are used to grow and develop it .

**key words :** Language opportunities, languages courses, audio, artificial environment, conversation club, oral speech, daily needs, linguistic capital, creative cooperation, fluency, Shadowing style, "native speakers", natural environment.

Bugungi kunda chet tillarini o'r ganishga bo'lgan imkoniyat naqadar kengligi va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tarafdan til o'r ganish borasidagi e'tibor naqadar ulkan ekanligi hech kimga sir emas shubhasiz. Dunyo bo'yicha ma'lumotlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizdan ortig'i 2 yoki undan ortiq tilda gaplasha oladilar. Globallashuv sharoitida "lingvistik kapital" ya'nini aniqroq aytadigan bo'lsak, chet tillarini, xususan, ingliz tilini mukammal egallagan kadrlarga ehtiyot sezilmoqda. Bu o'z navbatida, xorijiy tillarda gaplashuvchilar sonining yildan-yilga oshib borayotganligidan darak beradi. Ushbu chet tillarini o'r ganuvchilar duch keladigan asosiy muammolardan biri bu muayyan tilni yaxshi bilsa-da, ravon gapira olmaslik hisoblanadi. Aytaylik, siz ham bir kunda soatlab ingliz tilida maqolalar o'qishingiz, audiolar eshitishingiz yoki yangi

so'zlar yodlashingiz mumkin, lekin qanchalik harakat qilsangiz ham hech qanday o'sish, o'zgarish kuzatilmayaptimi?

Demak, aynan ushbu maqolada Speakingni rivojlantirish borasida va uni qanday usullardan foydalangan holda samarali oshirish haqida so'z yuritiladi. Deylik, siz yoki yaqin o'rtog'ingiz ingliz tilini kichik yoshligidanoq o'rganishni boshlagan-u, ammo, haliyam ushbu tilda dadil, ravon ravishda so'zlay olmaydi. Yoki ancha vaqtidan buyon til kurslariga qatnashsangiz ham, turli mavzularda matnlar yodlasangiz ham, natijasi yuqori emas. Ingliz tilida gapiresh darajangizdan ko'ra 3-4 yoshli bola o'z ona tilida gapirgani yaxshiroq. Chunki u kundalik hayotida faqat shu tildan foydalanadi: ko'p gapiradi, ko'p eshitadi. Ammo siz o'zingiz aynan Speaking (Gapiresh) uchun qancha vaqt sarflaysiz? Deyarli hech qancha?! Buning uchun Speakingni oshirishda qanday usullar mavjud?

Quyidagi uslublarni sanab o'tamiz:

- do'stlarining bilan faqat ingliz tilida so'zlashish
- conversation club larga azo bo'lish
- skype orqali ingliz tilida so'zlashadigan suhbatdosh topish
- ko'zguga qarab so'zlash
- turistlar bilan native speakerlar sifatida muloqot qilish
- shadowing uslubi

Tildan doimiy aloqa vositasi sifatida foydalilanadi va u kundalik so'zlashuvda verbal tarzda yuzaga keladi . Misol qilib oladigan bo'lsak, do'stlar bilan yozishmalar, yaqin insonlar bilan sms xabarlar va kunlik muloqot aynan ushbu tilda olib borilsa ancha samaralidir . Endi har bir uslublar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak :

ENGLISH CONVERSATION CLUB - Hozirgi vaqtida deyarli har bir o'quv yurtlarida deysizmi, o'quv markazlarida deysizmi tilga doir ko'pgina klublar tashkil qilingan. Klub a'zolari orasida turli mavzularda muhokamali bahslar, suhbatlar qurish mumkin. Bunda ishtirok etish orqali o'rtaga qo'yilgan topic yuzasidan fikrlar bildirilish mumkin. Bu juda ham ajoyib imkoniyat!

SKYPE FOR ENGLISH - Bu ham samarali usullardan biri. Bunda turli xil millat vakillaridan do'stlar orttirish, exchange information holatida bo'lish bilan birga dunyoqarashni ham kengayturib borish imkon bo'ladi. Ushbu dasturga tashrif buyurib, yoshi, til bilish darajasiga qarab istalgan insonni tanlab, SKYPE orqali so'rovnama jo'natish mumkin bo'ladi.

KO'ZGUGA QARAB SO'ZLASH - Agar internetdan unchalik ko'p foydalana olinmasa, unda bu usul juda ham keraklidir. Bunda ko'zguga qarab muayyan mavzu: xoh qiziqarli voqealar, xoh yoqtirgan mashg'ulot yokida kelajak rejalar haqida 5- 10 daqiqa davomida so'zlash mumkin .

SHADOWING - Tarjimasidan ko'rinib turibdiki, SHADOWING - soya degani. Ushbu uslubda native speakerlarning nutqlari aynan copy paste qilinadi ya'ni, ovoz toni, pronunciation hammasi bir xil shaklida takrorlanadi.

Bundan tashqari, ingliz tilini tabiiy muhitda o'zlashtirish haqida ham to'xtalib o'tamiz. Misol uchun, Daniel - 8-9 yoshlar atrofidagi, rus millatiga mansub, Norvegiya istiqomat qiluvchi bola . Maktabdan tashqarida u norveg va ingliz tillarida yozilgan afishalar, yil belgilariiga duch keladi. Yoki do'konga, istirohat bog'lariga aylanganda ushbu tilda so'zlashuvchi turli kasb vakillari bilan gaplashadi. Eng asosiysi, fikr ifodalash jarayoni amaliyotda qo'llanadi, jonli muloqotda tajribadan o'tadi. Va bunda yana bir e'tiborli jihat shuki, muayyan fikrni ifodalashga shaxsiy tashabbus ko'rsatiladi .

Zaynura - 10-12 yashar qizcha, Samarcand viloyatining Samarcand shahrida yashaydi. Ularning maktabida ingliz tili 45 daqiqa davom etadi. Bundan tashqari, qizcha bu tilni ota - onasi xursand bo'lishi va o'qituvchisidan a'lo baholar olib, rag'bat eshitish maqsadida o'zlashtiradi va o'rganadi. Ushbu holatda u faqatgina cheklangan so'zlar resurslaridan foydalanadi va oddiy sodda gaplar tuza oladi. Bundan kelib chiqadiki, birinchidan, 1-vaziyatda cheklanmagan vaqt mavjud, ikkinchidan, jonli nutq muloqoti, uchinchidan, ingliz tilidagi muloqot aynan jonli ravishda sinab ko'rildi va bunda e'tibor, shaklga emas, mazmunga qaratiladi. 2-vaziyatda esa na vaqt yetarlicha, na bu tilda so'zlashuvchi kishilar jamoasi bor, barcha jarayonlar sun'iy muhitda o'zlashtirilyapti. Va eng achinarlisi, chet tilida muloqot qilishga ehtiyyot ham, sabab ham yo'q! Cheklangan metodik qo'llanmalar!

Demak, ushbu usullardan samarali tarzda foydalanib, nafaqat Speaking darajasini oshirish, balki omma, auditoriya oldida dalil, raxon, to'xtalmasdan so'zlashish imkonini yaratadi .

### **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari 1999. – 182 p.(fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. –432 b.

2.Birdsong D., Bialystok E., Hakuta K. Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis. – L.: Lawrence Erlbaum associates publishers,

3.Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.

4.Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: <http://www.asian-efl-journal-AsianEFLJournal.TheEFLProfessionals'WrittenForum>. Access date: 4.06.2017.

5. Sh.O.Mamayuqubova. "Мотивация В Процессе Развития Педагогического Мастерства И Компетенции Преподавателя". Scientific Approach to the Modern Education system. Conference of Germany, 1 avgust 2023, 100 p

5.<https://www.hasanboy.uz>

6.<https://grantgo.uz/blog>

7.<https://cyberleninka.ru>

## ЁШЛАРДА МУОМАЛА ОДОБИНИ ШАКЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

**Турсунбаева Юлдуз Радж қизи**

Педагогика факультети

“Мактаб менежменти” кафедраси үқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада Шарқона тарбиянинг муҳим жиҳати бўлган инсонлараро ўзаро мулоқот маданияти ва унга эришиш йўл-йўриқлари тўғрисида фикр юритилиб, тавсиялар берилган.

**Таянч сўз ва иборалар:** Шарқона тарбия, муюшарат одоби, ўзаро мулоқот, саломлашиш маданияти, умуминсоний қадриятлар, миллатнинг руҳи, маънавий асослар, маданий ва маънавий мерос, Шарқ ва Ғарб донишмандлари.

Одамларнинг меҳр-оқибати, бир-бирларига нисбатан ўзаро ҳурмат эътиборда бўлишлари мулоқот жараёнида намоён бўлади. Халқимизда азалдан мулоқот саломлашиш маданиятидан бошланади. Саломлашиш турли халқларда ҳар хил амалга оширилади. Халқимизда саломлашиш ахлоқлиликнинг юксак намунаси сифатида эътироф этилиб, унинг негизида умуминсоний қадриятларнинг устуворлиги, шу миллатнинг руҳий хусусиятлари, ўзаро муносабатларининг маънавий асослари, бўлажак мулоқотнинг характеристи, ўзаро ҳамкорлиги акс этади.

“Қуръони карим”да саломлашиш одоби мусулмон аҳлиниң қатый мажбурий бурчи тарзида баён этилади: “Эй мўминлар, ўз уйларингиздан бошқа уйларга то изн сўрамагунингизча ва эгаларига салом бермагунингизча кирмангиз. Мана шу сизлар учун яхшироқдир. Шояд ушбу эслатмадан ибрат олсангизлар” [2].

Аждодларимиз маданий ва маънавий мероси, улар яратган сўз, халқ тилининг туганмас бойлиги ёш авлодни тарбиялашда муҳим аҳамият касб этади. Бу ўринда Абу Наср Форобий, Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий, Юсуф Ҳожиб, Аҳмад Юғнакий, Хисрав Дәҳлавий, Абу Ҳамид Ғаззолий, Кайкобус, Шайх Саъдий, Алишер Навоий, Заҳиридин Муҳаммад Бобур ва бошқа Шарқ ва Ғарб донишмандларининг бой меросларида фарзандларни тарбиялаш ва камолотга етказиш асосий муаммо сифатида тарғиб қилинган. Улар сўзни ва нутқни таълим-тарбияда илоҳий неъмат ва ҳикмат деб билишган ҳамда ҳар бир сўзниң ўз ўрни ва аҳамияти борлигини, тарбияда сўздан кучлироқ ва қудратлироқ нарса йўқлигини, тилга эътибор - элга эътибор

эканлигини, сўз сеҳри мўъжизалар яратади олишини таъкидлаб келганлар. Буларнинг барчаси мударрис ва шогирдларнинг самимий мулоқоти жараёнида амалга оширилган. Мударрислар баркамол ва тарбияланган инсоннинг ўнта нишонаси борлигини алоҳида таъкидлашган: — биринчиси: халқ тӯғри деб топган нарсага нотӯғри деб қарамаслик;

- иккинчиси: ёшлиқдан ўз нафсига эрк бермаслик;
- учинчиси: бировлардан асло айб қидирмаслик;
- тўртинчиси: ёмонлик ва омадсизликни яхшиликка йўйиш;
- бешинчиси: агар гуноҳкор узр сўраса, узрини қабул қилиш ва кечиримли бўлиш;
- олтинчиси: муҳожирлар ҳожатини чиқариш;
- еттинчиси: доимо эл ғамини ейиш;
- саккизинчиси: айбини тан олиш;
- тўққизинчиси: эл билан очиқ чехрали бўлиш;
- ўнинчиси: одамлар билан доимо ширин муомалада бўлиш.

Мулоқот Шарқона тарбияда ахлоқ қўрки санаалган. Муаллим ҳар бир ўқувчининг қандай дунёқарашга эгалиги, тафаккури, билим савияси, ҳаётга нисбатан муносабати одамлар билан ўзаро мулоқотида намоён бўлишини уқтиришган. Шарқ мутафаккирлари меросида мулоқот - азалдан инсонлар ўртасидаги ўзаро алоқа воситаси бўлган. Мулоқотнинг асосий қуроли тил ҳисобланган. Шунинг учун ҳам тил - алоқа қуроли сифатида таърифланади. Инсоннинг тили ширин, муомала маданиятига эга бўлса, қисқа вақт ичидаги ҳам орасида обрў-эътибор топади. Кўп гапириш ҳеч қачон кишига обрў келтирмайди. Шунинг учун ҳам ўтмишда яшаб ўтган мутафаккирларимиз тилга, айтиладиган ҳар бир сўзга ҳурмат билан, ўйлаб ёндашиш лозимлигини уқтириб ўтганлар. Ўқитувчи «Сўз айтишдан аввал, ҳар дақиқада сўз ортидан келадиган оқибатларни ўйлаши керак (И.П.Павлов) [4].

Алишер Навоий адабий меросларида муомала маданияти, хушмуомалалик, тилнинг аҳамияти тўғрисида, ширинсўзлик ҳақида ноёб фикрларни баён қилган. Бугунги кунда ҳам бу фикрлар ўз аҳамиятини йўқотган эмас. «Тил ширинлиги - кўнгилга ёқимлидир, мулойимлиги эса фойдали. Ширин сўз соғ кўнгиллар учун асал каби тотлидир» - дейди Алишер Навоий.

Ўқувчилар нутқини ўстиришда ўқитувчининг тил бойлиги муҳим аҳамиятга эга: бир томондан, ширин тиллилик ўқувчини ўқитиш ва тафаккурини ривожлантиришнинг муҳим омили бўлиб ҳисобланади.

Бундан шундай хулоса келиб чиқадики, ўқитувчининг тил бойлиги нутқининг образли, чиройли, жарангдор, намунали бўлишини таъминлайди, натижада ўқувчи дикқатини ўзига жалб этади. Зотан, тил ва нутқининг теранлиги, ўқитувчининг маҳоратини, маънавий бойлигини, ўқитувчилик қобилиятиниң қай даражада эканлигини ифодалайдиган ўлчов, кўрсаткич ҳисобланади.

Америкалик шоир Рольф Эмерсон: “Нутқ қудратли куч: у ишонтиради, ундейди, мажбур қиласди” дейди [5].

Шарқ мутафаккирлари ижодида тил ва нутқ воситалари орқали нотиқ, воиз, бадиҳагўй, қиссанхон каби маҳсус санъат аҳиллари ва мударрислар диний, таълим-тарбиявий, исломий ақидаларни олмага сингдиришгани, панд-насиҳатлар қилишгани баён этилади. Ушбу нутқ соҳиблари кенг қамровли билимга, бой ахборотга эга бўлишган. Алишер Навоий “Воиз олимнинг ўзи аввало ҳалол иш кўрувчи бўлишини, унинг насиҳатидан чиқмасликни” асарларида баён этган [6]. Шунинг учун тил ширинлиги ва нотиқлик санъати устида ишлаш, нутқ маданиятини такомиллаштириб бориш ҳар бир ўқитувчининг энг асосий ижтимоий бурчи ва масъулияти хисобланади.

Таълим-тарбия жараёнида нутқининг таъсир кучи ниҳоятда бекиёсdir. Ўқитувчининг тили нутқий қобилияти ўқувчиларнинг ўзларини тута билишларига, хулқ-автори ва фикр юритишларига улкан таъсир этувчи кучли воситалардир. Ўқитувчининг “тил бойлиги ва нотиқлик санъати барча замонларда ёнма-ён яшаб келган” (А.П.Чехов) [4]. Унинг ҳис туйғуси, интилишлари, ирода ва эътиқоди нутқида акс этади. Ўқитувчи тил бойлиги билан ўқувчиларда хурсандчилик, руҳланиш, муҳаббат, Ватанга садоқат, ғазабланиш, нафратланиш ҳиссиётларини ўйғотади, билим олишга ундейди. Шунинг учун ўқитувчи “тилнинг ҳалқ ўтмиши, ҳозирги ва келажак авлодни буюк бир яхлитликка, тарихий, жонли бир жипсликка айлантирувчи энг ҳаётий, энг бой ва энг мустаҳкам восита” (К.Д. Ушинский) эканлигини унутмаслиги керак. Кишиларнинг бир-бирлари билан ўзаро муносабатларида ширинсуханлик, гўзаллик, сўзлашув оҳангидаги мулоимлик “Муошарат одоби” дейилади. Муошарат одоби инсоннинг гўдаклигига ота-она бағрида, оиласда шакллантирилиши керак.

Жумладан, ал Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри” асарида асосий ғоя - фозил кишилар образи. У ким бўлишидан қатъий назар шоҳми, гадоми, оддий фуқароми фозил кишидир. Шаҳарнинг фозил кишилари бир-бирларига нисбатан хурмат ва иззатда бўладилар. Ота-она ва фарзанд, устоз ва шогирд, дўстлар, қариндошлар ўртасида

шарқона назокат, мөхр ва эҳтиром мавжуд. Форобий асарида бундан бир неча аср илгари ҳам ота-боболаримизнинг маънавияти нақадар юксак бўлганлиги ва бу авлодларга ўрнак бўлиши таъкидланади.

Демак, муошарат одоби нафақат миллий анъанааларимиз ва урфодатларимизнинг кўзгуси бўлган, балки дунёдаги барча халқларнинг ноёб инсоний фазилати сифатида эътироф этилган. Инсоннинг энг улуғ, лекин мураккаб ва машаққатли фаолиятларидан бири одамлар орасида, яъни жамиятда ўз ўрнини топиб яшашидир. Бу фаолиятнинг мураккаблиги шундаки, кўпчиликка қўшилиш, улар билан аҳил бўлиб яшаш учун инсонда шунга яраша муомала ва муносабат бўлиши керак. Муомала ва муносабатда ўқувчиларнинг дилига тўгри келмайдиган кўпол ва дилозор муносабат олиб борувчи ўқшувчиларни ҳеч ким ёқигирмайди. Ўқувчилар хушфеъл, ширинсухан, адолатпарвар, муомаласи ширин ўқитувчи ва тарбиячиларни дилдан ёқтиришадилар ва ҳурмат-эътибор қилишади.

Ўқитувчининг “ақл-заковати, фикри, ҳис-туйғулари, билими ва маданий савияси, тафаккури маълум даражада сўзда ифода этилади. Муомала маданиятида сўз ақлдан куч, тилдан ихтиёр олади” [1]. Чунки сўзнинг қудрати катга. Ўқитувчи ўз сўзига, тилига ниҳоятда эҳтиёткор бўлмоғи лозим. Энг аввало, ўқувчиларга муомала маданиятини, катталар олдида ўзини тута билиши, гапини бўлмаслиги, ёши улуғларга гап қайтармасликни ўргатиш зарур. Мулоқот маданияти ҳамма жойда керак. Иш жойида, транспортда, уйда биз ким билан қандай муомала қилишни билишимиз зарур. Ўқитувчининг қанчалик билимли, ақл-заковатли эканлиги ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари билан олиб борадиган мулоқоти орқали намоён бўлади. Одамлар бутун ички дунёсини, мақсадини, муомала ва муносабатларини бир-бирларига сўз ёрдамида етказадилар, амалга оширадилар. Шу туфайли сўзлашув муносабатлари ниҳоятда гўзал ва мулојим бўлишини ҳаёт тақозо этади.

Глобаллашув жараёнида таълим муассасалари педагог ходимлари олдида турган ўта масъулиятли вазифалар ҳам шундан иборат эканлигини унумаслик керак.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Абдуллаев Ҳ. Яшил дафтар ҳикмати. -Т.: Ўқитувчи, 2000.

2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Т.: Ўзбекистон, 1992, 160 6
3. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси.- Т.: Ўзбекистон, 1999,29 б.
4. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя.
5. Каримов И.И. Ўқитувчи, устоз, мураббий...: Таалабалар ва ёш ўқитувчилар учун. Рисола. - Қўқон ДПИ, 2009, 99 б. 29.
6. Rakhmatilla Musurmonov1 In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education Received 10/12/2022; Accepted 04/01/2023

Bismillohir Rohmanir Rohiyim

**O'ZBEK MODERN SHE'RIYATI: FAXRIYOR SHE'RIYATINI QIYOSIY O'RGANISH**

**II kurs 202-guruuh talabasi Nurmamatova Pokiza**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti O'TA fakulteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek modern she'riyatining taraqqiyoti, bu davr she'riyatining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Nazariy fikrlar doirasida Faxriyor she'riyati tahlil qilinib, Cho'lpion she'riyati bilan aqiyosan o'rjaniladi.

**Kalit so'zlar:** modern, lirika, estetika, peyzaj, dekadent, taassurot, ramz, tahlil, talqin, munosabat, poetik olam.

**Annotation:** This article provides information about the development of modern Uzbek poetry, the peculiarities of the poetry of this period. Within the framework of theoretical ideas, Fakhriyor's poetry is analyzed and compared with Cho'lpion's poetry.

**Keywords:** modern, lyric, aesthetics, landscape, decadent, impression, symbol, analysis, interpretation, attitude, poetic world

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr adabiyotiga yangicha ruh, yangicha ohang olib kirgan, hayot va zamonni yangicha falsafiy idrok qilish asosi bo'lgan modernizm oqimi kirib keldi. Modernizm (fransuzcha –moderne eng yangi, zamonaviy) yoki dekadentlik(fransuzcha tushkunlik, ma'naviy tanazzul) (ayrim manbalarda avangardizm atamasi bilan ham beriladi) XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiyada ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadentdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiyligi nomi sifatida tushuniladi<sup>33</sup>. Modernizm tushunchasi XIX asr oxirida yemirilib borayotgan ratsionalistik oqimning intihosi sifatida yuzaga kelib, hayot va zamonni yangicha falsafiy idrok etish, shuningdek, kelajakka tashvish va ishonchszilik nigohi bilan boqish, oxir zamonni his qilish bilan bog'liq "fin de siecle" - asr oxiri tushunchasi<sup>34</sup>ga nisbatan yuzaga kelgan holatga tushkun (dekadens) munosabat bildirish orqali yuzaga kelgan deb qaraladi. Xo'sh modernizm o'zbek adabiyotiga qachon va qay tarzda kirib kelgan? Uning o'zbek adabiyotidagi yorqin namoyondalari kimlar? Modernizm oqimi o'zbek adabiyotiga XX asrning 20-yillaridan kirib kelganligi

<sup>33</sup> <http://quronov.narod.ru/mod.html>

<sup>34</sup> Xolova M. O'zbek modern she'riyati: tarixi va nazariyasi. Monografiya. Toshkent, "Navro'z" nashriyoti DUK. 2018.  
– 7.b

ma'lum. Xususan, ma'rifatparvar ijodkorlarimizdan Abdurauf Fitrat va Cho'lpox ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ko'plab she'rlarida eski ohanglardan qochish, yangilik ruhi yaqqol sezilib turadi. Shoirlarimiz tomonidan ushbu yo'nalishga xos va mos tushadigan she'rlarning yaratilishi, keyinchalik esa sho'ro proletariati tazyiqi ostida modernizm va shu kabi yangi oqimlar sotsrealizm tomonidan siqib chiqarila boshlagan. Xususan, Cho'lpoxning ushbu she'ri an'anaviy aruz ohanglariga ko'nikkan qulqlarga "yangicha" eshitiladi va uning she'rlaridagi boshqa ohanglarga o'xshamas ifodalar yaqqol ko'zga tashlanadi:

"Xayol, xayol...

Yolg'iz xayol go'zaldir.

Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman,

Xayoldagi yulduzlarkim amaldir,

Olovimni alar uchun yoqaman.

Go'zal xayol, kel boshimda gul o'ynat,

Manim istak-tilagimni erkalat"

Mazkur misralarda na qolib, na qofiya, na bo'g'inlarning tartibiga amal qilingan. Misralarda qa'bning qirg'oq buzar mavjları aks etgan. Cho'lpox she'rlarida yangilik (novatorlik) ifodasi uning ruhiyati, xayoloti va badiiy tasvir vositalari orqali she'rlariga singdirilgani o'z in'ikosini topgan.

XX asr boshlarida Cho'lpox va Fitrat tom ma'nodagi yangi ohanglarga ega o'zbek modern she'riyati poydevorini qo'ygan, keyinchalik Oybek va asr o'talarida Asqad Muxtor ham modern she'riyatida yangi sahifa ochgan ijodkorlar sifatida qaraladi.

XX asr oxirlarida novatorlik yana bir pog'onaga ko'tarildi va o'zgacha ohang kashf eta bordi. Modernizm muayyan syujet va mavzularga mayl uyg'otadi, deyishadi. Bular –urush, o'lim, sevgi, hijron kabi mavzularning tabiat va ruhiyat bilan uyg'unlashib ketishi orqali ko'zga tashlanadi. Bu mavzu syujetlar gammasining ifodasini ushbu davrda ijod qilgan va ayni damda ijod qilayotgan Rauf Parfi, Faxriyor, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Bahrom Ro'zimuhammad va hozirgi yosh ijodkorlardan Jontemir Jondor ijodida ko'rishimiz mumkin.

Novatorlik har doim ham yangilik kashf etish emasligi, u boshqa an'analarni takrorlamasdan, boshqa yo'nalishga o'xshash bo'lmasisligi bizga ma'lum. Ijodkorlar ham bir-birlarini takrorlamaydigan, o'z ohanglariga ega bo'lgan Yaratganning kashfi ekanligiga yana bir karra imon keltiramiz.

Har bir oshiq qalb muhabbatni yangilaydi, deyishadi. Har bir ijodkor Adabiyot atalmish fusunkor, sirli, sehrli, o'xhashi va cheki yo'q olamga o'z qalbi bilan kirib keladi, uni o'zicha yangilaydi, deydi Abduqayum Yo'ldoshev.

Darhaqiqat, har bir ijodkor o‘z yo‘liga, o‘z ovoziga, mahoratiga ega bo‘lib, yangiliklar yarata bilishi, hech kim ayta olmagan gaplarini o‘z asarlarida baralla ayta olishi uning ijoddagi mahoratidan ko‘rinadi. O‘zbek modern she’riyatidagi ana shunday mahoratli shoirlardan biri Faxriyordir. She’rlari orqali ruhiyati va xayoloti ifodasini go‘zal bo‘yoqlarga o‘rab o‘quvchilarga taqdim eta olgan ijodkor novatorlikni ham yangicha uslub bilan boyita oldi, xususan, barmoq vazni va modernni birlashtirgan holatda o‘lmas she’rlar yarata oldi. Ijodkorning quyidagi she’riga qaraydigan bo‘lsak:

Daraxtlanar uzlatgir bog‘lar,  
Adirlarda yashil izdihom.  
Yuraklarda ishqylanar dog‘lar,  
Musibatlar arir - kuz degan<sup>35</sup>...

bu yerda ijodkor real hayotni, o‘z ruhiyatiga aloqador tuyg‘ularni tabiat lirikasi qatlariiga singdira olishi bilan bir qatorda uni muayyan qolip(vazn)ga sola

olayotganligi, bu yerda ham shakl ham mazmun mushtarakligini ta’minlagani bilan e’tirofga sazovor. Shuningdek, she’r tahlilida shoirning so‘z qo‘llash mahorati ham nihotda go‘zal. Fasllar tasviri orqali inson qalb kechinmasi tasviri ham ifodalanishi zamonaviy she’riyat mezonlaridan biri ekanligidan dalolat.

“She’riyat individual-hissiy kechinmaning ifodasi, ya’ni his-tuyg’u qo‘zg‘atadigan estetik mavjudlik”<sup>36</sup> sifatida qarasak, shoir she’rlarida estetik pafos, estetik ruh yaqqol sezilib turadi. Estetika insonning hayotdagi go‘zallikni his qilishi uni insonda tarbiyalay olishi va uning ruhiyatiga singdira olishi vazifalarini bajaradi, albatta. Xususan, ijodkorning she’rlari orqali o‘quvchi estetik go‘zallikni his qila oladi, xususan, shoirning:

Hayot, sen sharobsan,  
maysan bir suzim,  
Yigirma to‘rt yilki  
to‘ymadim, ayo.  
Yurar may ichinda  
G‘ussalar yuzib,  
Soqiyo, aysh qayon,  
uqubat qayon...<sup>37</sup>

<sup>35</sup> Faxriyor. Dardning shakli. She’rlar. T.: “Yozuvchi” nashriyoti, 1997. -24.b

<sup>36</sup> Xolova M. O‘zbek modern she’riyati: tarixi va nazariyasi. Monografiya. Toshkent, “Navro’z” nashriyoti DUK. 2018.

<sup>37</sup> Faxriyor. Ayolg’u. She’rlar va dostonlar. T.: “Sharq”, 2000. – 8.b.

she'rida hayotni sharobga o'xshatgan (bunday o'xshatish G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rida ham mavjud) ijodkor ushbu mayning ichida g'uissa-yu g'amlar suzib yurgani hamono bu mayga to'ymagani, uning yosh qalbi (she'r shoirning 24 yoshligida yozilgan ekan) hayotga juda chanqoq ekanligi go'zal estetik vositalar orqali bizga yetkazib berilgan.

Modernistik she'riyatda lirk kechinmaning ifodalanishi, tasviriy vositalarning individual obrazga aylanishi obraz, metafora, ramz, mif, qarama-qarshi ketma-ketligining natijasi, aniqrog'i ularga sayqal berilishining samarasi sifatida yuzaga chiqadi, deyiladi. Ko'pincha proza(she'riyat)da peyzaj tasviri ijodkorning ruhiy kechinmalari bilan uyg'un holatda tasvirlanadi deb qaraladi. Xususan, peyzaj atamasi- (fr-paysage- mamlakat joy so'zlaridan olingan) peyzaj. Badiiy asarda aks ettirilgan joy, tabiat tasviri bo'lib,u yozuvchining metodi va uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarini o'taydi. Ko'plab romantik ijodkorlarning asarlarida jo'shqin tabiat tasviri ko'proq o'rinn egallab bu tasvirlar personajlarning intilishlariga jo'shqin, ko'tarinki kayfiyatlariga mos tarzda beriladi, lirk peyzaj esa lirk qahramondagi kayfiyatni ifodalovchi muhim vositadir<sup>38</sup> 6. Ko'p hollarda, kuz yoki yomg'ir tasviri inson ruhiyatini, uning dardlarini, qayg'u-hasratlarini aks ettiradigan timsol yoki ramz sifatida qaraladi. Alalxusus, "Qissasi Rabg'uziy" da naql etilishicha, odamzod loyi qirq yil yomg'ir bilan to'yintiriladi, ana shu qirq yilning o'ttiz to'qqiz yili qazg'u(qayg'u) yomg'iri edi. Xususan,

Men – yo'qsil oshiq  
Yengil qilib kiyaman dilni  
kuzning salqin havolarida,  
yomg'irli kunlarida.

\*\*\*

Yurak tomi o'pirilib qolgan eski uy kabi  
vayrondir  
Uning devorlari  
shamoldan asrashi mumkin umidni,  
biroq yomg'ir atrofdan emas,  
ko'kdan yog'ar...

she'rida yomg'ir, kuzning ezgin havosi orqali ijodkor ruhining naqadar tabiat manzarasiga yaqinligi, binobarin uning kayfiyati tabiatdagi har bir predmetga qorishiq tarzda namoyon bo'layotganiga guvoh bo'lamic. Hali aytib o'tganimizdek tabiat bilan inson ruhiyatidagi aloqadorlik, tabiat

<sup>38</sup> Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati U.Xatamov. B. Sarimsoqov –Toshkent. "O'qituvchi" 1979.- 229 b.

hodisalari va inson kayfiyatini uyg'unlashtirib yuborish tasviri ko'plab ijodkorlarimiz ijodida uchraydi, masalan, R.Parfi:

Yomg'ir yog'ar shig'alab yog'ar  
Ham qayg'umga, ham quvonchimga  
yoki Aziz Saidning:  
Ikkimizning qo'llarimizga  
Yog'ar edi bahor yomg'iri,  
Shamol har kun terib keltirar  
Titrog'imiz siniglarini –  
kabi she'rlar yaqqol yuqorida fikrlarimizni tom ma'nodagi ifodasi desak, yanglishmaymiz.

Zamonaviy she'riyat o'zining sarhad bilmas ifodasi bilan, inson qalb kechinmalarining tizginsiz kengliklari bilan ham an'anavyi she'riyatdan farq qiladi. Modern she'riyat vakillari o'z ijodiy na'munalari bilan an'analarimizni yangicha ko'rinishda ifodalaganligi tahsinga sazovor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati U.Xatamov. B. Sarimsoqov –Toshkent. "O'qituvchi" 1979, 365 b.
2. Xolova M. o'zbek modern she'riyati: tarixi va nazariyasi. Monografiya. Toshkent, "Navro'z" nashriyoti DUK. 2018 yil, 116 b.
3. Faxriyor. Ayolg'u. She'rlar va dostonlar. T.: "Sharq", 2000. – 256 b.
4. Faxriyor. Dardning shakli. She'rlar. T.: "Yozuvchi" nashriyoti, 1997.
5. <http://quronov.narod.ru/mod.html>

**TA'LIM VA TARBIYA O'QUV JARAYONINING AJRALMAS QISMI****G.T.G'aybullayeva****Q.T.Boltayeva****N.J.Rahmatova***Buxoro shahar kasb -hunar maktabi o'qituvchilari:*

Tarixga nazar solsak, Sharq uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sahada asosiy masala inson muammosi edi. Insoniylik insonni ulug'lash g'oyasi ta'limgartarbiyaga oid asarlarning asosiy o'zagi sanalgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiy-axloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq masalasi faylasuflarning ham tarixchiyu shoirlar hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Hibbat ul-haqoqiy", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Nosiriy", "Mahbub ul qulub" kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimiz inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta'limiy-axloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishishi yuksak axloqqa ega bo'lishi, ilm-fan egallash asosoidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi.

Buyuk mutafakkir Muhammad al Xorazmiy "Al-jabr val muqobala" nomli asarida pedagoglar faoliyatiga baho berib quyidagilarni yozgan edi: "Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, tabiat sirlarini ochadi, yo'lni yoritadi va ubi tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishdan mag'rurlanmaydi". Bu bilan olim pedagogning qiyin muammolarni oson qilib tushuntira olish, ijodkorlik kabi mahoratlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Abu Nasr Farobiy o'zining "Baxt saodatga erishuv" nomli asarida ta'limgartarbiya berish usulini ikki turga bo'ladi: rag'batlantirish va jazolash (majbur qilish). U mazkur usullarni izohlar ekan, o'qituvchining pedagogik mahoratiga ham to'xtalib o'tadi: "Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u

tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat va muallim har ikkovi o'z yo'lida, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustod va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi". Uningcha, pedagoglik kasbi bilan o'zida tug'ma xislatlarni mujassamlashtirgan kishilar shug'ullanishi lozim:

1. Barcha organlari mukammal taraqqiy etgan.
2. Barcha masalalarni tez va to'g'ri tushuna oladigan.
3. Xotirasi kuchli.
4. Zehni o'tkir.
5. Nutqi ravon.
6. Haqiqatparvar.
7. G'urur va vijdonli.
8. Adolatli.
9. Qat'iyatli, qo'rmas va jasur kishilar

Abu Nasr Farobi ustoz-murabbiya shunday talab qo'yadi: "Ustoz o'z shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, qattiq zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanlik qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbattan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U uztozlarga bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida quyidagi "Qattiq" yoki "Yumshoq" foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyil bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

U o'qituvchining tarbiya usullarini hukumat "davlat" va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishidagi usullariga o'xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini uqtiradi. Xususan, Abu Nasr Farobiyning o'z davri uchun kata xizmatlaridan biri shundaki, u kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashiga chaqiradi. Insonni "Ojiz banda", "Hech narsaga qodir bo'limgan mavjudot" kabi yerga uruvchi diniy aqidalarga zid o'laroq mutafakkir nazarida inson eng oliy kamolat bo'lib, "Aql-idrok ziyofiga ega, o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir". Xillas, Abu Nasr Farobi insonning halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aql-zakovati, qobiliyat, qudrati oshib borishiga ishonadi bu bilan u mehnatsevarlik o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarni nihoyatda qadrlaydi.

## **OTA-ONA VA BOLALAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR**

**Umurzakova Nargis Muxtarovna**

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

"Gumanitar fanlar" kafedrasи katta o'qituvchisi

**Nuriddinova Farangiz Ulug'bek qizi**

[Mobil:+998990129077. E-mail:nargisau71@gmail.com]

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

"Huquq va turizm" fakulteti

"Yurisprudensiya" yo'nalishi 1-kurs talabasi

[Mobil:+998930736621.E-mail:farangiznuriddinova5@gmail.com]

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-ona va bolalarni huquqlari mamlakatimizda dolzarb muammolaridan bir bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir.Chunki ota-ona bolalarni voyaga yetgunga qadar tarbiyalash, boqish ta'lif olishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish kerak. Ota-ona ularga tarbiya berishlari uchun o'zлari bilimli bo'lishi kerak.Oilaviy baxt tushunchasi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat mentalitetimizga xos tushunchalar bo'lib, u asrlar osha avloddan -avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatimizning ajralmas bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir.Ota-ona va bolalak kelishmasliklar diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

**Аннотация** В этой статье рассматривается разветвление и наиболее фундаментальная составляющая актуальных проблем материнства и детства в нашей стране. Потому что родители должны создавать условия для воспитания детей до достижения ими совершеннолетия. Понятия семейного счастья взаимоуважение между членами семьи- это менталитет который является неотъемлемой частью и важнейшей составляющей нашей национальной ценности которая веками передается из поколение в поколение. Отец становится центром разногласий между матерью и детьми,

**Anotation:** In this article, the rights of parents and children are an offshoot of the pressing problems in our country and the most basic component.Because it is necessary to create prerequisites for the parent to be able to educate and support children until they reach adulthood. The concept of family happiness mutual respect between family members is a concept characteristic of mentalitemosis it is an integral part and the most fundamental component of our national value, which is passed down from generation to generation over the centuries.The fact that parents and children do not agree is becoming the center of attention.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'Imagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichlarida kishilar to'da- to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasida munosabatlar muayyan tartib qoidalarga ega bo'may, to'dagi barcha ota- onalar o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. Ota- ona bolalar munosabatlarini tarixiy tarzda o'rganadigan bo'lsak ota- onaning bolaga yondashuvi turli bosqichlarni boshdan kechirgan.

Olimlarning tavsiflashicha antik davrlarda ota- onalar farzandlarining jamiyatdagi tutajak o'rirlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar.ayrim xalqlar bolaga u kichikligidan juda katta mehr va g'amxorlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota ona tomonida beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar bilan qarashlik lozim. Ota- onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar bu murakkab munosabatlar tizimi, tarbiya psixologiyasi o'rganishning predmeti bo'lib uning maqsadi ota -onalar va bolalar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish mexanizmlarini avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlashdir. Shu bilan birga Jinoyat kodeksining 122-moddasida shunday keltirilgan; Moddiy yordamga muxtoj bo'lgan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib 3 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgach axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi. O'sha qilmish xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa,- 2 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ota -onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda kattalar tomonidan qilingan asosiy xatolar ko'p xollarda ota- onalar bolaligidan boshdan kechirgan xafagarchiliklarni, qarama-qarshiliklarni, nizolar oqibatida yangi oilaviy munosabatlarn rejasiga o'tkazishiga olib keladi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlarn, oilalarning barbos bo'lishi millatlar davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 71- moddasiga keltirilgan ya'ni "ota- onalarga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ushbu bobda nazarda tutilgan ota-onalik huquqlari bolalar o'n sakkiz yoshga to'lganlarda, shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga

kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollada bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi. Bu borada oilaviy munosabatlarning ota ona va farzand munosabatlari ko'rinishida yuzaga keladigan nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalarini dolzarb muammolardan sanaladi. Bundan shuni tahlil qilish mumkinki, oilada otalarning farzandlar bilan muloqatining kamligi bola bilan yetarli emasligi hamda oilalardagi ajralishlar natijasida farzandlar bilan otalarning o'zaro kelishmovchiliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Demak ota ona va o'smirlar o'rtasida nizolarni bartaraf etishda ota ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar kelmasligi uchun har bir omillarga keltirilgan sabablarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onada va bolalar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar ta'siri natijasida oiladagi farzandning qiz bola va o'gil bolaga ajratilishi shu asosda o'zaro munosabatlarni shakllantirish o'rtasidagi nizolarni yuzaga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatları Oila kodeksini 74-moddasida shunday keltirilgan; bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi. Ota-onada o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda shu jumladan sudga alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-onada va bolalar manfaatlari o'rtasida qaramaqarshilik borligi aniqlanganda ota-onada o'z bolalarining himoya qilishga haqli emas. Ota-onada va bolalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlanishi lozim. Hayotga tayyorlamoqchi bo'lgan ota-onada jismoniy kuch ishlatib qattiqqo'llik qilib qo'yishadi. Tarbiya berishda ko'pchilik ota-onalar bolani urib tarbiyalashadi, chunki bu yo'l orqali bolani bo'ysundirish oson. Bolasizga qarshi so'z bilan javob qaytarolmaydi qarshi chiqmaydi. Urib jazolash bolani sindiradi. O'sayotgan daraxtni to'g'rileyman deb sindirib qo'yishadi. Bolani bir necha marta uradi, yig'laydi lekin ota-onani aytganini qiladi. Vaholanki, uning ichki kechinmalarini his qilib ko'rishmaydi. Bolani urish u yoqda tursin, qo'pol gap bilan tarbiyalashning o'zini qoralamayman lekin bolani xatosini aytish kerak. Oila va oilaviy an'analar farzand tarbiyasining asosidir. Zero, bola aynan oiladagi odamlar bilan muloqot qilishning ilk

tajribasini o'rganadi. Insoniy munosabatlarga ega bo'lish uchun oila an'analar va urf odatlari jamiyat bilan normal munosabatda bo'lishga, yaqin oila qurishga, oilaviy rishtalarni mustahkamlashga, o'zaro tushunishni yaxshilashga va janjallarni kamaytirishga yordam beradi. Oilaviy tarbiya an'analari mavjud bo'lgan va amalda bo'lgan oila davralarida bolalar ota-onalarning fikrini tinglaydilar, ota-onalar esa bolalarning muammolariga e'tibo berishadi va ularni yengishda yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlarini ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shuningdek, oilaviy bolalar uylarida tarbiyaga olingan bolalar mahalla hayotiga yaqindan jalb etiladi, undagi turli marosimlarda bevosita ishtirok etib, oiladagi va mahalladagi yoshi ulug' otaxon -onaxonlarning pand nasihatlaridan bahramand bo'lib u yerda axloqiy, ma'naviy va jamoaviy tarbiya ko'radi

3. Sicheva A.V. Architecturally landscape: Issues of protection and formation. 2nd edition rev . and add. - Minsk: Higher . wk . 1982.
4. Martysyuk A. "Features of the organization of riverside urban territories of rivers: the experience of the countries of near and far abroad" Bulletin of Polodsk State University. -2015, article.
5. Низамидин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Технико-технологические проблемы сервиса, 2019
6. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
7. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Ицтисодмолия, 2009
8. Н.Хайдаров. Солицлар ва солицца тортиш масалалари. Уцув цулланма. Тошкент: Академия, 2007
9. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Государственный бюджет. Учебное пособие

## **МАҲАЛЛИЙ ОЗИҚ-ОВҚАТ БОЗОРИНИНГ ҲУДУДИЙ КЛАССИФИКАЦИЯСИ**

**Банноев Шокиржон Шарипжонович**

Наманган давлат университети мустақил тадқиқотчиси  
sbannoyev585@mail.ru +998-94-300-80-47

Минтақавий озиқ-овқат бозори назарий ва амалий аҳамиятга эга бўлган ҳудудий классификацияни ёки маъмурий бўлинишни юзага келтиради. Ҳудудлараро интеграцияда маъмурий табақаланиш ва ихтисослашувни ҳисобга олиш кутилган илмий натижаларни беради. Шу жиҳатдан, бир хил табиий-иктисодий шарт-шароитларга эга бўлган алоҳида ҳудудни танлаб олиш асосида озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг тармоқлараро мажмуя ҳосил қилувчи тизимларини тадқиқ этиш алоҳида аҳамият касб этмоқда.

Бизнингча, озиқ-овқат бозорининг ҳудудий жиҳатдан табақаланишини қўйидаги минтақалар доирасида кузатиш мумкин: маҳаллий озиқ-овқат бозори ва туманлараро озиқ-овқат бозори.

Юқоридаги ҳудудий табақаланишнинг ўзига хос жиҳатлари мавжуд бўлиб, бунда маҳаллий озиқ-овқат бозори асосий ихтисослашув омилларини белгилаб беради. Мазкур холат табиий ва ижтимоий-иктисодий шарт-шароитлар билан чамбарчас боғланган бўлиб, қишлоқ ҳўжалиги ва қайта ишлаш корхоналари жойлашувининг асоси ҳисобланади. Бунда озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг маълум бир тури билан таъминлаш мавжуд корхоналар доирасида амалга оширилади ва корхоналар бир-бирини тўлдириб туради. Шу билан бирга, туманнинг маъмурий чегараланишига мос ҳолда ишлаб чиқариш тармоқлари уйғунашади ва бошқарув жараёнини ифодалайди.

Маҳаллий даражадаги ишлаб чиқариш тармоқларида табиий омилларнинг таъсири яққол намоён бўлади. Жумладан, тоғ олди ҳудудларда боғдорчилик, узумчилик ва чорвачилик, текислик ҳудудлари сабзвотчилик, полизчилик, сақлаш ва қайта ишлаш тармоқлари жойлашади. Маҳаллий озиқ-овқат бозори ушбу тармоқлар билан боғлиқ бўлиб, ўз навбатида бир-бирини тўлдиради ва мажмуали характер касб этади. Маҳаллий озиқ-овқат бозори доирасида интеграциянинг ривожланиши туманлараро алоқаларнинг мустаҳкамланишига олиб келади.

Туманлараро озиқ-овқат бозори ихтисослашган қишлоқ ҳўжалиги корхоналари билан қайта ишлаш саноати ўртасидаги интеграцияни

ифодалайди. Бунда умумий агроиклиний хусусиятларга эга бўлган икки ва ундан ортиқ туман қишлоқ хўжалиги корхоналари бошқа тумандада жойлашган қайта ишлаш корхоналарига ўз маҳсулотларини сотишлари мумкин.

Минтақа ҳудудларининг ихтисослашуви дончилик, картошкачилик, сабзавотчилик, мевачилик, узумчилик, чорвачилик ва озиқ-овқат саноатининг ривожланганлиги билан ажралиб туради. Шу билан бирга, ихтисослашув ҳолатига кўра ноқулай, қулай ва жуда қулай шароитлари билан ҳам характерланади. Бунда ижтимоий-иқтисодий ҳолат, агроиклиний шарт-шароитлар, аҳолининг меҳнат малакалари ва моддий-техник база ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Табиий-иқтисодий шароитларнинг ўзгарувчанлиги озиқ-овқат таъминотининг пасайишига ва аҳолининг зичлиги юқори бўлган ҳудудларга салбий таъсир кўрсатди. Шу жиҳатдан, табиий-иқтисодий шароитларда муҳим фарқларга эга бўлган минтақа учун энг муҳим вазифа – ихтисослашган озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш зоналарини ташкил этишdir.

Маълумки, ҳудудий меҳнат тақсимоти асосида ишлаб чиқаришни ихтисосластириш амалга оширилади. Ихтисослашув билан ишлаб чиқариш жараёнларининг яқин бирлиги йирик саноат тармоқларининг шаклланишига олиб келади. Ўз навбатида, ишлаб чиқаришнинг концентрацияси ва диверсификациянинг кучайиши (янги ва алоҳида тармоқларнинг пайдо бўлиши) кузатилади.

Аммо, қишлоқ хўжалигидаги мазкур жараёнларнинг мураккаблигини ҳисобга олиш керак. Тўлиқ технологик цикла эга бўлган корхоналарнинг ташкил этилиши, бир томондан, маълум даражада концентрация кўлами ва ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга имкон беради, аммо бошқа томондан, бундай хўжаликларда ишлаб чиқаришнинг оқилона даражаси ва хажмидан ошиб кетиши бутун ҳудуд бўйича улкан нисбатларни вужудга келтириши мумкин. Шу муносабат билан, интеграцион жараёнларни ривожлантириш ва интенсив омиллардан тўлиқ фойдаланиш учун шароит яратадиган иқтисодий маконни шакллантириш керак. Бу эса, ишлаб чиқарувчилар, қайта ишлаш саноати ва савдо корхоналарини бирлаштиришни талаб этади.

Масалан, минтақада туманлараро ва хўжаликлараро ихтисослашувдан самарали фойдаланиш имкониятлари мавжуд. Шу билан бирга, маҳаллий бозор учун ресурсларни шакллантиришга қаратилган вазифаларга эътибор берилмайди. Бу шуни англатадики,

ишлиб чиқаришни ихтисослашуvinинг чуқурлашиши билан боғлиқ бўлган табиий ва ташкилий-иктисодий омилларни нафақат мажмуали равишда, балки нисбий афзаликлар нуқтаи назаридан ҳам ҳисобга олиш керак бўлади.

Албатта, бозор муносабатлари шароитида хўжаликлар, тармоқлар ва ҳудудлар ўртасидаги манфаатли ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ривожлантиришга бир қанча омиллар тўсқинлик қиласди. Биринчидан, корхоналар домий равишда иктисодий мустақиллигини таъминлашга ҳаракат қиласди. Иккинчидан, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари нархи аксарият ҳолларда қайта ишлаш саноати томонидан белгиланади. Учинчидан, ҳар бир ҳудуд алоҳида иктисодий макон сифатида шаклланишга ҳаракат қиласди.

Бундан ташқари, қишлоқ хўжалиги корхоналарининг ишлиб чиқариш имкониятлари ёки иктисодий салоҳияти биринчи навбатда мавжуд ер ресурслари, уларнинг ҳолати ва сифати билан белгиланаётганлигини ҳам инкор этиш мумкин эмас. Шу боис, ер майдонлари нисбатан қўпроқ ва бу майдонларни кенгайтириш имконияти юқори бўлган туманлarda якка мулкчилик асосида хўжалик субъектларини, бундай имкониятлар мавжуд бўлмаган бошқа туманларда эса шерикчилик мулкка асосланувчи кластерлар ёки кооперация кўринишидаги хўжалик субъектларини ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Бунда барча хўжаликлар мулк шаклидан қатъий назар юқори даражада иктисодий мустақилликка эга бўлишлари лозим. Юқори даражадаги иктисодий мустақиллик берилиши уларнинг бозор шароитларига талофатсиз ўтиши учун реал имкониятларни вужудга келтиради.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Christopher L. Waltz. Local food systems: background and issues. - New York: Nova Science Publishers, 2011. – pp. 26-27.
2. Feenstra, G. Creating space for sustainable food systems: lessons from the field// J. Agriculture and Human Values. – Kansas: № 19 (2), 2002. – pp. 99-106.
3. Kristine Hahn. What is a food shed?// Michigan State University Extension. – Michigan: 24 (3), 2013.  
[https://www.canr.msu.edu/news/what\\_is\\_a\\_food\\_shed](https://www.canr.msu.edu/news/what_is_a_food_shed)
4. One Hundred Tenth Congress of the United States of America, at the Second Session. – Washington: An Act, 2008. - p. 245.

<https://www.govinfo.gov/content/pkg/BILLS-110hr2419enr/pdf/BILLS-110hr2419enr.pdf>

5. Jonnie B. Dunne, Kimberlee J. Chambers, Katlyn J. Giombolini and Sheridan A. Schlegel. What does "local" mean in the grocery store? Multiplicity in food retailers' perspectives on sourcing and marketing local foods// J. Renewable Agriculture and Food Systems. - Cambridge: № 26 (1), 2011. – pp. 46–59.

## O'RTA OSIYODA TA'LIM VA TARBIYA

**Sulaymonova Shaxzoda Shuhrat qizi**

Fan va Texnologiyalar Universiteti

"Boshlang'ich ta'lif yo'nalish talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyoda sharq mutafakkirlarning ta'lif-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari, pedagogika nazaryasi va tarixi haqida qisqacha yoritib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lif,tarbiya,pedagogika,ma'naviy fazilatlar,ilm,insonparvarlik,odob,barkamol inson.

"Shavkati inson erur ilm-u adab,  
E'tibor etmas anga naslu nasab".

**(Abdulla Avloniy)**

Ta'lif va tarbiy tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamic. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislari ta'lif va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lif –tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi. Miloddan avvalgi VII –VI asrlarda Orta Osiyoda ichlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobjiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqalar yuzaga keldi. Yosh vlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf-odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lif va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakillari vujudga kela boshladi. Hali muktab bo'limgan, pedagogik fikr tarkib topmagan davirdayoq qabila a'zolari bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasida aql idrok bilan faoliyat olib borishgan. Ularning ta'lif-tarbiya usullari yillar davomida hayot tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davirning mevasi sifatida bizning davirimizgacha yetib keldi. VII asrlarga kelib Orta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lif va tarbiya beruvchi mudarrislarning qizg'in faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang-barangligi va xilma-xilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk

ibridoiy jamoa va quldorlik davirlaridan boshlab,bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat,tushuntirish,rag'batlantirish maqtash,namuna ko'rsatish,tanbeh berish ,taqiqlash,qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar.Biroq mudarrislarning o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. SHu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan.Markaziy Osiyoning Xorazm zaminida shakllangan eng qadimiy va "O'tmishdagi dinlarning eng kuchlilaridan bo'lgan" Yu.A.Rapport zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da bolalar ta'lim tarbiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Avestoda ta'kidlanadiki bilim va tarbiya hayotning eng muhim tifgagi bo'lib hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki,u avvalo yozishni o'rganish asosida bilim olish kerak,so'ngra esa odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin.Kohin muallimlari oqsoqollar ,Kengashi tomonidan tanlanib qat'iy belgilangan qoidalari asosida yoshlarga ta'lim va tarbiya berishganda "Avesto" da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- d) o'qish va yozishga o'rgatish.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarda mudarrislar kasbining nozikligini,mas'uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharaflı ekanligini yoritib, muallimning mahorati,ularga qo'yilgan talablar,fazilatlariga oid qarashlar,shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati,muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar.O'rta Osiyoda tarbiya haqidagi qarashlar,eng qadimgi yozma manbalar ko'rindan, zardushtiylik ta'limotida ilm-ma'rifatning kuchiga qattiq e'tiqod qilingan va jamiyat hayotida ham oqibat natijada ilmu hikmat yutib chiqadi,deb hisoblangan."Avesto" da yuqorida keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki qadimgi ajdodlarimiz bolalarning faqat benuqson tug'lishiga va chaqaloqligidan jismoniy tarbiyasiga jidiy e'tibor beribgina qolmasdan shuningdek,ularning aqlan etuk bo'lishiga, hikmat o'rganishiga ,ma'naviy sof bo'lishiga,yaxshilik va ezzulik xislatlarini egallahslariga ham bevosita g'amxo'rlik qilishgan.Qisqasi,bolalarda

axloqiy,aqliy,jismoniy,mehnatsevarlik,ishbilarmenlik,rostgo'ylik, saxiylik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilgan.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarning ijtimoiy pedagogik g'oyalari.

Ijtimoiy pedagogika g'oyalari va nazariyalarning shakillanishida SHarq uyg'onishi davri olimlarning asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining

mohiyati shuki avval mavjud bo'lgan o'sha davirni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir,yetuk olimalarining faoliyati xarakteri-ilm bilan mashg'u'l bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z tasirini ko'rsatdi. Buyuk olim Al-Xorazmiy (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir.U savol-javob metodi orqali bilimlar qulgakiritilishini,bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kiritilishni,jamiyatning faol'azosiga aylanishini ta'kidlagan.Al-Xorazimiyy-Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek-kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi,tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbiq etishgan.Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash,axloqiy norma va qoidalar,kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy (973-1051y)ta'lim jarayoniga qo'llaniladigan ilmiy usullarni ichlab chiqqan .U shuningdek ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan.Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan.Olimning tarbiya,shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy hayot uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhumligini saqlab qolgan.Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qisimlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifatli bo'lishi;
- Ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- Ijtimoiy muhit va to'gri tarbiya;
- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

UYg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Farobi,Abu Rayhon Beruniy,Abu Ali ibin Sino,Unsurul Maoliy Kaykovus,Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy,SHayx Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy,Jaloliddin Davoniy,Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlrga o'tib,o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni,tarbiyachilarni tayyorlash tajribalarini umumlashtirib,boyitib borishgan.Zero insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab-yashnashi faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan.Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan.O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan

allomalarning bu borada o'z o'rni va hurmati bor.Bu borada barkamol avlodni tarbiyalash,allomalarimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Xulosa

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarimizga asoslangan holda tarixda ham hozirgi kunda ham ta'lim bilan tarbiyaga juda kata e'tibor qaratilgan,turli xil izlanishlar olib borilgan.Ta'lim nazariy bilimlarni birlashtirsa,tarbiya esa bilimlar va xulq odob fazilatlarini birlashtiradi.

**ADABIYOTLAR:**

1 .Xoliqov A.A Pedagogik mahorat darslik. Toshkent "Iqtisod-Moliya"2011. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

2.Komiljon.H va Sanobar Nishonova "Pedagogika Tarixi" .Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Miliy kutubxonasi nashryoti Toshkent-2005.

3.[azkurs.org/al.html?page=2](http://azkurs.org/al.html?page=2).

## BADIY ADABIYOTDA ZOONIM SO 'ZLARNING TASHBEH SIFATIDA QO'LLANISHI

**Negmatova Dilafruz**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti filologiya fakulteti  
magestranti,

Ushbu maqolada o'zbek nasrida qo'llanilgan zoonimlar tashbehining ma'no munosabatlari haqida babs yuritiladi. O'zbek xalqi totemida ba'zi hayvonlarga nisbatan e'tiqod baland bo'lsa-da, lekin ularning salbiy ma'no anglatish xususiyatlari ham mavjud. Bu birliklar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular orasida lug'aviy birliklar, sintaktik qurilmalar tilga olinadi. .....

**Kalit so'zlar:** metafora, tashbeh, tozi it, itday o'lmoq, it yiqilish bo'lib ,arslon, yilqi, boyqush ....

Bugun fanda til, madaniyat, shaxs, tafakkur tushunchalari tilshunoslikning yangi sohalarida o'rganilmoqda. Tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan metafora badiiy adabiyotda tashbeh sana'tini hosil qildi.

Tashbeh badiiy san'atlardan biri bo'lib,( arabcha –o'xshatish) mumtoz adabiyotda ikki narsa va tushuncha, harakat yoki holat va shu kabilarni bir-biriga o'xshatish, qiyoslash ma'nosini anglatadi. Adabiyotda, xususan, she'riyatda eng keng tarqalgan va qadimiy san'atlardan biri<sup>40</sup> .

O'zbek nasridagi qo'llangan metaforalarni kuzatish asosida shuni aytish joizki, ular o'zbek xalqining badiiy, til birliklariga bo'lgan munosabati asosida namoyon bo'ladi. Til tashqi olam bilan bog'langan. Til belgilari ortida turuvchi hodisalarini o'rganish inson kognitiv faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek nasriga oid asarlarni o'qir ekanmiz, asar jarayonida turli zoonimlarning qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. Ular orasida eng ko'p qo'llanilgan uy hayvoni **itdir**. Muhim xususiyati shundaki, **it** so'zi o'zbek tilida etalon bo'lib kelgan metaforalar soni ko'p bo'lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo'llangan hamda turli ma'no nozikliklarini beradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida it haqida shunday ma'lumot berilgan. "Uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan to'rt oyoqli sutevizuvchi uy hayvoni.)

Ko'chma ma'noda :

<sup>40</sup> D.Quronov va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati . Toshkent, "Akademnashr" , 2013-yil. 321-bet

**1. Shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi;** Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turgan darvoza begiga baqirdi: - Nega qarab turasan, darvoza ustiga chiq, kim ekan u it?!" A. Qodiriy. "O'tgan kunlar"

**2. Birovning manfaatlarini himoya qilib , boshqalarga zulm o 'tkazuvchi odam; malay.** Musulmonqulning iti bo 'lmasa, o 'zimizdan mingboshi bo 'larlik odam qurib qoluvdimi, deyman. A. Qodiriy. "O'tgan kunlar"

**3. Boshiga it kunini solmoq-rosa qiynamoq, o'ta azob-qiyonoqqa solmoq.** (fraziologik birlik sifatida);

**4. It azobda-** nihoyatda qiyin,mashaqqatli holat, ahvol ;

**5. It hasratda** ayn. It azobi(da)

**6. Itdan suyak qarz** - Qarzi juda ko 'p

**7. It boqmaydi-** nazar-e'tibordan qolgan, e'tibor berilmaydigan shaxs yoki narsa(shevada);

**8. Itning tuvagi oltindan-** juda ham boy, oshib-toshib ketgan boy.

**9. Itning keying oyog'i-** Ish-faoliyat va shu kabilarda qatordagilardan eng oxirida ekanligini bildiradi (ibora);

**10. Ichini it tatalamaq-** nihoyatda bezovta bo'lmoq

**11. Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi-** ishi yurishmagan , omadsiz kishi haqida aytilgan ibora kabi tushunchalarni ifodalaydi <sup>41</sup>.

Xalq og'zaki ijodidagi dostonlardan "Alpomish" dostonida "**Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan toziday bo'lib, boybichalarni angnib, o'rtaga olib turibdi**", - jumlesi keltirilgan<sup>42</sup>. Bu tashbehni anglash uchun avvalo tozi it tushunchasiga e'tibor qaratishimiz lozim. Nega aynan tozi it? U boshqa itlardan qanday xususiyati bilan farqlanadi

"O'zbek Milliy Ensiklopediyasi"da "**tozi**" ovchi itlar guruhiga mansub yuzdan ortiq zotlardan biri ekanligi va ular yovvoyi hayvon va parrandalarni topib, ovchilarga yordamlashishi haqida aytib o 'tiladi.

<sup>41</sup> O 'zbek tilining izohli lug 'ati, ikkiinchi jild, Toshkent, "O 'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti , 2010-yil, 241-bet

<sup>42</sup> Yo 'ldoshev Q, Adabiyot: Umumiyo o 'rta ta'limg maktablarining 9-sinfi uchun darslik, Toshkent , "Mitti yulduz", 2019-yil, 10-bet .

**Internet manbalarida tozi itga shunday ta'rif berilgan** “O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining yagona shikorchi it zoti – tozilar bilan ovga chiqish asrlar qa'ridan bizga me'ros an'anadir. Olimlarning taxmin qilishicha, hozirgi O'rta Osiyo tozi itlarining ajdodi eramizning VIII asrida arab istilochilari olib kelgan ovga o'rgatilgan itlar bo'lgan. Ko'chmanchi xalqlarning zotni yetishtirish ustida ter to'kib, uzoq vaqt ishlagani, qon tanlashdagi puxtalik va chatishtirishdagi e'tibor, zahmatli mashqlar tufayli forscha “tozi”, ya'ni “hujum qiluvchi” nomini olgan yangi tub naslning dunyo yuzini ko'rishiga sabab bo'ldi. O'zining arabiy ajdodlaridan farqli o'laroq, tozi Osiyo cho'l-u biyobonlarining shafqatsiz iqlimiga yaxshi chidash beradi. Tozi itlar – ushbu zotni minglab yillar davomida yetishtirgan insonlar uchun milliy g'urur. Doimo tozilarning hurmati joyiga qo'yib kelingan, u yaxshi parvarish qilingan va himoyada bo'lgan va uning egasi itining o'n oltinchi pushtisigacha barcha silsilasidan voqif bo'lgan. Tozilar uy ichkarisidan joy berilgan, dasturxonadan eng sara go'sht ularshilgan va kashta-yu munchoqlar bilan bezatilgan yostiqlarda orom olgan yagona it zotidir.

Ta'kidlash joizki, Turkistonda tozi itlar bilan ov qilish oliy tabaqa vakillari uchungina berilgan afzallik bo'limgan, bepoyon ov maydonlari nafaqat xon-u boylarga, balki oddiy odamlarga ham yetgan. Ko'chmanchi chorvadorlar va cho'ponlar tozi itlarni o'stirish, qo'lga o'rgatish va tanlab chatishtirish uchun mukammal sharoitlarga ega bo'lganlar. It bilan ov qilish ular uchun sevimli sport mashg'uloti bo'lib, moddiy foyda ham olib kelgan”. Demak, “Alpomish” dostonida keltirilgan tozi it tushunchasidan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, asardagi qahramonlar chorvachilik bilan shug'ullanganligi va boy-u shoy bo'lganligi sababli tozi it tushunchasi qo'llanilgan. Bundan tashqari, tozi it “Shum bola” asarida ham qo'llanilgan. Yozuvchi bosh qahramon Sariboyning boy ekanligini ifodalab o'tish maqsadida tozi it detalidan foydalangan.

Xalq dostonlaridan yana biri hisoblangan “**Kuntug'mish**” dostoni da it endi salbiy tushuncha izohlab, tashbeh bo'lib kelgan. “...**ikki bola Azbarxo'jani bosib oldi. Azbarxo'ja gapirolmay, ho'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoldi**”<sup>43</sup>. O'xhatilgan narsa itning o'limi. Nega aynan it. Internet manbaalarida bu haqida quyidagicha ma'lumot beriladi. Ma'lum bo'lishicha, itning o'limi o'limga iqror bo'lmasdan tavbasiz o'lim tushunchasini ifodalaydi. O'zbek tili so'zlashuv uslubida yomon odamni it deb atashadi? Insoniyat tarixi davomida it yordamchi va sodiq do'st bo'lgan. Sodiq xizmat va cheksiz sadoqatga qaramay, it g'amxo'rlik,

<sup>43</sup> Sultonmurod Olim va boshqalar. Adabiyot: Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchhun darslik, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , 2019-yil, 39-bet .

hurmat va minnatdorchilikdan mahrum bo'lib, yolg'iz o'ladi. Itlar o'Iganida, ular ko'milmasdan va jasadlari o'Igan joyda yotadi. Itning o'limi dafn marosimisiz va hamdardiksiz o'lishning dahshatli taqdiri deb ataladi. Shuning uchun bu ibora adabiy tilimizda mavjud.

Intrernet manbaalarida Yevropada **"itday o'limoq"** ijobiy ma'no keltirishini aytib o'tadi. Inson va veterinariya tibbiyotida yaxshi o'lim haqidagi standart qarashlar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Palliativ tibbiyotda yaxshi o'lim ideali sababsiz o'limning ijobiy tomonlarini ta'kidlagan bo'lsa-da, veterinariya shifokorlari odatda azob-uqubatlarni tugatish uchun tez va og'riqsiz o'ldirishni targ'ib qiladilar. Bundan ko'rindan, itday og'riqsiz o'lish bu yoqimli o'lim, kasalxonada, qariyalar uyida azob chekib yashashdan ko'ra itday oson o'lim insoniyat uchun ma'qul ekanligini sharhlab o'tadi. Sharqda esa bu ibora salbiy fikr ifodalamoqda.

"Alpomish" dostonida keltirilgan Yortiboy obrazini o'quvchiga tanishtirish jarayonida asarda quyidagicha tashbehdan mahorat bilan foydalaniqgan. "Majlisi kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kavush bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, poyga betda yotar edi"<sup>44</sup>.

"It yiqilish bo'lib" iborasi timsolli manzara yaratishi bilan birga, Yortiboy obrazining mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Ma'lumki, itlar urushib qolganda, orqa oyoqlarida turib oldingi oyoqlari bilan bir-birining yelkasidan "ushlagandek" holga kelgach, bab-baravar, yonboshi bilan yiqiladi. Bunga teng yiqilish, deyiladi. Bu manzaradan baxshi yorqin tasavvur hosil qildirish yo'lida foydalangan: kavushlar bilan teng holda qaralgan Yortiboy urug'boshlig'i Boysari o'tkazgan kengashda o'zini xudbinlarcha chetga tortib, urug'doshi boshiga ish tushganda jo'yali maslahat berishdan qochadi. Ya'ni "yarim odam" — yortiligiga boradi. Baxshilar ta'kidlaganidek, "kovush bilan teng" kimsaning gapini aytadi.

O 'zbek romanchilik janrining asoschisi Abdulla Qodiriylasardarida ham bu kabi tashbehlarni uchratishimiz mumkin. "Mehrobdan chayon" romanida Anvarning onasi Anorbibining psixologiyasini ochib berishda adib it bilan bo'liq iborani mahorat bilan q'llaydiki, buning natijasida sodda, kambag'al ayolning holati ko'z o'ngimizda gavdalanadi. "Qo'shnilarining «qaysi holingga tug'ding?» yoki «o'zi o'Igur it mijozmi?» deb ta'na qilishlaridan cho'chidi" <sup>45</sup>.

<sup>44</sup> Yo 'ldoshev Q, Adabiyot: Umumiyo'tta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchhun darslik, Toshkent , "Mitti yulduz", 2019-yil, 14-bet .

<sup>45</sup> Yo 'ldoshev Q, Adabiyot: Umumiyo'tta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchhun darslik, Toshkent , "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2017-yil, 253-bet .

Biologiya fanida itning fiziologiyasi shunday izohlanadi: itlar bir yilda ikki marta bolalaydi va ular bittadan o'n sakkiztagacha bola ko'radi . Demak, Anorbibining ko'p farzand ko'rganligi, oilaviy sharoit nochor holatda ekanligi uchun yozuvchi salbiy ma'noni ifodalash maqsadida "Itmijoz "iborasidan mahorat bilan foydalangan.

Mirmuhsin "Xo'jand qal'asi" romanida "Xalakuning itiday..." birikmasi qo'llanilgan. Adib bu iborani quyidagicha sharhlaydi: So'qtu no'yonning yana bir yuzboshisi- Xalaku edi. Uning yomon bir iti bor: bu it o'ta qopag'on va doimo ko'chalarda tilini osiltirib yugurardi. "Xalakuning itiday..." degan naql ham o'sha vaqtdan qolgan. ("Adib izohi")<sup>46</sup>. Bu birikma bugungi kunda "Alakaning itiday" tarzida ifodalananadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg 'u bilig" asarida zoonimlarning tashbeh sifatida qo'llanish ko'lami boshqa badiiy asarlarga nisbatan kengroq . Adib ***lashkarboshining kuchliligi, yovga dahshat solishi arslonga, doimiy hushyorligi zag'izg'onga, baquvvatligi qoplonga, hujumkorligi va dushmanga hamlasi to'ng'izga, mardonavorligi bo'riga, jang taktikasidagi mohirligi, hiyla va tadbirdorligi tulkiga, shiddati ayiqqa, qasoskorligi qo'tos va tuya erkagiga, tunlari hushyor va bedorligi ukki – boyo'g'liga o'xshatiladi***<sup>47</sup>.

Ijodkorning har bir obraqi o'ziga xos «yuk» ko'tarib turadi.Ular shoirning badiiy maqsadiga san'atkorona bo'ysundirilgan:  
 Kur arslonga o'xshar bu beklar o'zi,  
 Bushursa kesar bosh, e bilgi yaruq.  
 Mazmuni:

Beklar – bu jur'atli arslonga o'xshaydi,  
 G'azabga kirsa bosh kesadi, ey ravshan fikrli.  
 Ko'rilib turganiday, bu yerda beklar dastlab dovyurak arslonga o'xshatilsa-  
 da, ularning asl qiyofasi keyingi misrada fosh etiladi. Bu toifaning «bosh  
 kesish»i ochiqdan ochiq ko'rsatib o'tiladi. Demak, bu yerda arslonning jur'ati,  
 dovyurakligi emas, balki uning vahshiyligi, yovuzligi e'tiborga olingan<sup>48</sup>.

Ayrim o'xshatishlar bir emas, balki bir necha obrazlarni yoritishda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, *yilqi* (hayvon) obraqi nodon odam, bilimsiz kishi, zakovatsiz shaxs, ochko'z inson va umuman yomon xulqli, yaramas odatli kishiga nisbatan qo'llanadi. Bo'ri obrazining esa *lashkarboshi,yovdushman*,

<sup>46</sup> Mirmuhsin, "Xo'jand qal'asi", Toshkent -2022, 408-bet

<sup>47</sup> To 'xliyev B, Adabiyot: O 'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o 'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o 'quvchilari uchun darslik-majmua, Birinchi nashr, I qism, Toshkent , "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti , 2018-yil, 97-bet.

<sup>48</sup> To 'xliyev B, Adabiyot: O 'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o 'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o 'quvchilari uchun darslik-majmua, Birinchi nashr, I qism, Toshkent , "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti , 2018-yil, 95-bet

mard, er, o'limga nisbatan qo'llanganini ko'rish mumkin. Lekin ularning hammasida bo'ri obrazi ayni bir ma'noda kelmaydi.

Lashkarboshining bo'riga o'xshatilishida uning dushmanga ayovsiz va katta kuch bilan dahshat solishi nazarda tutilgan bo'lsa, saroy amaldorining bo'riga qiyoslanishida ularning ochofat va johilligi ta'kidlangan. Dushmanning bo'riga o'xshatilishidan maqsad uning tajovuzkorligiga, bosqinchiligiga diqqatni tortishdir. O'limning bo'riga o'xshatilishi esa har ikkisining ham yaxshi-yomonning farqiga bormasligi asosida vujudga kelgan<sup>49</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , o'zbek nasriy asarlarida tashbehning turli ko'rinishlari qo'llanilib, ular o'zgacha bir mazmun-mohiyatni ifolashga xizmat qiladi. Bu esa tilimizning naqadar so'z boyligi cheksiz ekanligini anglatadi

---

<sup>49</sup> To 'xliyev B, Adabiyot: O 'rta ta'lif muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o 'quvchilari uchun darslik-majmua, Birinchi nashr, I qism, Toshkent , "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti , 2018-yil, 96-bet

## **SHOULD A TEACHER BE STRICT OR FRIENDLY WITH STUDENTS?**

**Ergasheva Laziza**

ergasheva\_laziza\_1998@email.com

O'ZMU Jizzax filialali stajyor-o'qituvchisi

**Hotamova Jasmina Bobir qizi**

jasminahotamova@mail.ru

O'ZMU Jizzax filialali Filiologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi talabasi

**Annotation:** The article substantiates the need for the formation of discussion how to teach students. For this purpose, it is proposed to use an integrated approach. The methodology for developing an integrated approach is based on general scientific principles that take into account the specifics of the formation of teaching students. Clarified the content of the concepts: "strict teaching atmosphere" and "friendly teaching atmosphere".

**Keywords:** didactic, competence, communicative, discourse, strategic, integrity, universality, personal, orientation, implementation, interlocutors.

## **O'QITUVCHI TALABALAR BILAN QATTIQQO'L YOKI DO'STONA MUNOSABATDA BO'LISHI KERAKMI?**

**Annotatsiya:** maqolada talabalarga qanday ta'lim berishni munozarani shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Shu maqsadda kompleks yondashuvdan foydalanish taklif etiladi. Integratsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqish metodologiyasi talabalarni o'qitishni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan umumiy ilmiy tamoyillarga asoslanadi. Tushunchalarning mazmunini aniqladi:" qat'iy o'qitish muhiti "va"do'stona o'qitish muhiti".

**Kalit so'zlar:** didaktik, kompetentsiya, kommunikativ, nutq, strategik, yaxlitlik, universallik, shaxsiy yo'nalish, amalga oshirish, suhbatdoshlar.

## **ДОЛЖЕН ЛИ УЧИТЕЛЬ БЫТЬ СТРОГИМ ИЛИ ДРУЖЕЛЮБНЫМ С УЧЕНИКАМИ?**

**Аннотация:** В статье обосновывается необходимость формирования дискуссии о том, как обучать студентов. Для этой цели предлагается использовать комплексный подход. Методология разработки комплексного подхода основана на общенаучных

принципах, учитывающих специфику формирования педагогической деятельности студентов. Уточнено содержание понятий: "строгая атмосфера преподавания" и "дружественная атмосфера преподавания".

**Ключевые Слова:** дидактический, компетентность, коммуникативный, дискурс, стратегический, целостность, универсальность, личностная ориентация, реализация, собеседники.

*"The dream begins with a teacher who believes in you, who tugs and pushes and leads you to the next plateau, sometimes poking you with a sharp stick called 'truth'."*

**-Dan Rather.**

Teachers should have excellent knowledge of their subject, general erudition, and a good relationship with students. In the modern view, the ideal teacher should have deep knowledge as well as such qualities as kindness, attentiveness, a sense of humor and tact. He or she must be able to captivate the entire audience, have an individual approach to each student, and also look good. A teacher must love their job and, of course, be a good psychologist. But should a teacher be strict or friendly?

#### Benefits of Strictness

Modern teachers are not always as kind as we would like. But a good teacher needs to be fairly strict. A demanding teacher forces students to responsibly prepare for lessons and be more attentive during the classes. Strict teachers have common traits of character and demeanor, which help them educate strong and purposeful individuals. How do they achieve it?

Motivation. A strict teacher is characterized by a clear subordination, lack of redundant emotions, and sometimes even indifference to the achievements of their students. With this behavior, even a slight encouragement from the teacher is treated as the highest degree of praise. Such relationships motivate students to new achievements, be it homework or a project.

High demands. A strict teacher would rather underestimate than overestimate the capabilities of the student. They make students work hard, and under achieving students are repeatedly forced to redo poorly performed tasks. This approach disciplines the student, develops attentiveness, concentration, and desire to achieve goals.

Goal achievement. The strict teacher sets goals and a vector to achieve them. They insist that students clearly fulfill their tasks and follow the

desired direction. Their students participate in intellectual games, competitions, and contests with the highest demands.

#### Advantages of Teacher's Kindness

The kindness of the teacher is the first step to overcoming poor progress and a lack of interest in gaining knowledge. Kindness is one of the most important resources of each teacher and it allows teachers to create conditions for independence and creative self-development in their students. Without love and kindness, it is very difficult to make other educational methods work. Kindness is not sentimentality and forgiveness. It is transformed into an interest in working with students and the desire to see them as individuals. Students are very sensitive to how teachers treat them. They will forgive the teacher's mistakes, irritation and punishment, but they will never forget anger, humiliation, and indifference.

Kindness and true love help the teacher build healthy relations with students and:

- Communicate with students and their parents, respecting their dignity;
- Make every student believe in their capabilities;
- Evaluate not a person, but actions and deeds;
- Value not only of the result but of the process of interaction with students;
- Pay attention to every student and notice his individual success.

A kind teacher treats all students in the same way. For this they must find a personality in each of them, realizing that each has their own route to success. Students are unanimous that a good teacher should know how to keep a delicate balance between being kind and strict. Moreover, they must also possess some other important qualities.

#### Competence

A good teacher is a talented student. They are constantly engaged in self-education. In our time, when plenty of information is available on the net, the teacher is no longer the only source of knowledge. Their task is to teach to extract this knowledge, conduct research, initiate discussions and draw conclusions.

#### Love for work

It sounds pompous, but it is crucial for teaching. Only positive emotions will allow the teacher to spark a student's interest in the subject. Otherwise, the learning process looks like a vegetarian talking about the benefits and taste of meat.

#### Individual approach

This formal phrase means the ability to see a personality in every student. A professional does not have bad students. They have tasks that they try to solve so that everyone can achieve their goals.

#### Responsibility

This quality is also tightly connected with punctuality, politeness, honesty. A teacher often is treated as an example to follow. And this example must be decent, otherwise, there will be no trust on the part of students. A teacher is a way of life.

#### Personal development

A good teacher is a bright personality and an interesting interlocutor. Their thoughts are not limited to work. They have hobbies and their own views on various issues. This is like a sauce, with which the dish becomes more delicious.

#### Sense of Humor

This wonderful quality makes the interaction with the students much easier. Moderate self-irony builds trust and helps students not to be afraid of mistakes. It is much easier to learn in such an atmosphere.

#### Humanity

The teacher must be tolerant, empathic, treat each student as a person, and accept all their characteristics. For such a teacher, the student's success is the best reward and for the sake of it, they are ready to do a lot.

#### Exactingness

Teachers should be demanding to both students and themselves. They set high target as this is needed to find out what potential is hidden in everyone.

In the debate between being strict or friendly, the conclusion isn't about choosing one over the other; rather, it's about finding a balance that promotes a positive learning environment. A teacher who is overly strict might create fear or distance, inhibiting open communication and stifling creativity. On the other hand, being too friendly without establishing boundaries might lead to a lack of respect and discipline in the classroom. The ideal approach is a blend of both: firm when necessary to maintain order and structure, while also fostering a warm, supportive atmosphere that encourages students to engage, learn, and grow. It's about adapting to different situations and students' needs, understanding when to be firm and when to be approachable to create a balanced, effective teaching environment.

**REFERENCES:**

1. «Positive Mindset for Teachers» by Orange Stevenson
2. Bloom B. S., Engelhart M. D., Furst E. J., Hill W. H., Krathwohl D. R. (1956). Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. New York, NY: David McKay.
3. Brown, A.H., & Green T.D., (2015). The essentials of instructional design: Connecting fundamental principles with process and practice. Routledge.
4. McIver, D., Fitzsimmons, S., Flanagan, D. (2016). A Knowledge-in-practice approach to choosing instructional methods. Journal of Management Education Vol 40 Issue 1.
5. Nilson, L. (2016). Teaching at its best: A research-based resource for college instructors. Jossey-Bass.
6. Teshaboyeva, N., & Mamayoqubova, S. (2020). COMMUNICATIVE APPROACH TO LANGUAGE TEACHING. In МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 409-414).
7. Teshaboyeva, N. (2020). LINGUISTIC PERSONALITY, ITS STRUCTURAL CHARACTERISTICS IN THE NEW PERSPECTIVE DIRECTIONS. In МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 415-420).
8. Teshaboyeva, N. Z. (2019). TEACHING ENGLISH THROUGH LITERATURE INTESL AND TEFL CLASSROOMS. In СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ (pp. 82-84).
9. Хидирова, Д., & Тешабоева, Н. (2022). Pedagogical conditions for the development of the healthy thinking in students. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 120-122.
10. Gaybullayeva, N. D. K., & Kizi, T. N. Z. (2022). THE ROLE OF INNOVATIVE METHODS FOR LISTENING COMPREHENSION IN TEACHING LANGUAGE LEARNERS FOREIGN LANGUAGES AND MAINLY ENGLISH. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(10), 8-10.
11. Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi, Jurayev Muhammadrahim Murod o'g'li, & Mamirova Munisa Rajab qizi. (2021). Language Learning Culturally and the Role of Literature in Teaching Process. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 2(3), 1-5. Retrieved from <https://www.cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/84>
12. Teshaboyeva, N. (2023). THE IMPORTANCE OF TOURISM IN PRESENT DAY. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5).

13. Teshaboyeva, N. (2023). THE MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5).
14. Qizi H. J. B. et al. ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. Special Issue 2. – С. 805-809.
15. Ergasheva L, (2019) Ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarning solishtirma va qiyosiy tahlili va ularning o'quv jarayoni samaradorligig ta'siri (pp. 37-40) УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА, Volume 5-1, ISSN 2410-3536, [http://elibrary.ru/title\\_about.asp?id=52846](http://elibrary.ru/title_about.asp?id=52846) on-line: <http://www.uch21vek.com/>

NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA RIVOYATLARDAN FOYDALANISH  
TEXNOLOGIYASI

**Nodira Xikmatovna Azimova**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
Zarmad Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivoyatlarning bolalar ongida shakllanishi, ularda kelajakka ishonch, o'tmishga muhabbat ruhini mustahkamlash lozimligi bayon etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda, bolalarga yaxshilik, insonparvarlik, mardlik, jasorat, o'zaro hurmat kabi xislatlarni tarbiyalashda rivoyatlarning ahamiyati va ulardan nutq o'stirish mashg'ulotlarida foydalanish texnologiyalari izohlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** rivoyat, ma'naviyat, qadriyat, adabiyot, muhabbat va sadoqat, To'maris, Shiroq, xalq qahramonlari, ta'lim-tarbiya

**Азимова Нодира Хикматовна**

Независимый исследователь Бухарского государственного университета,  
Преподаватель Университета Зармад

**Аннотация:** В данной статье описывается важность формирования нарративов в сознании детей, укрепления веры в будущее и любви к прошлому. Объясняется значение повествований в приобщении детей дошкольного возраста к национальным и духовным ценностям, в воспитании у детей таких качеств, как доброта, человечность, храбрость, мужество, взаимоуважение, а также технологии их использования в речевом обучении.

**Ключевые слова:** нарратив, духовность, ценность, литература, любовь и верность, Томарис, Широк, герои, образование.

**Nodira Khikmatovna Azimova**

Independent student of Bukhara State University,  
Zarmad University teacher

**Annotation:** This article describes the importance of shaping narratives in children's minds, strengthening faith in the future and love for the past. The importance of narratives in introducing preschool children to national and

spiritual values, in nurturing in children such qualities as kindness, humanity, courage, mutual respect, as well as technologies for their use in speech teaching is explained.

**Key words:** narrative, spirituality, value, literature, love and fidelity, Tomaris, Shirok, heroes, education.

Mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimiz yaratgan og'zaki ijodlarni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lif-tarbiya tizimini shakllantirish, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga olib chiqish maqsadlariga favqulodda katta ahamiyat berildi.

Rivoyatlar bolalar ongida yoshlikdan shakllanadi. Va ularning ongida kelajakka ishonch, o'tmishga muhabbat ruhini shakllantiradi. Shuning uchun ham rivoyatlarni yosh avlod hayotidagi o'rnini mustahkamlab yanada sayqallantirib bormog'imiz darkor.

Ma'lumki har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va ta'lif – tarbiya tashkilotlarida shakllantiriladi. Bunda esa adabiyotning o'mni katta. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida "Inson qalbini, uning dard-tashvishlarini, xalqning orzu- intilishlari, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no- mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharafli ekanini barchamiz yaxshi bilamiz"- degan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy - ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirishda ota – bobolarimiz tomonidan tarbiya tizimida keng qo'llanib kelingan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarning aql – zakovatini hisobga olgan holda ta'lif – tarbiya berishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish orqali ko'zlangan maqsadga erishish eng samarali usul hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasida tarbiya vositalari, omillari va asoslarining hech bir jihatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Rivoyat - xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Rivoyat (arab. - hikoya qilmoq) voqeа va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydurmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya, folklor janri. Bola rivoyatlardagi lutf va nazokat, aql va tadbir, ishq va vafo, yaxshilik va odamiylik kabi g'oyalarni anglasa, zulm va zo'rlik, haqsizlik vaadolatsizlik singari illatlarga qarshi kurashadi, tarixiy shaxslar haqidagi so'nmas ma'lumotlarga ega bo'ladilar. To'maris, Shiroq, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn

Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud singari xalq qahramolari bilan bog'liq bo'lgan voqealar, rivoyatlarda aks etib, axloq – odob normalarini tashkil etadi. Rivoyatlar xalq diliiga jo bo'lgan adolatli rahnamoni istash,adolatsiz zolimlarni inkor etish kabi g'oyalarni bola ongiga singdirish yo'llarini ochib chiqishni asos qilib oladi. Rivoyatlar asosida bolalarda tariximizning boy o'tmishiga nisbatan qiziqish uyg'otib, tafakkur va malakalarni yanada boyitib borish orqali ularni komil inson qilib tarbiyalash yo'lga qo'yiladi. Umuman olganda, rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qahramonlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janri hisoblanadi.

Yurtimiz tarixida ro'y bergan eng qadimgi ibratli voqeа haqida rivoyat eradan avval mustaqillik uchun jon fido qilgan To'maris va Shiroq nomi bilan bog'liqdir. To'marisning Kirni mag'lub etib, o'ldirgani va Shiroqning yakka o'zi Doro qo'shini ustidan g'alaba qozongani, ularning mardligi, dovyurakligi va vatanga bo'lgan muhabbati, yurtining himoyasi uchun jonini fido qilishdek jasorati haqida aytib o'tish maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z ona-Vataniga nisbatan sadoqati, mehr-u muhabbatini tarbiyalashda katta o'rinn tutadi. Agar To'maris harbiy san'ati bilan yurtni asragan bo'lsa, Shiroq burun, quloqlarini kesib, go'yo Doro tarafida bo'lGANI uchun o'zini jazolagandek qilib ko'rsatadi, shoh ishonchini qozonadi va eron qo'shinlarini sahroda adashtirib o'z maqsadiga erishadi va yurtini qonxo'r, razil dushmanlardan ozod qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyatlarni singdirishda boy va sermazmun o'tmishimizga tayanishimiz va ular orqali har bir yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda xalqimizning tarbiya borasidagi fikrlariga amaliy o'gitlariga xalq pedagogikasiga tayanib ish ko'rish har doim ham dolzarb muammo bo'lib qolaveradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga rivoyatlar asosida tarbiya berish o'tmishdagi ota-bobolarimizning axloq - odoblari, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, ezgu – niyatiligi, mardligi, insoniyligi va shu kabi boshqa ijobiy fazilatlarni yoshlар ongiga singdirish mumkin.

Ma'lumki, hikoyat va rivoyatlar xalq ichida og'izdan – og'izga o'tib yuradi va xalqimizning ma'naviy boyligiga aylanadi. Shu sababli ham bolalar ma'naviy tarbiyasida ulardan foydalananish ijobiy pedagogik samaralarni beradi, deb ishonch bilan aytا olamiz. Bu o'rinda rivoyatlar ko'pincha ibrat – namuna sifatida qo'llaniladi.

Chunki, rivoyatlarda aytishicha, ularda yaxshi va yomon xislatlar, pand – nasihatlar qilingan, ezgu ishlar hikoyat qilinadi. Demak, rivoyatlardan bolalarga tarbiya berishda bemalol foydalansa bo'lar ekan. Misol uchun "Non isi" rivoyatini olaylik. Rivoyatda sulton Husayn Boyqaroning o'z

vazirlariga dunyodagi eng qadrlı va yoqimli hidli narsani topib kelishni topshiriq berishi, saroy ahlining sultonga yer yuzidagi jamiki xushbo'y narsalarni muhayyo qilishi, lekin Boyqaro istagan hidni topa olishmagani bayon etilgan. Oxiri Navoiyning oldiga yordam so'rab borishadi, uning ham boshi qotib, bir dehqondan so'ragan ekan, u kishi "Dunyoda eng lazzatli va yoqimli hid – qayroqi bug'doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi hid unga yetolmaydi" – deya maslahat berdilar. Navoiy xursand bo'lib, dehqonning aytganini qilibdi va bir savat non yoptirib, saroya boribdi. Husayn Boyqaro nonlarni ko'rib, "Ko'nglim qo'msayotgan narsani topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko'ra yoqimliroq hid yo'q" deya Navoiyga rahmat aytadi va dehqon boboga bosh-oyoq sarpo berishni buyuradi.

Bu rivoyat orqali bolalarining non haqidagi tasavvurlari kengaytirilib, nonni aziz bilib, uni ehtiyyotlash kabi an'analarga amal qilish o'rgatiladi. Nonning dasturxonimizga yetib kelgunga qadar bosib o'tgan uzun yo'lli haqida tasavvurlar shakllantiriladi. Bolalarga non haqidagi xalq maqollari o'rgatiladi. Nonning qaysi geometrik shaklga o'xshashi, tevarak – atrofdan shu shaklga o'xhash narsalar rasmini topib chizishlari so'raladi. Har bir rivoyatni bolaning ongiga singdirish uchun tarbiyachidan bir necha faoliyat turlarini tashkillashtirishi va bolalar fikrini bermalol bayon etishi uchun ular bilan ko'proq muloqotlar olib borishi talab etiladi.

- 8.Қодиров З. А. ПИЛЛАНИНГ БУҒЛАНИШИГА АБСОРБЦИЯ ВА АДСОРБЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 559-562.

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLARINING O'ZIGA XOSLIGI.

Isag'aliyeva Fotimaxon

Farg'ona davlar universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ko'r qo'llaniladigan metodlarning o'quvchi yoshlarni bilim olishida tutgan ahamiyati va ularni fanlarga qiziqtirishda qanday fanga oid metodlardan qo'llanish kerakligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности методов, обычно используемых в начальных классах, в обучении молодежи и о том, какие научно-технические методы следует использовать, чтобы заинтересовать их наукой.

**Abstract:** This article provides information about the importance of the methods commonly used in elementary grades in the learning of young people and what science-related methods should be used to interest them in science.

**Tayanch iboralar:** Metodlar, interaktiv, samaradorlik, "Zinama-zina" metodi, boshlang'ich ta'lif, pedagogik yangilik, texnologiyalar.

Inson tug'iladi, tarbiyalanadi, ilm-u bilim sirlarini o'rganadi. Jamiyatda yashayotgan harqanday kishi, albatta, mакtabgacha ta'lif muassasalarida yoki oliy ta'lifni bitirmagani bilan, maktab ostonasini qatlab o'tgan va boshlang'ich sinfda dastlabki bilim sirlarini o'rganganligi hechkimga sir emas. Shunday ekan, insonni birinchi bo'lib hayotga tayyorlaydigan va boshlang'ich ilm-u bilim sirlarini boshlang'ich sinflarda oladi. Shu bois, o'qituvchilar endi maktabga qadam qo'ygan jajji misli oppoq qog'ozga aniq va yaxshi ma'lumotlarni oltin siyohlar bilan bitishi o'qituvchining eng birinchi vazifasidandir<sup>54</sup>. Zamonaviy ustoz o'z darslarini qiziqarli o'yinlar bilan, interaktiv va fanga oid metodlar bilan o'tsa, o'quvchining ham qabul qilish darajasi ancha yaxshi bo'ladi. Endi metod deganimiz nima o'zi? degan savolga yuzlanaylik. "**Metod**" so'zi grek tilidan olingan bo'lib, usul teoriya, talimat degam ma'nolarni ifodalaydi. Yana bir tushinchcha borki interaktiv metod. Interaktiv ingliz tilidan olingan o'zaro ta'sir, bir jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lif mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat

<sup>54</sup> Umumiyyetpedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018

pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga o'qitishning interfaolligi o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sor asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir<sup>55</sup>.

Interaktiv mashg'ulot-o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirol etadigan mashg'ulot, jarayon hamkorlikda kechadi. Interaktiv metodlar o'zining quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslanadi.
2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadidars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.
3. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi.
4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustqail qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorланади<sup>56</sup>.

#### **Interfaol usullardan foydalanish shakllari:**

1. Individuallashtirish
2. Kichik guruhlarga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganosh jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish; o'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanishning muhim jihatlari ta'lim samaradorligiga erishishga yetarlicha hissa qo'shish bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunga kelib interaktiv metodlarning ko'pgina turlari mayjud:

1. Aqloy hujum. Breynshtormin
2. O'yinli o'qitish texnologiyasi
3. Jamoaviy o'qitish usuli
4. Kichik guruhlarda ishlash metodi
5. Tarmoqlar metodi
6. 3×4 metodi
7. Blits o'yini
8. Interv'yu metodi

<sup>55</sup> [WWW.OPENSOURCE.UZ](http://WWW.OPENSOURCE.UZ)

<sup>56</sup> Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2005

9. Iearxiya metodi
10. Bumerang
11. Muloqot metodi
12. Zinama-zina texnologiyasi .Bu metodlarning ba'zilariga izoh berib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz<sup>57</sup>.

### **"ZINAMA-ZINA" TEXNOLOGIYASI**

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg`ulot talaba (yoki o`quvchi) larni o`tilgan yoki o`tilishi kerak bo`lgan mavzu bo`yicha yakka va kichik jamoa bo`lib fikrlash hamda xotirlash, o`zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to`plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko`rinishida ifodalay olishga o`rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o`quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o`tkaziladi va taqdimot qilinadi. Texnologiyaning maqsadi. Talab (yoki o`quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo`lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o`z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullahsga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo`llay olishga o`rgatish<sup>58</sup>. Texnologiyaning qo`llanishi: ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo`lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o`tkazish hamda nazorat darslarida qo`llanilishi mumkin.Mashg`ulotda qo`llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar.

#### **Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:**

- o`qituvchi talaba (yoki o`quvchi) larni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo`lgani ma'qul);
- talaba(yoki o`quvchi)lar mashg`ulotning maqsadi va uning o`tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhga qog`ozning chap qismida kichik mavzu yozushi bo`lgan varaqlar tarqatiladi;
- o`qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog`ozdagi bo`sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

<sup>57</sup> Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari"-Toshkent, 2001

<sup>58</sup> Mavlanova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.

- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko`rinishida ifoda etadilar.Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo`yicha imkon boricha to`laroq ma'lumot berishlari kerak bo`ladi.
- Tarqatma materiallar to`ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar, albattra, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;
- O`qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg`ulotni yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lif jarayonida bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lif va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi<sup>59</sup>. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'lifning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir<sup>60</sup>.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lif jarayonida uyuştiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lif beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lifning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg`ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

<sup>59</sup> Asaulyuk E.P. Integrirovanniy podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivnye nauki. 2011. №10 str.222-226

<sup>60</sup> Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.

**REFERENCES**

1. Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti,2018
2. WWW.OPENSOURCE.uz
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2005
4. Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari"-Toshkent, 2001
5. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
6. Asaulyuk E.P. Integrirovannyyu podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivы nauki. 2011. №10 str.222-226
7. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.

## KONSTITUTSIYA MENING NAZARIMDA

**Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti  
„Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo'yicha)  
talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Konstitutsiya davlatimizning asosiy qonuni. Unda barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Konstitutsiyaning barcha normalari xalqaro huquq normalariga mos ravishda tashkil etiladi. Konstitutsiyamizda asosan inson huquqlari va erkinliklari alohida ahamiyat kasb etadi va konstitutsiyamiz qolgan barcha qonunlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Undagi barcha norma va qoidalar barcha uchun bir xilda, teng talqin qilinadi. Shu o'rinda konstitutsiyaning birorta qoidasi yoki normasi qonunga zid tartibda qabul qilinishi mumkin emas.

**Kalit so'zlar:** Inson, Konstitutsiya, BMT, huquq, jamiyat, saylov tizimi, referendum, xalqaro huquq, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, subyekt, suverenitet, demokratiya, Konstitutsiyaviy huquq, mafkura, bozor iqtisodiyoti.

Barchamizga ma'lumki konstitutsiyamiz amaldagi barcha qonunlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda barchamizning huquq, burch va erkinliklarimiz e'tirof etiladi. Konstitutsiyamizning ahamiyatiga monelik jihat shundaki, bunda avvalambor inson, uning hayoti, qadr qimmati, sha'ni, huquq va erkinliklariga alohida e'tibor beriladi va barcha uchun teng talqinda etirof etiladi. Xususan konstitutsiyamizning 19-moddasida takidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq erkinliklari xalqaro huquqning umumetirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Shuningdek BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati shundaki, unda ilk marotaba dunyo hamjamiyati inson va uning huquqlarini himoya qilishni xalqaro muammo darajasida etirof etdi. Shunday

ekan barchamiz konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz riosa qilishimiz va hurmat qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Konstitutsiya va qonunlarni mensimaslik va past nazarda qarash esa Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va qonunchilikga binoan jazolashga asos bo'ladi.

Konstitutsiyamiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo konstitutsiya so'zi ma'nosini tushunishimiz zarur. Konstitutsiya so'zi lotincha „Constitution“ so'zidan olingan bo'lib tuzilish, tartibot degan ma'nolarni anglatadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruva organlari tizimini, ularning vakolatlari hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Konstitutsiyaga nazar solar ekanmiz uni Mustaqillik sari uzoq intilishlar natijasida paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Asosan uni yaratishdan uch mingyillik milliy davlatchilik tajribasiga tayangan. Shuningdek asosiy qonunimiz sharq va g'arb, janub va shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olgan holda yaratilgan. Konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar „Mustaqillik deklaratsiyasi“ asosiy qonun vazifasini bajargan. Mustaqillik deklaratsiyasi 12 ta moddadan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yilda 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi oily kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yilning 1-mayidan e'tiboran kuchga kirdi. Bunda Konstitutsiya lavhasini umumxalq ovoziga, referendumga qoyildi va uning 65 foiziga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Natijada 6 bo'lim 27 bob 155 moddadan tashkil topdi (eski tahrirdagi konstitutsiya 6 bo'lim 26 bob 128 moddani tashkil etgan). Shuningdek 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11ta modda ushbu qonunnung qabul qilinishiga asos bo'ldi. Unga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar o'zgarishlar soni yuqoriligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qulindi. Yangilash natijasiga ko'ra, bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni esa 275 tadan 434 taga oshdi va shu tariqa Konstitutsiyaning 65 foizi yangilandi.

"Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, unda shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy prinsiplari o'matiladi; davlat hokimiyatining tuzilishi, subyektlari, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi belgilanadi; jamiyat, inson va fuqaroning davlat tomonidan qo'riqlanadigan huquqlari va erkinliklari mustahkamlanadi.

Konstitutsiya o'z mohiyati va yuridik tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy hujjatlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, konstitutsiya maxsus subyekt, ya’ni O’zbekiston xalqi tomonidan referendum orqali yoki uning nomidan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko’pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi;

Ikkinchidan, konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo’naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

Uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovlligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko’lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko’rsatadi;

To’rtinchidan, konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega, ya’ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o’ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o’zgartirilish tartibiga ega.

Konstitutsiya o’z ijtimoiy vazifasini bajargan vaqtida turli xildagi funksiyalarini bajaradi. Ularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

-Siyosiy funksiyasi. Konstitutsiya jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi; siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarining davlat hokimiysi bilan munosabatlarini muvofiqlashtiradi; saylovlar va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni ta’minlaydi; davlat yuritadigan ichki va tashqi siyosatning asoslari va barcha muhim yo’nalishlarini aks ettiradi.

-Yuridik funksiyasi. Konstitutsiya yuridik mazmun va mohiyatga ega bo’lgan huquqiy hujjat bo’lib, davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o’zagini tashkil etadi, jamiyat va davlat hayotining, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu sababli jamiyatdagi barcha huquqiy hayat va yuridik amaliyot, shu jumladan odil sudlov amaliyoti konstitutsiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

-Tarbiyaviy-mafkuraviy funksiyasi. Konstitutsiya xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Unda jamiyat taraqqiyotiga turki beruvchi, muhim ma’naviy omil bo’lib xizmat qiluvchi g’oyalar o’z ifodasini topadi. Konstitutsiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar qiladi. Xususan, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy istiqlol g’oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etib, xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo’lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan hamda ularni jamiyat ongiga, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi.” Mamlakatimizda amal qilib turgan

konstitutsiyaviy huquq normalari O'zbekistonning davlat suvereniteti, shaxsning oliy qadriyat ekanligi, milliy davlatchilikning o'ziga xos xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti xususiyatlari va tamoyillarini o'zida aniq aks ettirgan bo'lib, ular boshqa huquq tarmoqlarida ham o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tahlili shuni ko'rsatadi, ular orqali:

- O'zbekistonning suverenligi, mustaqilligi to'la ta'minlangan;
- Inson huquq va erkinliklari xalqaro andozalarga mos ravishda belgilangan;
- Shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan;
- Demokratik asoslarda va tamoyillarda hokimiyat tizimi va hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan;
- Eng asosiysi, konstitutsiyaviy huquq normalari har qanday mafkuradan ozod qilingan.

Konstitutsiyamizning 12-moddasida takidlanganidek hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma xilligi asosida rivojlanadi. Shu jihatdan, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha barcha sohalarda, ayniqsa, sud-huquq tizimida chuqr islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi to'rt yilda 2 ming 600 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarilib, 2 ming 400 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingani, 7 ta sud bosqichi 3 bosqichga keltirilib, sud tizimi "bir sud – bir instansiya" tamoyili asosida qayta tashkil etilayotgani fikrimizni isbotlaydi.

Yana bir quvonarli jihat shuki, uzoq vaqt fuqarolikka ega bo'lmay kelgan insonlar bugungi kunda o'zlarini to'laqonli O'zbekiston fuqarolari deb his etmoqda. O'tgan yigirma besh yilda 482 nafar shaxsga fuqarolik berilgan bo'lsa, bugungi kunda 50 mingdan ziyod kishi shu huquqqa ega bo'limoqda.

Bugun O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlar jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilyapti. Masalan, 2020 yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan bir qator tashabbuslar, aniq amaliy takliflar xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek O'zbekiston xalqaro anjumanlar saroyida 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishining 27 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqni ushbu bayram bilan tabrikldi va jinoyat sodir etgan mahkumlarni avf etish bo'yicha 8 ta farmonni qabul qilib 4 mingdan ziyod shaxsni jazoni o'tash

joylaridan ozod qildi. Konstitutsiyamizning 28 moddasiga binoan: Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, guman qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtida sukul saqlash huquqididan foydalanishi mumkin. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Konstitutsyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlari zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalari zid kelishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti bo'lib, uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalari asoslanadi (17-modda). Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin (18-modda). Konstitutsiya va qonunlardan oqilona foydalanib ularga riosa etgan holda o'z faoliyatimizni olib borishimiz nur ustiga alo nur bo'ladi. Bundan tashqari fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun xalq qabulxonalarini va virtual qabulxonalar o'z faoliyatini yuritmoqda. Zero yurtbosimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek „xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak.“

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, asosiy qomusimiz kafili sifatida konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish „Inson qadri uchun“ degan ustuvor tamoyillarni to'la ro'yobga chiqarish bundan keyin ham faoliyatimizning bosh mezoni bo'lib qoladi. Albatta inson qadri biz uchun qandaydir jumboqli tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo har bir fuqaroning tinch va barkamol hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarining to'la ta'minlanishini tushunamiz. Shunday ekan manashunday huquq va erkinliklardan foydalanib o'z faoliyatimizni amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

**MANBA:**

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel
2. Konstitutsiyaviy huquq. O.T.Husanov.
3. www.uza.uz
4. Davlat va huquq nazariyasi.-T „Sharq“
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi
7. Sh. Mirziyoyev Konstitutsiyaviy islohotimizning bosh maqsadi Inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvidagi nutqi
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida“ gi farmoni
9. 9-sinf huquq darsligi „sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririylati
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan.) URL:<http://lex.uz/uz/docs/20596>

**PENITSILLINNING TA'SIR ETISH DOIRASI**

**Jalilova Charos Shamsiddin qizi  
Mavlonova Dilrabo Nizom qizi**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabaları

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada penitsillining antibakterial doirasi, penitsilinazaga chidamliligi, bakteriya hujayralariga tasiri haqida, odam organizmidagi cassalliklarga qarshi qo'llanilishi va revmatizm kasalligining kelib chiqishi, revmatizm kasalligida penitsillining qanday qo'llanilishi to'g'risida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mog'or zamburug'i, bakteriya, bitsillin – 1,3,5, fenoksimetilpenitsillin, streptokokk, penitsillinaza, penitsillin, revmatizm, betta gemolitik streptokokk, M oqsil.

Penitsillin kimyoviy tuzilishi bir biriga yaqin tabiiy va yarim sintetik antibiotiklar guruhi hisoblanadi. Tibbiyotda ilk bor penitsillin Penicillium turkumiga mansub zamburug'dan olingan. A. Fleming va ingliz patologi X. Flori mog'or zamburug'ining' bulon filtratidan penitsillinni ajratib oldi va uning yuqumli kasalliklarni davolashda samaradorligini kashf etganlari uchun Nobel mukofatiga sazovar bo'ldi.

Bugungi kunda tibbiyot sohasida penitsillining tabiiy va suniy turlaridan foydalaniladi. Tabiiy penitsillinga benzilpenitsillining natriyli va kaliyli tuzi, bitsillin – 1,3,5, fenoksimetilopenitsillin kiradi. Suniy penitsilinlar antibakterial doirasi va penitsilinazaga chidamliligi jihatidan farqlanadi.

Penitsillining antibakterial tasir mexanizmi hujayra devori sintezining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, bunda peptidoglikan moddasini sintez qiluvchi reaksiya to'sib qo'yiladi. Shuning uchun penitsillin guruhi dorilari asosan o'suvchi bakteriya hujayralariga tasir qiladi.

Tabiiy penitsillining suniy penitsillinga qaraganda tasir doirasi tor. Tabiiy penitsillin stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk, gonokokk, meningokokk, gazli gangrena, qoqshol, botulizm, kuydirgi, defteriya, zaxm cassalliklarining qo'zg'atuvchilariga juda faol tasir etadi. Shu sababli penitsillindan pnevmoniya, septik endokardid, revmatizm, jarohatlanish oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar, saramas, peritonit, sistit, osteomeyelit, defteriya, skarlatena va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Revmatizm kasalligi biriktiruvchi to'qimaning keng tarqalgan yallig'lanish kasalligi hisoblanadi. Bu kasallikda asosan yurak va bo'g'imlar va boshqa a'zolar yallig'lanadi. Revmatizmnining faol davrida streptokokk infeksiyasini

yo'qotish uchun antibiotiklar asosan penitsellin va yarim suniy penitsillinlar: ampitsillin, oksatsillin, mitetsillin qo'llaniladi. Revmatizm kasalligini qo'zg'atuvchisi A tipdagi betta gemolitik streptokokk hisoblanadi, bu streptokokk bakteriyasida o'ziga xos tuzilgan M-oqsilli qismi ham mavjud bo'ladi. Bu kasallik asosan yosh bolalarda ko'proq holatlarda qizlarda uchraydi. Betta gemolitik streptokokk bakteriyasi odam organizmiga tushganida tonsillit yoki faringit kasalligini keltirib chiqaradi. Betta gemolitik streptokokk tomoq hujayralari membranasiga zarar yetkazib, tomoqda yallig'lanishni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda odam organizmida immun himoya sistemasi orqali makrofag va neytrofillar ishlab chiqariladi. Makrofag va neytröfillar tomoqda yallig'lanishni keltirib chiqargan betta gemolitik streptokokkn parchalab tashlaydi, ammo betta gemolitik streptokokkning M-oqsili parchalanmay qoladi. Odam organizmidagi antitana antitoksinlar M-oqsili parchalash qobiliyatiga ega. Sog'lom odam tanasida mana shu jarayonlar ro'y berishi sababli organizmga tushgan zararli bakteriya, ya'ni betta gemolitik streptokokk butunlay parchalab yuboriladi. Ammo yer yuzidagi 1-3% odamlarda irsiy moyillik sababli bu jarayon boshqacha sodir bo'ladi. Bunday odamlarda irsiy moyillik sababli yurak, teri, bo'g'im, miya hujayralarida mimikriya hodisasi ro'y berib, bu azolarning hujayralari betta gemolitik streptokokkning M-oqsilli qismiga o'xshab qoladi. Natijada organizmning immun himoya sistemasi, yani antinana antitoksinlar M-oqsili bilan birgalikda organizm o'zidagi hujayralariga ham qarshi kurasha boshlaydi. Shuning uchun bu kasallik avtoimmun kasallik deb nomlanadi. Bu kasallikning o'tkir davrida biz penitsillining yarim suniy turlaridan foydalananib davolash choralarini olib borishimiz mumkun. Bu kasallikning uyqu davrida esa penitsillining tabiiy turi bo'lgan bitsillin- 1,3,5 qo'llaniladi.

Ushbu maqolada penitsilin antibiotigining antibakterial ta'sir doirasi, bakteriyalar devoriga ta'sir qilishi, tabiiy va suniy turlari, revmatizm kasalligining rivojlanishi va bu kasallikka qarshi penitsillin va uning turlarining qo'llanilishi haqida malumot olish mumkun.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005
2. SamDTU mt.samu.uz platformasi
3. <https://www.youtube.com/@imedteam>
4. Umumiylik mikrobiologiya A.B. G'anixo'jayeva, H.A. Nazarova "Ilm ziyo" 2017

## **YURAK MUSKULLARINING QISQARISH MEXANIZMI**

**Mavlonova Dilrabo Nizom qizi  
Jalilova Charos Shamsiddin qizi**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabaları.

**Annotatsiya:** Maqolada yurak muskullaring hujayrada darajada tuzilishi, qisqarish mexanizmi, uning ishlash prinsipi va yurak muskullarining ishlash mexanizmi buzilgan holatlarda yuzaga chiqadigan salbiy oqibatlari tòğrisida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Muskul, sarkomer, aktin, miozin, qo'zg'aluvchanlik, miokard, troponin, tropomiozin, miokard infarkti, tromb, plikcha.

Muskullar o'z navbatida skelet, silliq va yurak muskullariga bo'linadi esa hozir yurak muskullarini tuzilishi va uning harakat mexanizmiga to'xtalib o'tamiz. Yurak muskullari ko'ndalang targ'illikka ega bo'lib, o'zaro parallel joylashgan silindirsimon hujayralardan tashkil topgan. Yurak muskulining o'ziga xos xususiyati bu - yurak muskuli hujayralarining o'zaro birikish sohasida disklarning bo'lishi hisoblanadi. Yurak muskullarining qisqarishi ritmik bo'lib, odam ixtiyoriga bo'y sunmaydi.

Yana yurak muskullari boshqa muskullar singari qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik va qisqaruvchanlik xususiyatiga ega. Bundan tashqari yurakda avtomatiya xususiyati ham mavjud. Qo'zg'aluvchanlik - to'qimaga impuls kelishi natijasida, unda biokimyoiy va biofizik o'zgarishlarning sodir bo'lishi (harakat potensialining vujudga kelishi). Qo'zg'aluvchanlik kaliy, natriy hamda boshqa ionlarning kanallari orqali ionlarning almashinishi natijasida vujudga keladi. Qisqaruvchanlik - yurak muskullarida hosil bo'lgan harakat potensialiga javob reaksiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yurakning muskul qavati miokard deb atalib, yurak muskullarining qisqarishi uning hujayralarida joylashgan sarkomerlar tomonidan amalga oshadi. Sarkomerlarda esa aktin va miozin oqsillari mavjud bo'lib, ularning o'zaro sirpanishi natijasida yurak muskullarining qisqarishi sodir bo'ladi. Ular o'zining uzunligini o'zgartirmaydi, faqat sirpanishi natijasida muskullar qisqaradi. Yurakning tinch holatda qisqarmasligini aktindagi tropomiozin hamda troponin oqsillari ta'minlaydi. Harakat potensiali vujudga kelganda, kalsiy ioni troponinga birikadi va tropomiozinning funksiyasi o'zgaradi. Miozinning boshchasi esa aktinga birikadi va uni oldinga tortib, siljitaldi. Buning uchun miozinga ATF kelib birikadi va energiya sarf bo'ladi. Yurakning to'xtovsiz harakat qilib ko'p energiya sarf qilganligi uchun yurak muskuli hujayralarida

mitoxondriyalar miqdori ko'p uchraydi va mitoxondriyalar muskullarni qisqarishi uchun energiya hosil qilib beradi.

Yurak muskul qisqarish mexanizmi buzilishidan ko'pgina jiddiy kasalliklar kelib chiqadi. Ularning orsida eng keng tarqalgan kasallik bu miokard infarkti hisoblanadi. Keling endi boshidan kelib chiqish sabablari va asoratlarini ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda yurakning koranal qon tomirida arterosekleroz plikcha hosil bo'lishdan boshlanadi. Odam og'ir jismoniy ish bilan shug'ullanganda yoki kuchli hayajon va stressga tushganida plikcha ustini qoplab turuvchi endoteliy hujayrasi yemiriladi. Shu joydan tromb hosil bo'ladi va tromb qonning o'tishiga to'sqinlik qila boshlaydi. Borgan sari tromb kattalashib qon o'tishini yani kislорod tashishini cheklab qo'yadi va bu o'z navbatida qon tomir yonida joylashgan kardiomiotsitlarga kislорodni yetishmasligi va aynan shu sohada qisqarishning susayishiga olib keladi. Kardiomiotsitlarga kislорod yetarli miqdorda yetib bormasligi markaziy nerv sisitemasiga impuls bo'lib tasir qiladi va og'riq hosil bo'ladi. Og'riq faqqatgina yurak sohasida emas balki, chap kurak, qo'l, bo'yin sohasi va bazi holatlarda o'ng qo'lda ham vujudga keladi. Kislорod yetishmasligi kamayib borgani sari kardiomiotsitlarda qisqarish susayib, to'xtashgacha olib keladi. Tromb esa qon tomirini butunlay yopib qon harakatini cheklab qo'yadi. Yurakning boshqa sohalari esa uning hisobidan ham ko'proq qisqara boshlaydi. Agar vaqtida kerakli chora tadbirlar ko'rilmasa(20 daqiqada) og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqolada yurak muskullarining sarkomerlardagi aktin va miozin hisobidan qisqarish mexanizmi va bu qisqarish mexanizmi buzilishidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar haqida malumotlar berilgan va shu malumotlardan yurak ishini tushinishi va yurak qisqarish mexanizmi haqida malumotga ega bo'lishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. SamDTU mt.samu.uz platformasi.
2. Antoni L. Mesher, F. D Junkeyraning histologiya asoslari.
3. K. A. Zufarov Gistologiya. 2005
4. <https://youtube.com/@KhanAcademyUzbek>

## **KVANT HISOBBLASH MASHINALARINING ISHLASH PRINSIPLARI**

**Ro'ziboyev Ortiq Baxtiyorovich**

TATU dasturiy injiniring fakulteti dekani , o.ruzibaev@tuit.uz [1]

**Raximova Shahnoza Nuraddinovna**

Raqamli texnologiyalar konvergensiysi kafedra assistenti  
shahnozanuraddinovna1993@gmail.com [2]

**Sultonov Hayotjon Bahodir o'g'li**

TATU DIF talabasi, anonymousdeveloper2005@gmail.com [3]

**Shonazarov Sarvarbek Maqsud o'g'li**

TATU DIF talabasi , sshonazarov938@gmail.com [4]

**Annotatsiya.** Kvant kompyuterlar kvant bitlarni qayta ishlashda qolgan klassik bitlardan farqli hisoblanadi. Bu kompyuterlar kvant mexanikasining qoidalariga asoslangan, xususan kvant bitlarni istifoda qilish orqali parallel hisoblash va ma'lumotlarni sinch emas, balki klassik kompyuterlardan ko'proq tez ishlash imkoniyatlarini takomillashtirish uchun mo'ljallanganlar. Kvant kompyuterlari ko'pgina ma'lumotni yoki ma'lumotni sinash uchun kuchli algoritmlarni ishlatishadi. Ular ma'lumotlarni keshlash, ishlov berish, optimallashtirish va sinovlar, kriptografiya, kimyoviy reaksiyalarni modellash va boshqalar kabi ko'plab sohalarda foydalaniladi.

Kvant nazariyasiga kirish.

Kvant hisoblash - bu kvant mexanikasi faniga va uning aql bovari qilmaydigan hodisalariga asoslangan zamonaviy hisoblash usuli. Bu fizika, matematika, informatika va axborot nazariyasining ajoyib kombinatsiyasi. Bu kichik jismoniy ob'ektlar, ya'ni atomlar, elektronlar, fotonlar va boshqalar kabi mikro-skopik zarralar xatti-harakatlarini boshqarish orqali klassik kompyuterlarga nisbatan yuqori hisoblash quvvati, kamroq energiya sarfi va eksponensial tezlikni ta'minlaydi. Bu erda biz asosiy tushunchalar va ba'zi g'oyalarga kirishni taqdim etamiz. Kvant hisoblashlari. Ushbu maqola an'anaviy hisoblashning kelib chiqishi bilan boshlanadi va hozirgi kunga qadar ularning cheklamlari tufayli amalga oshirilgan barcha yaxshilanishlar va o'zgarishlarni muhokama qiladi. Keyin u kvant hisoblashning asosiy ishiga va superpozitsiya, chalkashlik va interferensiya kabi kvant xususiyatlariiga o'tadi. Tijoriy ravishda ishga tushirilishi mumkin bo'lgan amaliy kvant kompyuterining to'liq imkoniyatlari va muammolarini tushunish uchun maqola kvant kompyuterlari tomonidan talab qilinadigan arxitektura, apparat, dasturiy ta'minot, dizayn, turlar va algoritmlarni qamrab oladi. U

bizning hayotimizga turli nuqtai nazarlardan ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kvant kompyuterlarining imkoniyatlarini ochib beradi, masalan, kiberxavfsizlik, trafikni optimallashtirish, dordidarmonlar, sun'iy intellekt va boshqalar. Nihoyat, biz kvant kompyuterlarining barcha ahamiyati, afzallikkari va kamchiliklari haqida xulosa qildik. Yaqinda kichik hajmli kvant kompyuterlari ishlab chiqilmoqda. Bu rivojlanish ularning yuqori potentsial imkoniyatlari va davom etayotgan tadqiqotlardagi yutuqlari tufayli buyuk kelajak sari intiladi. Umumiy maqsadli kvant kompyuterining ahamiyatiga e'tibor qaratish va yangi paydo bo'lgan texnologiyaning kuchini o'rganishdan oldin, mavjud an'anaviy hisoblashning kelib chiqishi, potentsiallari va cheklovlarini ko'rib chiqish yaxshiroqdir.

Kvant kompyuterlarga bo'lgan ehtiyoj.

Kvant kompyuterlari har qanday klassik kompyuterlar qila oladigan har qanday hisoblash muammosini hal qila oladi. Cherc-Tyuring tezisiga ko'ra, klassik kompyuterlar kvant kompyuterlarining barcha muammolarini ham echishi mumkinligining aksi ham haqiqatdir. Bu shuni anglatadiki, ular hisoblash imkoniyati bo'yicha klassik kompyuterlarga nisbatan qo'shimcha foya keltirmaydi, ammo ba'zi murakkab va imkonsiz muammolar mavjudki, ularni bugungi an'anaviy kompyuterlar amaliy vaqt ichida hal qila olmaydi. Bu ko'proq hisoblash quvvatiga muhtoj. Kvant kompyuterlari bunday muammolarni "Kvant ustunligi" deb ham ataladigan oqilona va eksponent jihatdan kamroq vaqt murakkabliklariда hal qila oladi. 1993 yilda Piter Shor Kvant kompyuterlari bu muammolarni bir necha soniya ichida qizib ketmasdan ancha samarali hal qilishda yordam berishini ko'rsatdi. U katta sonlarni tez faktoring qilish algoritmlarini ishlab chiqdi. Chunki ularning hisob kitoblari atomning haqiqatda ma'lum bo'lishidan oldingi holati ehtimoliga asoslanadi. Ular ma'lumotlarni eksponent darajada katta miqdorda qayta ishslash potentsialiga ega. Shuningdek, u amaliy kvant kompyuteri kriptografik maxfiy kodlarni buzishi mumkinligini tushuntiradi. Bu shifrlangan ma'lumotlar va aloqa xavfsizligini xavf ostiga qo'yishi mumkin. U shaxsiy va himoyalangan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishi mumkin. Ammo kvant kompyuterlarining afzallikkari ham yodda tutiladi, bu uning kamchiliklaridan sezilarli darajada ko'pdir. Shunday qilib, ular hali ham zarur va keyingi tadqiqotlar yorqin kelajak sari ketmoqda.

Kvant kompyuterining arxitekturasi.

Arxitekturani loyiha sifatida ko'rish mumkin. Kvant kompyuterining arxitekturasi klassik va kvant qismlarining kombinatsiyasi bo'lib, uni 5 qatlamga bo'lish mumkin. bu erda har bir qatlam kompyuterning funksional qismi sifatida ifodalanadi .

Ilova qatlami - Bu kvant kompyuterining bir qismi emas. uchun ishlataladi foydalanuvchi interfeysi, kvant kompyuteri uchun operatsion tizim, mos kvantni shakllantirish uchun zarur bo'lgan kodlash muhiti va boshqalar algoritmlar. U apparatdan mustaqil.

Klassik qatlam- Kvant algoritmini mikro ko'satmalarga optimallashtiradi va kompilyatsiya qiladi. Shuningdek, u qaytib kelgan kvant-holat o'lchovlarini qayta ishlaydi Quyidagi qatlamlarda apparatni o'rnatadi va natijalarini ishlab chiqarish uchun klassik algoritmga beradi.

Raqamli qatlam - U mikroko'satmalarni kvant mantiqiy eshiklari vazifasini bajaradigan qubit uchun zarur bo'lgan signallarga (impulslarga) izohlaydi. Bu quyi qatlamlarda kerakli analog impulslarning raqamli tavsifi. Shuningdek, u kvant natijalarini yakuniy natijaga birlashtirish uchun yuqoridagi klassik qatlamga qayta aloqa sifatida kvant o'lchovini beradi.

Analog qatlam - U fazaga ega bo'lgan kuchlanish signallarini yaratadi va to'lqindagi kabi amplitudali modulyatsiyalar, qubit operatsiyalarini bajarish uchun uni quyi qatlamga yuborish uchun.

Kvant qatlami - U raqamli va analog ishlov berish qatlami bilan bir xil chipga birlashtirilgan. U kubitlarni ushlab turish uchun ishlataladi va xona haroratida (mutlaq) saqlanadi. Xatolarni tuzatish bu erda amalga oshiriladi. Bu qatlam kompyutering qanchalik yaxshi ishlashini aniqlaydi.

Kvant ishlov berish birligi (QPU) raqamli ishlov berish qatlami, analog ishlov berish qatlami va kvant ishlov berish qatlamini o'z ichiga olgan uchta qatlamdan iborat. QPU va klassik qatlam birgalikda Kvant kompyuterini tashkil qiladi. Raqamli va analog qatlamlar xona haroratida ishlaydi.

Qubitlar nima va ular haqida ummiy tushincha.

Qubitlar ("cue-bit" deb talaffuz qilinadi) yoki kvant bitlari barcha asosiy kvant hodisalarini qamrab oluvchi asosiy qurilish bloklaridir. Ular kvant fizikasining asosiy tushunchalarini kiritish uchun matematik jihatdan sodda asosni taqdim etadi. Qubitlar ikki holatli kvant tizimlaridir. Misol uchun, agar biz  $k = 2$  ni o'rnatsak, vodorod atomidagi elektron asosiy holatda yoki birinchi qo'zg'aluvchan holatda yoki ikkalasining har qanday superpozitsiyasida bo'lishi mumkin.Tez orada qubitlarning ko'proq misollarini ko'ramiz.Qubit holati  $(\alpha|\beta\rangle)\in C^2$  vektor birligi (ustun) sifatida yozilishi mumkin. Dirac yozuvida buni quyidagicha yozish mumkin:  $|\psi\rangle=\alpha|0\rangle+\beta|1\rangle$  "with"  $\alpha, \beta \in C$  " and "  $|\alpha|^2+|\beta|^2=1$  Ushbu chiziqli superpozitsiya  $|\psi\rangle=\alpha|0\rangle+\beta|1\rangle$  elektronning shaxsiy dunyosining bir qismidir. Elektronning holatini bilish uchun biz o'lchov qilishimiz kerak. O'lchovni amalga oshirish bizga 0 yoki 1 ma'lumotlarining bitta klassik bitini beradi. Eng oddiy o'lchov standart asosda bo'lib, bu  $|\psi\rangle$  asosda  $\{|0\rangle, |1\rangle\}$  ni o'lchash  $|\alpha|^2$  ehtimolligi

bilan 0 ni,  $|\beta|^2$  ehtimolligi bilan 1 ni beradi. O'lchov jarayonining muhim jihat shundaki, u kubitning holatini o'zgartiradi: o'lchovning ta'siri shundaki, yangi holat aynan o'lchov natijasidir. Ya'ni, agar  $|\psi\rangle = a|0\rangle + \beta|1\rangle$  ni o'lchash natijasi 0 ga teng bo'lsa, u holda o'lchovdan keyin qubit  $|0\rangle$  holatidadir. Bu shuni anglatadiki, siz o'lchovni takrorlash orqali  $a, \beta$  haqida qo'shimcha ma'lumot to'play olmaysiz. Umuman olganda, biz har qanday ortogonal asosni tanlashimiz mumkin  $\{|v\rangle, |w\rangle\}$  va shu asosda kubitni o'lchashimiz mumkin. Buning uchun biz o'z holatimizni shu asosda qayta yozamiz:  $|\psi\rangle = a^{|v\rangle} + \beta^{|w\rangle}$ . Natija  $|a^{|v\rangle} + \beta^{|w\rangle}|^2$  ehtimollik bilan,  $|w\rangle$  esa  $|\beta^{|w\rangle}|^2$  ehtimoli bilan. Agar  $|\psi\rangle$  bo'yicha o'lchash natijasi  $|v\rangle$  ni keltirsa, u holda avvalgidek, qubit  $|v\rangle$  holatida bo'ladi.

Kvant hisoblashlarning qo'llanishi.

Tezlikni ta'minlovchi kvant kompyuterlari uchun ko'plab kvant algoritmlari ishlab chiqilgan, bu Furye transformatsiyasi, Gamilton simulyatsiyasi va boshqalar kabi ba'zi fundamental matematik usullarning natijasidir. to'liq funksionallik. Bu algoritmlar yaxlit qo'shma dastur sifatida emas, balki bloklarda tuzilgan, chunki bu amaliy emas. Shuning uchun, xatosiz tezlikni ta'minlash bilan bir qatorda haqiqatan ham amaliy foydali bo'lgan kvant ilovalarini yaratish juda qiyin. Kvant kompyuterining potentsial yordami yoki foydali qo'llanishi doimiy tadqiqot sohasidir. Taxminlarga ko'ra, bu ilovalar kamroq kubitlarni talab qiladi va kamroq kodlar bilan bajarilishi mumkin. Qubitning o'ziga xos xususiyatlari tufayli kvant kompyuterlarida tezroq ishlaydigan algoritmlarni yaratish mumkin. Quyida biz kelgusi davrda ko'radigan asosiy ilovalardan ba'zilari:

- **Kriptografiya**

IT xavfsizligi va onlayn xavfsizlikning ko'plab muhim elementlari, masalan, elektron tijorat va elektron maxfiylik shifrlash va matematik algoritmlarga bog'liq juda katta sonlarni tub sonlarga ajratish (RSA tech nique) kabi sindirish qiyin. Bu an'anaviy usullardan foydalangan holda barcha mumkin bo'lgan omillardan o'tish orqali amalga oshiriladi ko'p vaqt talab qiladigan kompyuterlar. Bundan tashqari, ba'zi zamонави algoritmlar AES, ECDSA va boshqalar kabi RSA dan tashqari, hatto yuqori kompyuter quvvati yordamida ham yorilib bo'lmaydi. Bu qimmatga tushadi va ularni kamroq amaliy qiladi. Kvant kompyuterlar bu turdag'i barcha narsalarni eksponent darajada kamroq vaqt ichida bajarishi mumkin. Yangi kvant algoritmlari (masalan, Shor algoritmi) buni amalga oshirishga qodir va yanada noyobdir. algoritmlari ishlab chiqiladi. Ammo bundan oldin yangi shifrlash usullari ishlab chiqilmoqda kvantlarga qarshi turish uchun yaratilgan. allaqachon ishlayotgan texnikasi va raqamli beri ilovalar xavfsizligi katta xavf ostida.

- Optimallashtirish muammolari

Muammoni optimallashtirish bu muammoning eng yaxshi echimini topishni anglatadi

mumkin bo'lgan echimlar. Bu xatoni minimallashtirish va hatto minimallashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin mavjud qadamlar. Kvant kompyuterlari optimallashtirish muammolarini hal qilishda eng yaxshisidir. Ko'p kvant algoritmlari mavjud, ulardan kvant optimallashtirish algoritmlari mavjud bo'lgan optimallashtirish muammolarini yaxshilashi mumkin. Hozirgi vaqtida an'anaviy kompyuterlardan foydalanish. Ulardan ba'zilari kvant yarim aniqlangan dasturlash, kvant ma'lumotlarini moslashtirish va kvant kombinatorial optimallashtirish. Ba'zi misollar oqsil harakati kabi molekulyar modelni simulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi saraton, o'pka kasalligi va boshqalar kabi jiddiy kasalliklarga qarshi dorilarning yangi kashfiyoti bo'lishi mumkin bo'lgan tibbiy tadqiqotlar uchun. Yana bir misol-hujayra simulyatsiyasi elektr transport vositalarida batareya quvvati va ishlash muddatini yaxshilash uchun batareyalar tuzilishi. Bu Sayohat bilan bog'liq muammolarni xuddi sayohatchi sotuvchi kabi haqiqiy transportda ham hal qilishi mumkin har bir shaharga bir marta boradigan ko'plab shaharlar orasidagi eng qisqa yo'lni topish muammolari orqaga qaytish, butun moliya bozorini modelllashtirish va boshqalar. Sayohat optimallashtirish yaqinda Volkswagen ostidagi asosiy ishdir.

- Sun'iy intellekt

Sun'iy intellekt katta va murakkab ma'lumotlar to'plamini qayta ishlashga tayanadi. U o'rganish, xulosa chiqarish va tushunish uchun javobgardir. U Kvant hisoblash va aloqalarni xato qilish va o'z vazifasini bajarishda xatoliklarni to'xtatmaguncha o'rganadi. O'rganish uchun ham katta vaqt talab etiladi. Ammo kvant hisoblash uni oson va aniqroq qilishi mumkin. An'anaviy kompyuterlar hisoblash vaqtini cheklash uchun faqat ma'lumotlar to'plamining ma'lum bir o'lchamidan o'rganish modelini o'rgatmoqda. Kvant kompyuterlari bu modellarni eksponensial vaqtga yopishmasdan katta ma'lumotlar to'plamida o'qitishi mumkin. Trening uchun qanchalik ko'p ma'lumot ishlatsa, shunchalik aniqroq bo'ladi. Generativ modellar sifati va aniqligini yaxshilash uchun kvant kompyuterlariga berilishi mumkin bo'lgan tasvir, audio va boshqalar kabi natijalarni yaratadi. Tabiiy tilni qayta ishlash - bu to'liq jumlalarni tushunadigan yana bir misol. Kvant kompyuterlari barcha iboralar va nutqlarni real vaqt rejimida yaxshilangan sifat bilan tushunishga imkon beradi, bu esa bugungi kompyuterda hisoblash qimmatga tushadi.

- Kvant simulyatsiyasi

Bu kvant kimyosi va materialshunoslik sohasidagi muhim yordamchi dasturdir. Bu muammo elektronlarning asosiy holatdagi energiyalarini va ularning to'lqin funktsiyalarini, ba'zi bir tashqi elektr yoki magnit maydonning mavjudligi yoki ishtirokisiz hal qilishni talab qiladi. Kimyodagi atomlar va elektronlarning tuzilishidan tortib, kimyoviy reaktsiyalar tezligigacha hamma narsani juda yaxshi simulyatsiya qilish mumkin. Ushbu muammoni hal qilishda klassik kompyuter ko'pincha kimyoviy reaktsiya tezligini taxmin qilish uchun zarur bo'lgan aniqlik darajasiga erisha olmaydi. Shuningdek, u tibbiyat va sog'liqni saqlash sohalari, kimyoviy katalizatorlar, energiyani saqlash, farmatsevtika taraqqiyoti va qurilma displeylari kabi sohalarda tijorat maqsadlarida qo'llanilishi mumkin.

Xulosa.

Kvant kompyuterlar, klassik kompyuterlardan farqli ravishda ma'lumotlarni emas, balki kvant mexanikasi prinsiplariga asoslangan bitlarni ishlatish orqali ma'lumotlarni ishlov berish uchun mo'ljallangan. Ular kvant bitlarni (qubitlar) ishlatish orqali klassik bitlardan farqini ko'rsatadilar. Kvant bitlar kvant mexanikasi prinsiplari bo'yicha superpozitsiya va entanglement xususiyatlari ega bo'lib, ularning yorqinlikni boshqarish, o'zaro aloqalarni aniqlash va parallel hisoblashda klassik kompyuterlardan ko'proq tezlik va kuchli hisoblash qobiliyatları mavjud. Bu kompyuterlar boshqa sohalarda ham foydalanish imkonini beradi, masalan, kriptografiyada ishlov berish, ma'lumot sinovlari, modellash va boshqalar. Ularning ta'minoti, kvant bitlarni saqlash, ulardan foydalanish usullari va kvant algoritmlarining rivojlanishi mavzusidagi texnologik rivojlanish jarayonlari katta ahamiyatga ega. Kvant kompyuterlar yana o'rganilishi kerak bo'lgan texnologiyalar bo'lib, ularning kiber xavfsizlikni ta'minlash, kundalik hayotga o'tkazish, kimyo, biologiya, sifatshunoslik, biotexnologiya, farmatsevtika kabi sohalarda ko'plab sohalarda qo'llanilishi mumkin. Jamiy xulosa, kvant kompyuterlarining o'zlarining, ularning xususiyatlari va afzalliklari, foydalanish sohasi, texnologik rivojlanishi va qo'llanishning ko'rsatilgan asosiy sohalari mavzusidagi umumiyligi ma'lumotlarni taqdim etadi. Ular bugungi texnologik rivojlanishning muhim bir qismini hosil qilmoqda va kiber fizika, matematika, kognitiv informatika, kriptografiya, biologiya, kimyo, farmatsevtika va boshqa sohalarda qiziqarli yondashuvlarni mavjud qilishda katta imkoniyatlar ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

"Quantum Algorithm,"  
Quantum\_algorithm

<https://en.m.wikipedia.org/wiki/>

Scott Amyx (2017), "quantum computing-series-part-4-superposition in- quantum-mechanics-

-yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish; aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzları bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish; davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

- davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash; jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

-ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-tehnologiyalarni qo'llashni kengaytirish; yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish; jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

Yuqoridaq vazifalarni inobatga olgan holda mamlakatimizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.Bunga Misol qilib Oliy o'quv yurtlari va akademik litseylarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha bir qator professor o'qituvchilar isghtirokida davra suhbatlari va tadbirlar amalga oshirildi.Bundan tashqari Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmonlar ham bu yo'nalishda

amalga oshirilgan ishlarning asosi hisoblanadi. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida"gi PF-5618- sonli Prezident<sup>62</sup> farmonining qabulqilishi va bu farmonning birinchi ilovasida tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi" ning ishlab chiqilishi hamda "Yoshlarni ma'naviy, axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'limgartarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to`g`risida" gi PQ-3907- sonli Prezident<sup>63</sup> qarorining qabul qilishi va bu qarorning birinchi ilovasida tasdiqlangan "Yoshlarni ma'naviy, axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'limgartarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" da yoshlarni huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtaida huquqbazarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish masalasi ustuvor yo'naliishlaridan biri etib belgilanganligi yuqorida fikrlarning yaqqol dalilidir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bugungi globallashuv sharoitida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shiddatli rivoji va mamlakatimizda ro'y berayotgan yangilanish jarayonlari, o'z navbatida, bizni davlat va huquq hodisalariga ko'pgina zamonaviy voqeliklar asosida qayta idrok etish hamda baholashga yo'naltirilmoqda.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir masalalar samaradorligini yanada rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy yo'naliishlarini joriy etish, shuningdek ,jamiyatda, ayniqsa, yoshlarni ongini zaharlaydigan axborotlardan himoya qilish bo'yicha islohotlar huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida g'oyalarni keng targ'ib qilish mumkin .Mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. U "shaxs - oila - mahalla - ta'limgartim muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbazarliklarni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib

<sup>62</sup> <https://www.lex.uz> 30.11.2021-y

<sup>63</sup> <https://www.lex.uz> 14.02.2019-y

keladigan g'oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti- harakatlar o'z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi. Jamiat rivojlanishiga maqsadli ta'sir o'tkazishning asosiy elementi huquqiy ta'lif bo'lib, u ko'p bosqichli va uzuluksiz joriy etilishi kerak. Ayniqsa, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish lozim, chunki Yurtimizning kelajagi yoshlarning qanchalik ta'lif va tarbiya olishiga chambarchas bog'liqdir.

2022-2023 yillarda jamiatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:<sup>64</sup>

- oilada va ta'lif muassasalarida huquqiy tarbiyanı shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- ❖ notinchlik va zo'ravonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlari haqida ma'lumot yetkazish va ularning oldini olish;

- ❖ oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida inson huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari o'quv kurslarini tashkil etish;

- ❖ ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish masalalari bo'yicha axborot-targ'ibot ishlari va boshqalar;

- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- ❖ "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish;

- ❖ huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo'yicha o'qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash va boshqalar;

- aholi barcha qatlamlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:

- ❖ "bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" loyihasi;

- ❖ nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xayriya aksiyalari;

- ❖ murojaatlarni tahlil qilish va tahlil natijasiga ko'ra manzilli huquqiy targ'ibot va boshqalar;

- jamiatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy qilish;

<sup>64</sup> <https://www.lex.uz> 16.05.2022-y

❖ aholi va tadbirkorlik sub'yektlariga huquqiy masalalar bo'yicha yechimlarni beruvchi portallarni huquqiy mavzudagi materiallar bilan boyitish;

❖ "Huquqiy axborot" ommaviy vositalar qamrovini kengaytirish va boshqalar;

- yuridik ta'limni, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish (yuridik oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar bilan ishlash" mavzusini kiritish; yuridik sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib kelayotgan tadqiqotchilar uchun onlayn xizmatlarni ko'rsatish imkonini beruvchi elektron platforma yaratish).

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iyomon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg`ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so`zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so`zsiz bajarilishi har bir shaxsning o`z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog`liqdir. Xalqning huquqiy madaniyat bu huquqqa bo'lgan oddiyina munosabatni emas, balki huquqiy normalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini bildiradi. Qonunga, uning normalariga hurmat esa ularning to'laqonli ishlashi, ular oldida hamma teng bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi bu borada inson va fuqarolarning teng huquqli ekanligini kafolatlangan bo'lsa-da, fuqarolarimiz tomonidan, davlat va davlat boshqaruvi organlari xodimlari tomonidan hali hanuz o'z huquqlarini to'g'ri va to'liq anglab yetmaganliklari oqibatida mamlakatimizda turli xildagi huquqbazarliklar sodir etilib kelinmoqda. Afsuski, bu holatni ham yoshlar, ham yoshi kattalar, ham ayollar, ham erkaklar orasida kuzatishimiz mumkin. Shu maqsadda, demoqchimizki xalqimizning huquqiy ongini rivojlantirish va ularda huquqiy madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish suv va havodek zarur.

Xulosa qilib aytganda, Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda hamma fuqarolarning faol bo'lishi ko'zlangan maqsadlarga tez va samarali erishishda muhim hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keldi. Jamiatda o'z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://www.lex.uz>
- 2.Sh.A.Saydullayev "Davlat va huquq nazariyasi" T.2022
- 3.X.T.Odilqoriyev "Davlat va huquq nazariyasi" T."Sharq"2009

## "SAUDIYO ARABISTONINING MUSULMON OLAMIDAGI SIYOSATI. SAUDIYO – ERON GEOSIYOSIY MUNOSABATLARI"

**Yangiboyev Abdulaziz O'tkir o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: yangiboyevabdulaziz53@gmail.com

Tel: +998931453353

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Saudiyo Arabistonning musulmon olamiga bo'lgan siyosati, mintaqada yetakchilik uchun Eron bilan raqobati, ikki davlatning o'zaro ziddiyatli munosabatlari, irog hamda Suriyada manfaatlar to'qnashushi haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Panislomizm, al-Azhar tashkiloti, Islom Olami Kongressi, Maykl Doran, SAP, RAND, B.Asad, TIV Islom ishlari departamenti, ADL, al-Saud, Saddam Husain, Xobar va Dahron shaharlari.

Saudiya Arabistoni musulmon davlatlarining etakchisi bo'lishga da'vogar ekan, tashqi siyosati shunga mos ravishda islomiy aqidalarga mos bo'lishi kerak, degan fikrni ko'plab ekspertlar ma'qullayaptilar. Uning hududida islom olamining eng muhim qadamjolari joylashgan bo'lib, jahon musulmonlari imkoniyatlari darajasida bu joylarga haj safari bilan boradilar, ziyorat qiladilar. Rossiyalik muallif A.Yakovlevning fikricha, «Mana shuning o'zi podsholik tashqi siyosatida etakchi xususiyatlardan biri sifatida «islom omili»ni ajratib ko'rsatish uchun kifoya», chunki, «mamlakat hukmronlari haj safaridan nafaqat islom olamidagi ta'sirini mustahkamlash, balki tom ma'noda tashqi siyosiy manfaatlari yo'lida ham foydalanadi»<sup>65</sup>.

Feodal-mustabid tuzumlar va ularning mafkurachilari musulmonlar birligi, panislomizm va panarabizm g'oyalarini davlatlararo munosabatlari nuqtai nazaridan hamisha yoqlab kelganligi, ustiga ustak islom olamini rivojlantirish borasida xalifalikning «oltin davri» va uni kelgisida qayta tiklash g'oyasi ilgari surib kelingani ta'kidlanadi. «Panislomizm yoki panarabizm harakatining tashabbuskori bo'lgan davlatning poytaxti bunday xalifalikning markazi bo'lishi kerakligi esa shubhasiz»<sup>66</sup>.

Ayni paytda hozir shu islom davlatlari musulmon jamoalarining milliy va diniy kontseptsiyalari o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni ularni birlashtirish maqsadini qo'ygan holda hal qilishni mo'ljallayapti. Xususan, Saudiya

<sup>65</sup> Яковлев А.И. Исламский фактор в политике Саудитов в 90-е годы XX в. // Ближний Восток: проблемы региональной безопасности (сборник статей). – М., 2000. – С. 67.

<sup>66</sup> Жданов Н.В. Исламская концепция миропорядка. – М.: Международные отношения, 2003. – С. 14.

Arabistonni TIV Islom ishlari departamenti direktori M.ash-Sharifning so'zlariga ko'ra, «islomiy birdamlikka da'vat islom va arab davlatlarini birmuncha keng ko'lamli birlashuvga yo'naltirish bo'lib, musulmonlarni zamonaviy jamiyatlar doirasida islom bayrog'i ostida jipslashtirish va shu asno islom mamlakatlari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, ziddiyat va kelishmovchiliklarni islom ta'limotiga muvofiq bartaraf etish, imkon boricha tinch vositalar bilan hal qilish, jahon jamoatchiligi, ayniqsa insoniyatni yadro urushi va qirg'in - barotlardan saqlab qolish borasidagi hamkorlikni ta'minlash, butun insoniyat farovonligi yo'lida ma'rifiy jamiyat barpo etishga hissa qo'shishdan iborat»<sup>67</sup>.

Aksariyat tadqiqotchilar Saudiya Arabistonni hukmron tabaqalariga xos ikkiyuzlamachilikka e'tiborni jalb qiladilar, ayni shu holat ular yuritayotgan tashqi siyosatning hamisha ziddiyotli bo'lishini ta'minlab kelayotir. Bir tomonidan, «Amerika imperializmining ittifoqchisi va mijozsi sifatida» Saudiya Arabistonni uning tashqi siyosiy chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlashi kerak. Boshqa tomonidan, musulmon olamining etakchisi tariqasida Saudiya podsholigi sionizmga va Isroiuning tashqi siyosiy qadamlariga qarshi chiqib, Falastin va Sharqiy Quddus masalasida aniq mavqega ega bo'lishi zarur. Ayni shu nuqtada ham islomiy birdamlikni amalga oshirishda sustkashlik ko'zga tashlanadi.

Islom dunyosi doirasidagi xalqaro aloqalarda Saudiya Arabistonni salmoqli o'ringa ega ekanidan qat'i nazar Saudiya Arabistonni Podshohligini mazkur mamlakat xalqaro siyosatining asosini tashkil qiluvchi islomiy qadriyatlarning bosh targ'ibotchi-tashviqotchisi, musulmon mamlakatlarining shubhasiz etakchisi va rahbari sifatida qaror toptirish vazifasi oson ish emas. Jumladan, ADL Saudiya Arabistonini «Ollohnning nazari tushgan o'lka» sifatida ta'riflaydi, biroq «haqiqiy islom davlati» maqomiga Pokiston ham da'vogarlik qilayotir. Bu borada uni Islom Olami Kongressi (IOK) qo'llamoqda. Islom harakatining etakchisi sifatida Misr ham ko'rsatilmoxda. Bunga bir qator asoslar bor, Misrning al-Azhar tashkiloti obro'-e'tibori juda yuksak ekani ham shu jumlaga kiradi<sup>68</sup>.

Ayni paytda Saudiyaning arab-musulmon olamidagi yuksak mavqeini qaror toptirish uchun ar-Riyodning qudratli vositasi bor – bu rivojlanayotgan mamlakatlarga, avvalo Afrika-Osiyo mintaqasidagi davlatlarga iqtisodiy yordam bo'lib, bu yo'l Saudiya tashqi siyosiy yo'lining jiddiy yo'nalishi tusini olgan. SAP tashqi siyosatining strategik vazifalari ro'yxatida «iqtisodiy yordam ko'rsatish» to'rtinchi o'rinda. Dastlabki o'rinnlarni tashqi xavfsizlikni ta'minlash,

<sup>67</sup> Мелихов И. Арабо-исламская составляющая внешней политики арабских государств Персидского залива // Россия и мусульманский мир. – М.: ИНИОН, 2000. – № 8. – С. 90.

<sup>68</sup> Жданов Н.В. Исламская концепция миропорядка. – М.: Международные отношения, 2003. – С. 15.

arab va islam dunyosi mamlakatlari bilan birdamlikni rivojlantirish, va nihoyat, xalqaro barqarorlik va tinchlikni ta'minlash masalalari egallagan. Rossiyalik tahlilchilarning uqtirishicha, Saudiya hukmron doiralari bunday yordamni, aslida, xalqaro aloqalar sohasidagi boshqa vazifalarini hal qilishning eng gulay usullaridan biri sifatida qaraydi.

XX asrning 90-yillariga qadar ikki davlat hukumatlari, diniy rahbarlari va islomiy harakatlarining arab va islam dunyosida va hatto xalqaro miyosda kechayotgan ko'plab siyosiy jarayonlarga nisbatan munosabatlari deyarli bir xil edi. Biroq, eronlik va saudiyalik diniy ulamolar, 90-yilda Iroqning Quvaytga qilgan tajovuzini qoralab chiqqan bo'lsalarda, ammo, Saudiya Arabiston erlariga xorijiy davlatlarning qo'shinlari kiritilishini qattiq tanqid ostiga oldilar.

SAP hududlariga xorijiy qo'shinlar kiritilgandan boshlab Saudiya Arabistonidagi radikal islomchilari Podshohlikda AQSh kuchlarining mavjud bo'lishiga qarshi urush e'lon qilib, Podshohlikning Xobar va Dahron shaharlaridagi AQSh harbiy bazalarida bir necha teraktlar sodir etdilar.

Vashingtonning 2003 yilda Iroqqa qilgan harbiy operatsiyalari bir qator arab mamlakatlaridagi kabi Saudiya Arabiston va Eronlik ko'plab diniy rahbarlar va muxolif partiylar orasida qattiq noroziliklarni keltirib chiqardi.

RANDning yaqindagi xabariga ko'ra, mazhablar o'rtasidagi farq Saudiya va Eron o'rtasidagi aloqalarning yomonlashuviga olib keluvchi eng asosiy sabab emasligi keltirib o'tilgan. 2011-yilda Arab inqiloblari boshlangunga qadar ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar siyosiy doiradan ancha olislab ketgan edi<sup>69</sup>.

Saudiya – Eron ziddyatlarini mintaqadan tashqarida ham ko'rish mumkin. Bu ikki mamlakatning Yaqin Sharqdagi muammolar bo'yicha pozitsiyasi har xil. Uzoq davr hukmronlik qilgan diktatorlarning Tunis, Misr va Liviyada ag'darilishi AQSh tomonidan Saddam Husaynning olib tashlangandagi holati kabi mintaqadagi kuchlar muvozanatiga ta'sir qildi. Shunga qaramay, 2011-yildagi inqiloblar, 2003-yildagi Iroqdagi ozodlikdan farqli o'laroq, siyosiy islohotlarni kutishdan charchagan mahalliy aholi tomonidan amalga oshirildi. Bu inqiloblar har qanday ko'rinishdagi qiroliklarni ag'darishni o'zining bosh maqsadi qilib olgan siyosiy namoyishchilarni al-Saud oilasi uchun eng katta xavfga aylantirdi. Foreign Affairs jurnalida Maykl Doran tasvirlaganidek "Bugungi kun inqiloblari ish va siyosiy vakillikni o'zida birlashtirgan mahalliy talablar orqali amalga oshirilmoqda.". Saudiya va Eron ham bu kabi mahalliy muammolardan holi

<sup>69</sup> Doran M.S. The Heirs of Nasser: Who Will Benefit from the Second Arab Revolution? // Foreign Affairs. –No.3. –2011.

emas va shuning uchun ular o'z fuqarolariga har tomonlama qoniqtiruvchi sharoitlar yaratib berishi lozim.

Xususan, Suriya masalasida ikki davlat qarama-qarshili shunday: Suriyada Hozirda davom etayotgan B.Assad boshqaruvidagi hukumat va siyosiy-harbiy oppozitsiya o'rtaсидаги kurash bugunga kelib haqiqiy ma'noda mintaqaviy mojaroga aylandi. Chunki, bu Suriyaning o'zidagi ichki nizogina emas, balki mintaqadagi yirik kuchlar bevosita yoki bilvosita ikki tarafdan birini qo'llash orqali ushbu nizoga aralashib qolganligi bilan xarakterlanadi. Saudiya Arabistonni va Eron misolida oladigan bo'lsak, SAP anti-Assad muholifatiga yon bosuvchi mintaqaviy kuchlardan biri hisoblansa, Eron esa Assad hukumatini saqlab qolishga intiladi. 2009-yil oktabrda. SAP Suriya bilan munosabatlarning yaxshilanishida Damashqning mintaqadagi muhim rolini e'tirof etdi, ham B.Assad rejimi va Eron o'rtaсидаги munosabatlarining pasayishiga harakat qildi<sup>70</sup>.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunda Saudiyo Arabistonni musulmon olamiga yetakchi bo'lishga intilayotgani hech kimga sir emas. Musulmon olamida yuz berayotgan o'zaro mojarolar,g`alayonlarni yetakchidek bostirishga harakat qilmoqda. Musulmon davlatlariga imtiyozli qarzlar berib davlat iqtisodiyotini qo'lga olishni rejalashtirmoqda.Bu yo'l orqali mintaqada yetakchi bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Bu masalada islom dunyosida o'z o'rniغا ega bo'lgan Eron bilan raqobatlashmoqda. Raqobat izidan sekin astalik bilan ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Musulmon olamidagi bu ikki yirik davlatlar ko`plab masalalarda o'zaro kelishmovchiliklar yuz berib turibdi.Buni biz Suriya misolida ko'rishimiz mumkin.Saudiyo Arabiston Suriyadagi Bashar Asad hukumatiga muholifat hisoblansa,Eron esa aksincha Bashar Asad hukumatini qo'llab quvvatlab kelmoqda.Hozirgi kunda ham ikki davlatning ziddiyatli munosabatlari davom etib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yakovlev A.I. Islamskiy faktor v politike Sauditov v 90-e godы XX v. // Blijniy Vostok: problemy regionalnoy bezopasnosti (sbornik statey). – M., 2000.
2. Jdanov N.V. Islamskaya kontseptsiya miroporyadka. – M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 2003.

<sup>70</sup> Benedetta B. "The Ongoing Battle for Beirut: Old Dynamics and New Trends," INSS Memorandum No. 111, December 2011. –P.19.

3. Melixov I. Arabo-islamskaya sostavlyayushchaya vneshney politiki arabskix gosudarstv Persidskogo zaliva // Rossiya i muslimanskiy mir. – M.: INION, 2000.
4. Doran M.S. The Heirs of Nasser: Who Will Benefit from the Second Arab Revolution? // Foreign Affairs.–2011.
5. Benedetta B. "The Ongoing Battle for Beirut: Old Dynamics and New Trends.
6. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
7. Mamarajabov, B. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKİSTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 895-900.

**GEOSIYOSIY JARAYONLARDA O'RTA OSIYODA BUYUK BRITANIYA VA ROSSIYA  
MANFAATLARI DOIRASINING TO'QNASHUVI VA UNING ASOSIY SABABLARI.**

**Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Tarix fakulteti talabasi

Tel: +998919058632

e-pochta [sattorovfirdavs1601@gmail.com](mailto:sattorovfirdavs1601@gmail.com)

**Abdiyeva Odina Xolnazar qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi

Tel: +998907217539

e-pochta [abdiyevaodina2000@gmail.com](mailto:abdiyevaodina2000@gmail.com)

**Rahimjonov Jamshidbek Fayzullojon o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998934988887

e-pochta [jamshidbek.rahimjonov01@gmail.com](mailto:jamshidbek.rahimjonov01@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya va Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyo uchun raqobati, mustamlakachi davlatlarning o'z taraqqiyotining yuksak darajada ko'tarilishi, xonliklarning parchalanishi, Rossiya va Britaniya tomonidan ekspeditsiyalarning uyushtirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk Britaniya, Rossiya, O'rta Osiyo, U.Murkford, A.Byorns, Afg'oniston, Qo'qon, Xiva, Nikolay I.

**Аннотация:** В данной статье приведены сведения о конкуренции России и Великобритании за Среднюю Азию, подъеме колониальных стран в своем развитии, распаде ханств, организации экспедиций Россией и Британией.

**Ключевые слова:** Великобритания, Россия, Средняя Азия, У. Меркфорд, А. Бернс, Афганистан, Кокан, Хива, Николай I.

**Annotation:** This article provides information about the competition of Russia and Great Britain for Central Asia, the rise of the colonial countries in their development, the disintegration of the khanates, and the organization of expeditions by Russia and Britain.

**Keywords:** Great Britain, Russia, Central Asia, W. Murkford, A. Burns, Afghanistan, Kokan, Khiva, Nicholas I.

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Bu paytda jahonning yetakchi mustamlakachi davlatlari o'z taraqqiyotining yuksak darajasiga erishdilar. Ularda sanoat

to'natarishi amalga oshirildi. Sanoat zamonaviy fan - texnika yutuqlari asosida qayta jihozlandi. Tovar ishlab chiqarish keskin o'sib bordi. Kuchli dengiz flotlari tashkil etildi. Va shunga mos ravishda armiya ham zamonaviy qurol-yarog' bilan ta'minlandi. Ma'lumki rus imperatorlari Rossiyani ayni damda janubdagi iliq dengiz sohillariga olib chiqishga harakat qilishar edi. Bu esa ingliz manfaatlariga zid edi. Buyuk Britaniya nafaqat Markaziy Osiyonni qo'lidan ketishidan havfsirar edi. Ayni damda ingliz Hindistoni ham havf ostida qolishi hech gap emas edi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo'ldi: Buyuk Britaniya va Rossiyaning O'rta Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari; o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun o'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi; O'rta Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari. Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi<sup>71</sup>.

Yuqorida qayd etilgan ushbu —Katta o'yin da dunyoning qolgan yetakchi davlatlari nega faol ishtirok etishmadi yoki bo'lmasa ular nega jum turishdi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Gap shundaki bu paytda xonliklar faqatgina ingliz mustamlakalari va rus yerlariga tutash bo'lishgani uchun uchinchi ishtirokchining (Fransiya bo'ladimi, Germaniya bo'ladimi) kirib kelishining imkonи yo'q edi. Hindistonda mustahkam o'rashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlarini tuzgan Ost - Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi vositachiligidagi O'rta Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning O'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi. Ingliz ekspeditsiyalaridan biri U.Murkford boshchiligidagi uyushtirildi.

Murkford ekspeditsiyasi 1825 - yil fevral oyida Buxoroga yetib keldi<sup>72</sup>. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida 70 ta kishi bo'lib, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdar guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi. Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti - harakatidan noroziligini bildiradi. Rossiya hukmron

<sup>71</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 104 b.

<sup>72</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 104-105 b.

doiralarida borgan sari O'rta Osiyonibosib olish kayfiyati kuchayib bordi. 1826 - yilda Rossiya hukumati polkovnik F. Berg boshchiligidagi Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, O'rta Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi. 1831-yilda inglizlar O'rta Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar<sup>73</sup>. Elchilarga ingliz armiyasi leytenant Aleksandr Byorns boshchilik qildi. Ingliz ekspeditsiyasi vakillari odatda savdogarlar sifatida kirib kelishadi. A. Byorns 1832 - yilda Buxoroga kirib keldi. U o'zini arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu «tadbirkon» Buxoro xonligi qushbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Buyuk Britaniya hukumati Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining xonliklardagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'lli deb qarar edi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo - sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi. Xususan, hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar o'rta Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzonga sotilar edi.

Ma'lumki sanoat ishlab chiqarishining yuksalishi natijasida Buyuk Britaniya tarixida ilk bor 1825 yilda ortiqcha ishlab chiqarish krizisi sodir bo'lgan edi. Sotilmay qolgan mollarni arzon narxlarda hind orqali tashish boshlandi<sup>74</sup>. Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi O'rta Osiyoda ingliz savdosining rivajlanishiga yordam berdi. 1839 - yili Buyuk Britaniya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya – Buyuk Britaniya munosabatlari yanada keskinlashgan. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat O'rta Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839 - yili Hirotda o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari O'rta Osiyo xonliklariga yuborilib turildi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillaridan kapitanlar Jeyms Abbot, Charlz Stoddart, Konolli, Richard Shekspirlar Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga yetkazardi. Inglizlarning O'rta Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839 - yili Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenbug gubernatori V. A. Perovskiy rahbarlik qilgan edi<sup>75</sup>. Biroq urush qatnashchilarining o'zini sovuqqa oldirishi, oziq - ovqat, yem - xashakning tugab borishi oqibatida orqaga qaytadi. Bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi. O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosa - batlarining

<sup>73</sup> Osha joyda. 104 b.

<sup>74</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 105-106 b.

<sup>75</sup> Osha joyda. 106 b.

keskinlashuviga podsho Rossiyaning o'rta Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamlash yo'lidagi harakatlari sabab bo'ldi.

Xususan, 1847 - yilda Rossiya, xonliklarga olib boradigan yo'lida ikkita istehkom qurdi. Ularning biri – Aralsk shahri yaqinida barpo etilgan (Sirdaryo o'zani yaqinida) Raim istehkomi, ikkinchisi Yettisuv Olatog'idagi Kopal istehkomi edi. Bu istehkomlar Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan O'rta Osiyonini ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir. Bu hol O'rta Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham Xiva xoni Orenburgga o'z vakillarini yubordi. Xon o'z maktubida yaxshi qo'shnichilik o'rnatish hamda do'stona yashash istagini bildirgan hamda Raim istehkomini buzib tashlashni iltimos qilgan edi. Xiva elchilari 1847 - yilda Peterburgda podsho qabulida bo'lgan bo'lsalarda, ko'zlangan maqsadga erisha olmadilar<sup>76</sup>. Piterburg hukmron doiralari qal'a garnizoni elchilik va savdo karvonlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishini aytishadi. Xiva xonligining qurol kuchi bilan istehkomni yo'q qilish yo'lidagi urunishlari natija bermadi. Chunki, rus garnizoni yaxshi qurollangan edi. Bu paytda Qo'qon – Rossiya munosabatlari ham keskinlashgan edi. Qo'qon xoni Xudoyorxon ham yangi istehkomlar qurilganligidan tashvishga tushib qolgan edi. Natijada, Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuboradi. Podsho nomiga yo'llangan maktubda Xudoyorxon Nikolay I ga Qo'qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo'llari yaxshi qo'riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf - xatar yo'qligini bildirgan. Ayni paytda, Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ma'lum qilgan. Nikolay I o'z javob maktubida Qo'qonda tartib o'rnatilganligidan mamnun ekanligini bildirgann, biroq Raim istehkomi buzilmasligini tasdiqlagan edi. Podsho o'z fikrini Raim istehkomining avvalo Rossiya hududida qurilganligi bilan, ikkinchidan esa, bu istehkom u qurilgan hududda tartib va tinchlikni, savdo karvonlari osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qilayotganligi bilan «asoslagan» edi. Tez orada Qo'qon qa'lasi bo'lgan Oqmasjidni Rossiya bosib olishni mo'ljallayotgani ma'lum bo'Igach, Rossiya – Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashdi. Yuqorida qayd etilganlar ertami - kechmi Rossiyaning o'rta Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik yurishi boshlashi muqarrar ekanligini ko'rsatar edi.

Xulosa XIX asr oxiriga kelib jahonning yetakchi lider mustamlakachi davlatlari dunyoni bosib olishni yakunlashdi. Asosiy yirik mustamlakalar Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya qo'lida to'plandi. Buyuk Britaniya esa Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borgan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo'ladi.

<sup>76</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 107 b.

Afg'oniston esa Buyuk Britaniya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o'rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifatida e'tirof etiladi. O'rta Osiyo xonliklari endilikda yakkalanib qolib, ularni faqat o'zaro ittifoqlarigina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ularning o'rtasidagi o'zaro ziddiyat shu darajada kuchli ediki, hatto tashqi hujum xavfi ham ularni birlashtira olmadi. Oqibati yomon bo'ldi. Xonliklar Rossiya istilosini qurboni bo'lishiga yo'l ochildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. S.S.Safoev, Markaziy Osiyodagi geosiyosat, Toshkent, 2005 yil.
2. Назиров, Б. С. (2021). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИЛК ОТ СПОРТИ КЛУБЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).
3. Hasanov A, Geosiyosat, Toshkent, 2016. 20-25.
4. Sattorov F, "Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li", MEJDUNARODNIY NAUCHNO – OBRAZOVATELNIY SENTROM 2022 y.
5. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.
6. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 100-108 b.
7. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
8. Mamarajabov, B. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKİSTONLIK) LARGA DOIR TARİXY JARAYONLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 895-900.
9. Sattorov F, "Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazmda davlatchilik jarayonlarining yuksak bosqichlarga ko'tarilishi", Science and education scientific 2022.
10. Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С. 78-79.
11. Barthorp, Michael (2002) [1982]. Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.111-114.

**O'ZBEKISTONDA MUSIQA TURIZMI, UNING RIVOJLANISHI VA  
KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING O'RNI.**

**G'oziyeva Farangiz Umidjon qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Xalqaro turizm fakulteti magistranti*

[ferkinova049@gmail.com](mailto:ferkinova049@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ko'pgina sayohatchilar noyob turizm sohalariga qiziqadilar va musiqa turizmi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Musiqa turizmi hozirgi kunda eng ko'p daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib, ko'plab mintaqalar musiqa turizmi orqali daromadga ega bo'lishmoqda. Bu turizm insonlarning musiqiy shou, konsert, yarmarkalar, musiqa spektaklari va hattoki kattaroq festivallarda ham qatnashish imkonini beradi. Festivallarda qo'llaniladigan aloqa vositalari ommaviylikka erishish uchun samaralidir. Kommunikatsiya kattaroq auditoriyani qamrab olishga yordam beradi. Sifatli reklama va PR musiqa turizmining muvafaqqiyatini ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** turizm, festival, shou-konsert, gastronomik turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, kommunikatsiya.

Musiqa turizmida sayohatchilar sevimli musiqachilarini jonli sahnalarda ko'rish orqali zavqlanadilar. Shuningdek, musiqiy tamosha olib boriladigan joylarni ko'rib keladilar. Ular konsert va musiqiy shoularga chipta sotib olishganlarida tabiiyki albatta o'sha joyda biror muddat qolishlariga to'g'ri keladi. Va mahalliy iqtisodiyotga ham bu soha foyda keltiradi. Masalan; mehmonxonalarini bron qilish, restoran, kafelarda ovqatlanish, ichimliklardan olinadigan daromadlar. Shu va boshqa ko'plab sabablar bilan ko'plab hududlar musiqa turizmini qadr-qimmatini tan olishmoqda. Musiqa turizmining yana bir jihatlaridan biri bu musiqa festivallaridir. Musiqa festivallarini tashkil qilinishi biznes egalari uchun ancha yaxshi. Chunki festivallar o'tkazilishi 3-4 kun yoki ishtirok etuvchilar soniga qarab 1 hafta va undan ham ko'roq bo'lishi mumkin. Musiqa festivallarida yakka ijrochilikdan ko'ra ko'proq jamoa ijrochilar, raqs guruhlari qatnashadilar va bu ishtirokchilar hamda turistlarning qiziqish imkoniyatlarini oshiradi. Davlatlarning madaniy jihatdan o'z ma'lum bir musiqa uslublari mavjud va shu uslublari bilan muxlislarni o'zlariga jalb qilishadi. Ommaviy kommunikatsiyaning asosi imkon qadar katta auditoriyani qamrab olishdir. Ommaviy bo'lsa-da televidenie reklamasi kabi aloqa shaxsiylashtirishni deyarli imkonsiz qiladi, u katta auditoriyani tez va arzonga yetkazish

imkoniyatini beradi. Bunday turdag'i ko'p ommaviy reklama ma'lumotlarini qayta ishslash tizimi tomonidan e'tiborga olinmaydi. Biroq, odatda, bu ommaviy auditoriyada, har doim ham faol bo'lgan odamlarning qiziqishlarini oshiradi. Bundan tashqari, turizm va mehmondo'stlik sohasidagi xodimlar trening va leksiyalarda muntazam qatnashib borishi kerak. Chunki xodimlarning muloqat qobiliyatları mijozlar bilan ijobjiy munosabat yaratishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu muloqat an'anaviy usullar (uchrashuvlar, konferensiyalar va seminarlar), shuningdek, zamonaviy texnologiyalar (telefon, elektron pochta, internet va ijtimoiy media) orqali amalga oshiriladi. Ushbu muloqot usullari siyosatchilarni, turistik sohada ishlaydiganlarni va sayyoohlarni o'qitish uchun juda muhimdir). Texnologik va media nuqtai nazaridan turistik aloqa turli shakkarda, bosma ommaviy axborot vositalari, televideniya, radio, internet va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari va texnologik qurilmalarni o'zgartirish orqali joylar, diqqatga sazovor joylarni turli xil tashrif buyuruvchilar sayyoohlarga yetkazish mumkin.

O'zbekistonning musiqa uslublari boshqa mamlakatlarning musiqiy uslublaridan o'zgacha va o'z muxlislariga ega. Musiqa - mo'jizalar o'lkasi. Unda inson ruhiyati yashiringan bo'lib, ohangi va aks-sadosi ila orom olinadi. Musiqa dunyo madaniyatini bog'lab turuvchi bir ko'prikdir. Shu jumladan, o'zbek musiqasi uning madaniyatini anglash kaliti desak mubolag'a bo'lmaydi. An'anaviy o'zbek musiqasining kelib chiqishi qadimlarga borib taqaladi. Bunga misol: Samarcand va Termizda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida O'zbekistonning milliy cholg'ulari aks ettirilgan freskalar topilgan. An'anaviy musiqiy asarlar, asosan, folkлага yo'naltirilgan. Alisher Navoiy, Jomiy, Muqimiy va ko'plab taniqli, qalami ko'kka yetgan ijodkorlarning she'r, doston va g'azallari baxshilar tomonidan ijro etilgan. O'zbekistonning noyob musiqiy janri "Shashmaqom" esa Yuneskoning insoniyat og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonalari ro'yxatiga kiritilgan. "Shashmaqom" olti maqomdan iborat bo'lib, bular: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq kabilardir. Olti uslubning har biri o'z ritmiga, tartibiga va qiymatiga ega. Bu musiqa uslubini bir guruh qo'shiqchilar, sozandalar an'anaviy dutor, tanbur, doira kabi cholg'u asboblari bilan ijro etib kelishgan. Demak, an'anaviy musiqa asboblarisiz o'zbek musiqa san'atini tasavvur qilish qiyin. Ularning ovozini yuzlab metr balandlikdan ham tinglash mumkin va bu jarayon har kimni o'ziga jalb qila oladi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, o'zbek estradasi vujudga keldi, mahalliy janrlar jonlandi. Lekin shunday bo'lsada an'anaviy musiqaga

bo'lgan e'tibor, ham talab pasaygani yo'q. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda musiqa turizmini shakllantirish va rivojlantirish kerak.

O'zbekistonda Musiqa turizmi – bu biron bir davlat o'z sayyoohlaring Toshkent shahri yoki viloyatlarimizni ziyorat qilishi yoki tomosha qilishi mobaynida, ularga kreativ ruhdagi musiqa festivallarini uyushtirib berishimizdir. Bu festivallar davomida mehmonlar an'anaviy cholg'ularda ijro etilgan qo'shiqlarni tinglashi va musiqiy cholg'ularni ko'rishi ham mumkin. Bu ularga estetik ruh va madaniy hordiq beradi.

O'tkazilgan tajribalarga ko'ra, xorijiy mehmonlar o'zbek musiqa san'atiga ham qiziqishadi. Musiqa turizmi loyihasi asosida sayyoohlarni o'zbek xalq musiqalari, folklor, lapar, shuningdek, "Shashmaqom" va "Lazgi" kabi madaniy merosimizni tinglashga, O'zbekiston Davlat Kanservatoriysi qoshida ochilgan musiqiy cholg'ular muzeyini tomosha qilishga va hatto ularni ijro etib ko'rishga, yetuk ustozlarining ijodlarini tinglashga va ular bilan suhabatlar uyushtirib ko'ngilochar musiqiy kechalarda ishtirok etishga jalb etish mumkin.

Bu turizm biznes egalari uchun ham qo'shimcha daromad olish imkoniyatini beradi. Masalan: restoran, qahvaxonalar yoki barlarda uyishtirilgan musiqa shoularida, ovqatlanish va ichimliklardan olinadigan daromadlar va ochiq havoda uyushtiriladigan musiqiy tadbirdarda yegulik va ichimliklardan olinadigan daromadlar doimiysiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari milliy cholg'u asboblari, milliy kiyimlar, haykaltaroshlik buyumlari yarmarkasini tashkil qilish va yana bir qancha tadbirdarni o'tkazish mumkun. Musiqiy turizmga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o'zida ziyorat turizmi bilan ham (Samarqand, Buxoro, Xiva) kabi tarixiy shaharlarni sayr qilishlari, ekoturizm bilan ham (O'zbekiston flora va faunasini ) tomosho qilishlari, gastronomik turizm bilan ham vaqtlarini o'tkazishlari mumkin.

### **Xulosा:**

Musiqa turizmi, eng avvalo, davlat uchun foya keltiradi. O'zbekistonda ham bu turizm rivojlansa, o'zbek musiqa san'ati dunyoga taniladi Musiqa turizmini O'zbekistonda ham rivojlantirishimiz mamlakat manfaati uchun foydalidir va yana bir turizm yo'nalishida ajoyib yangilikdir.

Kundalik hayotimizda muloqot o'z tajribalarimiz va ehtiyojlarimizni baham ko'rishga imkon berib, munosabatlarni o'rnatishimizga yordam beradi va boshqalar bilan bog'lanishimizga yordam beradi. Bu hayotning mohiyati bo'lib, bizga his-tuyg'ularni ifoda etish, ma'lumot uzatish va fikr almashish imkonini beradi. Biz hammamiz samarali muloqot qilishimiz kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Blacksoulrhythms.com
2. Diggitmagazine.com
3. En.m.wikipedia.org
- 4.Researchgate.net
- 5.Cipp.org.uk

## **THE ROLE AND IMPORTANCE OF USING FILES IN STORING LARGE VOLUMES OF DATA**

assistant **Normatov Nizamiddin Kamoliddin o'g'li**

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Uzbekistan

[normatov@jnuu.uz](mailto:normatov@jnuu.uz)

student **Sirojiddin Mukhtorov**

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Uzbekistan

[mukhtorovs468@gmail.com](mailto:mukhtorovs468@gmail.com)

**Abstract:** It is a practical tool needed for working with big data and for storing and transferring data generated in many fields to other services. Using files is one of the strategic and experiential methods of analyzing and processing data. In this section, we will learn how to retrieve large amounts of data from a file and save the required data to a file at the end of the program. Working with files allows both program users and the program to upload the data they want.

**Keywords:** Argument, text editor, format, function, method, console, block, command, object, archiving, optimization.

**INTRODUCTION.** Files for storing large amounts of data are the most widely used means for storing variables, texts, images, audio, and video data. Files allow you to store, read, edit, delete, and other operations. Files are important when storing large amounts of data for the following reasons. Depending on their size and layers, data can support large volumes.

- Data Reprocessing:** Files allow data to be reloaded, read, edited, and deleted. This makes it easy to perform various analyzes and operations on the data.

- Data protection against external influences:** The data in the files can be influenced from the outside (access, change, deletion, destruction), it is possible to protect the file with a password and create the relevant files only for the necessary people.

- Use for writing public data:** Files are convenient for public data storage and connection to other programs. It makes it easy to share data over the internet by sending a file.

- Long-term data storage:** Files allow long-term data storage and archiving. This makes it easy to archive and restore.

- Ease of platform variability:** Files are independent of the operating system, making it easy to store and share data across platforms.

**LITERATURE ANALYSIS AND METHODS.** In many cases, it is necessary to read large data directly from files during the program. It is especially natural for analysis programs to work with large tables stored in file format. But working with files is also useful in other cases, for example, when writing a program that automates the conversion of plain text into html. The first step in working with files is to copy the data in the file to the computer memory. There are several ways to do this, we will get acquainted with them below:

**Read the file.** To get started we need a file. Let's create a new pi.txt file and put the following text inside it:

```
3.1415926535
8979323846
2643383279
```

Download the pi.txt file. Our three-line file stores the value of the number  $\pi$  (with 30-digit precision). To read the file completely, we write the following code:

```
with open ('pi.txt') as file:
    pi = file.read ()
```

Let's analyze the code:

- In the first line, we open the file using the `open()` function. Here we are giving the file name as an argument to the function. Here it is important that the file we are opening and our program are in the same folder.

- The `open()` function returns the file as an object, and with the `as` operator, we are naming our object file.

- In the second line, using the `.read()` method, we take the text we need from the content of the file object and load it into a new, PI variable.

- The `with` operator is to close the file when we are done with the file. In the above example, after line 2, Python immediately closes the file.

The method we saw above is the safest way to work with the file. In fact, we could open files directly using `file=open('pi.txt')` and close the file using the `file.close()` command when we are done with the file:

```
file = open ('pi.txt')
PI = file.read ()
print (pi)
file.close ()
```

But this method is dangerous and not recommended. The point is that after we open the file using the `open()` function, our file remains open until we call the `close()` method. If we do not close the file in time, or if our program stops before the file is closed, the contents of the file may be damaged and data may be lost. For example, other programs (such as

Microsoft Word) can damage your file if your computer shuts down before closing the file, or if the program closes accidentally.

Therefore, when we call the `open()` function through `with`, our file remains open until the end of the `with` block, and when the `with` ends, the file is also closed. So we have to perform operations on the file in the `with` block.

Now let's plot the value of pi:

```
>>> print(pi)
3.1415926535
8979323846
2643383279
```

The text is output to the console exactly as it was stored in the file. While the data stored is a number, the value returned when we read from the file is text. To convert the text to a number, we do a little processing on it:

```
pi = pi.rstrip () # we remove the spaces at the end of the line
pi = pi.replace ('\n', '') # we replace the carriage return
pi = float (pi) # convert the text to a float (decimal) number
print (pi)
```

Result: 3.141592653589793

**The `.replace()`** method is used to replace a character or character in text with another character or character.

**Open a file inside a folder.** If the file you are opening is not in the same folder as our program, but in a folder inside this folder, the folder name is written before the file name:

```
with open ('data/pi.txt') as file:
pi = file.read ()
```

If there are multiple folders, it is better to record the file name and the folders before it separately:

```
filename = 'data/math/numbers/pi.txt'
with open (filename) as file:
pi = file.read ()
```

While Windows uses the ``\`` character between folders, Python uses the ``/`` character. If the \ character is used, this character is written twice:  
C:\\python\\\\lessons\\\\data

**Reading a file line by line.** Sometimes it may be necessary to read the file line by line rather than the entire file. For example, when a file stores students' names or daily weather data, etc. In such cases, we use a `for` loop:

```
filename = 'data/students.txt'
with open (filename) as file:
```

```
for line in file:
```

```
    print(line)
```

The result:

Alijon Valiyev

Hasan Olimov

Rahima Muminova

To save the lines as a list, we use the .readlines() method.

```
with open (filename) as file:
```

```
students = file .readlines ()
```

```
print (students)
```

Result: ['alijon valiyev\n', 'hasan olimov\n', 'rahima muminova\n', 'hamida aqilova']

**Write the file.** The most convenient way to save data is to write it to a file. After our program stops executing, the data in memory may be erased, but the data written to the file will remain. We can load the files back into memory in the future and continue our program from where we left off.

Above, we used the open() function to open a file, passing the filename as the only argument. In this case, the file is opened for reading only, it cannot be written to. When calling the open() function to write data to a file, we provide another argument in addition to the file name. The second argument specifies what exactly we want to open the file for. Arguments can be:

Argument	Application	Content
'w'	open('file.txt','w')	Open the file for writing. If the file does not exist, a new file will be created. If the file exists, its contents will be deleted
'r'	open('file.txt','r')	Open a file as read-only (not writable)
'w+'	open('file.txt','w+')	Open the file for reading and writing. If the file does not exist, a new file will be created. If the file exists, its contents will be deleted.
'r+'	open('file.txt','r+')	Open the file for reading and writing.
'a'	open('file.txt','a')	Open to add information to the file. If the file does not exist, a new file will be created.
'a+'	open('file.txt','a+')	Write to read and add data to a file. If the file does not exist, a new file will be created.

**Write to a new file.** We use the 'w' (write) argument when calling the open() function to write data to a new file . To add information to the opened file, we call the .write() method.

```
filename = 'ustozlar.txt' # the name of the file being opened (created).
```

```
with open (filename,'w') as file:
```

```
file. write ('anvar narzullaev') # information being written to the file
```

**Add new data to the file.** If we need to append data to an existing file, we use the 'a' (append) argument when calling the open() function. This will append the newly added data to the end of the file.

```
with open(filename,'a') as file:
```

```
file.write('Alijon Valiyev\n')
```

```
file.write('2000')
```

Added new information to the file

If the file we're opening doesn't exist, Python will create a new file.

### **LIST OF REFERENCES:**

1. Obid o'g A. S. J. et al. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 15. – C. 132-137.
2. Nizomiddin N. et al. TA'LIMDA DASTURLASH JARAYONINI BAHOLASHGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMNI TADBIQ ETISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 24-28.
3. Ziyoda M., Nizommiddin N. RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN'YIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TURLI SOHALARDA AVTOMATLASHTIRISH VOSITALARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 246-250.
4. Чорркулов Г., Норматов Н., Мамараимов А. Роль анализа текстовых связей в электронных документах в информационной безопасности //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 67-71.
5. Норматов Н., Мамараимов А. Ta'limgiz tizimida baholash tizimini avtomatlashtirishni joriy etish jarayonlari va foydalanish metodlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 356-359.
6. Мамараимов А., Чорёркулов Г., Норматов Н. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 38-44.

7. Kamoliddin o'g'li N. N. et al. ERWIN DASTURI YORDAMIDA IDEF0, IDEF3 VA DFD STANDAT DIAGARAMMALARIDAN FOYDALANIB TIZIM SIFATIDA YARATILGAN UNIVERSITETNING MONITORING BO 'LIMI LOYIHASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 378-386.
8. Тавбоев С. А. и др. НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ И ЗАДАЧИ ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ И РАСПОЗНАВАНИЯ ИЗОБРАЖЕНИЙ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 334-339.
9. Abdurahimovich A. A., Kamoliddin o'g'li M. A. SANOQ SISTEMALARIDA VAQT TUSHUNCHASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 331-334.
10. Tavboyev Sirojiddin Akhbutayevich, Mamaraimov Abror Kamoliddin ugli, and Karshibaev Nizomiddin Abdumalikovich, "Algorithms for Selecting the Contour Lines of Images Based on the Theory of Fuzzy Sets", TJET, vol. 15, pp. 31–40, Dec. 2022.
11. Obid o'g A. S. J. et al. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 132-137.
12. Naim o'g'li M. D., Shokir o'g'li B. Z. МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ С УЧИТЕЛЕМ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 1260-1264.
13. Мамараимов А., Мухторов Л., Раҳимов А. Fanlarni o'qitishda netsupport school ilovasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 266-273.
14. Мамараимов А., Мухторов Л., Раҳимов А. Fanlarni o'qitishda netsupport school ilovasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 266-273.
15. Choryorqulov G'.H., & Qosimov N.S. (2023). ELEKTRON JADVAL MODELINING TAVSIFLANISHI. PEDAGOOGS Jurnali, 30(3), 67–73.
16. Amrullayevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 641-645.

## QADIMGI XORAZM TARIXIY-ME'MORCHILIK YODGORLIKHLARI

**Tagandurdiyeva Shasenem Qurbon qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Tarix fakulteti Tarix ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada Qadimgi Xorazm davlati, me'morchilik inshootlari, ularning qurilish uslublari, o'r ganilish asoslari arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar haqida ma'lumot berish.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Xorazm, Tuproqqal'a, Kat(hozirgi Beruniy), Yonboshqal'a, Tolstov, Y.G'ulomov, Qalaligir.

Xorazm (arabcha: خوارزم – Amudaryo sohillarida markazga ega O'rta Osiyo qadimiy mintaqasi – qadimiy davlat va rivojlangan irrigatsiyali dehqonchilik, hunarmandlik va savdo mintaqasi. Xorazm orqali Buyuk Ipak yo'li o'tgan. III asr oxirlarida Xorazm poytaxti Kat shahri bo'lgan; X asr oxirlarida poytaxt Urganch shahriga ko'chiriladi (hozirgi Ko'hna Urganch shahri).Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan. Shu boisdan bu qadimiy tarixiy hudud fanda 2 xil: Qadimiy Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma'lum. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Avesto, Doro I ning Behistun kitoblari, qadimiy yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Strabon va hokazo) hamda ilk o'rta asrlarning arab geograflari asarlarida mavjud.Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtida Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqeя Xorazmga odam joylashishidan 92 yil keyin bo'ldi". Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'y lab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aligir, Ko'zaligir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir.Xorazm tarixini chuqr o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston

madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'mni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqaqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'mni bunga misol bo'la oladi.Tuproq qal'a (milodiy I-VI asrlar) Sulton Uvays tog' tizmasidan bir necha kilometr janubda joylashgan. Ushbu qal'a antik davrda, Afrigidlar sulolasi hokimiyatga kelishidan oldin, Qadimgi Xorazm hukmdorlarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. Yodgorlikning nomi, uning hozirgi holatidan kelib chiqib, katta tuproq tepalik degan ma'noni anglatadi.Tuproq qal'a majmuasi - shahar, yuqori saroy va shimoliy majmuadan iborat.Shahar - maydoni  $500 \times 350$  m. to'g'ri burchakli shaklda bo'lib, balandligi 8-9 metrli mudofaa devorlari bilan o'rangan. Bundan tashqari, shahar ko'plab yassi burchakli to'rtburchak minoralarga ega bo'lib, yon atroflari keng xandaq bilan o'rangan. Shahar darvozasi murakkab inshoot shaklida qurilgan bo'lib, ushbu darvozadan butun shahar bo'ylab qal'agacha kengligi 9 m. bo'lgan markaziy ko'cha o'tgan. Otashparastlar ibodatxonasida ko'plab o'choqlar aniqlangan. Yodgorlikdagi yana bir binoda qo'chqor shoxlari, shisha idishlar, gips haykallar parchalari ko'rinishidagi oltin bilan ishlov berilgan bilaguzuklar va boshqa zargarlik buyumlari topilgan.Yuqori saroy - kesilgan piramida shaklidagi saroyning asosiy massivi hom g'ishtdan qurilgan bo'lib, fasadi vertikal bo'rtib chiqqan naqshlar tizimi bilan bezatilgan. Tahorat xonasi, qurol-yarog'lar saqlash xonasi sifatida ishlatilgan taxminan 100 taga yaqin inshootlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Yuqori qavatda tavba qilish uchun qurbanliklar qilinadigan ibodatxona mavjud bo'lgan.Saroyning asosiy qismini ibodat va marosim xonalari majmuasi egallagan. Inshootning devorlari naqshlar bilan, unga tegishli beshta zal esa rangbarang sopol barelyeflar bilan bezatilgan. Ushbu bezaklardan oz qismi bizgacha yetib kelgan.Kot, Kat, Kas — Xorazmdagi qadimiy shahar xarobasi bo'lib, hozirgi Beruniy shahridan 2,5 km shimolroqda joylashgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Kat turli davrlarda turlicha atalgan bo'lib (masalan Kas, Kaj, Fir, Fil) xorazmiy tilida „qishloq“ degan ma'noni anglatgan. Yoqt Xomaviyning yozishicha, Kat Jayhun (Amudaryo)ning sharqiy qirg'og'ida, Jurjoniyadan 20 farsax narida bo'lgan. Undagi jome masjidi va xorazmshoh qarorgohi qal'a ortida joylashgan. Bozor shaharning markazida, Jardurishak soyi bo'yida bo'lgan. Muqaddasiy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Kat shahriston deb ham atalib, u kattaligi jihatidan Nishopurga teng edi. „Hudud ul-olam“ ga ko'ra, Kat o'rta asrlarda turki y elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan.

Samoni esa o‘zining „Kitob ul-ansob“ asarida Kat rabodi „berun“ deb atalganini qayd etgan.Y. G. G‘ulomov birinchi o‘zbek arxeolog-mutaxassisidir. Uning arxeologik dala ishlardagi ishtiroki 1930-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, mashhur arxeolog M. E. Masson 1933-yilda Ayritama traktida (Termiz yaqinida) olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarini tasvirlar ekan, „Yosh yangi tadqiqotchi Samarqand pedagogika instituti bitiruvchisi Yahyo G‘ulomov“ ekspeditsiyasida ishtirok etganini eslatib o‘tadi. Ya. G‘.G‘ulomovning mustaqil arxeologik tadqiqotlari 1936-yilga to‘g‘ri keladi.Qadimgi Xorazm hududidagi alohida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan arxeologik topilmalar, birinchi navbatda, S. P. Tolstov boshchiligidagi SSSR Fanlar akademiyasining Xorazm ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan arxeologik topilmalar yaxshi ma’lum. Lekin, S. P. Tolstovning yozishicha, uning o‘tmishdoshlari Yahyo G‘ulomov va T.Mirg‘iyozovkabi toshkentlik arxeologlar bo‘lgan. 1937-yilda Y.G‘ulomov Janubiy Qoraqalpog‘istonning qadimiy sug‘orish yerlarida o‘z faoliyatini davom ettirib, o‘rta asrlardagi Guldursun va Naridjon manzilgohlarini, milodiy birinchi asrlarga oid Shabbaz yaqinidagi Pilkala xarobalarini o‘rganadi. 1938-yildan SSSR FA Moddiy madaniyat tarixi institutining S. P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibida ishlagan.1943-yilda „Xiva va uning yodgorliklari“ mavzusida nomzodlik, 1950-yilda esa „Xorazmning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha sug‘orilishi tarixi“ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi[3]. 1955-yil mart oyida unga professor unvoni berildi.Jayhun (Amudaryo)ning ko‘hna o‘zani bo‘yida; Toshhovuz viloyatining Oqtepa (Akdepe) shahridagi Amudaryoning qadimiy SarIQamish bo‘yi deltasи hududida joylashgan Ko‘zaliqir manzilgohi Xorazm tarixidagi arxaik davrning eng yirik yodgorligidir. Uning maydoni 25 hektar, qal‘a devorlarining umumiyligi uzunligi taxminan 3 km ni tashkil qiladi. Yuriy Rapoortning ta’kidlashicha, Ko‘zaliqir Gekatey Miletlikning „Yerning tavsifi“ asarida tilga olingan qadimgi Xorazm shahrida ham mavjud bo‘lgan.Qal‘aliqir – (yoki Kalaly-gyr; shuningdek Ayritam; turkmancha: Galalygyr) – hozirgi Turkmaniston hududidagi yo‘qolgan qadimiy shahar, miloddan avvalgi V-IV asrlarda qadimgi Xorazmning ikkinchi poytaxti bo‘lgan. Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotiga ko‘ra, maydoni 70 hektarga yaqin bo‘lgan Qal‘aliqir 1 qal‘asi Xorazmdagi eng yirik qadimiy manzilgoh hisoblanadi.Ayoz qal‘a — milodiy II—IV asrlarga oid uchta qal‘a xarobasidan iborat arxeologik yodgorliklar majmuasi[1]. Manzilgoh Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan. Qizilqum cho‘liga qaragan tepalik cho‘qqisidagi bu joy qadimiy Xorazm qal‘asi xarobalarini o‘z ichiga oladi. Ayoz qal‘ani Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib (1937),

unda arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu majmuadagi uchinchi qal'a mufassalroq o'rganildi. Uning sahni  $260 \times 180$  m bo'lib, hovli va 40 xonali binodan iborat. Xonalarining umumiyligi maydoni  $2400\text{ m}^2$ . Xona devorlari to'rtburchakli xom g'ishtdan terilgan. Ayoz qal'a majmuasida, asosan Kushon podsholigi davriga doir sopol, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va tangalar, jumladan, Kanishka pullari topildi. Ayoz qal'a o'z davrida Xorazmning shimoli-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Ayoz qal'a — milodiy II—IV asrlarga oid uchta qal'a xarobasidan iborat arxeologik yodgorliklar majmuasi[1]. Manzilgoh Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan. Qizilqum cho'liga qaragan tepalik cho'qqisidagi bu joy qadimiy Xorazm qal'asi xarobalarini o'z ichiga oladi. Ayoz qal'ani Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi topib (1937), unda arxeologik qazishmalar olib bordi. Bu majmuadagi uchinchi qal'a mufassalroq o'rganildi. Uning sahni  $260 \times 180$  m bo'lib, hovli va 40 xonali binodan iborat. Xonalarining umumiyligi maydoni  $2400\text{ m}^2$ . Xona devorlari to'rtburchakli xom g'ishtdan terilgan. Ayoz qal'a majmuasida, asosan Kushon podsholigi davriga doir sopol, mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari va tangalar, jumladan, Kanishka pullari topildi. Ayoz qal'a o'z davrida Xorazmning shimoli-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Kot Xiva bilan birgalikda Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. 1372-yilda uni Amir Temur egallagan. 17-asrda yangi Kotni suv bilan ta'minlab turgan yopni Amudaryo yuvib ketganligidan Xiva xoni Ano'shaxon daryoning chap qirg'og'ida Toza Yormish yopni qazdirib, uning bo'yida bir qal'a qurdirgan (1681), so'ng eski shahar aholisi o'sha yerga ko'chib o'tgan. 19-asr boshida bu joyni ham Amudaryo yuvib ketib, yangi Kat aholisi daryoning o'ng sohilidagi Shayx Abbas vali mozori tevaragiga kelib joylashgan. Shundan e'tiboran bu yer Shobboz deb atala boshlagan. 1957-yil Shobboz shaharchasiga Beruniy nomi berilgan. 1962-yildan shu nomli shahar. 1937-yil S. A. Tolstoy rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Kat shahar harobasida tadqiqot ishlari olib borib quyidagilarni aniqladi: u yerda saqlanib qolgan qal'a vayronasining maydoni  $220 \times 220$  m, burjlar bilan mustaqamlangan. Qal'aning janubi-sharqiy burchagidagi ko'shk ( $54 \times 54$  m) esa qalinligi 6 m, bal. 11 m keladigan devor bilan o'ralgan. Topilgan tangalarning bir tomonida qirra burunli, soqoli siyrak, ko'zlari katta-katta Afrig' tasvirlangan, uning bo'ynida ikki qator marjon shodasi, boshida esa old qismini yarim oy bezatib turgan toj mavjud. Tangalarning ikkinchi tomonida an'anaviy chavandoz tasviri, uning tepasida yunoncha, ostida esa xorazmiy tilida „podshoh Afrig“ deb bitib qo'yilgan. Shayx Abbas Vali maqbarasi, minora va pishiqlik g'ishtdan qurilgan shahar devori qoldiqlari

hamda qal'a harobasi hozirgacha saqlanib qolgan. Xalq mazkur qal'ani „Pil qal'a“ („Fil qal'a“) deb ataydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Yusupov.X.,„Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области“. Туркменистан (1989). 23-may 2023-yilda asl nusxadan arxivlandi.
- 2.Tolstov.S.P."Древний Хоразм"М.1948
- 3.Yahyo G'ulomov."Qadimgi Xorazm sug'orish tarixi.Qadim zamonlardan hozirgacha". T.1959
- 4.O'zbekiston qadimgi madaniyati T.1944
- 5.Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T.1964

**TASKS OF AUTOMATION OF INSTALLATION WORKS OF BUILDING STRUCTURES**

Katta- o'qituvchi, **Safarov I.U**

(SamDAQU), email:safarovibodulla@mail.ru.

tel. +998915536097.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qurilish konstruktsiyasi elementini montaj jarayonini avtomatlashtirish, lazer tizimini qo'llanilishi vazifalari orqali ish unumdorligini oshirishga erishilishi keltirilgan. Buning uchun, CoDeSys muxiti ST dasturi, dasturlanuvchi kontrollerni qo'llanilishi orqali qurilish konstruktsiyasi panelni montaj jarayonini holatini nazorat qilinishi sxemasini avtomatik boshqarish va uning vizualizatsiya modeli ishlab chiqilgan.

**Annotation:** This article shows how to achieve an increase in labor productivity by automating the process of installing elements of a building structure, using a laser system. For this purpose, the ST software has been developed in the CoDeSys environment, automatic control of the circuit, control of the state of the process of mounting the panel of the building structure using a programmable controller and a model of its visualization.

**Аннотация:** В данной статье показано, как добиться повышения производительности труда за счет автоматизации процесса монтажа элементов строительной конструкции, с применением лазерной системы. Для этого в среде CoDeSys разработано программное обеспечение ST, автоматическое управление схемой управления состоянием процесса монтажа элементов конструкции здания с помощью программируемого контроллера и модель ее визуализации.

**Kalit so'zlar:** konstruktsiya, fotoqabulqilgich qurilmasi, mantiqiy dasturlanadigan kontroller, avtomatlashtirish, lazer ,CoDeSys muhiti, ST dastur tili.

**Keywords:** construction, photodetector, logic programmable controller, automation, laser, CoDeSys environment, programming language ST.

**Ключевые слова:** конструкция, фотоприемник, логический программируемый контроллер, автоматизация, лазер ,среда Codesys, язык программирования ST.

**Kirish.** Qurilish konstruktsiyalarini montaj qilish- bu qurilishni asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, kelajakda binoni ekspluatatsiyasi qilinishi ishlariga bevosita bog'liq. Binoning chidamliligi va konstruktsiyasining ekspluatatsiya

qilinishi jarayonida uskunaning me'yoriy talab darajasida ishlashi qurilish konstruktsiyasining yig'ma elementlarini belgilangan holatda o'rnatishning aniqligiga bog'liq.

Qurilish konstruktsiyalarining montaj qilinishida shunday jarayonlar bajariladi, binoning belgilangan holatda o'rnatish asosiy va yordamchi o'qlarini va boshqa geodezik o'lchovlar, konstruktsiya elementlarni tashish, qurilish maydonchasida yig'ish, qamrov ularni loyiha holatiga mos o'rnatish, payvandlash, betonlash yoki boshqa usullar bilan mahkamlash amalga oshiriladi.

Lazer texnologiyasidan foydalanish montaj ishlarining sifatini nazorat qilishni sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi. Lazer nurlari proektsiyasining aniqligi masofaga bog'liq emasligi va mavjud geodeziya asboblari bilan taqqoslaganda aniqroq natijalarga erishishga imkon beradi.


**Ushbu maqolaning maqsadi:** Qurilish konstruktsiyalarining montaj jarayonlarini avtomatlashtirish va modellashtirish muammolarini yechimini topishda lazer asbobi qo'llanilishi vazifalari ko'rib chiqilgan. Ko'rib chiqilayotgan texnologik jarayonning CodeSys muhiti ST dasturlash tilini hisobga olgan holda binolarni barpo etishda qurilish konstruktsiyalarini montaj ishlarini lazer ko'p maqsadli asbobi yordamida bajarilishini simulyatsiya modelini ishlab chiqish.

**Asosiy qism:** Montaj amallarini bajarilishini nazorat qilish jarayonini avtomatlashtirishning istiqbolli yo'nalishi matritsali fotodiod panellaridan foydalanish bo'lib, ular mikroelektron axborotlarni qayta ishlash qurilmalari bilan birgalikda qurilish konstruktsiyasining holatini yuqori aniqlik bilan qayd etish va ijro etuvchi mexanizmlarga boshqaruv signallarini berish imkonini beradi.

Poydevorlarni montaj qilishda, ustunlar va panellarni o'rnatishda binoning asosiy konstruktiv qismlarining belgilangan holatda o'rnatish o'qlari lazer asboblari orqali beriladi.

Geodezik o'lchovlarni avtomatlashtirish va konstruktsiya elementlarini belgilangan holatda o'rnatish uchun lazer, mayatnik va giroskopik asboblar qo'llaniladi . Masalan , PML-1 ko'p maqsadli lazer asbobi gorizontal va vertikal o'qlarni, shuningdek qurilish konstruktsiyalarini o'rnatish paytida tekisliklarni yaratishga imkon beradi . [149-151]

Lazer nur yo'naltirgich (LY) kerakli o'qni yorug'lik nuri yordamida o'rnatiladi va o'rnatilayotgan konstruktsiyaning holati unga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri o'rnatilgan element 2 yoki o'lchov ustuni 7 orqali fotoqabul qilgich (FQQ) 4 tomonidan boshqariladi (1- rasm).



1-rasm: Fotoqabulqilgich qurilmasi (a) va o'lchov bloki (b).

Fotoqabulqilgich matritsa 1 to'rtta yig'ish linzalari 2 va fotodiodolar 3 mavjud bo'lib, bu bir vaqtning o'zida ikkita X, Y koordinatalari bo'ylab og'ishni nazorat qilish imkonini beradi, FQQ o'lchov bloke bilan bog'langan bo'lib kuchaytirgichlar, koordinatali signal hosil qiluvchilar va ko'rsatuvchi asboblarni (ko'rsatkich bloki) o'z ichiga olgan.

Agar lazer nuri FQQ markazi bo'yicha o'tsa, unda barcha fotodiodolar bir xil yo'rug'lik potokiga tushadi va ularning signallari bir -biri bilan teng bo'ladi:


$U_a = U_b = U_c = U_d$ . Agar FQQ qurilmasida chetga og'ish ro'y bersa X yoki Y koordinatalari bo'yicha bu tenglik buziladi va o'lchov bloki  $\Delta X$  va  $\Delta Y$  og'ish signallarini kattalik va belgilarga mos ravishda beriladi. [149-151]

$$\Delta X \sim (U_a + U_b) - (U_c + U_d);$$

$$\Delta Y \sim (U_a + U_c) - (U_b + U_d).$$

Bundan tashqari montaj qilinayotgan konstruktsiyalar yoki texnologik uskunalar elementlarining vertikalligi va gorizontalligini nazorat qilish uchun mayatnik qurilmalari va fotoelektrik sath o'lchagichlardan foydalanish mumkin.

Qurilish konstruktsiyasi panelni montaj qilinishi jarayonini modellashtirish uchun CodeSys muhiti, ST dastur tili, DMK-150M (Dasturlanadigan mantiqiy controller) dan foydalanib, texnologik jarayon uchun dastur tuzamiz.[2-16]



2-rasm. Qurilish konstruktsiyasi panelni montaj jarayonini holatini nazorat qilinishi sxemasini CodeSys muhiti, ST dastur tili yordamida boshqarish.

3-rasm. Qurilish elementi holati va ikkikoordinatali turini nazorat qilish sxemasini vizuallashtirish (modeli).

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Qurilish konstruktsiyasi elementini montaj jarayonini nazorat qilish muammosini, avtomatlashtirish orqali ijobiy va salbiy tomonlari kabi muhim jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Konstruktsiyalarni montaj qilish jarayonini avtomatlashtirish, geodezik o'lchov natijalarini qayta ishlash tezligini oshirish uchun, kontroller yordamida boshqarilishi ish samaradorligini bir necha bor oshirishga va ko'p marotaba ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida xatoliklarni paydo bo'lish extimolini kamaytirishga imkon beradi. Shuning uchun texnologik jarayonni avtomatik nazorat tizimini dastur orqali boshqarilishi, birinchi qarashda, hamma joyda va hamma yerda qo'llanilishi kerak bo'lgan, deyarli mutlaq foydali tizim hisoblanadi.

**QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Визуализация CoDeSys. Дополнение к руководству пользователя по программированию ПЛК в CoDeSys 2.3; Русская редакция ПК «Пролог».2006.[Электронной ресурс]–URL:<http://www.kipshop.ru> CoDeSys/steps/codesys\_visu\_v23\_ru.pdf [2-16 betlar]

2. Р.В.Левин. Автоматика и автоматизация в строительстве. Учебное пособие Ташкент “Укитувчи” 1992 [149-151betlar]

3. Анимированная визуализация технологических процессов в CodeSys статьи с сайта [electrik.info vizualizaciya-plc-codesys.html](http://electrik.info/vizualizaciya-plc-codesys.html)  
<https://vk.com/povnyandrey>

## SYNTACTIC STRUCTURE OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Mengnarov Bakhrom Abdurasul o'g'li

Raxmatova Zarnigor Bahodirovna

Students of Termez State University

**Abstract:** This article is devoted to the expression of youth and senility in English and Uzbek proverbs and sayings. We studied several folklore examples on the topic – Youth and senility and analyzed the expression of nationality, ethnicity in two languages. We tried to find proper equivalents of proverbs from one language into another.

**Keywords:** Proverbs, Folklore, Nationality, Ethnicity, Literal translation, Free translation.

## СИНТАКСИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация:** Данная статья посвящена выражению молодости и старости в английских и узбекских пословицах и поговорках. Мы изучили несколько фольклорных образцов на тему «Молодость и старость» и проанализировали выражение национальности, этничности в двух языках. Мы пытались найти правильные эквиваленты пословиц из одного языка в другой.

**Ключевые слова:** Пословицы, Фольклор, Народность, Этническая принадлежность, Дословный перевод, Вольный перевод.

### Introduction

Proverbs translation has always been a challenging task. Every community is unique, with its own internal structure and ideals, which are represented in its language, including proverbs. Proverbs may be found practically wherever on the planet. A proverb is a brief, well-known idiom that expresses a general truth or piece of advice. Origin: Old French "proverb," from Latin "proverbium," from "pro" (put out) + "verbum" (word). Disraeli stated the following about the importance of proverbs: "Proverbs cover a broad spectrum of human experience; they incorporate all of life's hues; they are frequently exquisite strokes of genius; they delight with their airy sarcasm or caustic satire, the luxuriance of their humor, the playfulness of their turn, and even the elegance of their imagery and tenderness of their sentiment. They provide a deep insight into home life and reveal for us the

heart of man in all of his many situations; a regular review of proverbs should be included in our readings; and, while they are no longer ornaments of conversation, they have not ceased to be treasures of thought ". We know that proverbs have diverse cultural roots, ethnicities, and geographic locations. We cannot comprehend their full meanings and ramifications until we have a sufficient understanding of English cultural roots. When translating proverbs, we must first address the linguistic and cultural differences. Not only the content, form, and eloquence of the proverb should be translated, but also the ethnic and regional qualities. Only in this manner will we be able to appropriately translate the proverbs. Literature review: We will primarily introduce four translation approaches, based on the diverse qualities of proverbs: literal translation, free translation, substitution translation, and a mix of literal and free translation: We must translate proverbs literally using literal translation, which is a common form of translation. Some English and Uzbek proverbs share the same form and meaning, and these English proverbs come from a variety of cultural origins. They are simple to comprehend for the readers. We can actually interpret these proverbs while translating them. This method preserves the original proverb's shape and content while also making it understandable to readers. Most importantly, accurate translation allows English proverbs to be transplanted into Uzbek society. Discussion: We're all aware that English proverbs employ a variety of novel expressive techniques and parallels. We may use Uzbek to introduce these new expressive ways and comparisons. Finally, these English proverbs will contribute to the enrichment of Uzbek culture and language. Now we will give some proverbs with two kinds of translation methods of proverbs: literal translation, combination of literal and free translation, free translation - the first one is free translation and the second one is literal translation. 1. Sour grapes can never make sweet wine. Nordon uzumdan hech qachon shirin musallas chiqmas. 2. Barking dogs seldom bite. Huradigan itlar kamdan-kam qopadi. We can see from the example above that literal translation can maintain the vivid comparison of the original adage. It not only makes things easier to grasp, but it also has the potential to improve our Uzbek language and culture. Every nation has its own distinct culture. As a result, each country's customs, experiences, and observations are unique. Our Uzbek people are unfamiliar with the similarities in English proverbs since they have some distinct historical events and cultural backgrounds. If we translate them literally with explanations or footnotes, the translation may convey the actual meaning of the original proverb, but it loses the features of proverbs—concise language, precise

structure, brief form, and so on. Meanwhile, we haven't been able to discover an equivalent Uzbek proverb to translate it, we should use free translation method. For example, —Fire, Set the Thames on. If we translate it literally like this, 'fire, set the Thames on', it is very difficult for our Uzbek people to understand it. We know, The Thames is situated in the England and English people connect this proverb with their river, but if Uzbeks want to express such situation, they cannot use this river. So they can translate it as their culture —Epchil xotin qor qalab qozon qaynatar Substitution translation, which means we use the Uzbek proverb with the same meaning to translate English proverb. We all know that human culture has much in difference, but also has much in common. Proverbs are produced in people's working and daily life. Therefore, human being's experience and observation have much in common, which are reflected on proverbs. Many English and Uzbek proverbs have the same meaning, connotation and persuading way. In this situation, we should translate them by substitution translation. For example, These are the aspects of Uzbek and English folk proverbs which are very similar. We will try to prove our point through the following proverbs: The absent is always in the wrong- O'zi yo'qning — ko'zi yo'q. There is no accounting for tastes -Har kim suygan oshini ichadi. Actions speak louder than words-Gap bilguncha — ish bil. Advise none to marry or go to war-Har kimning niyati o'zining yo'l doshi.

'Wall have ears', which has the same meaning and connotation with the Uzbek proverb, 'walls have ears', so we should choose substitution translation method. There are many proverbs denoting senility and youth, for example, English proverb: Children and fools tell the truth. Uzbek proverb: Bola aldamaydi yoki mastlik rostlik. Calf love, half love; old love, cold love → Yoshlikdagi sevgi — yarim sevgi, qarilikdagi sevgi — sovuq sevgi; Sevgining bahori bilan shodlanma, Yoz-u qishi ham bordir → Молодой дружок, что вешний ледок. When translating English proverbs about senility and youth, we run into the dilemma that some of them have intricate historical and cultural roots. If we use the literal translation approach, we may represent the proverb's literal meaning, but not the original proverb's connotation; if we use the free translation method, the vivid comparison will be lost, even if the connotation is clearly expressed. In this case, we should combine literal and free translation to translate proverbs. This style allows the translation to convey both the literal and connotative meanings of the underlying proverb. For example, Rule youth well, for age will rule itself→ Yoshlikni yaxshi boshqaring, qarilik o'zini o'zi boshqarar; Yoshlikda hunar olgan, Qarigach, ishga solar→ Молодом укрепиться — вперед пригодится. In Britain, people

hold a religious view that cat has strong life power, because when people throw it down from a high place, the cat can stand firmly on the floor without being injured. Moreover, cat is very clever and flexible, so it is difficult to kill it. So people use the proverb 'A cat has nine lives' to imply people who have strong life power or people who can escape from dangerous situation easily. However, in Uzbekistan, our Uzbek people do not know the story. If we translate this proverb literally like this, 'the cat has nine lives', it is very difficult for our Uzbek people to understand the connotation of the proverb; if we translate it by free translation like this, 'Ayolning joni qirqta bo'ladi ', it is easy for our Uzbek people to understand the connotation of the proverb, while it is very difficult to understand why English people compare cat with people having strong life power. In this situation, we should translate it by combination of literal and free translation like this, 'cat has nine lives, a woman has forty lives', which will make the translation keep both its literal meaning and connotation. Finally, proverbs are extremely difficult, if not impossible, to translate since they are intimately related to the cultural and social framework of the culture in which they are created. Translator training and translation courses at universities and colleges might benefit from proverb research. Such research might aid translation students in developing suitable translation procedures for proverbs, an area where languages differ significantly. People – an excellent educator, people – a teacher. Nonetheless, further study into proverbs is required. The comparison of proverbs from different countries reveals how much these people have in common, which leads to a greater understanding and reconciliation. Proverbs represent the people's extensive historical experience, as well as concepts linked to work, lifestyle and culture of people. Correct and proper use of proverbs gives speech its uniqueness and expressiveness. In its most basic form, a proverb is an old statement that imbues wisdom with fresh enthusiasm. Conclusion: Proverbs are the shortest, most instructive, and maybe most often utilized messages. We make our conversation more vibrant and expressive by using them. All nations' proverbs have a lot in common, yet there are certain distinct characteristics that define the color of a people's original culture based on their lengthy history. Proverbs has a wealth of knowledge. Proverbs are short stories that depict what life is like in general. We may learn about the people's culture, traditions, and history as well as what is good and evil. Proverbs are short stories that depict what life is like in general. We may learn about the people's culture, traditions, and history as well as what is good and evil. Short, rhythmic sayings with a generalized concept and/or conclusion make up the Proverbs genre of folk

poetry. There is no futuristic view or proposal regarding a case in Proverbs, but rather a summing up of cases: the purified ultimate extract of numerous examples from many sides, rather than just one. Proverbs are the transmission of people's linguistic phrases and cultural manners from one generation into another. That's why the treatment of rendering proverbs must be careful, precise, and not to be expected literally. Not to forget to take into account the proverb cultural, religious, historical background to use the appropriate translation method, hence, achieving a balance between form and content, and also rendering the information the proverb wants to give successfully into the other language without losing the essence of its meaning.

**REFERENCES:**

1. Qosimova, Nargiza (2022). "Zamonaviy lingvisteka nuqtayi nazardan parafegmalar mohiyati va ularning ko'chish sabablari" (buxdu.Uz), 8(8).
2. Zokirova Nargiza Savriyevna. (2021). Interpretation of Concepts of Human Dignity by Heroes in Utkir Khoshimov's Works. Middle European Scientific Bulletin, 3.
3. Otabekovna, S. M., & Ibragimovna, G. M. (2022). Expression of ethnic and cultural identity in english and uzbek proverbs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 171-175.
4. Khaydarova, L. (2022). MAIN APPROACHES TO COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 11(1), 257-261
5. Ilhomovna, M. M. (2020). JOHN STEINBEK's —THE WINTER OF OUR DISCONTENT INTERPRETATION OF THE CHARACTER AND THE IMAGE OF THE WRITER. European Scholar Journal, 1(4), 18-20.
6. Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities hafiza kochkarova's translations. Middle European Scientific Bulletin, 12, 247-249.
7. Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi. (2022). Interdiscursivity and Intertextuality: Relation of Concepts. Eurasian Research Bulletin, 7, 180–184. Retrieved from
9. Imamkulova, S., 2021. The Intensity of Word Meanings. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 1(2), pp.227-229.
10. Anvarovna, F. A. (2022, April). PECULIARITIES TRANSLATION OF CONCEPTUAL METAPHORS USED IN SELF-HELP DISCOURSE. In E Conference Zone (pp. 58-60).
11. Salixova, N. N. (2019). PECULIAR FEATURES OF TEACHING READING. Theoretical & Applied Science, (11), 705-708.
12. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). Politeness In Literary

Works: An Overview. Eurasian Research Bulletin, 7, 200–206. 13.. Olimova Dilfuza Zokirovna. (2022). The specifics of translation actions in simultaneous interpreting. Middle European Scientific Bulletin, 22, 292-295. 14.. Рабиева, М. (2021). ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТ ЭВФЕМИЗМА В СОВРЕМЕННЫХ АНГЛИЙСКИХ СМИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 7(7). 15.. To'rayeva Fazilat Sharafiddinov. (2022). Analysis Of Modal Words and Particles in German and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 151–154. 16.Narzullayeva, F. (2021). ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВА «ГОЛОВА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗАХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 3(3).

- 17 Taylor A. The Proverb. –Harvard University Press, 1985. –234 p.  
18.. Trench, C.R. On the Lessons in Proverbs. -New York: Redfield, 1853.

Websites used

- 1.-[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/5808](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5808)
- 2.-<https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1295>
- 3.- <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.468>

## HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANIDA SHAXS, INDIVID VA INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI

**Bozorova Ro'zigul Xurramovna**

TerDU ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

+998 99 704 96 15

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs, individ hamda individuallik tushunchalariga to'xtalib, ularga keltirilgan ta'riflar haqida fikr va mulohaza yuritiladi. Inson shaxsining rivojlanishidagi asosiy omillar haqida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, individ, individuallik, ijtimoiy omil, sotsiogenetik, biologik, tafakkur, muloqot, jamiyat, munosabat, evolutsiya, ong.

**Annotatsion:** This article focuses on the concepts of person, individual, individuality and comments on the definitions given to them. The main factors in the development of human personality are discussed.

**Key words:** Person, individual, individuality, social factor, sociogenetic, biological, thinking, communication, society, attitude, evolution, consciousness.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется понятиям человек, индивид, индивидуальность и индивидуальност, а также даны комментарии к их определениям. Также рассмотрены основные факторы развития личности человека.

**Ключевые слова:** Человек, индивид, индивидуальность, социальный фактор, социогенетический, биологический, мышление, общение, общество, отношение, эволюция, сознание.

Qadimdan inson muammosini o'rganish juda muhim muammolardan hisoblangan. Shaxsni o'r ganish, asosan, falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan olib borilgan. Ayni davrda esa, insonni tushunish muammosi aniq va ijobiy fanlarning umumiyl tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Bunga sabab, insonning u yoki bu aloqa tizimiga binoan biologik jonzod va uning kelib chiqishi ham aynan evolutsiya orqali kechganligidadir. Xuddi shuningdek, shaxs tarix va hozirgi zamон evolutsiyasining ham ob'ekti ham sub'ekti sifatida alohida o'rganiladi. Insonning boshqa jonzodlardan farqli ravishda takrorlanmas xususiyatlari mavjudligi ham tadqiq etiladi. Iptidoi tizimdagi insonlardan farqli ravishda

hozirgi rivojlangan inson ko'rinishlari jamiyatda ijobiy ko'rinishiga ega bo'lmog'i lozim. Chunki, buni davrning o'zi taqozo etadi. Albatta, bir ijtimoiy jamiyatdan ikkinchi ijtimoiy jamiyatga o'tish doimo qiyinchiliklarni namoyon etadi, ammo o'z davriga mos holda insonlar shaxsiy rivojlanishda quyidan yuksaklikka qarab rivojlangani sari ulardagi milliy g'oya, milliy qiyofa, milliy ruh, milliy ma'naviyat hamda milliy qadriyatlar ham rivojlanib boraveradi.

Qolaversa o'zgarib o'z ko'rinishiga ega bo'lib boradi. Mehnat, nutq, ong, tafakkur kabi yuksak xususiyatlari tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan, jamiyatda o'z o'rniغا ega bo'lib borayotgan, shuningdek, boshqa odamlar bilan birga o'z faoliyatini olib borayotgan, ular bilan turli munosabatlarga kirishayotgan inson sekinlik bilan shaxsga aylanib boradi. Mana shunday jarayonlar shaxs bo'lish uchun bosqichlarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bilamizki, inson jamiyatda ijtimoiy aloqalarsiz shaxs maqomiga erisholmaydi. Moddiy olamni, jamiyatni va shu kabilar bilan bir qatorda o'zini o'rganish shaxsning asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. shu o'rinda, shaxsga berilgan ta'rif to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin. "O'zligini anglagan holda boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'la oladigan, tabiat hamda jamiyatga faol tarzda ta'sir eta oladigan har qanday individ shaxs deb ataladi". Shuni aytib o'tish kerakki, shaxs rivojlangan sayin bu tushuncha keng ma'noda qo'llanilib boradi. Negaki, chaqaloq tug'ilgan ondan boshlab unga individ maqomi xos hisoblanadi. Insonlardan farqli ravishda hayvonot olamida biror-bir bola dunyoga kelsa, u umumiy ma'noda jonzod deb ataladi. Individ so'zidagi kabi jonzod so'zida ham hayvonlar uchun birdamlik mujassamlashgan bo'ladi. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, biz individ deb aytganimizda juda keng qamrovli so'zni aytgan bo'lamiz va bu inson shaxsi bilan teng ma'noda ifodalanadi. Xuddi shuningdek, shaxs tushunchasida individuallik, temperament, xarakter, qobiliyat, doimiy odatlari, ijodiy qiziqishlari ularning bilish jarayoniga oid ma'lumotlari namoyon bo'ladi. shuni unutmaslik kerakki, tushunchalari bir-biriga umumiy yaqinlik tushunchasi bilan keladi, biroq individ va shaxs aynan bitta tushuncha emas. Negaki, har bir shaxs individdir, ya'ni yangi tug'ulgan chaqaloqdan tortib to professr, olimgacha bo'lgan insonlar jamoasini misol qilsak bo'ladi. Biroq, har bir individ shaxs bo'la olmaydi. Shaxs bo'lishi uchun esa, biz yuqorida keltirib o'tgan tarafimiz xos va mos bo'lmog'i kerak. Shuningdek, shaxs bo'lish uchun jamiyat me'yorlariga amal qilgan holda unga foydasi tegadigan va boshqa bir shaxslar bilan o'zaro munosabatlarga faol kirisha oladigan inson nazarda tutiladi. O'z navbatida, shaxs va individuallik ham bir-biriga yaqin birlikni tashkil qiladi, biroq ular ham aynan bitta narsa emas, shuningdek, o'xshash ham emas. Shaxs va individuallik tushunchalari qanchalik birlikdan

iborat bo'lmisin bir-biriga mos kelmasliini hisobga olib, shaxsni individual-psixologik jihatdan tarkib topuvchi deb tasavvur qilish imkonini bermaydi. Biroq, g'arb psixologiyasida ayrim yondashuvlar borki, ular shaxs va individuallikni bir-biriga yaqin tushuncha ekanligini tan oladilar. Hattoki, ular bu tushunchalarni bitta tushuncha sifatida ham e'tirof etsa bo'ladi degan fikrlarni ham ilgari suradi. Shu bilan birga, agar kishining individualligini to'liqligicha ta'riflab beriladigan bo'lsa, bu shaxsni yetarlicha ta'riflash uchun yetarli hamda bu tushunchaga shaxs tushunchasi ham kirib ketadi degan g'oyalarni ham ilgari suradi. Aslida esa, shaxs ta'riflanadigan bo'lsa, uning jamiyatdagi barcha axloq normalari, muayyan ijtimoiy muhiti, haqiqiy munosabatlari ham inobatga olinishi kerak. Hozirgi zamon psixologiya fanida esa, individuallikning o'ziga xos tomonlari, his-tuyg'ulari, qarashlari, agressivligi, xavotirlanish darajasi kabilar ko'rib chiqilgan. Bunday ko'satkichlar esa, individ tushunchasining o'ziga xosligini ya'ni individualligining ko'rinishiga olib keladi. Shaxsning shaxs bo'lib rivojlanishida keng ma'noda ham biologik, ham ijtimoiy munosabatlar juda ham muhim hisoblanadi. Bu hozirgi zamon psixologiyasi fanining dolzarb muammolariga sabab bo'layotgan g'oyalarni o'rganuvchi omil hisoblanadi. Bunday holatlarni o'rganishda g'arb psixologiyasining ba'zi bir yo'nalishlarida yuqorida aytganimizdek, biologik va ijtimoiy omillar to'g'risida ikkita sezilarli asosiy fikrlar ilgari suriladi. Unda ta'kidlanishicha, inson shaxsi "endopsixik" va "ekzopsixik" tuzilmalarga ajratiladi. Endopsixika - bu shaxsning ichki tuzilishini namoyon etuvchi holat hisoblanadi. Bu esa, insonning o'z ichki sezgilarini, ichki kechinmalari hamda ichki funksiyalari bilan bog'liq bo'lган holat hisoblanadi. Ko'pincha insonning asab tizimi bilan bog'liq bo'lган holda namoyon bo'ladi. Ekzopsixika esa, insonga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar orqali paydo bo'luvchi, shuningdek, unga bo'lган javob reaksiyasida yuzaga keladi. Bunday ta'sirlar insonlarning ko'pincha atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlarida namoyon boladi.

#### Endopsixika

insonning bilish jarayonlari bilan ham bog'liq bo'lishi uning ichki regulativ holatida o'z aksini topadi. Ekzopsixika esa, tashqi regulativ holatda namoyon bo'lsada, ko'pincha insonning xohish-istiklalidan kelib chiqib yuzaga keluvchi voqelik hisoblanadi. Shaxs tushunchasiga, avvalo, o'zini anglay olgan, o'z shaxsiy fikrga ega hamda boshqalar tomonidan e'tirof etiluvchi o'zaro axborot almashinuvchi insonni misol keltirish mumkin. Shaxs ham sub'ektiv ham ob'ektiv jarayonlarni o'zida singdirgan bo'ladi. Shu sababli u bir paytning o'zida shu ikki vazifani ham bajarishi mumkin. Kishilarning yuksak ko'rinishdagi ehtiyojlari ularning shaxs darajasiga yetish uchun bo'lган ehtiyojlari hisoblanadi. Avvalo, ana shu jihat shaxs bo'lishlik

paytgacha davom etadi. Biroq, ba'zida shaxs darajasiga yetolmagan kishilarda ulardagagi intilish doim saqlanib qoladi. Bu ehtiyojni amalga oshirishda ko'plab bosqichlarni bosib o'tish zarurdir. Jamiyatda bu ehtiyojni qondirish maqsadida ko'plab ta'llim-tarbiya berish usullari o'ylab topilgan. Insonlarning atrof-muhitga munosabatlari, bir-biri bilan yaqin do'stona aloqalari hamda o'zining ish faoliyatida namoyon bo'luvchi ijobjiy, faol ko'rinishlari shaxs bo'lish uchun qilingan faolligi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat ham ana shunday jarayonlarni talab etadi. Shaxsning oldiga qo'yilgan aniq maqsadi, anglanilgan qarashlari, e'tirof etilgan faolliklari bo'lishi, shu bilan birga ijtimoiy hayotdagi o'rni bo'lishi zarur. Inson rivojlanishida, ya'ni uning shaxs darajasiga yetish uchun, avvalo, undagi "men"i ham shakllanib borgan bo'lishi kerak. Bu esa, uning bolaligidagi berilgan ta'llim tarbiyasida shakllanib boradi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, shaxs tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Bunda birinchi ma'nosi uning shaxs darajasiga yetishgacha rivojlanib borishi va uning natijasida namoyon bo'ladigan ijobjiy sifatlar. Ikkinci ma'nosi esa, shaxsning biror-bir qaysidir faoliyati, aynan, aniq maqsadga qaratilgan bo'lmog'idadir. Shaxsni tushuntirishda psixologiya fanida, asosan, ikki yo'naliш mashhur bo'lgan. Biogenetik yo'naliш vakillari inson shaxsini biologik jihatdan tushuntirishga uringanlar. Shuningdek, ularda usbu qarash mavjud bo'lgan. Bu yo'naliшlar "biogenetik" hamda "sotsiogenetik" atamalar bilan insonlarning biror-bir hissiyotlarining paydo bo'lishi yoki yo'qolishi ham nasliy bo'ladi deb fikr bildirgan. Insonning rivojlanishida biologik omillarni eng muhim deb e'tirof etishgan. Sotsiogenetik nazariyaga ko'ra, insonning shaxs shunchasi ijtimoiy usullar, omillar bilan bog'langan holda tushuntirib o'tiladi. Bunda inson rivojlanishi uning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarida o'z aksini topadi. Insonlarning jamiyat bilan faol aloqalari, undagi har xil taassurotlar nazarda tutiladi. Biroq, sotsiogenetik nazariya ham o'z yechimini topishi lozim bo'lgan shaxs shunchasini aniq bayon eta olmadi. Negaki, insonning rivojlanishini ular sharoit bilan bog'liq deb tushuntirib o'tadilar. Afsus-ki, bu qarashlar ham o'z ma'nosini oqlamadi. Agar, bu yondoshuv o'z ifodasini topganda edi, bir xil jamiyatda har xil insonlarning rivojlanib kelishini tushuntira olgan bo'lar edilar. Bu esa, insonning individualligini yana bir bor isboti hisoblanadi. Sotsiogenetik nazariyalar insonning jamiyat hayotida moslashuvchanligini, kishining xususiy faolligini, ularning vaziyatni oldindan ko'ra olishi kabi holatlarni asosiy omildir deb ko'rsatib o'tadilar. Vaholanki, bu ham o'z isbotiga ega emas edi. Shaxs tushunchasi murakkab tushuncha hisoblanadi. Uni tushuntirish uchun yuqoridaqgi ikki yo'naliшlar o'zlarining olib borgan tadqiqot ishlariiga tayangan holda fikr bildiradilar. Biroq, ular garchi shaxs tushunchasini aniq

ifoda etolmagan bo'lsalarda bu muammoni yechishga harakat qildilar. Shaxs bu jamiyat aloqalarisiz rivojlana olmaydigan, shuningdek, biologik jihatdan sog'lom bo'lgan, aniq maqsadiga ega, hayvonlardan ongi, nutqi, tafakkuri bilan ajralib turadigan mavjudotdir. Shunday ekan, bu ta'rif ham biogenetik, ham sotsiogenetik yo'nalishlarni qamrab olgan holda tushuntiriladigan asosiy manbadir. Demak, bu ikki yo'nalishning ham qarashlari bir bo'lib shaxs tushunchasida o'rni beqiyos hisoblanishini ko'rishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. E. G'oziyev, R.Toshimov. Psixologiya – Тері – Toshkent 2002.
2. The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M. Saydaliyeva – Eurasian Scientific Herald – 2003.
3. F. Abdurahmonov, Z. Abdurahmonova. Din psixologiyasi – Toshkent 2011.
4. O. Bo'riyev . O'zbek oilasi tarixi – Toshkent 2002
5. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta'lim tizimini boshqarish – 2016.
6. X. G. Sharafuddinova. Umumiy psixologiya – Toshkent 2022.
7. Abdurauf Fitrat. Oila – Toshkent 2000.

## **ISSUES OF PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE**

**Ismoilova Roziyaxon Umarjon qizi**

Oriental university

Faculty of pedagogy and psychology

bu taqsimot statistik populyatsiya a'zolari o'tasida teskari aloqa mavjudligi sababli qalinoq quyruq va yuqori cho'qqiga ega. Bunday taqsimotning mashhur namunasi sotsiologiyadan misoldir: akademik qanchalik ko'p maqolalar nashr etsa, uning keyingi nashri shunchalik yuqori bo'ladi. Akademikning nashrlari jadalligi uning shogirdlari, aspirantlari, yosh olimlarning faolligi bilan ta'minlangan.

Mustaqil xarakteristikaning katta hajmdagi statistik to'plamlarini tahlil qilishda chegaraviy markaziy teorema bo'yicha taqsimot normal hisoblanadi. Xarakteristikaning dastlabki taqsimoti normal qonunga bo'ysunmasa ham, taqsimot barcha mumkin bo'lgan namunalarning o'rtacha namunaviy qiymatlardan iborat bo'ladi.

Bu aholining taqdiri normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi. Shunday qilib, ko'p sonli sog'lom odamlar orasida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, gemoglobin darajasining o'zgarishi, qon xolesterini va boshqalarni taqsimlash odatda normaldir.

Oddiy taqsimlangan statistik populyatsiyalarni parametrik statistik usullar yordamida miqdoriy tavsiflash va solishtirish mumkin. Klinik tadqiqotlarda, ayniqsa kichik namunali (30 dan kam) bemorlarda bir qator ma'lum ko'rsatkichlar o'rganilganda, ko'pincha taqsimotni normal deb hisoblash uchun hech qanday sabab yo'q, shuning uchun statistik tahlil parametrik bo'limgan usullar yordamida amalga oshiriladi.

Parametrik bo'limgan usullar oddiy, ular hisoblashni talab qilmaydi. Har qanday parametrlar (o'rtacha qiymatlar, standart og'ishlar va boshqalar), shuning uchun ular aniq miqdoriy ifodaga ega bo'limgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatalishi mumkin. Statistik tahlil uchun parametrik bo'limgan mezonlardan foydalanish, oddiy taqsimot qonuniga riya qilishga ishonch bo'limganda, kam sonli kuzatuvlari (30 tagacha) bilan tadqiqotchi tahlil bosqichida tavsiya etiladi. Biroq, agar ma'lumotlar juda ko'p bo'lsa (namuna hajmi 100 dan ortiq), unda parametrik bo'limgan testlardan foydalanish mantiqiy emas. Bundan tashqari, parametrik testlar parametrik bo'limganlarga qaraganda kuchliroq ekanligini hisobga olish kerak. Parametrik usullarga nisbatan parametrik bo'limgan usullarning samaradorligi qo'llaniladigan usulga qarab 63-95% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, parametrik bo'limgan mezonlardan foydalanilganda, tajribada olingan ma'lumotlarning bir qismi yo'qoladi.

Statistik usullarni qo'llash oddiy protsedura emas, bu-ilmiy izlanishdir. Har qanday ijodiy faoliyat singari, tadqiqotni rejlashtirish va olingan natijalarini sharhlash matematika sohasida chuqur bilim talab qiladi. Mas'uliyat ham katta -ko'pincha klinik sinovlar natijalarini statistik baholash ushbu davolash

usuli foydasiga qaror qabul qiladi. Amalda statistik tahlil rasmiy ravishda shifokorlarning o'zлari tomonidan amalga oshiriladi, yoki ma'lumotlar to'plangandan so'ng, ularni tahlil qilish tibbiy ilovalar bilan bog'liq bo'limgan matematiklarga topshiriladi. Bundan tashqari, ko'pincha tadqiqotni rejalashtirishga etarlicha e'tibor berilmaydi. Natijada, ma'lumot to'plash bosqichi tugaganidan keyin ham, statistik testlarni qo'llashga urinayotganda, to'plangan ma'lumotlar taqqoslangan davolash usulining boshqasiga nisbatan afzallikkari to'g'risida statistik jihatdan muhim xulosa chiqarish uchun yetarli emasligi aniqlanishi mumkin.

Statistik tahlilning eng muhim natijasi shundan iboratki, sinov namunalari uchun fazo o'zgarishining standart og'ishi nazorat namunalarining standart og'ishidan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi, bu bizga eritrotsitlar shaklidagi o'zgarish bilan birga kelmaydigan peroksinitrit bilan davolashda eritrotsitlar membranasining tuzilishidagi heterojenlik darajasi oshadi degan xulosaga kelishimizga imkon berdi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, biotibbiyot ma'lumotlarini tahlil qilish uchun statistik usullarni tanlash muammosi ma'lum bir tadqiqotning maqsadlariga bog'liq. Statistik tahlilning asosiy mumkin bo'lgan yo'nalishlarini bilish va statistik dasturlar bilan ishlash ko'nikmalari ilmiy ishlarda natijalarni olish va taqdim etishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

### **REFERENCES:**

1. Статистический портал StatSoft. <http://www.statsoft.ru/home/portal/default.asp>
2. Реброва О. Ю. Описание процедуры и результатов статистического анализа медицинских данных в научных публикациях. <http://www.mediasphera.ru/mjmp/2000/4/r4-00-21.htm>
3. Гланц С. Медико-биологическая статистика. М., 1999: стр. 250-255
4. Ефимова М. Р., Петрова Е. В., Румянцева В. Н. Общая теория статистики. М., 2005: 413 с. March, 2022 292
5. Ребров О. Ю. Статистический анализ медицинских данных. Применение пакета прикладных программ STATISTICA. М., 2005: 305 с.
6. Voxidov A.M., Malikov M.R., Voxidov D.A. Tibbiyotda differensial tenglamalarni farmatsiya sanoatida qo'llanishi. The journal of academic research in educational sciences. 12 december 2021. Toshkent. 1096-1102 bet. <https://cyberleninka.ru/article/n7tibbiyotda-differensial-tenglamalarni-farmatsiya-sanoatida-qo-lanishi>

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA OILADA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA BERISH

**Durmanova Gulchehra Dusiyarovna,**

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lrim texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida tabiat boyliklarini tejab -tergashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatila boriladi.

**Аннотация:** Цель данной статьи - научить детей дошкольного возраста сохранять и осваивать природные ресурсы и охранять природу.

**Abstract:** The purpose of this article is to teach preschool children to save and explore natural resources and protect nature.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy boylik, tabiatdan ongli ravishda foydalanish, ekologik ma'nnaviyat, o'zbek xalqi, qadim, merosi.

**Ключевые слова:** Природные богатства, сознательное природопользование, экологическая духовность, узбекский народ, древность, наследие.

**Key words:** Natural wealth, conscious use of nature, ecological spirituality, Uzbek people, ancient, heritage.

Oilada ekologik ta'lrim va tarbiya berishdan maqsad - bu insonni tabiatga qadam quygan vaqtidan boshlab, butun xayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq - odob yuzasidan xalqimizni asl yosh avlodlarining tabiatga xurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf - odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarini ko'paytirish, bog'u - rog'ilar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab - tergashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatila boriladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat kishilarini ekologik jihatdan savodxonligini madaniyatini oshirish, shunday ekologik madaniyatli, ta'lim - tarbiyali kishilarni say'i harakati bilan tabiatni muhofaza qilish, ozoda - toza

saqlash, xayvonot, qushlar, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiatni narsalarini parvarishlashdir.

Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning mas'uliyatiga bola tarbiyasining umumiyligini qonuniyatlarini yaxshi bilib, xayotda ularga qanchalik amal qilishiga xam bo'glik. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari xisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o'z xalqining eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analari ruhida olivjanob fazilatli, bilimdon, ekologik madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari lozim.

Yoshlarda ekologik ma'naviyatni shakllantirish uchun birinchi o'rinda o'z xalqining azaldan tarkib topgan ekologik ma'naviy merosini ularga anglatish lozim. Ana shunda avlodlar ajododlaridan andoza olgan holda, an'analarni davom ettiradi.

Xalqimizning ekologik ma'naviy merosiga nazar solsak, o'tmishda bobomomolarimizning yuksak ekologik madaniyatiga ega bo'lganliklariga amin bo'lamiz.

Masalan, ko'p rivojlangan davlatlar o'z tabiiy boyliklarini iloji boricha, saqlab qolish yo'lidan bormoqda. Zero, o'zbek xalqining sevimli naqli bilan aytganda "yotib yeganga tog' ham chidamaydi". Ammo mana shunday oqil xalqning biz farzandlari ota-bobolarimiz o'gitlariga amal qilmasdan, elektor toki, gaz va suv kabi unsurlarni tejamasdan, xuddi ular tugamaydigandek ishlatmoqdamiz.

Xalqimiz orasida "uvol" degan tushuncha qadimdan juda keng tarqalgan. Tabiat unsurlari, ya'ni suv, tuproq, o'simliklardan bemaqsad foydalanish uvol sanalgan. Bugungi kun aksar yoshlari uvol nimaligi yaxshi bilmaydi ham.

Uvol tushunchasi odamlarning boy yoki kambag'alligiga qaramasdan barchaga bab-baravar tegishli bo'lган. Uvol qilmaslik, nojo'ya ish qilmaslik, biror narsani bekorga sarf qilmaslik, tejamkor bo'lishlik ba'zilar o'ylagandek xasislik belgisi emas, bu yuksak ekologik ma'naviyat belgisidir. Tejamkorlik xislati yosh avlodga bolaligidan singdirilib kelinar va bu ma'naviyat to umrining oxirigacha saqlanib qolardi. Mabodo, biror kimsaning shunday ma'naviyatiga putur yeta boshlagani sezilib qolsa, jamoatchilik unga o'zini qanday tutish kerakligini chiroyli yo'l bilan eslatib qo'yardi.

O'zbeklar qadimdan har qanday xom ashyo hatto u oyoq ostida to'lib toshib yotgan sof tuproq bo'lsa ham oqilona ishlatishgan,

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tabiat haqidagi ta'limotlari O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat

merosiga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning beباھو mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. «Avesto» tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarini ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsa-fadir. «Avesto»da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uyjoy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. «Avesto»da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, buta-zorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniiy va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmag'an davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryordan mehringizni darig' tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholinki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o'zaro mehrmuhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan. 847-yilda Muhammad al-Xorazmiy «Kitob surat al-arz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Forobiy. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (873–950 y.y.) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, uning «Kitob al- hajm va al-miqdon», «Kitob al-mabodi al-insonia» («Inso- niyatning boshlanishi haqida kitob»), «Kitob al-a'zo al-hayvon» («Hayvon a'zolari to'g'risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi. Tabiatshunoslikka oid «Odam a'zolarining tuzilishi», «Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarla- rida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan. Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048 y.y.) koinotdagi hodisalarini taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarining o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi.

Olim yerdagi ba'zi hodisalarini quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan: «Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordiyu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilan». Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Mineralogiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan. Beruniy yer

yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig'anojni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma. Beruniy «Saydana» degan asarida 1116 xil dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi 11 hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklari» va «Hindiston» asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino (980–1037 y.y.) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo'lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shox asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi bo'lib hisoblanadi. Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur «Kitob ash-shifo», ya'ni «Davolash kitobi» asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan. Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdı.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530 y.y.). Bobur nafaqat shoir, balki podsho, ovchi, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. «Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiatini, boyligi, urfodati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi. Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta'kidlagan. Asarda Bobur borgan joylarning tabiatini va o'ziga xos hususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batatsil bayon etib bergen.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi

bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrli bo'lish, ekologik ta'limgarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

**Adabiyotlar ro'yxati.**

1.Sh.A.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi T- 2013

2.Shoista Sodqova. Maktabgacha pedagogika T-2017

3. Q.Haydarov. S.Nishonova. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T., "O'qituvchi" 1992 y

**Ishtirokchi anketasi**

Muallifning F.I.Sh.	Durmanova Gulchehra Dusiyarovna
Ish joyi	Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'limgarbiyalari" kafedrasи
Maqola nomi	Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilada ekologik ta'limgarbiya berish
Telefon	937965577

**MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA MEDIAVOSITALARDAN  
FOYDALANISH METODIKASINI SHAKLLANTIRISH**

**Turdiyev Azamat G'ayratovich**

*Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lif fakulteti  
maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasи*

Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Asosan maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning yuksak bilim egalashida multimedia ta'limi ham muhim o'rinda turadi. Multimedia ta'limi orqali biz bolalarda milliy qadiriyatlarni video rolik shaklida jonlantirishimiz ham mumkun. Ta'lif sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Hozirda ta'lif tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta'lif jarayonining muhim negizi bo'lib, yoshlarning yangi axborotlarga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan katta va maktabga tayyorlov guruqlarida aynan 5-7 yoshli bolalar tarbiyalanadi. Ulardagi intellektual salohiyatni shakllantirishning boshlang'ich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi aynan shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'limda multimedia ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalarining o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahorati va pedagog tajriba bilan bir qatorda, interfaol metodlar, multimedia vositalari barkamol avlodni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lif muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilyapti. Multimedia vositalariga, birinchi navbatda, elektron darsliklar, kompakt disklar, video-audio tasmalar, turli taqdimotlar kiradi. MTTda multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyatga joriy qilish zarurligidir.

Multimedia ta'lif vostitasining afzaliklari qanday va biz multimedia ta'limni qanday qilib maktabgacha ta'lif muassasalarida qo'lashimiz mumkin degan savol paydo bo'lishi tabiiydir. Maktabgacha ta'lif

muassasalarida multimediani turli xil mashg'ulotlarda qo'lash mumkin. Masalan, tabiat bilan tanishtirishda, elementar matematik ta'savurlarini shakilantirishda hamda xorijiy tilda mashg'ulotlarini tashkil etishda multimedia vositalari yuqori natijalar beradi. Mashg'ulot jarayoni bolalarni zeriktirib qo'ymaydi va ularni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini yanada ham ko'proq oshirishda keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimediani qo'llashdan ko'zlangan maqsad bolalarga qisqa vaqt ichida ko'proq va samarali ta'lim berishdan iboratdur. Hozirgi vaqtda bolalarning kompyuter va gadgetlarga qiziqishlari juda yuqori.

Shu tufayli pedagoglar ulardan tog'ri va unumli foydalanib, bolalarni yo'naltiri, qiziqishlaridan kelib chiqan holda ta'lim tashkil etilsa, bolalarning qiziqishlari yanada ham ortadi. Masalan, bolalarga multimedia ta'limidan foydalanib ularga til o'rgatish mashg'ulotlarni qiziqarli qilib tashkil etish mumkun. Ayniqsa, turli ranglardan foydalangan holda bolalarning ta'savuri kengaytirib, ularning diqqatini tortish, ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortirish mumkin. Jumladan, bolalarda fasilar to'grisida tasavvurlarini shakllantirishda qo'l keladi. Bolalarda bahor fasli haqidagi tushunchalarni shakllantirishda bahor faslinini ko'rsatish bilan birgalikda undagi yashilik, daraxtlar va gularning rangi, bahor faslida nishonlanadigan bayramlarni havola qilish imkoniyati mavjud.

Maktabgacha ta'lim tashkilotkarida tayyorlov guruhida multimediali mashg'ulotlarni olib borish mакtabga tayyorlash jarayonida tasavvurlarini boyitadi, ularning talim faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini shakilantiradi natijada ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlari uchun zamin tayyorlaydi, shu bilan birga bolalarning inovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi multimedia ta'limini tashkil qilish orqali shakilantirib boriladi.

Shunungdek, multimedia ta'limidan zamonaviy, inovatsion ta'limning bir shakli sifatida mashg'ulotlar jarayonida to'g'ri foydalanish mакtabgacha ta'limda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning ham inovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakilantirishga xizmat qiladi.

Multimedia va gipermedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular bolani idroki shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun muhitni ta'minlaydi. Multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalari tizimda prinsipial jihatdan yangi uslubiy yondashuvlarni ochadi. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va

audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

- 1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;
- 2) tovushda;
- 3) musiqada;
- 4) animatsiyada;
- 5) multifikasiyada;

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, mактабгача та'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTTlarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar - kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Mutimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTTlarda ta'lim- tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi to'liq ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTT tarbiyachilarining o'zları tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video diski

multimedianing texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. T.A.G'ayratovich. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 132-136
2. Turdiyev Azamat G'ayratovich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA TABIATNING O'RNI HAQIDAGI SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING FIKRLARI. Scientific Impulse 1 (12) 349-354
3. DG Dusiyarovna, TA Gayratovich ADVANTAGES OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOLS. Archive of Conferences 32-35
4. Гулчехра Дусиаровна Дурманова, Азamat Ғайратович Турдиев, Мухаббат Пирматовна Аллахонова КИЧИК МАКТАБ ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ
5. Turdiyev Azamat Gayratovich Organization of multimedia education in preschool education ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (10) 2272-2275

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXINLIGI FANINING  
AHAMIYATI**

**Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
Boshlang'ich ta'lif metodikasi kafedrasи o'qituvchisi  
[qatamurotova@gmail.com](mailto:qatamurotova@gmail.com)

**Meliboyeva Sojida O'ktamovna**

**Norboyeva Roza Arslonovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lif yo'nalishi  
3-bosqich 3BT-21 guruh talabalari  
Telefon:+998881916003  
[meliboyevasojida@gmail.com](mailto:meliboyevasojida@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi yangi kiritilgan fanining ahamiyati, boshlang'ich ta'lif tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari, sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida unumli qo'llashga doir fikrlarimizni bayon etilgan.

**kalit so'zlar:** Savodxonligi , ko'nikmasi, interfaol metodlar, axborotlar texnologiyalar.

**Abstract:** In this article, the importance of the newly added science of mother tongue and reading literacy in primary grades, issues of formation and development of the ability to understand and understand the text in primary school students in the primary education system, mother tongue and interactive methods used to improve the effectiveness of reading literacy classes, the teacher's thoughts on the effective use of advanced pedagogical and new information technologies in the educational process are described.

**Key Words:** Literacy, skills, interactive methods, information technologies.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается значение вновь добавленной науки о родном языке и читательской грамотности в начальных классах, вопросы формирования и развития умения понимать и понимать текст у учащихся начальных классов в системе начального образования, родного языка и Описаны интерактивные

методы, применяемые для повышения эффективности занятий по читательской грамотности, размышления учителя об эффективном использовании передовых педагогических и новых информационных технологий в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Грамотность, навыки, интерактивные методы, информационные технологии.

## KIRISH

Biz pedagoglar bilamiz shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan tashkil etildi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismalarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasini o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinnari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan. Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit

matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rnlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, o'gzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostonart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'llim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Ona tili metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'llim standart belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiyl xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalari chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.<sup>77</sup>

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Boshlang'ich ta'llim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta'llim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o'zlashtirishlariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimini baholash, ta'llim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish belgilab qo'yildi. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash, unda munosib ravishda ishtiroy etish uchun maktablarda aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida

<sup>77</sup> Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent, 2019. 7 bet

matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish zarurligi biz o'qituvchilar oldiga ko'ndalang masala sifatida qo'yildi. Bunga munosib tayyorgarlik ko'rish uchun xalqaro tadqiqotlarning oldingi yillari natijalariga e'tibor berishimiz lozim. Xalqaro tadqiqotlarning so'ngi 2016-yilgi natijalarini kuzatsak, Rossiya davlati yetakchi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Rossiya metodiga nazartashlasak, unda ko'proq ota-onalar bilan hamkorlik masalalariga e'tibor qaratganlarini kuzatamiz. Bunda turli ertak va hikoyalar otaonalar tomonidan o'qib berilgan hamda farzandlar bilan birgalikda savol-javoblar orqali o'qilgan matn mustahkamlangan. Bolaning har bir voqeylekka nisbatan bo'lgan munosabati tinglangan.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- O'quvchilarning qobiliyatlarini va imkoniyatlariغا muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vu-judga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzlusiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.<sup>78</sup>

## NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarni o'qish savodxonligini oshirishda metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo'l keladi. O'qituvchi tomonidan o'qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o'quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko'maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og'zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-, 3-, 4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko'rinishga o'tib boradi. Ya'ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo'lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortiorishiga qarab matndagi so'zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlarga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o'sishiga,

<sup>78</sup> Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oqitish metodikasi Toshkent, Noshir, 2009.7-bet.

adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, so'z boyligining ko'payashiga, tuzgan matnlariga va o'qish darslarida matnni tushinish hamda anglash ko'nikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz ko'makdosh bo'lishi lozim. O'quvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir so'zlarni o'z o'mnida qo'llay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub ma'nosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi .

Boshlang'ich o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlanirishdagi dastlabki qadamlarda yordam beradigan metodlardan biri "Takrorlama" metodini ko'rib chiqamiz. O'quvchilar qatorlariga qarab uch guruhga bo'linadi. Doskaga uchala guruh uchun alohida-alohida rangli suratlar ilib qo'yiladi.Bu o'yin chorak oxirlarida yoki ma'lum bir bo'lim yakunida tashkil etilsa ham bo'ladi.uch guruh uchun 3xil bo'limdagi suratlar ilib qo'yiladi va o'yin boshlanadi.

(Agar suratlarning hajmi kichikroq bo'lsa, o'quvchilar 5-6 ta kichik guruhlarga bo'linib, suratlar bolalarning qo'llariga beriladi). O'yinimizning qoidasi: 1. Suratga mos sarlavha topish; 2. Tuzilayotgan gaplarning suratga mos kelishi; 3. Gaplar mazmunan bir-birini to'ldirishi kerak; 4. Bir marotaba aytilgan gap boshqa takrorlanmasligi lozim. Bu asosiy qoidalardan hisoblanadi.

Aqliy hujum»metodi -Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobjiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni xosil qilishga rag'batlaniradi[32]. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtida ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

## XULOSA

Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalalar quyidagilar: 1.Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish[8].2.Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlanirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng

maqbollarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi. 3.Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalariga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi[46].4.Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikrlari baholanib, boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini etibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (O'quv qo'llanma) –T.: Moliya, 2003. 23-bet
2. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oqitish metodikasi Toshkent, Noshir, 2009. 7-bet.
3. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent, 2019. 7- bet

## PREPARATION OF OLIGOMERS CONTAINING NITROGEN AND SULFUR BASED ON SODIUM TETRASULFIDE AND MELAMINE-CYANIDE ADDUCT.

**Berdiev Sanjar Allanazarovich**

Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Researcher of Tashkent scientific research institute of chemical technology Tashkent, Uzbekistan,

ORCID: 0009-0005-1516-2840

[sanjarberdiev75@gmail.com](mailto:sanjarberdiev75@gmail.com)

**Abstract.** The effectiveness of sulfur-containing compounds used as additives to improve the properties of oils is determined by their structure. Under friction conditions, strongly bound sulfur forms complex complexes with metals; such compounds prevent wear and in many cases have anti-corrosion properties, which has been proven in practice.


**Keywords:** sodium tetrasulfide, melamine-cyanide, adduct, anti-corrosion properties, oligomers, nitrogen, sulfur.

At high temperatures in active friction zones, weakly bound sulfur compounds chemically bind to the friction surface and improve the properties of the oil. Anti-wear additives prevent severe wear of surfaces operating without jamming (pressure) under normal friction. As a result of moderate pressure, load and temperature, surfactants can generally act as anti-erosion agents. However, additives that react with the metal surface at high temperatures and form films that prevent friction with the surface are used as anti-erosion additives. Such substances contain sulfur atoms. The cheapest and most common anti-wear additive containing sulfur atoms are oils saturated with sulfur (fuel oil) [2]. Black oil is formed using elemental sulfur (S) with sulfur atoms attached to a cyclooctane sulfate ring. With the help of catalysts, the cyclooctanesulfonate ring is broken, and the disulfide bonds are converted into an easily cleavable polysulfide chain [3].

Sulfur-saturated olefinic hydrocarbons or their polymers are widely used as highly effective anti-wear additives[4].

**Experimental part:** To carry out the reaction process, the reaction process was carried out in a 500 ml three-neck flask. First, 78 g of sodium sulfide is dissolved in 200 ml of solvent (water), 96 g of sulfur is added to the solution and the mixture is stirred with a mixer for 1 hour, influencing the temperature. The resulting sodium tetrasulfide is filtered and 50 g of purified sodium tetrasulfide is mixed in a flask at a temperature of 70-80 °C to obtain

basic organic lubricant additives. Then 20 g of dichlorohydrin and 0.15 g of ionic liquid catalyst (tetraethylammonium chloride) are added to the mixture. An ionic liquid (tetraethylammonium chloride) added to the reaction process acts as a catalyst. Then 76.5 g of melamine cyanurate adduct are added and the reaction mixture is kept at a temperature of 90-100°C for another 1.5 hours. The resulting oligomer precipitate is dried in an oven at a temperature of 50-60°C. The resulting product is 90% theoretical. He labeled the products with the NS-1 brand.



**Figure 1. Reaction yield of NS-1 oligomer as a function of time at 90°C.**

It has been studied that the reaction process for the synthesis of branded

NS-1 oligomers depends on the production time at a temperature of 90°C. The oligomer was obtained in the reaction with the highest yield at a reaction time of 1.5 hours. (Fig. 1) As a result of the experiments, in order to obtain a product with high yield from the NS-1 oligomer, it is necessary to obtain an equimolar ratio of the starting products according to Table 1.

**Table 1.**

**Dependence of the reaction yield of NS-1 oligomers containing nitrogen and sulfur on the molar ratio of the initial monomers (90°C, τ = 1.5 hours)**

Mole ratios of starting materials	Reaction yield, %	Molecular weight (cryoscopic method)	External appearance	Sulfur, %	
				Calculated	found
Sodium tetrasulfide/dichlorohydrin/melamine cyanurate adduct					
1:1:3	32	1050	Light brown liquid	37,5	36,9
1:0,5:3	19	982		24,3	20,7
1:0,25:3	17	1300		22,5	18,4

0,5:1:3	86	1100	Light brown liquid	35,0	34,3
0,25:1:3	83	1100		28,5	26,7
1:1:2	90	1080		36,5	35,8
1:1:1	81	1080	Light brown liquid	35,4	33,7
1:1:0,5	54	1100		37,7	36,2
1:1:0,25	47	1050		34,7	33,1
1:2:2	88	1100	Light brown liquid	35,4	34,7
2:1:2	76	1090		36,2	35,2
2:2:1	78	1000		37,0	36,5

As can be seen from Table 1, the oligomer of the NS-1 brand under optimal conditions ( $T = 90\text{-}100^\circ\text{C}$ ,  $t = 1.5$  hours) with a ratio of sodium tetrasulfide adduct, dichlorohydrin and melamine cyanurate of 1:1:2 is higher. Than the NS-1 brand oligomer, a good product is obtained. The product yield is 90%; the resulting oligomer NS-1 contains 45% sulfur and has an average molecular weight of 1080.

#### REFERENCES:

1. Ben G. Moxey, Alasdair Cairns, Hua Zhao. A comparison of butanol and ethanol flame development in an optical spark ignition engine // Contents lists available at ScienceDirect Fuel.2015.12.008 Fuel 170 (2016) р. 27–38...;
2. Капустин В.М. Технология производства автомобильных бензинов. М.: Химия. 2015. 256 с.
3. Решение Комиссии Таможенного союза от 18 октября 2011г. № 826 «О принятии технического регламента Таможенного союза "О требованиях к автомобильному и авиационному бензину, дизельному и судовому топливу, топливу для реактивных двигателей и мазуту".
4. Ершов, М.А. Производство перспективных автомобильных и авиационных бензинов в России / М.А. Ершов, В.Е. Емельянов // Национальный нефтегазовый форум. Москва. - 2014. – 19 с.
5. Солодова, Н.Л., Тенденции развития нефтепереработки в России / Н.Л. Солодова, Е.И. Черкасова // Вестник технологического университета. - 2016. - Т.19, №21. – С. 57-63.

## TURKIYA SIYOSIY ELITASINING RIVOJLANISH IERARXIYASI VA DINAMIKASI

**Egamberdiyev Miravzal Bahodir o'g'li**

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik yo'naliishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Elita rivoji haqida Ushbu maqolada Turkiya Siyosiy Elitasining rivojlanish tarixi istiqbollari haqida so'z boradi. Ushbu maqolada Turkiya Siyosiy Elitasining qisman iyerarxiyasi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** elita, siyosat, imperiya, usmonliy, podsho, byurakratiya, intelektual elita, harbiy, elita boshqaruv, konservativ, Adolat va Taraqqiyot partiyasi, kuch tuzulmalari, ataturk.

**Annotation:** this article is about the development of the elite, this article will talk about the prospects for the history of the development of the Turkish political elite. This article cites a partial hierarchy of the Turkish political elite.

**Keywords:** elite, politics, Empire, Ottoman, Tsar, bureaucratic, intellectual elite, military, elite management, conservative, Justice and Development Party, power structures, Ataturk.

**Аннотация:** эта статья о развитии элиты в этой статье рассматриваются перспективы истории развития политической элиты Турции. В этой статье представлена частичная иерархия политической элиты Турции.

**Ключевые слова:** элита, политика, Империя, Османская империя, Король, бюрократия, интеллектуальная элита, военные, элита управления, консервативная Партия справедливости и развития, силовые структуры, Ататурк.

Turkiya Elitasi Usmonli davridan Shakillana boshlagan Usmonli davrida Mamlakat miqyosida katta obro va etiborga ega bo'lgan 3 vakil mavjud edi.

Bular:

1 Hukumdar

2 Harbiy

3 Sudyalar va Qozilar

Ushbu vakillar Usmonli Elitasining asosini tashkil etkan. Usmonli davri elitasi asosini byurarakratiya bilan ish qiluvchi vakillik organi tashkil etkan. Usmonli elita vakillari uchun juda ham kop imtiyoz va qoshimchalar mavjud bolgan xususan Hukumdar elitasi vakillari yani 'Podsholar' uchun hukumat

tomonidan yer mulklar inom etilgan soliqlardan qisman yo umumiy miqyosida ozod etilgan.

Podishohlar Yanicharlar va Qozikalonlar uchun yaxshi xizmati uchun hukumdar tomonidan uy hadiya etilgan, oziq-ovqat mahsulotlari ham tarqatilgan.

**Annatatsiya:** Maqolada, oliy ta'lif muassasalaridagi muhandislik ta'lif yo'nalishi talabalariniga umumkasbiy fanlarni o'qitish orqali talabalar tomonidan shakllanadigan tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakillantirish metodikasi tahlil qilingan va tadqiqotchilik, evristik va muammoli o'qitish metodlari orasidagi umumiyligini ko'rib chiqish orqali o'qitishning muammoli-izlanish usulining ayrim xususiyatlarini qayd etish mumkinligini bayon etilgan. Shuningdek bizning ishimizda muhandislik yo'nalishi talabalari tomonidan umumkasbiy fanlarni o'qitishda hamda hisoblash ishlarini va kurs loyihalarini bajarishda shakllangan va ishlab chiqilgan tadqiqot qobiliyatları darajasi aniqlangan.

**Tayanch so'z va iboralar:** konsepsiya, qobiliyat, kasbiy kompetensiya, evristik, muammoli o'qitish, tushuntiruvchi-illyustrativ, reproduktiv, muammoli, eksperiment, bilim, ko'nikma.

**Kirish.** O'qitish jarayoni uzoq tarixga ega hamda doimiy ravishda amaliy o'qituvchilar nuqtai-nazaridan paydo bo'lib, ta'lif va tarbiyaning turli pedagogik konsepsiysi tarkibida paydo bo'ladi.

Tadqiqotchilik metodining faol targ'ibotchisi sifatida Б.Е.Раиков ta'lifning shakllanish xususiyatlarini keltirib o'tadi. Tadqiqotchilik metodi bo'lajak mutaxassisni to'g'ri shakllantirish orqali, aniq fikrlar sohasida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shishini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, talabalarning ilmiy-tadqiqot hamda tadqiqot ishlari orasida o'xshashlik mavjud: talaba va olim xuddi shunday mantiqiy yo'ldan boradi. B.Y.Raikov o'zining ilmiy asarlarida tadqiqot metodini "mavjud voqealarni mustaqil mushohada etishga asoslangan malum bir mantiqiy jarayonga rahbarlik qiladigan o'qitish metodi" deb ta'riflaydi.

**Ilmiy tadqiqotning mazmuni va mohiyati.** Pedagogik amaliyotga o'qitishning tadqiqot metodini birinchilardan bo'lib A.Y.Gerd kiritgan. U kognitiv ta'lif jarayonida tadqiqot faoliyatining o'rni hamdaahamiyatini aniq va ravshan belgilaydi: barcha haqiqiy bilimlarni insoniyat tomonidan

kuzatish, taqqoslash hamda tajribalar orqali, asta-sekin kengayib borayotgan xulosalar hamda umumlashmalar yordamida olinadi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, mental kartalar hamda forsaytning ekspert so'rovi, ssenariylar ishlab chiqish, kelajak yashigi, Delfi kabi metodlaridan foydalanilgan.

**Ilmiy tadqiqotning qo'llanilish sohasi.** Oliy ta'lif muassasalarida sifatli, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yangi yo'llarini izlab topish, bizningcha, o'qituvchi-pedagoglar tomonidan boshqarilishi kerak. Bunda haqiqatda amalga oshirilayotgan ta'lif jarayonini mantiqiyligini ta'minlash; ta'lif mazmunini yanada rivojlantirish, kasbiy kompetensiya va uning tarkibiy tuzilmalarini, bo'lajak muhandislik sohasi mutaxassislarining shaxsiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan yangi dasturlarni ishlab shiqish, o'quv jarayoniga talabalarning moslashuvini ta'minlashga qaratilgan maxsus kurslarni kiritish amalga oshiriladi. O'qituvchilar ta'lif jarayonida samarali o'qitishning intorfaol metodlaridan maqsadli foydalanadilar, OTMning barcha tarkibiy tuzilmalari, jamoat tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ta'lif sohasida pedagogik ta'minotning yagona tizimi yaratilichiga erishiladi.

O'qitishdagi tadqiqotchilik yondashuvi nafaqat yuqorida aytib o'tilgan balki Sh.Sh.Blonsky, S.T.Shatsky asarlarida va boshqalar asarlarida uchraydi.

**Ilmiy tadqiqotdan kutiladigan natija.** Tadqiqotchilik, evristik va muammoli o'qitish metodlari orasidagi umumiylikni ko'rib chiqamiz. Avvalo, o'qitishning muammoli-izlanish usulining ayrim xususiyatlarini qayd etish mumkin. Avvalo, har ikkala holatda ham har qanday ijodiy faoliyatgaxos bo'lgan uslub va usullarni faol o'zlashtirish mavjud. I.Y.Lerner "Insonni ijod qilishga o'rgatishning yagona yo'li bor – unga ijodiy tartiblarni, ya'ni ijodiy faoliyatning mohiyatini tashkil etuvchi tuzilmalarni o'rgatish kerak. Hamma narsa faqat yordamchi rol o'ynaydi. Buning uchun:

- 1) bilim oluvchi tomonidan egallangan bilim hamda qobiliyatlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatga sinovdan o'tkazish;
- 2) tadqiq etilayotgan obyektning yangi funksiyasini ko'rish;
- 3) obyekt tuzilishini aniqlash;
- 4) muammoni ko'ra bilish;
- 5) muqobil yechimtopish;
- 6) yuzaga kelgan muammoga nisbatan avvaldan o'rganilgan faoliyat usullarini yangilariga birlashtirish[1].

Nima uchun? bundan nima kelib chiqadi? qanday qilib? bu muammoni qanday hal etish mumkin? singari savollarning bari muammoni hal etish uchun ijodiy izlanish strategiyasini rag'batlantiradi, ba'zi yo'nalishlarni

belgilaydi. Bunday taxminlar, savollar so'zning keng ma'nosida muammoli qarashni yaratib beradi.

Didaktik hamda amaliy tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, o'qitishning muvaffaqiyati mazmunini to'g'ri belgilash hamda ta'lif maqsadlari va maqsadlarga erishish yo'llari (o'qitish metodlari)ga ham bog'liq[2].

Zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlarda ilmiy tadqiqot ishlarining turli xususiyatlari, xususan ularning qisqa hamda uzoq muddatli, sifat hamda miqdoriy, rejalahtirilgan ish va ijodiy vazifalarga bo'linishi keltirib o'tilgan.

O'qitish metodlari ma'ruza, tushuntirish va boshqalarga bo'linadi, bundan tashqari tinglash, tushunish, mashq etish, modellashtirish, so'rov, imtihon, hikoya, loyiha himoyasi va boshqalarga ham bo'lish mumkin. Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlar axborot uzatish manbalari va usullari bilan ajralib turadi. Tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyati xususiyatiga mos tushuntiruvchi-illyustrativ, reproduktiv, muammoli, evristik (qisman izlanishli) va tadqiqotchilik metodlariga ajratiladi[3].

Umumkasbiy fanlarni o'qitishda eksperimentga tayanish mutlaqo zarur, chunki u texnik nazariyaning barcha komponentlari bilan cheklangan. XXasrning buyuk olimi A.Yeynshteyn eksperimental asosda o'rganishga o'zining munosabatini shunday ifodalagan: "O'rganishning birinchi bosqichida vizual qiziqishni uyg'otuvchi eksperimental tomonidan boshqa barcha narsa istisno qilinishi kerak". O'quv-texnik tajriba demonstratsion tajribalar, laboratoriya hamda amaliy ishlarni o'zida mujassamlashtiradi. Quydagi 1-jadvalda eksperimental tadqiqot usullarining ilmiy hamda uslubiy taraflarining mosligi ko'rsatilgan[4].

#### 1-jadval

#### Ilmiy va metodologik aspektlar

<b>No</b>	<b>Ilmiy aspekt</b>	<b>Metodik aspekt</b>
1	Bilimlar fondini tahlil etish hamda farazlarni oldinga surish	Hayotiy tajriba tahlili hamda o'rganilayotgan obyekt bilan bog'liq oldingi mavzu yuzasidan bilimlar, eksperimental gipotezasini rivojlantirish
2	Eksperimentalni rejalahtirish, tanlash yoki eksperimental metodini ishlab chiqish	Hodisani takrorlash usulini tanlash hamda uni kuzatishni tashkil etish
3	Gipotezani tasdiqlashga yetarrli bo'lgan eksperimental o'tkazish.	Obekt hodisalari yoki parametrlarini aniqlash uchun oldindan ma'lum bo'lган sharoitlarda (o'zgarmas yoki o'zgaruvchan) tajriba o'tkazish

4	Ishlov berish (shu jumladan kompyuter) ko'p eksperimental ma'lumotlar hamda ma'lum nazariy yondashuvlardan ehtimoliy yoki ishonchli xulosalarni shakillantirish.	Eksprement shartlari hamda natijalarini aniqlash. Funksional bog'lanishlarni o'rnatisq. Tajriba natijalari tufayli xulosalarni rivojlantirish. Natijani eksperimental tekshirish.
---	--	---

Bizning ishimizda muhandislik yo'nalishi talabalari tomonidan umumkasbiy fanlarni o'qitishda hamda hisoblash ishlarini (nazariy mexanika hamda materiallarning qarshiligi) va kurs loyihalarini (mexanizmlar hamda mashinalar nazariysi, mashina qismlari) bajarishda shakllangan va ishlab chiqilgan tadqiqot qobiliyatları darajasini aniqlandi (2-jadva).

jadval

Talabalarni umumkasbiy fanlardan tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish

Fanlar	Qobiliyatlar	Faoliyat
<b>Hayot faoliyati xavfsizligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tadqiqot muammolarini hal etish uchun fundamental qonunlar hamda ilmiy-texnik nazariyalarni qo'llash;</li> <li>- tadqiqot maqsadalari, vazifalari hamda usullarini aniqlash;</li> <li>- matematik hisob-kitoblarni bajarish hamda bajarilgan ish natijalari va muvaffaqiyatini tahlil etish;</li> </ul>	Masala yechish, hisob-kitob ishlarini olib borish
<b>Ishlab chiqarishda elektr favfsizligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tadqiqot maqsadlari, vazifalari hamda usullarini aniqlash;</li> <li>- hodislarni tahlil etish;</li> <li>- tadqiqot natijalarini garafik usulda tuzish (hisoblash sxemalari va boshqalar);</li> <li>- Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi bo'yicha nazariy bilimlarni egallash;</li> <li>- muammolari hal etish uchun fundamental qonunlar hamda ilmiy texnik nazariyalarni qo'llash;</li> <li>- matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda bajarilgan ish natijalarini tahlil etish.</li> </ul>	Masala yechish, hamda grafik ishlarni olib bosh
<b>Yong'in xavfsizligi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tadqiqot maqsadlari, vazifalari hamda usullarini aniqlash;</li> </ul>	Kurs ishlarini bajarish

	<p>-Yong'in xavfsizligi bo'yicha nazariy bilimlarni egallah;</p> <p>-fundamental qonunlar hamda ilmiy-texnik nazariyalar orqali modellarning xossalarni o'rganish;</p> <p>-texnik obektlari fundamental qonunlar va ilmiy texnik nazariyalar orqali loyihalash;</p> <p>-loyihani himoya etish.</p>	
--	--	--

Didaktik vazifalarning xususiyatiga qarab bilim olish usullari quyidagicha ajratiladi; ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari (masalan, aqliy harakatlar vatushunchalarni tizimli shakllantirish metodi); bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat etish metodlari; ijodiy faoliyatni shakllantirish metodlari. Tadqiqotchilik metodining to'rt bosqichi mavjud.

- 1) kuzatish ilmiy faktlarni hamda ularni o'rganishga imkon beradi;
- 2)gipotezani shakllantirish. Ilk fikrlar hamda tushunchalarni shakllantirishni o'zida mujassamlashtiradi;
- 3) tajriba. Gipotezani sinab ko'rish. Bu laboratoriya sinovlarini o'tkazishni o'zida mujassamlashtiradi.
- 4) natijalarni qayta ishlash. Tushuntirish hamda umumlashtirish.

Ushbu usulning aniqlangan bosqichlari o'quv-tadqiqot faoliyati vazifalarini hal etish uchun asosi asosida foydalanish kerak, deb hisoblaymiz.

### **Xulosa.**

Muhandislik yo'nalishi talabalarini o'qitishdagi asosiy maqsadlari umumkasbiy fanlar siklini ifodalab beradi, ya'ni umumkasbiy fanlar sohasiga oid yuqori darajadagi fundamental bilimga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash, hamda maxsus fanlarni o'rganishdagi tayyorlangan texnologik hamda texnik hisob-kitoblarni amalga oshirish qobiliyatları zamonaviy muhandislik fikrlashini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi, hamda bo'lajak muhandis oliy kasbiy ta'limning Davlat ta'lim standartiga mos javob beraolishi kerak bo'lgan talablarni belgilab beradi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari ta'lim davrini tugatgandan keyin bo'lajak muhandislar kasbiy faoliyatning operatsion, texnologik hamda xizmat ko'rsatish, tashkiliy hamda boshqaruv,loyihalash hamda muhandislik, ishlab chiqarish hamda texnologik, tadqiqotchilik kabi turlarini amalga oshirishda har tomonlama tayyor bo'lishlari kerak.

**ADABIYOTLAR:**

1. Черниченко В.И.Дидактика высшей школы / В.И.Черниченко - М.: Вузовская книга, 2002. — стр. 73-77.
2. Давыдови Р.А.Учебно-производственная практика как средство повышения конкурентоспособности выпускников туристических вузов Сходня, 2004. — 166 стр.
3. Харитонова Н.В. Направления формирования профессиональной компетентности у студентов //httsh://www.masu.ru/ssiene/sbornik/31 .htm.
4. Базарова Т.В. Мониторинг качества профессионального образования в техникуме на основе компетентносного подхода / Т.ВБазарова : дисс ... канд. пед. н— М., 2007. – 244стр.

## MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA YUQORI IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Rashidov Abror**

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali asisstenti

**Kubayev Shahobiddin**

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot yo'nalishi 41\_21-guruh talabasi [shahobiddinkubayev@gmail.com](mailto:shahobiddinkubayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolani yoritishda "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusi tanlab olindi va ushbu mavzuga oid ma'lumotlar keltirilgan hamda bu mavzuga doir ba'zi o'zbek adabiyotlari, Milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi ayrim muammolar va ularga tegishli yechimlar hamda rivojlanish usullari keltirib o'tilgan bo'lib barcha uchun mavzu sodda va aniq qilib yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy iqtisodiyot, rivojlanish, siyosat, infrastruktura, resurs, sifat, korrupsiya, davlat.

### **Kirish**

Mazkur mavzuni yoritish davomida avvalo Milliy iqtisodiyot tushuntirib o'tilgan.

**Milliy iqtisodiyot** - ijtimoiy iqtisodiyotning mavjudlik shakli; mamlakat, davlat hududida yashovchi millat (xalqlar)ning tarixan shakllangan yoki tubdan yangilanayotgan, o'zgarayotgan va rivojlanayotgan mulkiy va boshqa ijtimoiyiqtisodiy munosabatlari, ular bilan shartlangan, mahalliy xususiyatlarga ham ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat sohalari, tarmoqlari, tashkilotlari, korxonalari, hududlari va mintaqalari sistemasi. Imkon darajasida tashqi bozor ta'siridan xoli bo'lgan milliy xo'jalik sistemasi<sup>79</sup>.

Milliy iqtisodiyot haqida yozilgan adabiyotlar ustida bir nechta sharhlarni keltirib o'tamiz. Quyidagi ba'zi sharhlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1. "Milliy iqtisodiyot: Nazariya va amaliyat" - Shuhrat Kholikov

Bu kitobda milliy iqtisodiyotning nazariy va amaliy aspektlari to'g'risida tushunchalar berilgan. Ushbu sharh milliy iqtisodiy rivojlanishda o'ziga xos bo'lgan tamoyillarni o'rganish uchun yaxshi bir manba sifatida hisoblanadi.

2. "Milliy iqtisodiyot va milliy iqtisodiy siyosat" - Abdulholiq Nazarxo'jayev

<sup>79</sup> [https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Milliy\\_iqtisodiyot&oldid=1000000](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Milliy_iqtisodiyot&oldid=1000000)

Bu adabiyot milliy iqtisodiyotning kundalik hayotdagi tushunchalarini o'rganish uchun qulaydir. Kitobda milliy iqtisodiyotni boshqarishda siyosatning ahamiyati, milliy iqtisodiyot tizimlari mavzularida tushunchalar berilgan.

### 3. "Milliy iqtisodiyotning o'zbek modeli" - Baxtiyor Saidov

Ushbu sharh O'zbekistonning o'ziga xos milliy iqtisodiyot modelini odatda qancha muvaffaqiyatli amalga oshirishi haqida ma'lumot beradi. Kitob milliy iqtisodiyotning tarixiy asoslarini, muassasalarini va shakllantirish jarayonini belgilashda o'rinni oladi.

### 4. "Milliy iqtisodiyot va milliy iqtisodiy siyosat" - Vohid Abdurashidov

Ushbu adabiyot milliy iqtisodiyot tizimlarini yanada tahlil qilishni va milliy iqtisodiy siyosatning rolini o'rganishni maqsad qiladi. Kitob milliy iqtisodiyotning eng asosiy masalalarini o'z ichiga olgan holda ochiqlavchi tarzda yozilgan.

Bu adabiyotlar milliy iqtisodiyotning turli jihatlarini tahlil qila oladigan manbalardan faqat bir necha misol xolos.

## METODOLOGIYA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda har qanday davlatda ham kamchiliklar bo'ladi va tabiiy. Quyida O'zbekistondagi Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ba'zi kamchiliklar hamda ularga ba'zi yechimlar keltirilgan.

1. Sifatli infrastruktura va resurslar cheklanganligi: Rivojlanmagan va sifatsiz infrastruktur va resurslarga ega bo'lish o'simlik, transport, kommunikatsiya va elektroenergiya sohalarida ishlab chiqarish va tuzilishni cheklash mumkin.

Yechim: Infrastruktur va resurslar zamonaviy va sifatli bo'lishi uchun katta investitsiyalar va rivojlanishlarga yo'naltirishning zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy muhitni yaratish.

2. Korrupsiya va hukumat xato takliflari: Korrupsiya va hukumat xato takliflari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir qiladi. Bu, iqtisodiyotga solishtirish, yechim topish qobiliyatini pasaytirish, investitsiyalar va biznes faoliyatining barqarorligini cheklash imkoniyatlarini oshiradi.

Yechim: Korrupsiyanı oldini olish uchun hukumat tomonidan saylovlar, otkazmalarda otlar, ishbilarmonlar bilan hamkorlik qilish kabi ta'lim va reformalarni o'rnatish, transparensiyani oshirish uchun ma'naviy va institutional mehanizmlarni oshirish.

## Xulosa

Xulosa o'rnida Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ba'zi muhim amallar va usullarni aniq qilib keltirib o'tish mumkin.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun bir nechta muhim usullar mavjud.

1. Infrastruktur rivojlanishi: Yaxshi ishlab chiqarish tizimi, transport va kommunikatsiya sohasidagi infrastruktur rivojlanishlari, energiya taminoti va boshqa infrastruktur vositalari yaxshi holatlarda bo'lishi kerak. Bu, iqtisodiy faoliyatning samarador bo'lishini ta'minlaydi.

2. Ta'lif tizimining joriy etilishi: Iqtisodiy rivojlanish uchun zamonaviy ta'lif tizimi zarur. Bu ta'lifning sifati, mahorati va ma'lumotlarga erishishning o'r ganishni qo'llab-quvvatlaydi.

3. Tarif siyosati: Yagona salohiyat egalarining savdo bo'limlariga kirishiga to'sqinliklarni kamaytirishga qaratilgan samarador iqtisodiy suzlash va tarifflar qabul qilinadi.

4. Sifatli diplomatiya: Yagona salohiyat egalarining xalqaro hamkorlik va hamkorliklarga e'tibor beradigan diplomatiya tuzilishi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin.

5. Bank sohasidagi reformalar: Moliya sohasidagi reformalar, nominal davrimiyylikni barqarorlashtirish, qo'llab-quvvatlash yoli bilan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan yaxshi bank tizimi yaratish va mo'ljallangan qurilish asosida yuqori darajada samarali moliyaviy siyosatning belgilashida muhim ahamiyatga ega.

6. Innovatsiyalar rivojlanishi: Iqtisodiyotga innovatsiyalar kirishi iqtisodiy barqarorlik uchun muhimdir. Dasturlash, yangi texnologiyalar, tibbiyot, energiya sohasi kabi sohalar bo'yicha innovatsiyalar bilan ta'minlash iqtisodiyotni yanada rivojlantirishi mumkin.

7. Sifatli tadbirdorlik muhitini yaratish: Sifatli tadbirdorlik muhitini yaratish iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishi uchun zarurdir. Debet va kredit imtiyozlarini ta'minlash, byudjet solig'isini soddalashtirish, biznes tajribasini ulash iqtisodiyotni Yemenida oshiradi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodi y barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi. Shu sababli ham, «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budgeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdin»

Bu usullar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, lekin har bir mamlakatning o'zining alohida iqtisodiy va siyosiy holatlari aniqlanishi va kiritilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Rashidov, Abror, and Shahobiddin Kubayev Ernafas o'g'li. "MAMLAKATIMIZDA ISHSIZLIK SABABLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH." IQRO 1.2 (2023): 284-288.
2. Abror R., Shahobiddin K. INNOVATIVE MARKETING AND ITS DEVELOPMENT //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 193-196.
3. Рашидов У., Рашидов А. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.
4. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 20-22.
5. Ismailova, Nilufar Sabitjanovna, Uchqun Ro'Zimurod O'G'Li, and Abror Ro'Zimurod O'G'Li. "JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNIY ASOSLARI." Scientific progress 2.2 (2021): 1095-1098.
6. Rashidov U., Rashidov A., Naimov S. Modern Views on the Problems of Management Accounting in Logistics System // ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 276-283.
7. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.
8. Rashidov A., Leonodovna M. N., Azlarkhan A. The importance of financial accounting in business decision-making //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 21. – С. 1-4.
9. Рашидов У., Рашидов А. Роль и значение нотариальных методов в регулировании экономики //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.
10. Rashidov A. BUXGALTERIYA HISOBINING TURLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 153-160.
11. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN INCREASING THE INCOME OF THE POPULATION

AND IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 710-714.

12. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASH //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 9-11.

13. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOOGS jurnali. – 2022. – T. 5. – №. 1. – C. 20-22.

14. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH SIRLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C. 299-304.

15. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. MAMLAKATIMIZNING XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH //IQRO. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 30-34.

16. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O 'ZBEKISTONING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARING O 'RNI //IQRO. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 166-176.

17. Lukhmonovna A. N. et al. The Main Problems that Arise in the Development of the Digital Economy and Their Solutions //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2023. – T. 20. – C. 25-28.

18. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O 'ZBEKISTONDA PUL-KREDIT TIZIMI VA UNI MODERNIZATSIYALASH YO 'LLARI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 251-258.

19. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C. 141-147.

20. Цой М. П. и др. ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 292-295.

## **O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI HAL QILISH CHORA TADBIRLARI**

**Usmonova Vasila Botirovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali  
Iqtisodiyot va turizm kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

**Kubayev Shahobiddin**

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot yo'nalishi 41-21-guruuh talabasi

[shahobiddinkubayev@gmail.com](mailto:shahobiddinkubayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur yoritilgan tezis "O'zbekistonda ishsizlik muammosi va uni hal qilish chora tadbirlari" mavzusida bo'lib, ushu mavzuga oid kalit so'zlar, ishsizlikdagi muammolar hamda ularga yechimlardan foydalanilgan, shuningdek ba'zi bir xulosa va fikrlar ham kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, ishsizlik, bandlik, ish, ishchi kuchi, mehnat, resurs, makroiqtisodiyot, sanoat, ta'lif.

### **Kirish**

Aholi va uning eng faol qismi bo'lgan mehnat resurslari makroiqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi<sup>80</sup>.

Ishsizlik — ishlash layoqatiga ega blgan va mehnat qilish istagini bildirgan iqtisodiy faol fuqarolarning ish topa olmasligi.

Ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik juda ko'p muammolarga zamin yaratadi — jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo'ladi, bolalarning tarbiyasi buziladi. Ishsizlikning ma'lum darajaga yetishi hatto davlatchilik tanazzuliga ham sabab bo'lishi mumkin<sup>81</sup>.

O'zbekistonda 2022-yil ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etgan. Yanvariyun oylarida ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga kamaygan.

2022 yilning 1 iyun holatida **mehnat resurslari soni 19 453,3 ming kishini** tashkil etib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizga yoki 153,7 ming kishiga oshgan:

<sup>80</sup> [http://jahongir.sitecity.ru/ltext\\_3101103222.phtml?p\\_ident=ltext\\_3101103222.p\\_3101103554](http://jahongir.sitecity.ru/ltext_3101103222.phtml?p_ident=ltext_3101103222.p_3101103554)

<sup>81</sup> <https://kun.uz/uz/news/2021/10/30/ozbekistonda-ishsizlik-sabablari-maosh-kammi-yoki-yaxshi-xodim>

- Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar — 13 773,6 ming kishi** (2021 yilga nisbatan 1,9 foiz yoki 261,3 ming kishiga ko'p);
- Rasmiy sektorda — 6 074,4 ming kishi** (2021 yilga nisbatan 4,1 foiz yoki 240,6 ming kishiga oshgan);
- Norasmiy sektorda — 5 690,3 ming kishi** (2021 yilga nisbatan 8,2 foiz yoki 507,5 ming kishiga kamaygan)<sup>82</sup>.

Shuningdek, O'zbekistonda o'tgan 7 yil ichidagi ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobotlar quyida jadvalda keltirilgan.

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	<b>5,2</b>	<b>5,8</b>	<b>9,3</b>	<b>9,0</b>	<b>10,5</b>	<b>9,6</b>	<b>8,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,4	6,0	9,5	9,1	10,5	10,1	9,1
Andijon	5,6	6,0	9,6	9,2	10,9	9,9	9,1
Buxoro	5,4	5,5	8,7	8,9	10,6	9,8	8,8
Jizzax	5,4	5,0	9,8	9,2	11,0	10,1	9,3
Qashqadaryo	5,3	6,1	9,7	9,3	11,1	10,2	9,3
Navoiy	5,0	5,2	8,7	8,5	9,4	8,8	8,0
Namangan	5,3	5,8	9,6	9,1	10,6	9,7	8,9
Samarqand	5,7	6,5	9,7	9,3	11,0	9,9	9,3
Surxondaryo	5,6	6,7	9,7	9,3	11,1	10,2	9,3
Sirdaryo	4,4	5,1	9,3	9,3	11,0	10,2	9,3
Toshkent	4,1	5,2	9,0	8,9	10,5	9,4	8,8
Farg'ona	5,5	6,4	9,7	9,3	10,9	10,0	9,2
Xorazm	5,5	5,7	9,4	9,1	10,9	9,9	9,0
Toshkent sh.	3,6	4,5	7,9	7,4	8,0	7,0	6,5

O'zbekistonda mehnat bozori faoliyati quyidagi omillarga bog'liq:

- aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ish bilan birgalikda tarmoq va hududiy o'zgarishlar;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish me'zoni;
- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish strukturasiga;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashuviga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

O'zbekistonda bandlar sonini barcha yillar kesimida quyidagi jadvalda to'liq ko'rish mumkin, ya'ni bunda yillar hamda barcha hududlar kesimida keltirib o'tganmiz.

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
----------	------	------	------	------	------

<sup>82</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/12/unempoyment/>

O'zbekiston Respublikasi	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13706,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	705,2	711,3	707,4	702,6	714,2
Andijon	1266,8	1284,5	1225,9	1264,3	1296,8
Buxoro	810,1	797,1	788,0	777,3	780,6
Jizzax	486,6	536,2	534,3	550,7	546,4
Qashqadaryo	1222,0	1220,0	1171,0	1202,5	1207,3
Navoiy	407,7	412,7	399,4	410,4	410,1
Namangan	1051,5	1104,6	1088,7	1104,8	1100,6
Samarqand	1463,3	1455,8	1418,3	1441,3	1479,8
Surxondaryo	984,0	1024,2	985,5	1001,9	1006,3
Sirdaryo	354,2	350,1	332,2	334,1	335,0
Toshkent	1227,7	1232,9	1177,2	1222,1	1204,5
Farg'ona	1451,0	1492,6	1448,6	1483,3	1511,7
Xorazm	711,8	736,5	716,4	726,4	741,8
Toshkent sh.	1131,2	1182,6	1243,5	1317,2	1371,1

O'zbekistonda ishsizlik muammosi bir necha yillardan beri hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar orasida qaraladi. Bu muammo hal qilinishi uchun bir nechta yechimlar mavjud:

1. Sanoat sohasidagi investitsiyalar: O'zbekistonda haqiqiy korxonalar va mahalliy bozorlarni rivojlantirish uchun sanoat sohasiga investitsiyalar kiritilmoqda. Bunda sohani rivojlantirish, yangi ish rinlarini yaratish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlari ko'payadi. Sanoat sohasidagi innovatsiyalar va xarajatlarni pastga olib tashlash, yangi korxonalar va tashkilotlar uchun imtiyozli shartlar taklif etish, sanoat sohasidagi texnik va sifatga bog'liq talablarni joriy etish muhimdir.

2. Ta'lim sohasining rivojlanishi: Ta'lim sohasining rivojlanishiga katta e'tibor qaratish, yerdagi qishloq xo'jaligi va ko'chmas mulk foydalanishini oshirish, xususiy mulk savdo sharoitini yaxshilash kerak. Bu, ishga qishishni tezlashtirish va mahalliy ishchilarga yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

3. To'qqizish va transportni rivojlantirish: Ta'sirli ish tizimlarini yaratish va transport sohalaridagi infratuzilmani yangilash, toqqizish va transport sohalarida ish rinlarini yaratish uchun muhimdir. Bu, yangi ish rinnari yaratish imkonini beradi va ishchilarni ishbilarmonlikka jalb etishga yordam beradi.

4. Xalqaro kapital amaliyotlarga kirishni kengaytirish: O'zbekiston xalqaro bozorlarga kirishga qiziqish krsatish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport potentsialini rivojlantirish va eksport vositalarini osonlashtirish zarurdir. Xalqaro bozorga qisqa vaqt ichida kirish uchun xorijiy investitsiyalar,

iqtisodiyatni diversifikatsiya qilish va mahsulotlar va xizmatlarni sifatini yaxshilashni o‘z ichiga olgan ishlashni amalga oshirilishi kerak.

5. Sifatli ta’lim va bilim-ta’minot sohasidagi islohotlar: Ishsizlik muammolari bilim, ta’lim, xususiy kasb va innovatsiyalar sohasidagi to’ri ishlashdan ham qarashli. Talabalarni malaka va bilimlari boyicha tayyorlash, sohalarga mos kasblar bilan boo’liq qobiliyatlar yaratish, innovatsiyalar sohasidagi rivojlanishni ta’minlash muhumdir.

Bu faol tadbirlar, O’zbekistondagi ishsizlik muammo hal qilishida muhim ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sohalarda barcha to’ridan-to’g’ri qadam ega bo‘lishi kerak va iqtisodiy rivojlanishga yo’l ochadi.

<b>Hududlar</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>
<b>O’zbekiston Respublikasi</b>	<b>68,1</b>	<b>66,0</b>	<b>67,0</b>	<b>67,2</b>
Qoraqalpog’iston Respublikasi	62,9	62,0	61,1	61,6
Andijon	70,1	66,5	68,2	69,5
Buxoro	69,3	68,3	67,2	67,2
Jizzax	67,1	66,2	67,5	66,2
Qashqadaryo	63,9	60,9	62,2	61,9
Navoiy	69,5	66,8	68,3	67,7
Namangan	66,4	65,0	65,5	64,8
Samarqand	65,3	63,2	63,7	64,7
Surxondaryo	67,0	63,9	64,5	64,2
Sirdaryo	68,9	64,8	64,5	64,0
Toshkent	71,4	68,2	72,4	71,0
Farg’ona	67,5	65,1	66,2	67,1
Xorazm	66,1	63,7	64,0	64,7
Toshkent sh.	80,1	81,7	81,3	82,5

Yuqoridaagi jadval asosida ko‘rishimiz umkinki, unda O’zbekistondagi bandlike darajasi yiilar hamda hududlar kesimida keltirilgan.

### **Xulosa**

Demak, yuqoridaagi fikrlar hamda ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, aholi bir tomonidan moddiy boyliklar yaratuvchisi, ikkinchi tomonidan esa iste'molchi hamdir. Uning mana shu ikki tomonlama xususiyati mutanosib sotsial-iqtisodiy vaziyatni shakllantirishni talab etadi. Bu esa aholining o‘zi bilan bog’liq bo‘lgan qonuniyatlarni jarayonlarni kuzatish, tahlil etish va boshqaruvin asosida amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

6. Rashidov, Abror, and Shahobiddin Kubayev Ernafas o'g'li. "MAMLAKATIMIZDA ISHSIZLIK SABABLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH." IQRO 1.2 (2023): 284-288.
7. Abror, Rashidov, and Kubayev Shahobiddin. "INNOVATIVE MARKETING AND ITS DEVELOPMENT." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 193-196.
8. Усмонова Б. ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 70-74.
9. Усмонова В. Б. ҲУДУДЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА РАҶАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИНинг ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 139-143.
10. Usmanova V. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 05. – С. 131-138.
11. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O'ZBEKISTONING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSİYALARNING O'RNI //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 166-176.
12. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. MAMLAKATIMIZNING XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSİYALAR DAN FOYDALANISH //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 30-34.
13. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI //O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 141-147.
14. Abdusattarovich M. B. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 117-119.
15. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOQS jurnalı. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 20-22.
16. Рашидов У., Рашидов А. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой

рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.

17. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 20-22.

18. Ismailova, Nilufar Sabitjanovna, Uchqun Ro'Zimurod O'G'Li, and Abror Ro'Zimurod O'G'Li. "JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNIY ASOSLARI." Scientific progress 2.2 (2021): 1095-1098.

19. Rashidov U., Rashidov A., Naimov S. Modern Views on the Problems of Management Accounting in Logistics System // ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 276-283.

20. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.

21. Rashidov A., Leonodovna M. N., Azlarkhan A. The importance of financial accounting in business decision-making //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 21. – С. 1-4.

22. Рашидов У., Рашидов А. Роль и значение нотариальных методов в регулировании экономики //Вопросы усиления позиций Узбекистана в международной торговле и оптимизации его интеграции в мировой рынок в условиях глобальной трансформации. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.

23. Rashidov A. BUXGALTERIYA HISOBINING TURLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 153-160.

24. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN INCREASING THE INCOME OF THE POPULATION AND IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 710-714.

25. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASH //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 9-11.

26. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. JIZZAX VILOYATI IQTISODIY O'SISH KO'RSATKICHLARI YOKI JARAYONLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 20-22.

27. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH SIRLARI //O'ZBEKİSTONDA FANLARARO

INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 14. – C. 299-304.

28. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. MAMLAKATIMIZNING XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH //IQRO. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 30-34.

29. Abror Ro'zimurod o'g R. et al. O 'ZBEKİSTONİNG KİCHİK BİZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA İNNOVATSIYALARİNING O 'RNI //IQRO. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 166-176.

## **GEOSIYOSIY JARAYONLarda YEVROSIYO HARAKATINING SHAKILLANISHI VA TARQALISHI.**

**Tursunmurodov Sardorbek Abdulla o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998882421897

e-pochta [tursunmurodovsardorbek@gmail.com](mailto:tursunmurodovsardorbek@gmail.com)

**Mahmudov Xudoyberdi Alisher o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998903771204

e-pochta [mahmudovxudoyberdi013@gmail.com](mailto:mahmudovxudoyberdi013@gmail.com)

**Ergashev Ozodbek Musurmon o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998904184820

e-pochta [ergashevozodbek4820@gmail.com](mailto:ergashevozodbek4820@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rus geosiyosatchilarining tomonidan Yevroosiyoda strategik muvozanat o'rnatish bo'yicha mulohazlari, AQSH, Buyuk Britaniya davlatlarida bo'lgan geosiyosiy jarayonlar, L.Gumilevning Yevroosiyoda mavjud bo'lgan elatlari to'g'risidagi g'oyani mantiqiy o'rganib chiqishi to'g'risida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** MDH, L.Gumilev, P.Savitskiy, Moscow, A.G.Dugin, AQSH, Buyuk Britaniya, demotiya, ideokeatiya, atlantistlar.

**Аннотация:** В данной статье упоминаются взгляды российских геополитиков на установление стратегического баланса в Евразии, геополитические процессы в странах США и Великобритании, логическое исследование Л. Гумилевым идеи народов, существующих в Евразии.

**Ключевые слова:** СНГ, Л. Гумилев, П. Савицкий, Москва, А.Г. Дугин, США, Великобритания, демотия, идеоцеатия, атлантисты.

**Annotation:** In this article, the opinions of Russian geopoliticians on establishing a strategic balance in Eurasia, the geopolitical processes in the countries of the United States and Great Britain, L. Gumilev's logical study of the idea of peoples existing in Eurasia. is mentioned.

**Keywords:** CIS, L. Gumilev, P. Savitsky, Moscow, A.G. Dugin, USA, Great Britain, demotia, ideoceatia, Atlanticists.

Yevroosiyoda strategik muvozanat o'rnatish mavzusi ko'plab rus geosiyosatchilari tomonidan tahlil etilgan. Geosiyosiy ta'limotlar va ularga

tayangan holda olib borilgan tashqi siyosat, shuningdek, harbiy harakatlar yo'nalishi bevosita Yevroosiyoga qaratilgan. Bu hol MDH hududida yashayotgan olimlar, mutaxassislar, siyosatchilar va davlat arboblari uchun muhim ilmiy tadqiqot masalasiidir. Yevroosiyoning geostrategik mavqeい va istiqboli rus geosiyosatchi olimi, Lev Nikolayevich Gumilevning qarashlarida ilmiy jihatdan asoslangan. L.Gumilev rus geosiyosatchisi P.Savitskiyning eng iste'dodli shogirdlaridan bo'lgan<sup>83</sup>. Gumilevning qadimgi davr Yevroosiyo etno - xaritasi, cho'llar, ko'chmanchi xalqlar va ularga tegishli bo'lgan tamaddunlarga oid tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning asarlarida siyosiy tarixning butunlay yangi qiyofasi namoyon bo'ladi. Bunda Yevroosiyoning Sharqiy qismi etnogenez, madaniyat, siyosiy tarix, davlatchilik va texnik taraqqiyotning o'ziga xos markazi sifatida ifodalananadi. G'arb va uning tarixi nisbiylashtiriladi. Yevroosiyo madaniyati va bu qit'ada yashayotgan etnoslarning bir - biri bilan uzviy bog'liqligi, o'ziga xos qadriyatlar majmui, diniy muammolari hamda tarixiy qonuniyatları umuman o'rganilmagan dunyo sifatida maydonga chiqadi. L.Gumilev Yevroosiyoda mavjud bo'lgan elatlar to'g'risidagi g'oyani mantiqiy nihoyasiga yetkazadi va etnik ruslar faqat sharqiy slavyanlarga tegishli bo'g'inlardan biri bo'lmay, balki turkiy qabilalar va slavyanlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan alohida etnos degan fikrni ilgari suradi.

Olimning nazarida, buyuk rus tamadduni - Cho'l va O'rmon o'rtasida o'rnatilgan tarixiy hamkorlik natijasida turkiy - slavyan etnogenezi asosida yuzaga kelgan. L.Gumilyov O.Shpengler va A.Toynter singari tamaddunlar, madaniyatlar hamda etnoslarning tarixiy sikllarini ajratib ko'rsatgan<sup>84</sup>. Uning talqiniga ko'ra, millatlar, davlatlar va diniy jamoalarning etno - madaniy tuzilmalari barcha jabhalarda go'yo tirik jismga o'xshaydi. Ular tug'ilish, yoshlik, ulg'ayish va qarilik davrlarini bosib o'tadi, keyin esa yo'q bo'lib ketadi. Bu o'rinda L.Gumilevning etnogenez sabablari, ya'ni xalq va davlatning paydo bo'lishiga oid qarashlaridan quyidagi geosiyosiy xulosalar kelib chiqad

1. Yevroosiyo elatlar va madaniyatlarning shakllanishi uchun boy, serhosil, ularning yuksak rivojlanishini ta'min etadigan qulay zamindir. Jahon tarixini atlantistik tarixshunoslikka xos tarzda -G'arb va barcha qolganlar tarzidagi bir qutbli ko'rinishda emas, balki ko'p qutbli ko'rinishda o'rganish lozim. Bunda Shimoliy va Sharqiy Yevroosiyo alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u umumsayyoraviy tamadduniy taraqqiyot jarayonining muhim manbai sifatida G'arbgaga muqobil hisoblanadi.

<sup>83</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 61 b.

<sup>84</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 62-63 b.

2. Velikorosslar davlatchiligi asosida yotgan - cho'l va o'rmon geosiyosiy sintezi Osiyo va Sharqiy Yevropa ustidan madaniy strategik nazorat uchun asosiy voqelik hisoblanadi. Bunday nazorat Sharq va G'arb o'rtasida muvozanatni saqlab qolishga xizmat qiladi. Albatta bunday yondashuv fan texnika taraqqiyotini qaysidir bosqichi uchun xosdir. Lekin bugungi voqelikka nazar soladigan bo'lsak masofa ko'p narsani hal eta olmaydi<sup>85</sup>.

3. Yaqin kelajakda yer sayyorasining siyosiy va madaniy xaritasini keskin o'zgartirib yuboradigan oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan -passionar turki yuz berishi mumkin. L.Gumilevning geosiyosiy qarashlari o'ziga xos qit'achilik g'oyasiga asoslanganligi ma'lum bo'ladi. Yevroosiyochilik g'oyasini -neoyevroosiyochilik tarzida rivojlantirgan va bu borada salmoqli ilmiy natijalarini qo'lga kiritgan rus olimi A.G.Dugindir. Aleksandr Gelevich Dugin 1962 - yilda Moskva shahrida harbiy oilasida tug'ilgan. Universitetni bitirgach (1988-1991 - y.)

-EON nashr markazida muharrir va bosh muharrir,

-Miliy Angel (1990 - y.) almanaxi,

-Elementi (1991- y.) jurnalida bosh muharrir, FINIS MUNDI radioeshittirishi (1996-1997 - y.) hamda

-Geopoliticheskoye obozreniye eshittirishining (1997-1999 - y.) muallifi va boshlovchisi<sup>86</sup>.

A.G.Dugin 13 ta yirik asar muallifi bo'lib, ular asosan geosiyosat muammolariga bag'ishlangan. Jumladan, Rossiyada birinchi geosiyosat qo'llanmasi hisoblangan -Geosiyosat asoslari (1997), -Konservativ inqilob (1994), -Yevroosiy misteriyalari (1996), -Bizning yo'l (1999), -Makon bilan fikrlash (2000), -Yevroosiyochilik asoslari (2002) kabi asarlar shular jumlasidandir. Ayrim kitoblari Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniya singari Yevropa mamlakatlarida nashr etilgan. Maqolalari -Izvestiya, -Rossiyskaya gazeta, -Literaturnaya gazeta, -Rossiya, -Nezavisimaya gazeta, -Yevraziyskoye obozreniye, -Konservator singari gazetalarda muntazam chop etiladi. Aksilg'arbchi, aksilliberal, konservator, o'ng millatchi A.Dugin 1990 - yillarda Rossiya hokimiyatiga nisbatan muxolif pozitsiyada turgan. 2000 - yildan keyin esa o'zining keskin radikal pozitsiyasidan uzoqlashib, sentrist va prezident tarafdorlari qatoriga qo'shilgan. 1998 -yildan boshlab RF Davlat Dumasi raisi maslahatchisi lavozimini egallagan. U neoyevroosiyochilik g'oyasiga tayangan siyosiy oqimga asos solgan, shuningdek, yetarli siyosiy mavqe qozona olmagan va Dumadagi partiyalar safiga kira olmagan - Yevroosiyo (2002 - y.) partiyasini tashkil etgan.

<sup>85</sup> O'sha joyda. 62 b.

<sup>86</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 63 b.

A.Duginning fikriga ko'ra, 1980 - yillarda kommunizmning inqirozi, sho'rolar siyosiy tuzumining yemirilishi hamda jamiyatning ijtimoiy - siyosiy tuzilishi to'g'risidagi g'arbona andozalarga javob berish zarurati bu oqimning paydo bo'lishiga turtki bergan.<sup>1</sup> Uning asosiy ijtimoiy - falsafiy uslubi tamadduniy yondashuv bo'lib, o'tgan asr boshlaridagi yevroosiyochilik an'analarining izdoshi va merosxo'ri hisoblanadi. O'z asarlarida A.Dugin nemis konservativ inqilobchilari bo'lmish O.Shpengler, V.Zombart, K.Smitt, E.Yunger, F.Yunger, E.Nikit, Yevropa an'anachiligi namoyondalari R.Genon, Y.Evolu, T.Burkxart, F.Shuon va zamonaviy -yangi so'llar, P. Sartr, G.Debor, M.Fuko, J.Delez, zamonaviy -yangi o'nglar A. de Benua, R.Stoykers va boshqalarga murojaat etadi. Bu oqimlarni radikalizm birlashtirib, g'arb jamiyatini -so'l pozitsiya, tamadduniy va millatchilik ruhida tanqid qilishga asoslangan. Bu nazariyalarni birlashtirib turgan jihat – liberal siyosiy falsafa va bozor kapitalizmini tanqid qilish va mavjud voqelikning asosini tashkil etgan jarayonlarga muqobil andoza topish va voqealar oqimini boshqa tarafga o'zgartirishdan iborat.

A.Dugin kapitalizm va kommunizm o'rtasidagi qandaydir oraliq tuzumni yaratish g'oyasi bilan mashg'ul bo'ladi. Uning fikricha, bunday tuzumni yaratish uchun faqatgina jozibador mafkura emas, balki kuchli ijtimoiy harakat ham zarur. Liberal mafkura va bozor qadriyatlariga asoslangan dengiz davlatlariga qarshi turishga qodir bo'lган bu kuch bitmas - tiganmas zaxiralar va ulkan geosiyosiy maydonga tayanishi mumkin<sup>87</sup>. Shu ma'noda, A.Dugin o'zining yevropalik hamfikrlari bilan yaqinlashadi, keyin esa yevroosiyochilik falsafasini o'zi yaratgan qoidalar asosida rivojlantiradi. Neoyevroosiyochilikning ijtimoiy - falsafiy konsepsiyasidagi muhim jihat shundaki, u Yevroosiyo pozitsiyasidan turib Yevropa yoki roman - german madaniyatini tanqid qilish emas, balki anglosakson dunyosiga, jumladan, AQShni tanqid qilishga yo'naltirilgan. G'arb - nemis konservativ inqilobi ruhiga monand tajovuzkorlik, bosqinchilik ruhidagi -atlantistlar (AQSH va Buyuk Britaniya) va hamkorlikka qodir bo'lган betaraf kontinental (roman - german) Yevropadan iborat. Shu tufayli, mumtoz yevroosiyochilikda qo'llanilgan agressiv, aksilevroosiyochilik ruhidagi – roman - german dunyosi atamasi neoyevroosiyochilikda qo'llanmaydi. Neoyevroosiyochilar - rivojlanish makoni konsepsiyasini rivojlantirishga ko'p e'tibor qaratadi. Bu esa o'z navbatida Rossiya tarixida Turon omilining ahamiyatini tan olish va jo'g'rofiy determinizmga asoslanishga olib boradi. A.Dugin nazarida Yevroosiyochilik harakatining platformasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga

<sup>87</sup> Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 64 b.

oladi: - ideokratiya, davlat va har bir fuqaroning oliy ruhiy maqsadga xizmat qilish mas'uliyatidan iborat. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ushbu - oliy ruhiy maqsad yevroosiyochilikdir; - yevroosiyocha tabiiy tanlanish, Yevroosiyoga xos -tabiiy shart - sharoitlaridan kelib chiqadigan va jamoaviy mas'uliyat, xolislik, o'zaro yordam, asketizm, iroda, chidamlilik, boshliqlarga so'zsiz bo'yusunish singari xususiyatlarni o'z ichiga olgan o'ziga xos axloqiy meyorlar talab etadigan tushunchani anglatadi. Faqat ana shu xususiyatlarga yevroosiyochilarga butun Yevroosiyo makonini egallashni yakuniga yetkazish va nazorat o'rnatishni ta'minlaydi.

- demotiya (o'zgacha sharoitlarda shakllangan g'arbcha, yunon - angliya demokratiyasidan farqli o'laroq) - zararli liberal demokratiya meyorlarini ko'chirmasdan, mahalliy kengashlar, o'z - o'zini boshqarish va dehqon uyushmalari vositasida hokimiyatda ishtirok etish yo'lidan borishi kerak. Demotiya iyerarxiyani inkor etmasdan, - yevroosiyodagi avtoritarizm bilan uyg'unlashib ketadi.

**Xulosa:** Rus geosiyosatchilarining tomonidan Yevroosiyoda strategik muvozanat o'rnatish bo'yicha mulohazlari ularning ishlab chiqgan stretegiyalarini o'z asarlarida bayon qilganlar. AQSH, Buyuk Britaniya davlatlarida bo'lgan geosiyosiy jarayonlar, ularning o'zgarib borishi, L.Gumilevning Yevroosiyoda mavjud bo'lgan elatlar to'g'risidagi g'oyani mantiqiy o'rganib chiqishi to'g'risida keltirib o'tilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.S.Safoev, Markaziy Osiyodagi geosiyosat, Toshkent, 2005 yil.
2. Hasanov A, Geosiyosat, Toshkent, 2016. 20-25.
3. Jumaniyozov X.S. Nigmanova U.B Geosiyosat asoslari, Toshkent, 2016. 54-65 b.
4. Жигалина О. И Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начале XX в: Анализ внешнеполитических концепций. М. 1990. С. 78-79.
5. Barthorp, Michael (2002) [1982]. Afghan Wars and the North-West Frontier 1839–1947. London: Cassell. ISBN 0-304-36294-8. P.111-114.

## **YOSHLARDA SOGLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYASI**

**Nishonova Dilafruz Tojimatovna**

Farg`ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Salomatlik insonning eng katta boyligi ekanligi, Sog'lomlashtirish tibbiyotining uslublarini joriy etish qator masalalarning yechimini topishga yordam berishi, Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilayotganligi haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** salomatlik, sog'lom turmush tarzi, sport, shart-sharoitlar, imkoniyat, foydalanish, shug`ullanish, organizm.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar jarayonida mustaqil fikr egasi bo'lgan, ma'lum xayotiy maqsad asosida faoliyat olib boradigan, sog'lom turmush tarzi asoslari talablairga og'ishmay riosa qiladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish o'ta muxim vazifa sifatida kun tartibidan alovida o'rinn oldi. Uzbek modeli deya e'tirof etilgan uzlusiz ta'lim tizimi doirasida amalga oshirilayotgan zamonaviy ta'lim-tarbiya konsepsiyasi mazmunida o'quvchi shaxsining har tomonlama va uy'un rivoj topishi, shuningdek, mustahkam, qattiy xarakter va iroda egasi, jismonan hamda ruhan tetik o'quvchi yoshlarni kamolga yetkazish nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach bozor iqtisodiyotiga o'tish, erkin, demokratik jamiyat qurish, jamiyat ma'naviyatini yahshilash, davlat va ijtimoiy qurilish sohalarida yuqori natijalarga erishishda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xozirgi yosh avlodning, qolaversa, butun millatning sog'ligini asrash muhim masala hisoblanadi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish har xil yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Bu, bir tomonidan, talabalar va kattalarga sog'lom turmushga oid ma'lum tibbiy va gigiyenik bilimlarni berishga, ularda sog'lom turmush tarzining organizm rivojiga qanday ta'sir etishi haqida tasavvurlarning uyg'onishiga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ta'lim-tarbiyada gigiyenik qoidalarga amal qilish, o'zining va yon-atrofdagilarning sog'lig'ini asrashini kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga bog'liqdir. Bu maqsadda sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek, barcha tarbiya o'choqlari bilan hamjihatlikda litsey, kasb-hunar kollejlarida keng targ'ib qilinmogi zarur. Oliy ta'lim miqyosida esa Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'lioni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot va mehnat vazirligi, Respublika «Oila» ilmiy-

amaliy markazi, shuningdek, «Sog'lom avlod uchun», «Kamelot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Iste'dod», «Mexr nuri», «Ulugbek», «Nuroniy», «Oydin Hayot» kabi ko'plab nodavlat tashkilotlari o'zaro hamkorlikda aholi o'rtaida targibot-tashviqot ishlarini olib borishlari lozim.

Sog'lom turmush tarzi bu - inson hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida xayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatlikning yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy xodisadir. Sog'lom turmush tarzi - inson turmush sharoitlarini faol o'zlashtirish usuli bo'lib, kun tartibiga riosa qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigiyenik qoidalariga riosa qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy taroy» olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish demakdir. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish predmetining maqsad va vazifalari - shaxs hayoti va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga erishish; - kun tartibiga qattiy amal qilish; - muntazam ravishda chiniqib borish, faol jismoniy harakatni taraqqiy etish hamda sport bilan doimiy shug'ullanishga erishish; - to'g'ri ovqatlanish qoidalarining mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish; - shaxsiy salomatlikni saqlashga nisbatan mas'uliyatni qaror toptirish; - atrof-muhitni muxofaza qilish, ekologik madaniyat qoidalariga ega bo'lish; - turli xildagi jaroxatlanish va baxtsiz xodisalarning oldini olish layoqatiga ega bo'lish; - salbiy odatlarni o'zlashtirish (tamaki chekish, narkotik moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish)ga rag'bat yuzaga kelmasligini ta'minlash; to'g'ri jinsiy tarbiyalanish, shaxsiy gigiyena qoidalaridan xabardor bo'lish va ularga og'ishmay amal qilish; - o'zida yuksak axloqiy sifatlar, kuchli va mustahkam iroda hosil qilishga erishish, shuningdek, psixogigiyena talablariga amal qilish; - xayotning umumiylashtirish - turmush muammolariga qarshi kurasha olish, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillariga zid bo'lgan aqidalarga qarshi immunitet hosil qilish yo'lida nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish va xokazolar. O'quvchi yoshlarni komil inson sifatida jismonan baquvvat va ma'naviy jixatdan yetuk qilib voyaga yetkazish – o'zi va atrofdagilar salomatligini qadriga yetishga, sog'lom turmush tarziga riosa qilishga, shu jumladan, yomon odatlardan xoli bo'lishga hamda o'zining xayotidagi o'rmini anglash masalalari yuzasidan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga odatlangan avlodga tarbiya berish masalasi bo'yicha yechimlarning yangicha yo'naliishlari - hayotda o'z o'rmini faol egallashga qodir bo'lgan, boy ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashli

insonlarni jamiyatga yetkazib berishdir. Uzluksiz ta'lim jarayoni uchun ishlab chiqilgan «Talaba yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish» konsepsiysi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga zaruriy xolatlarda ma'suliyatli qaror qabul qilishda yordam berish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirish, shaxsiy fazilatlarga to'g'ri baho bera olishga o'rgatish, ularga sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan voyaga yetgan yosh avlodning sog'liqni mustahkamlash va muxofaza qilish mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yo'naliшlaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda maorif tizimida tub islohotlar ro'y berayotgan davrda xalq ta'limi va sog'liqni saqlash vazirliklarining ta'lim oluvchilar sog'lig'ini asrash va mustaxkamlash, ta'lim-tarbiya jarayonining sog'lomlashtiruvchi yo'naliшini ta'minlash ishlarini ma'lum reja asosida tashkil etishga extiyoj tug'ilmoqda. Konsepsiya mazmunida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bandlarida ko'rsatilgan har bir ta'lim-tarbiya muassasasida ta'lim olayotgan talaba yoshlarning sog'lig'ini asrash, mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayonida soglomlashtirish omillarini kuchaytirish to'g'risidagi vazifalar ham o'z aksini topgan. Xozirgi kunda yoshlarni hayotga tayyorlash, ularning mehnatga layoqatini kuchaytirish muhim masalalardan talaba yoshlarga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalarda talabalarни sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalar bilan qurollantirish, jismoniy tarbiya mashqlarini muntazam olib borish (ayniqsa darsdan tashqari vaqtarda) ona tabiatning sog'lomtashtiruvchi omillaridan oqilona foydalanish samaradorligini yaxshi yo'lga qo'yish va talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarligi hamda ularning sog'ligini mustahkamlash bilan bogliq bo'lgan tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim.

### **ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

- 1.Dilafruzkhan, N., & Hanifakhan, M. (2023). The Level Of Physical Development And Physical Fitness Of Students In Grades 9-11. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 19, 126-132.
- 3.Tojimatovna, N. D. (2023). VITAMINS. THE COMPOSITION OF CHILDREN'S DAILY FOOD. PROPER FEEDING OF CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(8), 339-342.
- 4.Tojimatovna, N. D. (2023). DAVOLASH JISMONIY TARBIYASIDA MASSAJNING UMUMIY FIZIOLOGIK ASOSLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1115-1119.
- 5.Нишонова Дилафруз Тожиматовна. (2022). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ МАШГУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ

ТАЛАБАЛАР ОНГИГА СИНГДИРИШДА ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 75–76. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2677> 6. Tojimatovna, N. D. (2022, May). SOGLOM TURMUSH TARZI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 282-285).

7.Tojimatovna, N. D. (2022). TALABA QIZLARDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK SALOMATLIKNI YAXSHILASHNING ASOSIY VOSITASIDIR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 543-546.

8.Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 198-200.

9.Yakubova, G. K. (2021). MONITORING OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN CONDITIONS OF HYPERHERMIA. Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka, 1(2). 10.Mamasoliyevich, S. S. (2022). METHODS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN. Scientific Impulse, 1(3), 1129-1135.

11.Mamasoliyevich, S. S. (2023). 6-9 YEAR OLD GYMNASTS METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE PHYSICAL QUALITY OF BENDING. Conferencea, 168- 178. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11 | Issue-5 | 2023 Published: | 22-05-2023 | Publishing centre of Finland 852

12.Mamasoliyevich, S. S. (2023). FEATURES OF SPECIAL MOTOR TRAINING OF FEMALE ATHLETES 6-9 YEARS OLD IN GYMNASTICS. Conferencea, 116- 128.

13.Sidikov, M. S., & Marubjanovich, N. S. (2023). EDUCATION OF THE ENDURANCE OF TEENAGERS ENGAGED IN ATHLETICS (ON THE EXAMPLE OF SECTIONS. Open Access Repository, 4(02), 27-37.

14.Mamasoli, S. S., & Marubjanovich, N. S. (2022). " EDUCATION OF ENDURANCE OF YOUTH ENGAGED IN ATHLETICS. Scientific Impulse, 1(3), 1118-1125. 15.Mamamasoliyevich, S. S., & Qodirova, X. (2023, January). JISMONIY TARBIYA VA SPORT JARAYONLARINING AMALIY VA NAZARIY VOSITALARI. In E Conference Zone (pp. 10-18).

16..Нишонова Диляфруз Тожиматовна. (2022). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ МАШГУЛОТЛАРИДА СОГЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАЛАБАЛАР ОНГИГА СИНГДИРИШДА ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 75–76. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2677> 17. Tojimatovna, N. D.

(2022, May). SOGLOM TURMUSH TARZI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 282-285).

18. Tojimatovna, N. D. (2022). TALABA QIZLARDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK SALOMATLIKNI YAXSHILASHNING ASOSIY VOSITASIDIR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 543-546.

19. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 198-200.

20. Нишонова Диляфруз Тожиматовна. (2022). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ МАШФУЛОТЛАРИДА СОГЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАЛАБАЛАР ОНГИГА СИНГДИРИШДА ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 75–76. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/2677>

21. Tojimatovna, N. D. (2022, May). SOGLOM TURMUSH TARZI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 4, pp. 282-285).

22. Tojimatovna, N. D. (2022). TALABA QIZLARDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK SALOMATLIKNI YAXSHILASHNING ASOSIY VOSITASIDIR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 543-546.

23. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 7, 198-200. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 7.502 Impact factor Volume-11 | Issue-5 | 2023 Published: | 22-05-2023 | Publishing centre of Finland 854

## **SANOATNING TABIATGA TA'SIRI**

**Rustamov B.I.**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

[bobir\\_rustamov@bk.ru](mailto:bobir_rustamov@bk.ru)

**Aslonova N. R.**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat, ishlab chiqarishning tabiatga tasiri, uning oqibatlari haqida tahlillar keltirilgan hamda buning natijasida inson va tirik mavjudodlarga yetkaziladigan salbiy oqibatlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** tabiat, fazo, mavjudot, tirik organism, ozon tuynuklari, sanoat, ekologiya, zarra.

**Аннотация.** В данной статье приведен анализ воздействия промышленности, производства на природу, его последствия, а также описаны негативные последствия для человека и живых существ.

**Ключевые слова.** природа, пространство, существо, живой организм, озоновые дыры, промышленность, экология, частица.

**Annotation.** This article provides an analysis of the impact of industry, production on nature, its consequences, as well as describes the negative consequences for humans and living beings.

**Keywords.** nature, space, being, living organism, ozone holes, industry, ecology, particle.

Tabiatdagi jamiiyki boykiklar bizga berilgan cheksiz boylik, baxt. Bu boylikdan unumli foydalangan holda baxtli yashash kerak. Xo'sh tabiat ozi nima? Nega uni ona tabiat deymiz? "Mexribon ona", "Ona vatan", "Ona tabiat. Inson uchun eng qadrli, har qanday sharoitda va har qanday yoshda doimo xavfsiz insoni bu ONA. Demak tabiat ham biz uchun eng qadrli, har qanday sharoitda va har qanday yoshda doimo xavfsiz.

Tabiat - odamning paydo bo'lganicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Bu dunyo, odam, koinot; ko'zga ko'rinas zarralar, jonsiz va jonli borliq. Bular haqida matabda tabiat fanida o'rgatilgan. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Afsuski inson omili bilan tabiatga asrlar davomida zararli ta'sirlar ko'payib bormoqda. Inson hech qachon tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqatgina undan oqilona foydalaniib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson

yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. Odam tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda "insoniyat tomonidan yaratilgan tabiat" deyiladi. Bularga ko`plab misollar keltirishimiz mumkin. Oddiygina Mendeleyev jadvaliga nazar solsak vodoroddan urangacha bo'lgan 90 dan ortiq kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun'iydir. Barcha sun'iy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari "insoniyat tomonidan yaratilgan tabiat"ga kiradi.

Tabiat haqidagi tushunchalarga Antik davr ko`zi bilan qaralsa, falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta'lomitlarda esa tabiatga ruxiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg'onish davriga kelib tabiatga hamma tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaradi. Yangi davrda tabitga bo'lgan munosabat tabiatning ilmiy o'rganish ob'yektiga aylanishida katta rol o'ynadi.

Tabiat fazo va vaqtida mavjud modda, materiya bo`lib hisoblanadi. Ular cheksiz ma'lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqlar (fanning so'nggi ma'lumotlari bo'yicha bundan 2 mlrd. yil avval) bu jismlar boshqa ko'rinishda bo'lgan. Bo'lajak mlrd. yillarda u yana o'zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti tabiatning, biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq. Bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa, odamning normal yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo bo'ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish — biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim. Insonning tabiatga bunday munosabatda bo'lishida fan asosiy omil bo'lib kelmoqda. Yer va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (mas., metagalaktikalari)da yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni keltirib chiqardi. [Mahalliy](#), mintaqaviy va global ekologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar, sanoat markazlari, alohida tumanlarda mahalliy, Orolbo'yi, Chernobilda mintaqaviy ekologik tang vaziyatlar vujudga kelgan. [Ozon tuyuklari muammosi](#), kislotali yomg'irlar, cho'llashish,

Dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy muammolar hisoblanadi. Yer yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko'payishi global ekologik inqiroz havfining real ekanligi ko'rsatadi. Agar keyingi 30-40 yil ichida ekologik muammolarni hal etish uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko'rilmasa ekologik inqiroz muqarrardir.

Ekologiya deganda organizmlarning o'zaro va muhit bilan aloqadorligini o'rganadigan biologik fan tushuniladi. Shuning bilan birga ekologiya deganda inson va organizmlarning yashash muhiti holati, organizmlar (shu jumladan inson) va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolarini o'rgatishga alohida ilmiy yondashish (ekologik ) ham tushuniladi.

Tabiatni muhofaza qilish deganda hozirgi va kelgusi avlodlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni musaffo holiday saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalgam oshiriladigan mahalliy, davlat va halqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi. Demak, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari mazmun va maqsadga ega bo'lган tushunchalardir. Ekologiya tabiatni muhofaza qilishning nazariy asosi hisoblanadi. [Atrof muhitni muhofaza qilish](#), atrif tabiiy muhitni muhofaza qilish tushunchalari tabiatni muhofaza qilish tushunchasiga ma'nodoshdir.

Bugungi sanoat uzoq muddatli va samarali mahsulorlikka umid bog'lashi mumkin, shuningdek, yangi tobora ko'payib borayotgan ekologik yangi loyihalarga bosqichma-bosqich o'tish sharti bilan ekologik-toza mahsulotlar uchun yangi bozorlarga va tez rivojlanayotgan ekologik moliya bozoriga kira oladi.

Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni asrab-avaylash, ozon qatlagini yemiruvchi moddalardan voz kechish bo'yicha, shuningdek iqlim o'zgarishi sohasida ham ilk tashabbusga ega muhim ahamiyatga molik dasturlar qabul qilinib, amaliyatga tatbiq etilmoqda.

Bilamizki to`qimachilik sanoati qadim zamonalarda paydo bo'lgan. [G'o'za](#) ekish, qo'lda ip tayyorlash va gazlama to'qish [Hindiston](#), [Xitoy](#), [Misr](#) va O'rta Osiyoda miloddan bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgan. To'qimachilik sanoati mashinalashgan ishlab chiqarishga birinchi bo'lib o'tgan sanoat tarmogidir. Yevropada XVIII-asrning 2-yarmidagi sanoat to'ntarishi shu tarmoqdan boshlangan.

To'qimachilik sanoati - turli xildagi o'simlik tolalari, jun va sun'iy sintetik tolalardan turli gazlamalar, ip va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaruvchi yengil [sanoat](#) tarmog'i hisoblanadi. To'qimachilik sanoati tarkibiga to'qimachilik xom ashyosini dastlabki qayta ishlash, ip gazlama, [zig'ir](#), [kanop](#),

jut tolasidan gazlama, [shoyi](#), jun gazlama, noto‘qima materiallar, to‘r to‘qish, to‘qimachilikattorlik, [trikotaj](#), kigiznamat bosish sohalari kiradi.

Jun sanoati - jun gazlamalar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo hayvon tolalari, regeneratsiyalangan jun, paxta iplari, qo‘srimcha mahsulotlar va sun’iy tolalardir.

Ipak sanoati - ipak sanoati gazlama ishlab chiqaruvchi tarmoqlar orasida ishlab chiqarishning o’sish sur’ati bilan doimo ajralib turadi.

Zig’ir sanoati - tolali zig’ir paxtadan keyin eng mashhur va qimmatli ekin hisoblanadi. Bu juda yuqori quvvat va elastiklik, porlash va namlik qobiliyati bilan ajralib turadigan tolani beradi.

Ko`rib turganingizdek to‘qimachilik sanoatining deyarli barcha xomashyo bazasi bu tabit mahsuloti, tabiat inomidir. Shuning uchun bu sohaning porloq kelajagini o‘ylagan holda ona tabiatdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak ona tabiatni asrash, kelajak avlodga o`zimiz bahraman bo`lgan go`zallikni qoldirishimiz bu bizning insoniylik vazifamiz va majburiyatimizdir. Ongli inson sifatida tabiatni asrash uchun qandaydir jazolar, qonunlar, qarorlar chiqarish shart emas. Har kim o`zi sevgan bir oddiy o`simgilini asrasa olam yashilligi yasharib boraveradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://daryo.uz/2020/04/28>).
2. Хайитов А. А., Рустамов Б. И. Разработка технологии получения коллагеновых препаратов и мездровых клеев из отходов кож в производственных условиях //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 4 (49). – С. 86-93.
3. Рустамов Б. И., Шамсиева М. Б. Ресурсосберегающая жирующая вещества для жирования каракуля //E Conference Zone. – 2022. – С. 35-39.
4. Хайитов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. Исследование и разработка коллаген полимерных композиций на основе отходов кожевенного сырья Research and development of collagen of polymeric compositions based on waste of rawleather //современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – Т. 29. – С. 70.
5. Шамсиева М. Б., Рустамов Б. И. ҚОРАҚҮЛ МҮЙНА ЯРИМАҲСУЛОТИНИ ИҚТИСОДИЙ ВА ЭКОЛОГИК САМАРАДОР

ЁГЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 21. – С. 38-45.

6. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. RESEARCH AND DEVELOPMENT OF COLLAGEN OF POLYMERIC COMPOSITIONS BASED ON WASTE OF RAWLEATHER //Современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – С. 70-75.

7. Отамуродов Ж. О. РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 20-28.

8. Отамуродов Ж. О. СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 171-176.

## QORAKO'LCHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

**Rustamov B.I.**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti assistenti

[bobir\\_rustamov@bk.ru](mailto:bobir_rustamov@bk.ru)

**Aslonova N.R.**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qorajo'lchilikni rivojlanish tarixi, qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi, qorako'l qo'y zotlari to'g'risidagi olimlarning fikrlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** qorajo'l, qo'y zotlari, qorako'l teri, mo'yna, jun, go'sht maxsulotlari.

**Аннотация.** В данной статье изложена история развития каракуловодства, происхождение каракульских овец, мнения ученых о Каракульской породе овец.

**Ключевые слова.** каракуль, породы овец, шкура каракулья, мех, шерсть, мясные изделия.

**Annotation.** This article describes the history of the development of karakul breeding, the origin of karakul sheep, the opinions of scientists about the Karakul breed of sheep.

**Keywords.** karakul, sheep breeds, karakul skin, fur, wool, meat products.

Qorako'l qo'ylari – dunyoda eng ko'p tarqalgan qo'y zotidandir. Ular dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarda Osiyoda, Afrikada, Yevropada va Amerikada tarqalgan va yetishtiriladi.

Qorako'l qo'y zotining "qorako'l" deb nomlanishining ikki taxmini bor. Birinchisi, bu qo'ylar Buxoro viloyatining Qorako'l tumani hududlarida paydo bo'lib, shu hudud nomi bilan atalganligi taxmin qilinadi. Ikkinchisi, qorako'l qo'y zotlarining rangini, ilgarilari 95%ini qora rang, qolgan besh foizini sur, kulrang va rangli qorako'l barralari tashkil etar edi. Shuning uchun xalqimiz bu qo'ylarning jingalaklariga, yaltiroqligiga, jozibadorligiga, guliga qarab, "qora gul" deb nomlagan degan taxmin bor. Keyinchalik bu "qora gul" nomi xalq tilida siyqalashib, shevalarga kirib ketib, "qorako'l" bo'lib ketgan deyishadi.

Qorako'l qo'y zotini tabiat mo'jizasi deb aytishadi. Bu qo'y zotlarining kelib chiqishi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Qator yillar davomida uchta savolga javob berish borasida tortishuvlar boradi: qorako'l qo'ylari avvaldan bormi yoki yangi chiqarilgan zotlardanmi?, Qorako'l qo'ylarining vatani

qayer?, O'rta Osiyomi yoki ikki daryo oralig'i deb nomlangan voha hozirga Iroqmi va u yerdan qorako'l qo'ylari VII asrda arablar tomonidan O'rta Osiyoga olib kirlganmi?, uchinchi savol – qorako'l barralarida paydo bo'lgan jingalaklar mutatsiya natijasimi, turli nasllarni chatishtirish natijasimi yoki tabiat in'om etgan mo'jisimini?

Maxsus adabiyotlarda qorako'l qo'ylarining azaldan kelib chiqqan qo'y zoti ekanligi keltiriladi. Bunday xulosalarning kelib chiqishiga asosiy sabab, arxeologik qazilmalar vaqtida sopol buyumlarda qo'y va qo'zichoqlarning rasmi, odam va hayvonlarning haykalchalarini topilganligidir.

Muallif W. YE. Traler (1963) jingalak junli barralarni beruvchi qo'y zoti 4600 yil ilgari bo'lgan deb hisoblaydi. U bunday xulosaga Yevfrat daryosining quyi oqimi yon bag'irlari Urukda (hozirgi Iraq) olib borilgan arxeologik qazilma ishlari natijvsida topilgan sopoldan yasalgan g'o'la shaklidagi aylana va o'tkir burchakli uchburchaklarning rasmi tushirilgan sopoldan yasalgan plitkalarning topilganidan keyin keldi. Bu rasmlar tadqiqotchi olimlar fikri bo'yicha barra terilarining jingalakligidir. Bu topilmalarning barchasi eramizdan avval 2650 – yil sanasi bilan belgilangan.

Tarixchi – arxeolog Dyurst 8000 yil oldin bo'lgan Anan qo'ylaridan qorako'l qo'ylari kelib chiqqan degan fikrni bildiradi. U o'z fikrini Anau shahri (hozirgi Ashhabod shahri yaqinida) qazilmalaridan topilgan qo'y suyaklarining tahlil qilinishidan kelib chiqib aytgan.

Muallif R. M. Franke (1973) ham Dyurstning fikrini ma'qullab, semiz dumli qo'ylar, ularga jingalak junli qorako'l qo'ylari ham kiradi, eramizdan avval 2650 – yillarda paydo bo'lgan deydi. Jumladan, Frank Lagash mamlakati boshqaruvchilarining topilgan haykalchalarida (eramizdan avvalgi 2040 – 2000 yillar) ularning bosh kiyimi qorako'l terilaridan bo'lganligini e'tirof etadi.

Ko'hna Yegipetda, eramizdan avvalgi 2000 yillarda, jingalak junli barra terilari modada bo'lgan, semiz dumli qo'ylar esa Yegipetga Siriyadan olib kelingan degan fikrlar mavjud.

Eramizdan 500 yil oldin Persipolisda, hozirgi Eronning janubida, semiz dumli qo'ylarning va jingalak junli barralarning tog' qoyalarida chizilgan rasmlari topilgan.

Xivada yetishtirilayotgan va ko'paytirilayotgan dag'al junli, semiz dumli qo'ylar haqida arab geografi va sayyohi Ibn Xa Kal shunday deb yozadi: "Dunyoning biror bir mamlakatida Turkistonda yetishtirilayotgan qo'y zotidek qo'y yo'q. Turkiston xalqи ikitadan ortiq tug'ilgan barrani so'yadi. Bu holatga cho'l sharoitida qo'ylarning ikitadan ziyod bo'lgan barralarni boqa olmasligi oqibatida so'yiladi, deb qarash mumkin ". Ibn Xa Kal qorako'l barralari terilarining rangiga ahamiyat beradi va ularning ajabtovr

tovlanshlarini, rasmlarining mo'jizakorligini ta'rif etadi. Lekin barra terilari qanchalik chiroyli, bejirim bo'lishiga qaramasdan, qorako'l qo'ylarini ko'paytirishdan asosiy maqsad ulardan barra terilarini olish emas, balki qo'y sonini ko'paytirish, xalqni go'sht bilan ta'minlash, qolin to'qish uchun ko'p miqdorda jun olish kabilar bo'lgan.

Olim H. Hornitschek (1939) fikriga ko'ra qorako'l qo'ylari Osiyoda (Mongoliya, Eron), Afrikada (Siriya, Efiopiya, Somali) yetishtiriladi.

I. F. Longle (1915) dag'al junli, semiz dumli qo'ylar Markaziy Osiyoda va yaqin Sharqda yetishtirilishini yozgan.

Muallif R. M. Franke (1973) 1530 – 1605 yillarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni keltiradi. Bu ma'lumotlarga ko'ra hindistonning bir viloyatida noyob va ajobtovur terilarga ega bo'lgan qo'ylar yetishtirilishini va bu qo'ylar "sur" deb nomlanishini keltirgan. "Sur" nomi Hindistonning sur deb nomlangan sulolasiga bag'ishlangan bo'lib, "bronza" ma'nosini anglatadi. Hozirga zamon sur terilarining yuqorida aytigan "sur" qo'ylariga hech qanday aloqasi yo'q, deb taxmin qilinadi. Shu muallifning ishlarida 1620 – yilga mansub bo'lgan ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Unda aytishicha, Xuroson hududida juda chiroyli mo'ynaga ega bo'lgan barralar borligi qayd etilgan. Ular qora, kul rang, qordek oppoq ranglarga ega deb yozilgan. Mo'ynalar barralarning bosh qismiga qarab o'ralgan jingalaklardan iborat. Ba'zi bir kulrang terilar junining uchki qismi oqroq rangga ega bo'ladi, bu esa terilarga alohida maxsus yaltiroqlikni beradi. Boshqa bir terilar esa uchki qismida marjon kabi tovlanishga ega.

Jingalak mo'ynali barra terilarini beradigan Buxoro ko'ylarining nasli haqidagi ma'lumotlar 17 asr boshlarida paydo bo'ldi.

17 asr boshlarida Buxoroda xalq Buxoro qo'ylarining terilaridan tikilgan bosh kiyimlarida yurishgan. Qorako'l qo'zi terilari Buxoroga Xiva xonligi elchilari tomonidan ham keltirilar edi. Ular turli ranglarga ega bo'lib, soni jihatdan juda kam bo'lgan.

Buxorodan Sibirga (Kyaxtaga) har yili 7500 ga yaqin barra terilari chiqarilgan.

Buxorodan olib borilgan kul rang terilar, qora rangli terilarga nisbatan qimmatroq hisoblangan. U paytda buxoro Qorako'l terilari o'zining sifati bo'yicha uncha yaxshi emas edi.

Mo'yna terilarida ularning maydoni, jun qismining issiqlikni saqlash xususiyatlariga katta e'tibor berilardi.

Mo'yna terilaridan tikilayotgan mahsulotlarda terilar jun qismi tashqariga qilib tikish rivojlangandan keyin terilarning jun qismi bo'yicha bo'linishi, navlanishi paydo bo'ldi va terilar rangi, junining balandligi, tipi, jingalagining

uzunligi, eni bo'yicha va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha bo'lina boshlandi. Shunda terilarni baholovchilar, tanlovchilar, navlarga ajratuvchilar paydo bo'la boshladi. Kundan – kunga mo'yna terilariga bo'lgan talablar shakllana boshladi. Bu talablar, albatta qo'ylarni yetishtiruvchi cho'ponlargacha yetib bora boshladi va ular o'z ishlarida qo'yilayotgan talablarni e'tiborga olib bordilar. Shundan keyin seleksiya ishlariga, naslni yaxshilash ishlariga, terilar sifatini oshirishga, qo'ychilik samarasini oshirishga harakat qildilar va katta natijalarga erishdilar.

Ana shu tarzda Buxoro qorako'l qo'yalarini yetishtirish ishlari olib borildi.

Asta – sekinlik bilan dunyodagi mo'yna bozorlariga Buxoro qorako'li kirib bordi va kommersantlar tilida "Buxoro qorako'li" termini paydo bo'ldi.

Buxoro qorako'li o'zining chiroyi, mo'jizakorligi, takrorlanmas rangi va rasmlari bilan dunyo bozorini zabit etdi va eng mashhur mo'ynali terilar qatorida yetakchi o'rinni egalladi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida qorako'l qo'yalaridan olinayotgan 90% barra terilari qora rangga ega edi. Ichki va tashqi bozorning rivojlanishi, mo'yna terilariga bo'lgan katta talab, yuqori narxlar, umuman olganda iqtisodiy omillar qorako'l qo'yalaridan olinayotgan barra teri ranglarini ko'paytirishga, ya'ni kul rang va sur rang terilar sonini ko'paytirishga olib keldi.

Buxoro qorako'li Buxoro amirligi hududida yetishtirilardi. Keyinchalik esa qo'shni xonliklar va viloyatlarda ham yetishtirila boshlandi. Bu esa o'z navbatida qorako'l qo'yalarining populyatsiyasiga olib keldi.

Ana shu tarixiy ma'lumotlarni inobatga olib, biz qorako'l terilarini ko'hna – tarixiy qo'y zotlaridan ekanligini va uning vatani O'rta Osiyo ekanligini ta'kidlashimiz mumkin.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz hududida juda kuchli rivojlangan qorako'lchilik xo'jaliklari ko'r. Ular qo'y tuyoq sonini ko'paytirish, teri ranglarini yaxshilash, teri sifatini oshirish, navlarini yaxshilash, naslni kuchaytirish, go'sht – yog' miqdorini, jun miqdorini, teri sonini ko'paytirish kabi yo'nalishlarda katta ishlarni olib bormoqdalar va juda yaxshi natijalarga erishmoqdalar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- Хайитов А. А., Рустамов Б. И. Разработка технологии получения коллагеновых препаратов и мездровых клеев из отходов кож в производственных условиях //Вестник науки. – 2022. – Т. 3. – №. 4 (49). – С. 86-93.

2. Рустамов Б. И., Шамсиева М. Б. Ресурсосберегающая жирующая вещества для жирования каракуля //E Conference Zone. – 2022. – С. 35-39.
3. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. Исследование и разработка коллаген полимерных композиций на основе отходов кожевенного сырья Research and development of collagen of polymeric compositions based on waste of rawleather //современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – Т. 29. – С. 70.
4. Шамсиева М. Б., Рустамов Б. И. ҚОРАҚҮЛ МҮЙНА ЯРИМАХСУЛОТИНИ ИҚТИСОДИЙ ВА ЭКОЛОГИК САМАРАДОР ЁҒЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 21. – С. 38-45.
5. Отамуродов Ж. О. РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 20-28.
6. Отамуродов Ж. О. СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 171-176.
7. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. RESEARCH AND DEVELOPMENT OF COLLAGEN OF POLYMERIC COMPOSITIONS BASED ON WASTE OF RAWLEATHER //Современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – С. 70-75.

## **TODAY'S DEVELOPMENT OF KARAKOL SKINS**

**Rustamov Bobir Ismatovich**

Bukhara Institute of Engineering and Technology

[bobir\\_rustamov@bk.ru](mailto:bobir_rustamov@bk.ru)

**Annotation.** this article presents the modern development of astrakhan skins, and animal husbandry as well. the history of karakul breeding and the origin of Karakul sheep.

**Keywords.** karakul, sheep breeds, karakul skin, fur, wool, animal husbandry, products

When observing many tourists who come to the ancient cities of our country - Bukhara and Khiva, one aspect attracts attention, they are fascinated by the rare works of our people while admiring the unique city scenery. Artisan-level items, in particular, clothes made from blackbuck skins, will last longer. The expressions on the faces of the tourists who try them on and buy them show a strange curiosity.

According to the data, the total number of sheep raised in 190 countries of the world has reached about two billion, and they are divided into 570 breeds depending on the direction of production. The one that gives the product is the Karakol sheep breed. Karakol skin is distinguished by its rennet for the pharmaceutical and agricultural industry, high-quality taste and flavoring, quickly digestible meat, wool for light industry and other products. is only 2.6 percent of the number. Karakol sheep are raised in 16 countries of the world, in 5 countries of the CIS.

- At the same time that the issue of restoring the international brand of Uzbek Karakoli is on the agenda, we all know that it cannot be implemented without innovative approaches, - says Doctor of Biological Sciences, Academician Bakriddin Zaripov. - We cannot achieve our goal with only raw materials - leather, fur and wool. Therefore, there is a need to combine the process from deep processing, cultivation to processing in one chain. That is, it is appropriate to establish a cluster system in cattle breeding. Another aspect of this is that the cluster is not only an innovative direction, but also enables the rapid development of the industry as it incorporates the integration of science, science and production.

At the same time, the following have a negative impact on the rapid development of the livestock sector...

"We are trying to reorganize a lot of things in the production sector, which is good. But our main focus should be on preserving and developing the existing, profitable industries." These thoughts of our president indicate that the above-mentioned thoughts were chosen correctly.

In addition, to study the demand and supply of cattle breeding products in the world market, to carry out marketing research on the processing of cattle wool and skin, the production of ready-made products for export, to attract foreign investments to the industry and to provide resources. important activities such as helping to introduce economical modern technologies, increasing the productivity of pastures, and providing scientific, practical and methodical support for the establishment of pasture plant seeding are defined.

In the historical books, it is recorded that the Karakol sheep breed was created due to crossbreeding with Arab sheep breeds in the 8th century AD. The obtained new breeds have aroused great interest among people due to the lightness and thinness of the skin, the high quality of felt wool, and the very tasty meat. At that time, the residents of the Karakol region near Bukhara began to call the new breed "Karakol sheep". Since then, this breed of sheep has been called by this name.

At the moment, the Karakol sheep preserved in the Bukhara region were created as a result of crossbreeding such sheep with humped, coarse-wool breeds that existed at that time. This is evidenced by the fact that the wool of newborn Karakol lambs consists of a collection of different colors.

At this point, it is worth mentioning a historical fact. We know that Karakol sheep were bred mainly in the territory of Bukhara. It was forbidden to export them. But the German ambassador managed to do it. In 1910, he found a way to the heart of the emir and received the favor of 10 sheep and 2 rams. Germans choose Namibia as a place similar to the climate of our country. After making sure that the sheep have adapted here, in 1912 another 50 sheep and 12 rams were taken from Bukhara. There, they crossbreed Karakol sheep and create a new breed called "Svakara", which is very similar to the Bukhara Karakol sheep and gives valuable fur.

Today, more than 140,000 blackbuck skins are grown in Namibia per year. Svakara Karakol skins are considered the most valuable and high-quality in the world. Famous brands such as "Prada", "Gucci", "Valentino", "LouisVuitton", "RobertoCavalli" use these products, the price of one skin of which is estimated from 60 USD to 200 USD in "auctions" in Copenhagen.

Look at the fact that in Afghanistan, which is the leader in the cultivation of black leather in the world, bred sheep taken from Bukhara

took the main place. At the beginning of the 20th century, more than one million Karakol sheep were driven from Bukhara to the territory of Afghanistan. At the same time, sheep of this breed are raised in 19 provinces of Afghanistan. More than 500,000 pieces of black leather and 14,000 tons of wool are exported in one year. One skin is sold on the world market for an average of 100 US dollars.

If this industry brings a lot of income, why is the cluster system not being implemented faster, the reason is:

According to the United Nations, over the past 40 years, almost a third of the arable land on our planet has lost its fertility, and people have left it. Our country, with its geographical and climatic features, is very vulnerable to environmental degradation, especially the degradation of vegetation and desert ecosystems.

So, the problem of drought and desertification, which worries the world, does not bypass our republic. As a result, thousands of hectares of land are facing salinization and desertification. The future of thousands of hectares of pastures is in danger. being aired.

Livestock farming is the main source of income for people living in desert and semi-desert areas. However, as a result of irregular grazing of livestock in pastures, plants in these areas decrease and sometimes disappear altogether.

In the President's decision, special attention is paid to the system of rational use of pastures.

It envisages identifying plant species adapted to deserts and semi-deserts, taking measures to increase them, improving the well-being of the population, and improving the ecosystem by reducing the impact of the population on pastures. This is clearly expressed in the tasks assigned to the Bukhara Desert Pasture Nutritious Plant Seed Production Center.

If you talk to the ranchers, you will understand another factor in the conservation of pastures. The essence is that cattle ranching areas are located far away. This, in turn, limits the supply of electricity, gas, and fuel. The local population is forced to cut desert bushes for their needs. experts say that the best way is to start using alternative sources - wind, solar, and water energy. Giving incentives in this direction in the decision will serve the rapid development of the industry.

A sheep is a symbol of blessing, a source of prosperity. If you have noticed, a sheep gives birth once a year and is constantly slaughtered. There is always meat in our cuisine. But their number never decreases.

Another proof is that even in the past period, when the industry was neglected, their number increased by almost 2 times.

It is inevitable that the attention paid to such a blessed industry in our country will bring its development to a new stage in the near future.

### **LIST OF USED LITERATURE**

1. Makhbuba Shamsieva, Bobir Rustamov, Khilola Makhammadieva. IR - spectroscopy of used fat substances for the process of emulsion fatliquoring of karakul // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 7 | Issue: 11 | November 2022 p. 1-4. (05.00.00: IF: 8.197).
2. Шамсиева М.Б., Рустамов Б.И. Применение этерификата для дубления-жирования мехового полуфабриката // "Развитие науки и технологий Научно-технический журнал №4/2019. с. 37-40 (05.00.00: №22).
3. <http://uza.uz/uz/business/buxoro-qorako-li-kelajakka-tikilgan-sarmoya-23-02-2018>
4. <http://xs.uz/uz/post/sur-oltin-konlari-koz-ochmoqda>
5. <http://uza.uz/uz/documents/qorako-lchilik-sohasini-jadal-rivojlantirish-chora-tadbirlar-15-03-2018>
6. Шамсиева М. Б., Рустамов Б. И. КОРАКҮЛ МҮЙНА ЯРИМАХСУЛОТИНИ ИҚТИСОДИЙ ВА ЭКОЛОГИК САМАРАДОР ЁҒЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 21. – С. 38-45.
7. Отамуродов Ж. О. РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 20-28.
8. Отамуродов Ж. О. СОСТАВ КОСТЕЙ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ОРГАНИЧЕСКОГО КЛЕЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 15. – С. 171-176.
9. Хайтов А. А., Рустамов Б. И., Якубов М. Э. RESEARCH AND DEVELOPMENT OF COLLAGEN OF POLYMERIC COMPOSITIONS BASED ON WASTE OF RAWLEATHER //Современные инженерные проблемы в производстве товаров народного потребления. – 2019. – С. 70-75.

**ISLOMDA AYOLLARNING O'RNI****Jo'rayeva Maftuna**

"Jo'ybori Kalon" ayol-qizlar  
o'rta maxsus islam ta'lim muassasasi  
1 kurs talabasi

**Annotasiya:** Islom dini odamlarni tayhid asosida targ'ib qilish orqali ular o'rtaida tinchlik, adolat va muhabbat o'rnatish uchun yuborilgan dindir. Islom butun insoniyatga bir xildagi din hisoblanadi, ya'ni insonning irqi, boy yoki kambag'al va jinsga qarab ustunlik va imtiyozlarga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun, erkak va ayol inson tekisligida tengdir. Islomdan oldingi jamiyatlarda bunday bo'limgan, ayollarning mavqeい ko'pincha erkaklarnikidan pastroq bo'lgan. Islom ayollarni o'zlariga munosib o'ringa qaytardi. Ushbu maqolada, avvalo, Islom dinining ayollarga bo'lgan qarashlari, so'ngra Qadimgi Yunoniston, Rim, Yahudiylik, Xristianlik va Hind madaniyatlarida ayollarning tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tamiz, so'ngra Islomning ayolga bo'lgan nuqtai nazari batatsil yoritiladi. Islom va yuqorida tilga olingan din va madaniyatlarda ayollarning tutgan o'rni qiyoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Islom sivilizatsiyasi, ayol, islam, Gretsiya, Rim, iudaizm, nasroniylik, Hindiston.

**THE ROLE OF WOMEN IN ISLAM****Jorayeva Maftuna,**

1st year student of "Joybori Kalon"  
special Islamic educational institution for women and girls

**Annotation:** Islam is a religion sent to establish peace, justice and love among people by promoting monotheism. Islam is the same religion for all mankind, that is, it does not allow superiority and privileges based on race, rich or poor, and gender. Therefore, man and woman are equal on the human plane. This was not the case in pre-Islamic societies, where the status of women was often lower than that of men. Islam restored women to their rightful place. In this article, we will first discuss the Islamic view of women, then the role of women in ancient Greek, Roman, Jewish, Christian, and Indian cultures, and then the Islamic view of women. The role of women in Islam and the above-mentioned religions and cultures is compared.

**Key words:** Islamic civilization, woman, Islam, Greece, Rome, Judaism, Christianity, India.

Jamiyat va oilaning mustahkam poydevorlar ustida barpo etilishida Islomda ayollarning o'rni muhim. Ayollar oilada onalik, xotinlik va uy yumushlariga hissa qo'shib, oilaning sog'lom ishlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, ayollar jamiyatda ta'lim, biznes va ijtimoiy mas'uliyat kabi sohalarda faol rol o'ynashi mumkin. Islom ayollarning huquq va qadriyatlarini hurmat qiladi va ularga teng huquqlar beradi. Ayollarning jamiyat hayotida samarali ishtirok etishi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuning uchun Islomda ayollarning o'mi nihoyatda muhim va jamiyatning yakuniy natijasiga ta'sir qiladi.

Islom dini tavhid<sup>88</sup> bilan odamlar o'tasida tinchlik, sevgi vaadolat o'rnatish uchun yuborilgan dindir. Ularning xususiyatlariga yoki dunyoviy maqomiga ko'ra ustunlik yo'q. Aksincha, ustunlik taqvo tamoyiliga, farzlarni to'g'ri va to'g'ri bajarishga bog'liq. Islomdan oldingi ba'zi din va tizimlarda zodagonlik, etniklik va jins kabi xususiyatlar ustun hisoblanishga sabab bo'lgan. Binobarin, ma'lum oilalarga mansub bo'Imaslik, ma'lum bir irqdan bo'Imaslik, ayol bo'lish adolatsizlik va tengsizlikka duchor bo'lishni anglatardi. Islomdan oldingi jarayonlarda ayollar ham shu doirada ko'pgina huquqlaridan mahrum bo'lgan.

Ularning xususiyatlariga yoki dunyoviy maqomiga ko'ra ustunlik yo'q. Aksincha, ustunlik taqvo tamoyiliga, farzlarni to'g'ri va to'g'ri bajarishga bog'liq. Islomdan oldingi ba'zi din va tizimlarda zodagonlik, etniklik va jins kabi xususiyatlar ustun hisoblanishga sabab bo'lgan. Binobarin, ma'lum oilalarga mansub bo'Imaslik, ma'lum bir irqdan bo'Imaslik, ayol bo'lish adolatsizlik va tengsizlikka duchor bo'lishni anglatardi. Islomdan oldingi davrlarda ayollar ham shu doirada ko'pgina huquqlaridan mahrum bo'lgan.

Payg'ambar alayhissalom boshqa barcha sohalarda bo'Igani kabi ayollar va ayollar dunyosi bilan ham shug'ullanadilar. Insoniyatga ularning haq-huquqlarini himoya qilish borasida yo'l ko'rsatuvchi qilib yuborilgan va hatto jannat onalar (ayollar) oyog'i ostida ekanligini ta'kidlagan.

Dinimiz Islomda birinchi amir buyurilgan va Qur'onning birinchi oyati "o'qish" deb tarjima qilinishi mumkin bo'lgan so'zdir. Bu oyat, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) siymolarida butun islam olamiga murojaat qildi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Allohnning amrini bajarish uchun mas'ul bo'lgan murojaatchilar ma'lum bir jamoa, tabaqa yoki jinsdagi imtiyozli

<sup>88</sup> Allohnning birligi yagonaligi. (Islom dinida Allohga shirk(sherik) keltirishning turli yoki barcha ko'rinishlaridan voz kechish va Allohnning birligiga e'tiqod qilish demakdir).

odamlar emas. Barcha musulmonlar bu farmonning muhlislari va uning talablarini bajarishlari kerak. Islom ilm-fan ta'lmini ma'lum bir xalq tabaqasi bilan chegaralab qo'yagan, erkak va ayolni ajratmagan. Erkaklar ham, ayollar ham bilim olish uchun mas'uldirlar. Na biri ikkinchisidan ustun emas, na ulardan biri bu vazifani bajarishga qodir emas.

Ma'lumki, oila ikki kishi o'rtaсидаги sevgi va sadoqat poydevoriga qurilgan kompaniyaga o'xshaydi. Qur'oni Karimda "Ular bilan do'stlik va yaqinlik o'rnatishingiz uchun sizlar uchun o'zlariningizdan xotinlar yaratgani, orangizda muhabbat va mehr-muhabbatni yaratgani ham Uning qudratini isbotlovchi oyatlardandir"<sup>89</sup>, deyilgan.

Islom dini xotin-qizlarga o'z tabiatiga ko'ra haq-huquqlar bergani, insoniyat dunyosining yarmini tashkil etuvchi bu jinsni qanday sharaflı qilib qo'yanini ko'rish uchun undan oldingi tarixiy jarayonlarga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Chunki to'g'ri baho berish uchun farqlarni solishtirish kerak. Shuning uchun biz bir maqola doirasida Islomdan oldingi diniy va falsafiy tizim ayollarining nuqtai nazarini ko'rib chiqmoqchimiz, shunda biz Islomning ayollar haqidagi tushunchasini to'g'ri tushunishga kirishamiz. Qolaversa, bugungi kunda noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'lgan ayrim masalalarning haqiqatini ko'rishimiz mumkin.

Islom ayollarga hurmatli mavjudot sifatida qaraydi va ularni oilaning ustuni sifatida qabul qiladi. Holbuki, Islom kelishidan oldin ayollar qadrsiz hisoblangan. Darhaqiqat, u past darajadagi mavjudot ekanligi va uning yaratilishdan maqsadi faqat odamlarga xizmat qilish ekanligi qabul qilingan. Islom dini bunday tushunchalarga qarshi munosabat bildiradi. Ayollar har jihatdan erkaklar bilan teng ekanligini haqida Qur'oni Karimda "Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko'plab erkagu ayollar taratgan Robbingizdan qo'rqingiz! Nomini ishlatib bir-biringizdan so'rovda bo'ladiganingiz Allohdan va qarindoshlik(aloqalari)dan qo'rqingiz!"<sup>90</sup>. U har ikki jins teng ekanligini va ular orasida yaratilish jihatidan farq yo'qligi bayon qilingan.

Biz qisqacha to'xtalib o'tgan Islomdagi ayol huquqlariga batafsil to'xtalishdan oldin, Islomdan oldingi din va madaniyatlarda ayol va ayollik qanday xulosa va tushunchalar qabul qilingan va tushunilganiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

### **Qadimgi Yunonistondagi ayollar:**

Qadimgi Yunonistonda ayollarning darajasi juda darajada hisoblanib, barcha huquqlardan mahrum qilingan. U faqat uyda ishlashi mumkin edi va

<sup>89</sup> "Rum" surasining 21-oyati.

<sup>90</sup> "Niso" surasining 1-oyati.

hech qanday jamg'arma huquqi yoki vakolatiga ega emas edi. Er ayolni kaltaklashi yoki uni boshqa birovga sovg'a qilishi mumkin edi va u qul bilan bir xil hisoblangan. Qizlari merosdan ulush ololmadilar. Merosda faqat o'g'llar ulushga ega edi. Ayollar erkaklar ishonchini ko'tarishdan boshqa vazifasi bo'limgan holatda ko'rindi<sup>91</sup>.

Ayollar dunyodagi barcha yovuzliklarning sababchisi hisoblangan. Bu yunon miflaridan birida quydagicha izohlanadi: Zevs Prometeydan g'azablangani uchun odamlardan o'ch olmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda u yoqimli va chiroyli narsalarni yaratadi. Barcha xudolar uni parda, gullar va oltin toj bilan bezatadi. Ular uni "Pandora" deb nomlashga qaror qilishdi, ya'ni "hammaning sovg'asi". Zevs bu "falokat"ni yerga tushiradi. Endi ayollar erkaklar uchun eng katta dushmanha aylandi. Bir qarashga ko'ra, yovuzlikning sababi Pandoraning o'zi emas, balki uning qiziquvchanligidir. Shunga ko'ra, xudolar Pandoraga zararli narsalar bilan to'ldirilgan ko'krakni beradi va uni ochmaslikni aytadi. Pandoraning qiziquvchanligi yanada kuchaydi va u ko'krak qafasining ichida nima borligini bilishni xohlaydi. Bir kuni u ko'krak qopqog'ini ochadi. Ko'krakdan chiqayotgan har xil yomonliklar atrofga sochilib ketgan. Pandora katta qo'rquv bilan qopqog'ini yopadi. Lekin juda kech edi. Shunday qilib, Zevs odamlarni ayollarning mavjudligi bilan jazoladi.

Biz yuqorida qisqacha to'xtalib o'tgan bu iboralar jamiyat haqidagi umumiyl tushunchani, uning voqeasi va odamlarga qarashini, folklor tili bilan aytganda, xalqning bu mavzudagi ongsiz qarashini, garchi ular afsona (mifologiya) bo'lsa ham ochib beradi. Shunday qilib, bu sohada deyarli har bir kishi qabul qilishi kerak bo'lgan madaniyat shakllanadi.

### **Rimdag'i ayollar:**

Rim ko'pgina jamiyatlarning qonunchiligiga asos bo'lgan va e'tiqod nuqtai nazaridan Gretsiya ta'sirida edi. Shuning uchun ularning ba'zi xudolari yunon xudolari bilan deyarli bir xil xususiyatlarga ega. Misol uchun, yunon Zevsi Rim Yupiteriga juda o'xshaydi. Rimdag'i ayollarning ahvoli Gretsiyadagidek. Erkak oila boshlig'i bo'lib, xotini va bolalari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Darhaqiqat, u ko'pincha xotinini o'ldirishga olib keladigan kuchning egasidir. Bu hokimiyatga asoslanib, erkak ularga xohlaganini qila oladi.<sup>92</sup> Keng vakolatlarga ega bo'lgan ota o'z oilasiga o'zi xohlagan

<sup>91</sup> Ushbu mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun qarang. Avgust Bebel, Ayollar va sotsializm, trans. Soliha Nazli Kaya (Istanbul: Inter nashrlari, 1991), 67 – 68. [https://www.researchgate.net/publication/327078626\\_August\\_Bebel'in\\_Kadin\\_ve\\_Sosyalizm'i\\_Baglaminda\\_Yeniden\\_Ceviri\\_ve\\_Ceviri\\_Elestirisi\\_Bir\\_Ust-Elestiri\\_Calismasi](https://www.researchgate.net/publication/327078626_August_Bebel'in_Kadin_ve_Sosyalizm'i_Baglaminda_Yeniden_Ceviri_ve_Ceviri_Elestirisi_Bir_Ust-Elestiri_Calismasi)

<sup>92</sup> Ushbu mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun qarang. Pol Koschaker, Rim xususiy huquqining konturlari. Kudret Ayiter (Istanbul: Anqara universiteti Huquq fakulteti nashrlari, 1963), 77-78; Ziyo Umur, Rim huquqi (Istanbul: Istanbul universiteti huquq fakulteti, 1984), 383-388.

odamlarni oladi va o'zi xohlamaganiga ruxsat bermaydi. Bu, ayniqsa, qizlarga tegishli. Qiz o'z mulkiga ega bo'lolmaydi. Agar foyda topsa, bu foyda otaning mulkiga qo'shiladi. Qiz balog'atga yetsa yoki turmushga chiqsa ham bu amaliyot o'zgarmaydi. Nikoh o'zaro kelishuv asosida tuzilgan va tomonlarga teng huquq beruvchi tuzilma emas.

O'n ikki jadval qonuni qobiliyatsizlik (hojir) uchun asos sifatida quyidagi uchta xususiyatni ko'rib chiqadi: Yosh, ruhiy holat, ayollik. Bu qoida 1938 yilgacha Fransiya qonunchiligiga ham kiritilgan. Chunki fransuz huquqi o'z asosini Rim huquqidan oladi.<sup>93</sup>

Islom shariatida jinoyatchining jinsi hech narsani anglatmaydi. Kim jinoyat qilsa, jazosini oladi. Oilaga taalluqli ishlarda, ayniqsa, zino kabi ishlarni qilishda to'rtta guvohning guvohligi talab qilinadi. Masalan, Nur surasining 4-oyatida, agar Pokiza ayollarga (bo'hton) toshi otib, so'ngra to'rtta guvoh keltira olmaganlarni sakson darra uringlar va ularning guvohligini abadiy qabul qilinmasligi bayon qilingan.

Ko'rinib turibdiki, Qur'on pokiza ayollarga tuhmat qilganlarga ma'lum va moddiy jazo berilgandan so'ng, tuhmat qilganlarning guvohliklari keyingi hayotlarida ham qabul qilinmasligini ta'kidlagan. Ayollar huquqlarini himoya qilish borasida bundan yaxshiroq va mustahkamroq tamoyil bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmayman. Chunki bunday ayblovni ilgari surgan inson butun umri davomida qandaydir huquqlardan mahrum bo'ladi. Hech kim osonlik bilan bunday mahrumlikdan o'tishga jur'at eta olmaydi.

Bu haqda Buxoriyda zikr qilingan hadisda:

«Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilinishicha, bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: Yo Rasululloh! "Mening qora o'g'lim bor edi," dedi u, "men xotinimdan shubhalanaman". Shundan so'ng U zot, tuyalaringiz bormi? so'radi. Erkak: Ha bor, dedi. Uning bayonoti bilan Payg'ambarimiz Rasululloh (sollallohu alayhi va salam): tuyalarning rangini so'radilar. Odam tuyalari qizil ekanligini aytdi. Payg'ambarimiz, ular orasida bo'z tuyalar bormi? deb so'rashganida, u kishi: "Ha, bor", deb javob berdi. Payg'ambarimiz, bu kulrang tuya qayerdan paydo bo'Igan? U kishi: "Bu uning nasl-nasabidan bo'Igan bo'lsa kerak", dedi. Shundan so'ng Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "O'g'lingiz ham nasabning eski tomiridan (ildiz) tortib olgандир", dedilar<sup>94</sup>.

Gender insoniy va tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj qondirishni xohlaydi. Shuning uchun ham Islom buni har ikki jins uchun ham normal deb biladi.

<https://dspace.ankara.edu.tr/xmlui/handle/20.500.12575/47962>

<sup>93</sup> <https://www.nadirkitap.com/islama-ve-garblilara-gore-kadin-prof-dr-mustafa-sibai-kitap2164673.html>

<sup>94</sup> Buxoriy, "Tafsiru'l-Qur'on" 383-bet.

Darhaqiqat, avlodning davom etishi, boshqacha aytganda, insoniyat ham shunga bog'liq. Modomiki, inson nomaqbul yo'llarga adashmasa. Shuning uchun har kim bu ehtiyojni qondirish vakolatiga ega.

Islom dini ayollarga barcha masalalarda keng huquqlar bergan. Islom dini ayollarga tabiatiga ko'ra bergan huquqlarni qanday tasvirlashini va ayollarni qanday tasvirlashini bilish uchun oldingi davrlarda ayollarning qayerda bo'lganini, ayollarga bo'lgan munosabatni va ularga berilgan huquqlarni ko'rib chiqdik. Islom kelgunga qadar bo'lgan davrda ayollar ancha past darajada ko'riganini yaqqol ko'rdik. U deyarli inson sifatida ko'rilmagan va erkaklarga berilgan ko'plab huquqlarga ega bo'lomagan. Moliyaviy munosabatlar, nikoh va ijtimoiy hayotda fonda qoladi; Uning shaxsiyati, g'oyalari va huquqlari hurmat qilinmadi. Islom dini esa, jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeい kabi hech qanday sababga ko'ra odamlarni kamsitmagan, ustunlikni faqat taqvoda ko'rgan va shuning uchun ayollarni nohaq past ahvoldan tortib, ularga munosib o'rinnlarni qaytarib bergan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Muhammad Ali Sayidning "Islomdagи ayollarning pozitsiyasi: progressiv nuqtai nazar" (2010)
2. Hisham M. Ramadan "Islomda ayollar huquqlari: haqiqiy yondashuv" (2002)
3. Ulmasjonovich K. S. Insonlar o'zaro munosabatlarining tasavvufiy va falsafiy asoslari. – 2021 yil. (Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.)
4. Böhürler, Ayşe. "Büyük Annem, Annem ve Ben". Yeni Şafak Gazetesi (2 November 2019), 13.
5. <https://quran.com/2/228>
6. <https://www.islamawakened.com/quran/2/228/default.htm>

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДАЁШЛАР ИЖТИМОЙ ҚАТЛАМИНИНГ ҮРНИ ВА РОЛИ

Мейлиева Кибирё  
Абдуллаева Мархабо  
Хушваков Шоҳбоз

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети  
ижтимоий иш таълим йўналиши 4-курс талабалари.

Илмий раҳбар: **Шеров Маъруф Болтаевич**

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети  
доценти

**Аннотация:** Ёшлир давлат ва жамиятнинг келажагини, салоҳиятини белгиловчи ижтимоий қатлам саналади ва ҳар бир жамиятнинг истиқболи унда яшаётган ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, маънавияти, сиёсий ва ҳуқуқий онглилик даражаси билан белгиланади. Шу боисдан ҳам мазкур мақолада ёшлир масаласига оид долзарб муаммолардан бири уюшмаган ёшларнинг ижтимоийлашуви масаласи илмий тадқиқ этилган. Шунингдек, ушбу муаммоларни бартараф этишда жамият ҳаётидаги мухим ижтимоий тузилмаларнинг үрни ҳамда роли кўрсатиб ўтилган.

**Калит сўз ва иборалар:** ёшлир, ижтимоийлашув, уюшмаган ёшлир, тузилма, институционал.

**Аннотация:** Молодежь представляет собой социальный слой, определяющий будущее и потенциал государства и общества, а перспектива каждого общества определяется интеллектуальным потенциалом, духовностью, политico-правовым сознанием живущей в нем молодежи. Поэтому в данной статья научно исследуется одна из актуальных проблем, связанных с молодежной проблематикой, вопрос социализации неорганизованной молодежи. Также показано место и роль важных социальных структур в жизни общества в решении этих проблем.

**Ключевые слова:** молодежь, социализация, дезорганизованная молодежь, структура, институциональная.

**Annotation:** Youth is a social stratum that determines the future and potential of the state and society, and the prospects of each society are determined by the intellectual potential, spirituality, and political and legal consciousness of the youth living in it. Therefore, this article examines one of the pressing problems related to youth issues, the issue of socialization of

unorganized youth. The place and role of important social structures in the life of society in solving these problems is also shown.

**Key words:** youth, socialization, disorganized youth, structure, institutional.

Мамлакатнинг келажаги халқнинг эртаниги куни, ёшларнинг унибўсиб, улғайиб, қандай инсон бўлиб ҳаётга кириб боришига боғлиқ. Ёшлар давлат ва жамиятнинг келажагини, салоҳиятини белгиловчи ижтимоий қатлам саналади ва ҳар бир жамиятнинг истиқболи унда яшаётган ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, маънавияти, сиёсий ва ҳуқуқий оғлилик даражаси билан белгиланади. Мазкур нуқтаи назарга кўра ҳам ёшлар давлат ва жамият томонидан доимий эътибор талаб этадиган ижтимоий қатламдир. Зоро, барча даврларда ҳам ёшлар жамиятнинг энг фаол қисми бўлиб келган.

XXI аср ёшлари- Учинчи Ренессанс пойдевори яратувчилари ҳисобланади. Президентимиз Шавкат Мирзиёев ёшлар форумидаги нутқида шундай дейди: “Ўзбекистоннинг энг катта бойлиги, бебаҳо хазинаси бу- шижаатли ёшларимиздир”<sup>95</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йилнинг 19 март куни ёшларга эътиборни кучайтириш, ёш авлодни маданият, санъат, жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш, уларда ахборот технологияларидан тўғри фойдаланиш кўникмасини шакллантириш, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш, хотин-қизлар бандлигини таъминлаш масалаларига бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари сурган эди.

Ушбу ташаббусларни амалий ҳаётимизга тадбиқ этиш орқали ёшлар муаммоларини бартараф этишнинг муҳим назарий-амалий асоси бўлиб хизмат қилади.

Юқорида билдирилган мулоҳазалардан келиб чиқиб, уюшмаган ёшлар муаммоларини ўрганишни қуйидаги долзарб жиҳатларини ёритишни социологик таҳлил қилиш лозим:

**Биринчидан**, Ўзбекистонда ёшлар тарбияси мамлакат келажаги ва барқарорлигини таъминлашнинг кафолати сифатида намоён бўлаётганлигида;

**Иккинчидан**, мамлакат ижтимоий барқарорлигини таъминлашда уюшмаган ёшлар масаласи юзасидан илмий тавсияларни ишлаб чиқиш заруриятини ортиб бораётганлигида.

<sup>95</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг „Ёшлар форуми” да сўзлаган нутки 25.12.2020

**УЧИНЧИДАН**, уюшмаган ёшларни жамиятимизда олиб борилаётган ислоҳотлардан мунтазам хабардорлигини таъминлаш;

Ҳозирги кунда жаҳон мамлакатларида ёшлар тушунчасига нисбатан турли хил ёндашувларнинг мавжудлиги маълум.

Хусусан, БМТнинг ихтисослашган ташкилоти ЮНЕСКО 17 ёшдан 25 ёшгача бўлганларни ёшлар қатламига киритади. Европа Иттифоқи давлатларида 16 ёшдан 30 ёшгача (баъзан 35 ёшгача) бўлган аҳоли вакиллари ёшлар сифатида эътироф этилади. Шунингдек, МДҲ давлатларининг аксариятида 14 ёшдан 30 ёшгача бўлганлар ёшлар ҳисобланади, аммо Украинада 14-35<sup>96</sup>, Қозоғистонда 14-29<sup>97</sup> ёшлиларушбу тоифага киритилади. Ўзбекистон Республикасида эса 14 ёшдан 30 ёшгача бўлганлар ёшлар ҳисобланади<sup>98</sup>.

Ҳозирги кунда маънавий ва аҳлоқий қадриятларга содик, билимли, самарали меҳнат қилишга қодир фуқаролар, айниқса, ёшлар жамиятнинг энг асосий кучига айланиб бормоқда. Шунинг учун ҳам XXI аср-интеллектуал билимлар аслида инсон капиталига инвестициялар йўналиширишни устивор вазифа сифатида танлаган мамлакатлардагина юксак тараққиётга эришиш мумкин. Шунингдек, билимли жамиятгина таҳдиид ва муаммоларни енгиб ўтишга қодир бўлади<sup>99</sup>.

Ёшлар деганда мамлакат аҳолисининг энг ёш ва тез ўзгарувчан ва салоҳиятини ташкил этувчи, ўзининг ижтимоий таркиби жихатидан бир-бирига яқин бўлган қатlam тушунилади. Улар ижтимоий ҳаётда, шунчаки оддий кузатувчи сифатида иштирок этмасликлари учун, улар аввало фаолиятда бўлишлари керак бўлади. Фаолият орқали ёшлар ўзларининг ижтимоий-сиёсий фаоллигини англаб борадилар. Ижтимоий-сиёсий фаоллик нуқтаи назаридан ёшларни ўз олдиларига қўйган мақсадларига кўра шартли равишда икки групга бўлиб ўрганиш мумкин:

1. Ижтимоий фаол ёшлар.
2. Ижтимоий ҳаётдан узоқ, уюшмаган, фаол бўлмаган ёшлар.

Кенг маънода ёшларнинг давлат ва жамият қурилиши, Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларга муносабати, масъулияти нуқтаи назаридан талқин этиш мумкин.

<sup>96</sup> Закон Украины “О содействии социальному становлению и развитию молодежи в Украине” 1993 г.

<sup>97</sup> Закон Республики Казахстан «О государственной молодежной политике в Республике Казахстан» от 7 июля 2004 года № 581

<sup>98</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонуни. 20 ноябрь, 1991 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси. 1992 й. 2-сон.

<sup>99</sup> Человеческое развитие: учебник // Коллектив авторов. - 2-е издание. - Т.: УМЭД, ПРООН, 2011.

Ёшларни, бугунги кунда шартли равища “фаол” ва “фаол бўлмаганёшлар” гуруҳига бўлиш мумкин. Буларга қуидагилар киради:

1. сиёсий ўзгаришларни аниқ идрок этган;
2. демократик жараёнларга ўз ҳиссасини қўшаётган;
3. қонунлар қабул қилиш, уни ҳаётга тадбиқ этишда бефарқ бўлмаган;
4. мустақилликни мустаҳкамлаш, Ватан, Эл-юрт ва халқнинг тақдири ва истиқболи учун қайғураётган;
5. муайян сиёсий партия ёки ижтимоий ҳаракатлар билан ўз фаолиятини боғлаган, шунга эҳтиёж сезган;
6. ижтимоий зарарли иллатлар кўринишлари билан муроса қилолмайдиган ёшларни фаол қатлам дейиш мумкин.

“Фаол бўлмаган ёшлар” гуруҳига эса юқорида санаб ўтилган хусусиятларга эга бўлмаган ёшларни киритишимиз мумкин.

Мамлакатимиздаги ёшлар кайфиятлари ва уларнинг ислоҳотлар жараёнларига нечоғли тортилганлиги, ёшларнинг жамиятдаги ўз ўрнини белгилашга қаратилган хоҳиш ва истаклари нуқтаи назаридан ўзига хос икки турдаги қарама-қарши вазият ва хусусият тадқиқот жараёнида ўзини ёрқин намоён этади:

- янгилик ва модернизация қилиш жараёнларига камарбасталик, улар моҳиятини чуқур англаш, ислоҳотлар мақсад ва мазмунини қўллаш, янги муносабатларга интилиш, изланиш, ўз ижтимоий овозига эга бўлиш учун ҳаракат, ўзига ва идрокига ишонч, ўз салоҳиятини жамият тараққиёти учун сарфлашга тайёрлик, шахс сифатидаги комилликка интилиш, ўз тараққиётини жамият ривожи билан боғлаш, бунёдкорлик ишларига тайёрлик, очиқ назар билан қараш ва соғ кўнгиллилик;

- ёшлар ўртасида бефарқлик, бошқарув тизимларига ишончсизлик, барча нарсани мен учун давлат яратиб бериши лозим деган асосга қурилган боқимандалик кайфияти, ёт ғояларга нисбатан берилувчанлик, зиддиятларга мойиллик, ўз ижтимоий ҳолатидан норозилик, бирон ишга яроқсизлик, ўз келажагига ишончсизлик, конфликт вазият ва ҳолатлардан чиқиб кета олмаслик, мана шундай ҳолатларни ўзи яратиш, қонунларни билмаслик, билимсизлик, тушкунлик.

Шу билан бирга, ёшлар ўртасида таълим, меҳнат, маданият, қонунларга бўйсуниш, янги демократик тамойилларни англаш ва қабул қилиш, ижтимоий ва сиёсий онг, дин ва демократик жамият мувозанатига нисбатан турлича муносабат ва қарашлар ҳам мавжуд.

Мазкур вазиятнинг мураккаблиги ва турличалиги, айниқса унинг қарама-қарши томонлари, уюшмаган ёшлар ўртасида тарғибот ва ташвиқот фаолиятини янада кучайтириш, таъсирчанлигини ошириш лозимлиги, бунда эса ёшлар иттифоқининг масъулияти нечоғлик юқори эканлиги кўзга ташланади.

Ёшлар ижтимоий фаоллик даражасини оширишга имконият берувчи ва тўсқинлик қилувчи омилларни қўйидагича таснифлаш мумкин.

**Ёшлар ижтимоий фаоллик даражасини оширишга имконият берувчи омиллар:**

- давлаттомониданяратилганимкониятлар;
- оила, маҳалла, таълиммуассасаси ҳамда ёшларагентлигифаолиятидаижтимоийшерикчиликмеханизминингфаол ишлаши;
- ёшларагентлигитомониданёшларниижтимоийфаоллигиноширишгақа ратилгантадбирлар;
- ёшлариқтисодийфаоллигиноширишгақаратилганчоратадбирлар.

**Ёшларижтимоийфаоллиқдаражасиниоширишгатўсқинликқилувчио миллар:**

- ёшларўртасидаҳуқуқиймаданиятдаражасипастлиги;
- отоналарважамоатчиликтомониданёшларганисбатанэътиборвамаъсулиятнингйўқлиги;
- ёшларўртасидатурилихил турдагизараарлииллатларнингкентарқалиши (наркомания, ичкилик, фоҳишалик );
- ёшларнингдеструктивояларвағарбмаданиятигаинтилиш.

Мамлакатимизда ёшлар билан боғлиқ кўпгина муаммоларни қўйидаги асосий гуруҳларга бўлиш мумкин:

- ёшларга хос бўлган ижтимоий муаммолар: Буларга ёшларнинг ижтимоий гуруҳ сифатидаги моҳиятини белгилаш; жамиятнинг барча жараёнларидаги ўрни ва ролини баҳолаш; унинг даврий чегараларини аниқлаш; ёшлар ижтимоийлашувига хос хусусиятларнинг спецификасини ўрганиш; уларнинг ижтимоий, касбий йўналганлиги, жамоада адаптациялашувини таҳлил этиш; ноҳукумат, ижтимоий ҳаракат ва бирлашмалар фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини ўрганиш.

- умумсоциологик аҳамиятга эга бўлган муаммолар (никоҳ, оила, таълим жараёнлари билан боғлиқ) ёки фақат ёшлар доирасида намоён бўладиган муаммолар (тарбиянинг хусусиятлари, унинг спецификаси ва самарадорлиги, ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш, давлат ҳокимияти тизимидағи ўрни ва аҳамиятини белгилаш ва ҳ.к.).

Ёшлар билан ишлаш бўйича мутасадди идора ва ташкилотлар фаолиятида қўйидаги йўналишлар устувор аҳамиятга эга бўлиши зарур деб ҳисоблаймиз:

1. Ёшлардамустаҳкамфуқароликпозициясини шакллантириш;
2. Жамиятда сиёсий ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш, ёшларнинг ҳуқуқий онгини ошириш;
3. Иқтидорли ва қобилиятли ёшларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ижтимоий аҳамиятга эга ташаббусларини рағбатлантириш;
4. Ёшларбиланишлашибевоситаяшашжойларидашшилэтиш;
5. Ёшлар ташкилотларини қўллаб-қувватлаш;
6. Ёшларнинг бандлигини таъминлаш.
7. Ёшларни ҳуқубуқзарликлар, зарарли иллатлар, экстремистик ғоялар ва “оммавий маданият” таъсиридан ҳимоя қилиш;
8. Ёш оиласарни ижтимоий муҳофаза қилиш.

Юқорида санаб ўтилган йўналишлар мисолида яна айрим муаммоларни таҳлил этишимиз мумкин бўлади.

1. Ёш авлодни мустаҳкам фуқаролик позицияси ва ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳар бир даврда, ҳар бир давлат сиёсатида муҳим ўрин тутади. Таълим муассасаларида ўтказилаётган тадбирлар уюшмаган ёшларнинг муаяйн бир қисминигина қамраб олишини ҳисобга олганда, адабиёт, санъат ва ОАВ имкониятларидан янада самаралироқ фойдаланиш талаб этилади.

Эътибор қаратадиган бўлсак, сўнгги йиллар ичida ёш авлод онгига ватанпарварлик руҳини сингдиришга қаратилган бадиий асарлар: китоблар, кино ва видеофильмлар саноқли. ОАВ ҳам тарғиботнинг асосан чақириқ ва шиорлар шаклидан фойдаланмоқда. Ёшларимиз орасида қўлма-қўл бўлаётган, қизиқиш билан ўқилаётган асарлар, уларни ўзига жалб этувчи кинофильмлар кам. Ғоявий саёз асарлар ўрнини хориж асарлари, фильм ва сериаллари эгаллаб олмоқда. Ўсиб келаётган авлод миллий қаҳрамонлар эмас, хориж кино ва сериаллари таъсирида, улардаги қаҳрамонлар таъсирида улғаймоқда. Бу ҳолат келажакда салбий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин.

2. Жамиятда сиёсий ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш, уюшмаган ёшларнинг ҳуқуқий онгини ошириш борасида ҳам давлат томонидан салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Бироқ, бу соҳа мутасаддилари фаолиятини ҳам самарали деб бўлмайди. Умумий жиноятчилик кўрсаткичи камайгани ҳолда, айрим тур жиноятларда ўсиш кузатиласяпти. Мисол учун, бугунги кунда глобал муаммога айланган одам савдоси айрим ҳуқуқий онги шаклланмаган ёшларимизни ўз домига тортмоқда. Одам савдосидан жабрланганлар ва унга қўл ураётганларнинг аксарияти уюшмаган ёшлардир.

Шунингдек, айрим ёшларнинг турли диний экстремистик оқимлар таъсирига тушиб қолишига ҳам ҳуқуқий онгсизлик асосий сабаб бўлмоқда.

3. Иқтидорли ва қобилияти ёшларни қўллаб-қувватлаш, ёшларнинг ижтимоий аҳамиятга эга ташаббусларини рағбатлантириш борасида амалга оширилаётган ишлар ҳам эътиборга лойиқ. Шундай бўлса-да, бу йўналишда илмий-техник, ижтимоий фанлар йўналишларида иқтидорли ёшларни рағбатлантириш, ёшлар ўртасида ижтимоий лойиҳалар бўйича танловлар ўтказиш, иқтидорли ёшларни рағбатлантириш эътибордан четда қолмоқда.

4. Ёшлар билан ишлашни бевосита яшаш жойларида ташкил этиш масаласи ҳам долзарб. Республика аҳолисининг аксарият қисми қишлоқ жойларида яшайди. Бу ёшларимизнинг ҳам катта қисми қишлоқ жойларда яшайди дегани. Бироқ тажриба шуни кўрсатадики, айрим мутасаддилар ўз ҳудудидаги ёшлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга эмас.

Хусусан, ёшларга оид давлат сиёсатидан келиб чиқиб, турли тарғибот-ташвиқот ишларидағи камчиликлар, ёшлар муаммоларини ўрганиш, таҳлил қилиш, уюшмаган ёшларни рағбатлантириш, болалар спортини ривожлантириш каби вазифаларда талаб даражасида ижро этилмаган. Шунингдек, кадрларни танлаш, етакчиларни тарбиялаш масалалари оқсамоқда.

Ёшлар ўртасида тадбирлар ташкил этиш бўйича ишлар тўғри йўлга қўйилмаган. Бандлик масаласи долзарблигича қолмоқда.

5. Ёшларнинг бандлигини таъминлаш Ҳаракатлар стратегиясининг устувор масалаларидан бири саналади. Ишсизлик - бугунги кун уюшмаган ёшларнинг энг ўткир муаммоси. Бу муаммони ҳал этиш жуда кенг қамровли тадбирлар ўтказишни талаб этади. Ўтказилаётган меҳнат ярмаркалари бунда яхши самара бермоқда. Янги иш ўринлари яратиш борасида салмоқли ишлар амалга оширилмоқда. Бироқ республикамиизда 30 ёшгача бўлган аҳоли, яъни ёшлар 17 млн.дан

ошиқ. Бу ҳолат мұаммонаң ечимиға яңгыра ёндашувларни талаб этмоқда. 17 млн. ёшларнинг қанчаси доимий иш билан банд, қайси ҳудудларда ишсизлар сони юқори, уларни иш билан таъминлашнинг қандай интенсив йүллари бор? Бу мұаммоларга ечим топишни орқага суриш янада күпроқ ижтимоий мұаммоларни көлтириб чиқариши мүмкін.

6. Ёшларни ҳуқуқбузарликлар, заарлы иллатлар, экстремистик ғоялар ва “оммавий маданият” таъсиридан ҳимоя қилиш бугунги глобализация шароитида янада мұхим ажамият касб этади.

Бироқ, баъзи ҳудудлардаги таълим-тарбия мұассасаларида үқувчиларнинг бүш вақтларини мазмұнлы үтказишлирига, турли тұғаракларга жағында этишке, мавжуд спорт майдончалари ва күтубхоналардан тұғыры ҳамда унумли фойдаланишига етарлы әзтибор берилмеганлиги сабабли үқувчилар томонидан оғир турдаги жиноятлар содир этилишига йўл қўйилган.

7. Ёш оиласарни ижтимоий мұхофаза қилиш. Бугунги кундамамлакатимиздаги ёш оиласар жамияттада 16%ини ташкилэтади. Уларнинг қанчаси бандлық, соғлиқнисақлашватураражой мұаммоси билан тұқнашкели бурибди?

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиздаги ёшлар масалаларини ҳал қилишда қўйидаги хулоса ва назарий үмумлашмаларни билдириш мүмкін:

- ёшларнинг жамият тараққиётидаги фаолиятларига кенг йўл очиш ва уни таъминлаш учун уларнинг үзларидаги фаоллик, сиёсий ва иқтисодий ислоҳотлар жараёнларига камарбасталик, ислоҳотларга ишонч, демократик қадриятларнинг агадийлигига суюниш фазилатларини тарбиялаш;

- ёшларнинг янгиликка интилиши, ташаббускорлиги, эркін бозор иқтисодиётiga тез кўникиши, янги йўналишларни қўллаб-қувватлаши каби мавжуд юқори савиядаги ва ижобий йўналтирилган салоҳиятидан ўз вақтида холис ва рағбат асосида фойдаланишига эришиш, ёшлар ташаббусларининг “чўкиб” қолишига йўл қўймаслик;

- ёшларни соғ, пок, меҳрибон қилиб тарбиялаш, уларни ўз ватани ва оиласининг ватанпарварларига айлантириш, ватанпарварликни ҳаёт тамойили ва мезонига айлантириш, мамлакат ривожи учун жон куйдириши фуқаролик фазилатига айлантиришига эришиш;

- соғлом авлод тарбиялаш фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва барча зарур имкониятларни яратиш, соғлом авлод тушунчаси сирасига эса нафақат жисмоний соғломлик, ички руҳий, психологик, маънавий ва

мағкуравий соғломлык үнсурларини киритиш, ёшлар соғломлигини умуминсоний ва миллий қадриятлар негизида қуриш;

- ёшлар сиёсати ва уни амалга ошириш масаласини миллий ва давлат хавфсизлигининг зарурий таркибий қисмларидан бири деб тан олиш;

- ёшлар ўртасида сиёсий онг ва сиёсий тафакқур тамойилларини кенг сингдириш, уларда сиёсий маданият кўникмаларини шакллантириш, ёшларнинг ўз сиёсий онгини ошириши ва кўникмаларга эга бўлишлари учун табиий ривожланиш тизимларини яратиш ва улардан унумли фойдаланиш.

- ёшларнинг кайфиятлари, манфаатлари ва ижтимоий аҳволини ўрганиш ва илмий таҳлил этиш бўйича турли социологик тизимлар фаолиятини ривожлантириш, ёшлар ижтимоий, иқтисодий аҳволи мониторингини тизимли ўрганиб бориш.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда ёшларнинг ижтимоий фаолигини оширишни такомиллаштириш юзасидан қўйидаги таклифларни илгари суриш мақсадга мувофиқдир:

- ёшларда тадбиркорлик билим ва кўникмаларини ривожлантириш бўйича семинар тренинглар ўтказиш;

- ёшларнинг ҳуқуқий онг ва саводхонлиги шакллантиришда турли конкурслар, мусобақалар, интеллектуал ўйинлар ташкил этиш;

- ёшларнинг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатлами – ногиронлар, ота-онасиз болалар, кам таъминланган оиласалар фарзандларининг давлат томонидан ҳимояланишини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш;

- ёшларнинг муаммоларини ўрганиш мақсадида доимий равишда социологик сўровлар ўтказиш ва унинг якунлари бўйича тегишли тадбирларни амалга ошириш талаб этилади. Ёшлар муаммолари бўйича доимий равишда жамоатчилик фикрини ўрганишни ташкил этиш ҳамда ёшлар муаммолари билан шуғулланувчи социологик илмий марказ фаолиятини йўлга қўйиш.

Мамлакатимиз истиқболли заҳира бойлиги ҳисобланган уюшмаган ёшларнинг келажаги учун лозим бўлган шароитларни яратиш орқали тараққиётимизни янада ривожлантириш имкониятини бериши шубҳасизdir.

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тұғрисида”ги Қонуни. 20 ноябрь, 1991 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши Ахборотномаси. 1992 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг „Ёшларфорумы” да сүзлаганнұтқы 25.12.2020
3. Закон Республики Казахстан «О государственной молодежной политике в Республике Казахстан» от 7 июля 2004 года № 581
4. Человеческое развития: учебник // Коллектив авторов. - 2-е издание. - Т.: УМЭД, ПРООН, 2011.

## AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHDA MAHALLA VAKOLATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Meyliyeva Kibriyo**  
**Abdullayeva Marhabo**  
**Xushvakov Shoxboz**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy ish  
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **Sherov Ma'ruf Boltaevich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

**Annotasiya:** Maqolada aholini ijtimoiy himoyalashda maxallaning o'rni va roli ko'rsatilgan. Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada btakomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash, mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish, va xususan jamoatchilik nazorati kabi masalalarga alovida e'tibor karatilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, demokratik islohatlar, mahalla vakolatlari, jamoatchilik nazorat, davlat va nodavlat tashkilotlar.

## ВОПРОСЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОЛНОМАЧИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ МАХАЛЛИ ПРИ СОЦИАЛЬНОЙ ТОЧНО НАПРАВЛЕННОЙ ЗАЩИТЕ НАСЕЛЕНИЯ

**Аннотация.** В статье раскрываются вопросы, посвященные роли органов самоуправления граждан социальной защите населения. Особо внимание уделяется вопросам совершенствования организационных основ махали, расширение ей функций, содействие махалли в установление тесного сотрудничества с исполнительной властью, социальная защита населения со стороны махали. Особое внимание уделяется общественному контролю над органами государственной властью.

**Ключевые слова:** социальная защита населения, демократические реформы, полномочия махали, общественной контроль, общественные и государственные организации.

## QUESTIONS IMPROVEMENTS THE SOCIETY CONTROL MAHALLA PRECISELY AIMED A SOTSIALY PROTECT THE POPULATION

**Resume:** The article describes the issues on the role of self-governing bodies of social protection of the population. Particular attention is paid to the improvement of the organizational bases waving, expanding its functions, promote Mahalla in close co-operation with the executive branch, the social protection of the population from the mahali. Attention to public scrutiny cash authorities.

**Keywords:** social welfare, democratic reforms, waved authority, social control, nongovernmental and government organizations.

Mamlakatimizda jamiyatni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirib kelinayotgan keng ko'lamlı islohotlar bugungi kunda yangicha mazmun bilan boyitildi.

Tarixan ming yillar davomida tarkib topgan mahalla yaxshi qo'shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda, ijtimoiy himoya masalalarini hal etishda muhim rol o'ynab kelgan. Aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalar, yordamga muhtoj yolg'iz qariyalar, imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi ham aynan mahallalarda o'z yechimini topadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi qariyb o'n mingta fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining taraqqiyot yo'lli va uning mustahkam huquqiy asoslarini kuzatar ekanmiz, respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı demokratik islohotlar - kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari asosiy prinsipining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganining guvohi bo'lamiz. Xususan, istiqlolning dastlabki yillarda mahallaga ikki vazifani amalga oshirish bo'yicha huquqiy vakolat berilgan bo'lsa, bugungi kunda davlat hokimiyatining mahalliy organlaridan 30 dan ortiq ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatli vazifalar ular vakolatiga berildi.

Mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lамини kengaytirish, davlat hokimiyatini va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash, mahallani aniq yo'naltirilgan asosda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirdorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish hamda uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarni yanada kengaytirish va mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha talablar qo'yildi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jamoatchilik nazoratini o'rnatishning zarurligi eng avvalo, korrupsiya,

ta'magirlik, mahalliychilik, o'z vazifasini suiste'mol qilish, firibgarlik, odamlar ongini har xil unsurlar bilan zaharlash kabi tahdidlarning oldini olish hamda ularga barham berishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatida kishilarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo'Imasligi, davlat organlarida ishlayotgan har bir rahbar xodimning o'z faoliyatining jamoatchilik nazorati ostida ekanini chuqur his etishi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida tenglik, mas'uliyat va javobgarlik bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning ham, nodavlat va jamoat tashkilotlarning ham alohida vazifalari bo'ladiki, ular bir-birini to'Idirib, rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligi-hayotiyigini ta'minlaydi. O'zbekistonda mahalla timsolida o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan. Mahalla fuqarolarning intilishlari va sa'y-harakatlari tufayli, muayyan milliy, ma'naviy va axloqiy xarakterdagi tartib-qoidalarga riosa qilish, to'y-ma'rakalar, yaxshi-yomon kunlarni hamjihatlikda o'tkazish, ahillikni ta'minlash kabilarga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, qadimiy hududiy jamoa bo'lib, demokratik boshqaruvning noyob xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi[4].

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashda Konsepsiyada ilgari surilgan «Jamoatchilik nazorati to'g'risida», «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, mahallalar faoliyatining davlat tomonidan kafolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini mustaxkamlashga, jamoatchilik nazoratining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda jamoatchilik nazorati tizimi elementlari harakatga kelishi uchun boshlang'ich ijtimoiy institut bo'lgan mahallalarda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi..

Prezidentimiz davlat nazorat funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazorati afzal va muhim ekaniga to'xtalib, shunday deydi: «Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari ustidan ham jamoat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q».

Aholi bandligini ta'minlashda ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilik aloqalarini tashkil etish orqali oilalar daromad manbaining ko'payishida, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishda ham mahallalar tomonidan amalga oshirilayotgan jamoatchilik nazorati muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

Mamlakatimizda aholini yordamga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy himoyalashda mahalla ijtimoiy instituti faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish davr talabiga mos vazifalardan biri ekanligi quyidagi xulosalarni bildirishga asos bo'ladi:

Birinchidan, tizim faoliyati mamlakatimizdagi demokratik jarayonlarga xos bo'lgan «kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiysi tamoyillariga muvofiqligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashning mahalla tizimi «filtrash» vazifasini o'taydi. Ya'ni, aholi turmush darajasi haqida yetaricha ma'lumotga ega bo'lgan holda, ijtimoiy yordamga muhtoj kishilarning arizalari o'rganilib, haqiqatdan yordamga muhtojlar qamrab olinadi.

Uchinchidan, mahalla raislari va faollari mahalla fuqarolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lGAN holda muhtoj oilalarga moddiy yordamni rasmiy tekshirishlarsiz tayinlashi va to'lashi mumkinligi bilan ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqaradi.

To'rtinchidan, tizim muhtoj oilalarga davlat madadini yetkazib qolmasdan, bunday oilalarni kam ta'minlanganlik darajasidan chiqishga ko'maklashmoqda.

Beshinchidan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning strategik maqsadlaridan kelib chiqib, davlatning aholini ijtimoiy himoyalashga ajratayotgan mablag'laridan o'z vaqtida unumli va oqilona foydalaniishi ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Oltinchidan, aholini muhtoj qatlamlarini ijtimoiy yordam bilan ta'minlashda mahalla fuqarolari yig'inlari faqat davlat byudjetidan

ajratilayotgan mablag' bilan cheklanib qolmasdan, fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va boshqa manbalardan tushayotgan ixtiyoriy mablag'larni ham jalb qilish imkoniyatiga ega bo'limoqda.

Yettinchidan, mahallalardagi aholini yordamga muhtoj oilalarini hamda fuqarolarni ijtimoiy yordamning turli shakllarini olishga bo'lgan da'vogarligi jarayoni ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xoli etilgan va soddalashtirilgan tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu holat esa aholining mahallalarga bo'lgan ishonchini oshirmoqda.

Sakkizinchidan, mahallada jamoatchilik nazoratining kuchliliqi mahalla raislar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan mablag'ni suiste'mol qilinishi holatlarining oldini olishga yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uni yanada samarali tashkil etish ko'p jihatdan fuqarolik jamiyatni institutlariga bog'liq ekanligi, buning uchun esa ana shu tuzilmalarning mustaqilligini amalda ta'minlash, ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish hamda faolligini oshirishga ko'maklashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini to'la ishlab chiqish o'ta dolzarb masala ekanligiga e'tibor qaratar ekan, jumladan: "qonunlar ijrosini ta'minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Aholining mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lамини yanada kengaytirish, har bir fuqaroning siyosiy faolligini oshirish masalalari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar oldiga salmoqli vazifalar qo'ymoqda.

Bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish kabi muhim vazifalar qo'yilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishishda jamoatchilik nazoratini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati jamiyatda ijtimoiy adolat barqaror bo'lishi uchun shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida tenglik, mas'uliyat va javobgarlik

bo'lishi uchun xizmat qiladigan omildir. U insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanishi, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ta'minlaydi, jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat tom ma'noda xalq qo'lida bo'lishining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Jamoatchilik nazoratini tashkil etishda, avvalo, jamoatchilik vakillarining siyosiy-huquqiy va ijtimoiy saviyasini o'stirish kerak. Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi kerak.

Umuman, jamoatchilik nazorati bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan u yoki bu qonun talablarining fuqarolar yig'ini hududida ijrosini jamoatchilik guruhlari tuzib o'rganish, natijalari bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish tartibida yoki mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish orqali ham amalga oshirib kelinmoqda.

Aholini aniq yo'naltirilgan tarzda ijtimoiy himoyalashda mahallaning jamoatchilik nazorati vakolatini takomillashtirish uchun qo'yidagi taklif va mulohazalarimizni keltirib o'tamiz:

Birinchidan, mamlakatimizda joriy etilgan aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy himoyalashning mahalla tizimi o'ziga xos «o'zbek modeli» sifatida talqin qilinayotganligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy madad bilan ta'minlashda mahalla tizimining noyobligi shundaki, u muhtoj qatlamlarni aniqlash va ularga yordamni taqsimlash qarorlarini qabul qilishda yozilgan qoidalar va erkin taqsimlash (mahalliy ko'rsatkichlar)ni o'zida mujassamlashtiradi.

Uchinchidan, bu yerda aholini yordamga muhtoj toifalariga beriladigan ijtimoiy yordam shakllarini aniq manziliga yetib borishi amalga oshadi. Sababi, o'zlarini moddiy yordamga muhtoj deb hisoblovchi oilalar mahalla fuqarolari yig'inlariga rasmiy ariza bilan murojaat qiladilar. Arizalarning ochiq muhokama qilinishi nazorat komissiyasiga oila tomonidan qalbaki yoki noto'g'ri axborot yetkazilishini tartibga soladi. Shuningdek, ariza bilan murojaat qilmagan, ammo haqiqatdan muhtoj bo'lgan oilalar mahalla fuqarolari kengashi tomonidan moddiy ta'minotga tavsiya qilinishi mumkin.

To'rtinchidan, mahalladagi aholini yordamga muhtoj toifalarini aniqlashda «filtrash» amalga oshadi va davlat byudjeti mablag'larining noqonuniy o'zlashtirilishini oldi olinadi.

Beshinchidan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilayotgan aholini yordamga muhtoj toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi mexanizmlarini takomillashtirish natijasida aholini yordamga muhtoj qatlamlarini

ijtimoiy muhofazalash bilan bir qatorda, ularning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy nochor holatidan chiqishiga ko'maklashadi.

Oltinchidan, mahallaning aholini yordamga muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlashdek muhim vazifasi ustidan jamoatchilik nazoratini o'matilishi natijasida mahalla raislari tomonidan muhtoj qatlamlarga madadni tayinlash va to'lash jarayonida suiste'molliklarga yo'l qo'yilishini oldini oladi.

Yettinchidan, mamlakatimizning bir qator oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan ijtimoiy ish yo'nalishi mutaxassislari tayyorlanayotganini hisobga olib mahallalarda "ijtimoiy ish xodimi" shtatini tashkil etish orqali aholini yordamga muhtoj qatlamlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam shakllarini aniq manziliga yetib borishi ta'minlanadi. Mahalla tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatni yangi-yuqori darajaga ko'tarishga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biri ijtimoiy xodim kasbi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarning yetarli emasligidir. Bu kasb bo'yicha oliy yoki o'rta-maxsus o'quv yurtlarida ixtisoslik olganlar soni sohada band bo'lganlar umumiy miqdorining bir foizini ham tashkil qilmaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimizda aholini yordamga muhtoj toifalarini manzilli ijtimoiy muhofazalash tizimini takomillashtirish mahalla tizimining samaradorligini to'g'ri baholagan holda vakolatlari doirasi yana ham kengaytirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**THE EFFECT OF MINDFULNESS INTERVENTIONS FOR PARENTS ON PARENTING STRESS AND YOUTH PSYCHOLOGICAL OUTCOMES: A SYSTEMATIC REVIEW AND META ANALYSIS.**

**Xalimova Nafisa Nabijonovna**

teacher of the

National Institute of Fine Art and Design

named after Kamoliddin Bekhzod

**Abstract:** The study highlights the potential benefits of incorporating mindfulness interventions into parenting programs, as a way to support parents in managing stress and promoting positive youth outcomes. It also underscores the importance of addressing parental well-being in efforts to promote positive youth development. The systematic review and meta-analysis provide evidence for the effectiveness of mindfulness interventions for parents in reducing parenting stress and improving youth psychological outcomes. This has important implications for the development of interventions and programs aimed at supporting parents and promoting positive youth development.

**Key words:** Mindfulness interventions, parenting stress, meditations, parenting style

### **Introduction**

The systematic review and meta-analysis aimed to examine the effect of mindfulness interventions for parents on parenting stress and youth psychological outcomes. The study reviewed 17 articles that met inclusion criteria and found that mindfulness interventions for parents were associated with reduced parenting stress and improved youth psychological outcomes. The findings suggest that mindfulness interventions can be an effective tool for reducing parenting stress and improving youth psychological outcomes. This has important implications for the well-being of both parents and children, as parenting stress has been linked to negative outcomes for both parents and children, including increased risk of mental health issues and behavioral problems in children.

It is irrefutable fact that there are some misunderstandings between parents and their children especially in their middle ages. As a result it leads to parenting stress because of which they have to accept to reduce their demands in order to reach an agreement. As famous writer mentioned : parenthood means to guide a new generation and forgive them for all as

the last. We can understand from this phrase that all the time parents are responsible for their children's fortune and anyhow they should control their emotions. So one of the best way to reduce parenting stress is parental mindfulness and in terms of mindfulness interventions, a lot of researches have been discovered carefully in order to find an answer whether those interventions can improve youth psychological outcomes and become less parenting stress.

Parenting stress effects as a negative impact not only for parents themselves but also for their children. In order to reduce such a problems in families several studies have been investigated and according to some specialists, although there are enough literature, no quantitative synthesis of them on the effectiveness is available. Mainly, they conducted the review and meta-analysis to show effectiveness of mindfulness interventions for parents and to get rid of parenting stress and to enhance youth psychological outcomes.

Looking at some researches, parents experiencing greater parenting stress shows the people with lower psychological well being and mainly with negative effect towards their children. Moreover children that are brought up such families become a person who can not express their own feelings and emotions independently or they express them in a badly way. Another point of view on bad effects of parenting stress is negative parenting behavior which includes unfriendliness and unkind control causing of poorer child and youngsters psychological outcomes. That is why it is important to manage parenting stress for well being of father and mothers as well as their children. They recommend to incorporate mindfulness into the parent-child family connection can be good solution for achieving this goal.

There are several understandings and views on mindfulness for example according to Western psychology mindfulness is a psychological process which brings non-judgmental understanding of a situation occurring at the present moment. Every person has their own habitual behavior and they quite differ from each other however, if they do regular practice on mindfulness they can improve their abilities through those practices. Firstly, Kabat-Zinn explained mindfulness to parenting as parents all the time should know about their child's needs and demands and non-judgmental and non-reactive way to each moment. Furthermore, Duncan et al (2009) supporting Kabat-Zinn's opinion worked out five dimensions on mindful parenting: children should be listened by parents attentively, to accept a child without judging , to feel child's emotions in a right way, being aware of self regulation as a parent and compassion for self and a child. Mindfulness

can help parents to avoid automatic reactions with anger which effects to their child's psychology negatively. This method can make a way to connect friendly relationship between parent and a child.

The bronchial astma in all areas is mostly registered among 7-8 years old children. In relation to the place of living it was determined that children from Angren in all three age groups had greater BA prevalence rate than children from other areas. In Angren there is a branch of metallurgical industry due to which there is a great emission of aluminium into the soil.

The obtained data showed that allergic rhinitis was mostly registered in children under 5 in all three areas. When distributed according to the place of living, children from Chirchik had greater prevalence rate of allergic rhinitis in all age groups compared to the children from other areas.

The reason of this is that in Chirchik there is Uzbek Petrol Machines large industrial holding which produces technological devices for chemical industry and there is continuous emission of chlorine evaporation into the air.

**Conclusion.** Thus, in Tashkent region (Angren, Olmalik, and Chirchik) the prevalence rate of atopic pathologies bronchial asthma and allergic rhinitis is continuously increasing each year. The difference between statistical and expert data showed the necessity of further profound research to study the prevalence rate of atopic pathologies in these areas.

#### **LITERATURE:**

1. Fedorov A.S., Litvinova L.S., But-Gusaim V.I., Litvinenko S.N. Meditsinskaya immunologiya 2015, T. 17, № 5, S. 407-422.
2. Meltzer E. O. Allergic rhinitis: burden of illness, quality of life, comorbidities, and control //Immunology and Allergy Clinics. – 2016. – T. 36. – №. 2. – C. 235-248.
3. Axmedov X. S., Abduraximova L. A., Saidxanova A. M. Zavisimost vnesustavnix proyavleniy revmatoidnogo artrita ot ekologicheskix faktorov //APRIORI. Seriya: Estestvennie i texnicheskie nauki. – 2017. – №. 2. – S. 4-4.
4. Kh M. M., Saidkhonova A. M. Frequency of atopic diseases in unfavorable ecological regions of Uzbekistan //Problems of biology and medicine. – 2020. – T. 2. – №. 118. – C. 84-87.

## KULOLCHILIKKA DOIR NARSA-BUYUMLAR NOMINI ANGLATUVCHI TERMINLAR TADQIQI

**Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna**

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Zilolamsmstqulova [1988@gmail.com](mailto:1988@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasb-hunar terminologiyasi, kasb-hunar sohasidagi ilmiy izlanishlar yoritilgan. Rishton kuolchilik terminlari o'rganish oyekti sifatida tanlab olingan. Mazkur terminlar tematik tasnif doirasida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** kulolchilik terminlari, tematik tasnif, paradigma, maishiy-xo'jalik buyumlari, badiiy dekorativ buyumlari.

Kulolchilik terminlarining katta qismi sopol buyumlarning nomidan iboratdir. Ular maishiy-xo'jalik buyumlari va badiiy dekarativ buyumlari kabi ichki bo'linishga ega.

1. Maishiy-xo'jalik buyumlari: Mazkur buyumlar kishilarning biror maqsadi uchun mo'ljallangan bo'lib, ozuqa saqlash, ovqat iste'mol qilish taom tayyorlashda keng foydalilaniladi. Xalqimiz mazkur buyumlarni umumiyl nom ostida idish, idish -tovoq juft oti ostida nomlaydi. Idish leksikasining etimologiyasi xususida "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da quyidagi ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. "Narsa solib qo'yish buyumi. Tuxum soladigan idishni olmabman. Bu ot qadimgi turkiy tildagi yig'-ma'nosini anglatgan idi fe'lidan (DS, 203)-sh qo'shimchasi bilan yasalgan. (PDP, 379; Devon I, 92) Idi +sh shunga ko'ra asli narsani yig'ishtirib solish buyumi ma'nosini bildiradi." (O'TEL 108 ) mazkur buyumlarning mazmuniy guruhlari salmoqlidir: maishiy-xo'jalik buyumlari sirasiga kirivchi terminlarning 77 tasini aniqladik. Ular: choynak, piyola, ko'kanak, chapiya, suv ko'za, balbala, charxi tovoq, tovog'i langari, naqshin tovoq, la'li tovoq, miyona tovoq, chuqur tovoq, ma'raka tovoq, langari tovoq, to'y tovoq, nim tovoq, harchagi tovoq, bosh tovoq, lagan, katta lagan, o'rta lagan, kichik lagan, to'y lagan, ma'raka lagan, qatiq kosa, shokosa, kosacha, nimkosa, don kosa, suv kosa, sharbat kosa, nisholda kosa, shinni kosa, sopol kosa, do'g'obi kosa, qaymoq kosa, labigardon kosa, dukki kosa, yumaloq, naqshin kosa, tarkash, qulqulcha, qatiq ko'za, obdasta, suv ko'za, yog' ko'za, xum, xurmacha, xumcha, chapiya, ho'qacha, tuvak, gultuvak, oftoba, moy ko'za, yog' ko'za, katta ko'za, ponsari ko'zacha, chuvati ko'za, suzma ko'za, qo'kanak, non xurma, mashrafa, qo'shqulqocha, mo'ndi, bodiya, chanoq bodiya,

mashadi bodiya, xamir tog'ora, miyona tog'ora, nim tog'ora, kir tog'ora; tog'oracha, damgir tog'oracha, tulum tog'ora, nim tog'ora.<sup>100</sup>

Bu buyumlar qanday mahsulot solishga mo'ljallangani, shaklidagi farqlar va boshqa belgilari asosida alohida nomlangani kuzatiladi. Shuning uchun bu mazmuniy guruhga kiruvchi birliklarni yana kichik guruhlarga ajratib o'rganishni ma'qul topdik.

1) Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan ko'za nomlari:

*Qo'shqulqcha* (Toshkent) – Ikki tomonida qulog'i bo'lgan kuvachasimon sopol idish, xurmacha. Ip o'tkazish uchun ikki tomonida qulog'i bor, ichi chuqrur, sirsiz sopol idish bo'lib, bunga sigir sog'iladi, qatiq uyutiladi, dalaga issiq ovqat quyib olib borish uchun ishlatiladigan idish.

*Xurmacha* (Toshkent) – G'ildiragi (poshnasi) novcha, ichi toypoq, labi qayrilgan, to'rt tomonida qulog'i bor, ichi-toshi sirli, tashqarisi guldor sopol idish; Qatiq ivitish, sut solib qo'yish uchun ishlatiladigan sopol idish; qo'shqulq bunga sigir sog'iladi, qatiq ivitiladi; ba'zi joylarda «*chapiya*» deb ham yuritiladi. *Ko'kanak* (Rishton) – Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan idish. *Chapiya* (Rishton) – Suv va sut mahsulotlari uchun foydalaniladigan ko'za nomi : Suv ko'za (Rishton) – Suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo'g'zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish.

*Balbala* (Rishton) – Suv uchun foydalaniladigan ko'za nom

2) Tovoq va lagan turlari nomlari: *charxi tovoq* (Rishton), *tovog'i langari* (Samarqand), *naqshin tovoq* (G'ijduvon), *la'li tovoq* (Samarqand), *chuqrur tovoq* (Rishton), *miyona tovoq* (G'ijduvon), *miyona tovoq*, *chuqrur tovoq*, *ma'raka tovoq*, *langari tovoq*, *to'y tovoq*, *nim tovoq*, *harchagi tovoq*, *bosh tovoq*, *la'li tovoq*, *lagan*, *katta lagan*, *o'rtalagani*, *kichik lagan*, *to'y lagan*, *ma'raka lagan* kabi.

3) Kosa turlari nomlari: *qatiq kosa*(Rishton), *don kosa*(Rishton), *suv kosa*(Rishton), *sharbat kosa*(Rishton), *nisholda kosa*(Rishton), *shinni kosa*(Rishton), *sopol kosa* ularning ayrimlarining izohiga to'xtalib o'tamiz.

*Do'g'obi kosa* (Samarqand)- kattaligi kosa bilan lagancha o'rtalig'idagi sopol idish.

*Qaymoq kosa* (Rishton) – piyoladan kattaroq kosadan lichikroq hajmdagi kosa nomi. *Qaymoq* solish uchun mo'ljallanganligi uchun aynana shu nom bilan ataladi.

*Labigardon kosa* (G'ijduvon) – labi tashqariga qayrilib chiqqan kosa nomi. *Dukki kosa* (G'ijduvon)- qorin qismi do'ng, tashqariga qavarib

<sup>100</sup> Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- бет

chiqqan kosa nomi Yumaloq (Rishton)- 1–2 kishi suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish hisobilanadi.

*Naqshin kosa (Rishton)- naqshli kosa*

Tarkash (Rishton) 1–2 kishi suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish, lagan; "yumaloqcha" deb ham yuritiladi.

Kosa (Rishton)- suyuq ovqat (sho'rva, suyuq ovqat, shirchoy kabilar) quyib ichish uchun yasalgan, bir kishilik, ichi chuqur, devori novcha sopol yoki chinni idish. Bu idishning kulollar tomonidan yasalgani "sopol kosa", chinnipazlar tomonidan yasalgani "chinni kosa" deb ataladi.

Nimkosa- suyuq ovqat quyib ichadigan, devori yonbag'irlab yuqoriga ko'tarilgan, ichi chuqur va sirli idish, lagan; "yumaloqcha" deb ham yuritiladi.

*Shokosa (Rishton)- katta kosa.* Bu kosaning poshnasi baland ko'tarilgan bo'ladi.

*Miyona kosa (Rishton)- o'rtacha kattalikdagi sopol kosa.*

4) Ko'za, xum, tuvak va boshqa buyum nomlari: qulqulcha (Samarqand), qatiq ko'za (Samarqand), obdasta (Qarshi), suv ko'za, yog' ko'za, xum, xumcha, chapiya, ho'qacha, tuvak, gultuvak, oftoba, piyola, ayoq, nog'ora, moy ko'za, yog' ko'za, chorog'i, chortagi, katta ko'za, qulqulcha, quloba, quvocha, ponsari ko'zacha, chuvati ko'za, suzma ko'za, xurma, xurmacha, katta xurma, qo'kanak, non xurma, mashrafa, qo'shqulqcha, mo'ndi kabilar.

5) Bodiya nomlari: bodiya (tagi dumaloq va baland qirg'og'i tik chuqur sopol idish – lagan), chanoq bodiya, mashadi bodiya.

6) Tog'ora nomlari. Xamir qilinadigan tog'ora nomlari: xamir tog'ora, uchtaлик tog'ora (G'ijduvon), miyona tog'ora (G'ijduvon), nim tog'ora (Samarqand), tog'oracha (Kattaqo'rg'on); kir yuvishda ishlatiladigan tog'ora: kir tog'ora; qopqoq yoki palov damlashda ishlatiladigan tog'ora: tog'oracha, damgir tog'oracha, tulum tog'ora, nim tog'ora.<sup>101</sup> Mazkur birliklarning ayrimlarining izohiga to'xtalib o'tamiz:

*Balbala –may (ichimlik) quyiladigan idish, qadah.*

Mo'ndi - sopol ko'za turi: og'zi tor, qorni keng shaklda, dastasiz bo'ladi (suyuqlik solib qo'yishda foydalaniadi).

**2. Badiiy dekorativ buyumlari:** insonlarga estetik zavq berish, binolarni bezash, esdalik sovg'alar, hadyalar uchun mo'ljallangan mahsulotlar

<sup>101</sup> Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- 17-бет

sanaladi. Dekorativ – lotincha decor, dekororis so‘zlaridan olingan bolib, - go‘zallik, nafosat degan ma’nolarni anglatadi. Demak, ziynat uchun xizmat qiladigan, ko‘rkamlik, go‘zallik baxsh etadigan har qanday buyum dekorativ buyum sanaladi. Badiiy dekorativ buyumlar esa, voqelikni nafis san’at vositasi yordamida obrazlar orqali ifoda etuvchi va tasvirlovchi buyumlardir. Jumladan, asosan hadya uchun sopoldan tayyorlangan haykalchalar misolida ko‘radigan bo‘lsak, ularda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan milliy libosidan tortib, yuz ifodasida, ko‘z qarashlarida ham badiiy obraz ifodalangan. Kulolchilik sohasidagi badiiy dekorativ buyumlar mazmuniy guruhga sopol buyumlardagi miniyaturalar, sopol buyumlardagi kartinalar, sopol buyumlardagi xattotlik, sopol o‘yinchoqlar: xushtak, qo‘chqorchcha, o‘rdak kabilar kiradi.

Sopol o‘yinchoq nomlari: *hushtak*- havoni puflab chiqarish yo‘li bilan chalinadigan asbob, moslama. Sopol hushtak. Militsioner hushtagi. Hushtak turli hududlarda turlicha nom bilan ataladi. Jumladan, xushpalak (G‘ijduvon va Rishton), churchurak (Shahrisabz), xushtak (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Toshkent), shivalak (Xorazm) kabilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI;**

1. Рахимов. М.К. Художественная керамика Узбекистана. – Тошкент. 1951, 16- бет
2. Булатов С. Ўзбек ҳалқ амалий безак санъати.- Тошкент. “Мехнат” 1991, 290-бет
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. -382 б.
4. Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. - Ташкент: Фан, 1996. -46

## TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYA SOHASINING SHAKLLANISHI, KASB-HUNAR TERMINOLOGIYASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna**

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

**Sharipova Gulchehra Erkinovna**

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunoslikda terminologiya sohasining shakllanishi tarixi, rivojlanish bosqichlari yuzasidan firk yuritilgan. Kasb-hunar terminologiyasining ilmiy-nazariy asoslari haqida Rishton kulolchilik terminlarini lingvistik tadqiq etish asosida ilmiy xulosalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasb-hunar terminologiyasi, termin, terminosistema, o'zbek paxtachilik terminologiyasi, zargarlik terminlari, o'zbek tilining dehqonchilik leksikasi, o'zbek tili yog'ochsozlari leksikasi, o'zbek tilidagi qoramolchilik terminlari, o'zbek milliy gazlama dizaynerlik terminologiyasi...

Yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi chuqur o'zgarishlar tufayli o'zbek tilidagi kasb-hunar terminlari o'rganish zarurati tug' ildi. Kasb-hunar leksikasi turli yo'nalishlarda tadqiqotga tortildi. Ularning ichida ayrimlari mavzumizga bir qadar yaqin va o'xshash bo'lib, ularga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Jumladan, I. Pardayev O'zbek tilining zargarlik terminlari uchun xos bo'lgan xususiyatlarni yoritgan. Zargarlik terminlarining tematik tasnifiga asosiy e'tiborni qaratib, uni mavzu guruhlarga ajratgan: zargarlik zeb-ziynat buyumlari nomlarini ifodalovchi terminlarni qo'l, barmoqqa taqiladigan zargarlik zeb-ziynat buyumlari, qulqoqqa, peshonaga, sochga, burunga, bo'yinga taqiladigan zargarlik zeb-ziynat buyumlari, ularning qismlarini anglatuvchi terminlar, zargarlik buyumlarini yasash jarayoni, uning xomashyosi va bu jarayonda ishlatiladigan ish qurol nomini ifodalovchi terminlar, mazkur kasb egalari nomini anglatuvchi terminlar kabi guruhlarga ajratgan. Sohaga oid birliklarni boyishida ichki manbaning o'rni haqida fikr yuritib, affiksatsiya va kompozitsion usulda yasalgan zargarlik terminlarini tahlil etgan.

N.Mamatov "O'zbek paxtachilik terminologiyasi" nomli nomzodlik dissertasiyasida kasb-hunar sohasiga oid ilk izlanishlarni amalga oshirgan. Ushbu tadqiqotda olim paxtachilik bilan bog' liq atamalar va ularning tasnifi, termin va uning so'z va so'z birikmasi kabi birliklardan farqi, termin uchun tilshunos olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, O'zbekiston hududida paxtachilikning rivojlanish tarixi va u bilan bog' liq holda yangi terminlarning

paydo bo'lishi, boyish yo'llari haqida qimmatli fikrlarni berib o'tgan.

X. Jabborov o'z tadqiqot ishlarini o'zbek tilining dehqonchilik leksikasiga mansub bo'lган terminlarni tadqiq etishga qaratgan. Ushbu tadqiqotida dehqonchilik leksikasining xalq tarixi va til tarixi aspektida o'rganib, dehqonchilik leksemalarining etimologiyasi, o'z va o'zlashgan qatlamlar, dehqonchilik leksikasining qadimgi turkiy qatlami, turkiy va mo'g' ullarga xos lug' aviy birliklar, o'zbekcha so'zlar kabi masalalarini yoritgan. Dehqonchilik leksikasining mavzu guruhlarini motivlanish xususiyatlarini ochib bergan. Jabborov dehqonchilikning ichki guruhlari: paxtachilik, polizchilik, donchilik, sabzavotchilik, mevachilik(bog' dorchilik), gulchilik, ko'katchilik kabi kasbhunar sohalariga oid bo'lган birliklardan jami 5045 tasini jamlab ular ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

M. Axatov O'zbek tili yog'ochsozlari leksikasida uchrovchi terminlarni tadqiqotga tortgan. Yog' ochsozlik terminlari va ularning shakllanish tarixi, mavzu guruhlari, mazkur terminlarning ichi va tashqi manba hisobiga boyish yo'llari, soha terminlari o'rtasidagi sinonimiya va variantdoshlik hodisalari ustida tadqiqot ishlarini olib borgan. Yog' och bilan shug' ullanuvchi yigirmaga yaqin : uysozlik, aravasoziq, qayiqsozlik, javonsozlik, eshiksozlik, beshiksozlik, sandiqsozlik, panjarasoziq, mebelsozlik, duradgorlik, yog' och o'ymakorligi kabi turli kasb -kor egalarining ish faoliyatini qo'llanuvchi terminlarda adabiy tilda tutgan o'rni belgilash, yaxlit sistema sifatida tahlil etilgan. Terminlarning yasalish usullarini o'rganib, boshqa sistemadan farqli jihatlarini yoritgan. ularning tarixiy-etimologik qatlamlarini aniqlab genetik asoslarini isbotlab bergan.

O.T.O'rnova O'zbek tilidagi qoramolchilik sohasiga doir bo'lган terminlarni leksik-semantic jihatdan tadqiq etib, soha terminologiyasining mazmuniy maydon sifatida o'rganish muammolarini o'rtaga tashlagan. Qoramolchilik terminlarning leksik-semantic tavsifi, qoramol nomini bildiruvchi terminlar, qoramol anatomiysi va ularda uchraydigan kasalliklar, ularning parvarishi, cho'ponlik hayoti bilan bog' liq terminlarni o'rgangan. Qoramolchilik terminlari o'rtasidagi giponomik, partonomik hamda ma'nodoshlik hodisalari yuzasidan tadqiqot olib borgan.

M. Aliyeva sohaviy terminologiya ichidan o'zbek milliy gazlama dizaynerlik terminologiyasi taraqqiyoti terminlarning ma'no tuzilishi, semantic-grammatik xususiyatlarini yoritishga bag' ishlangan ilmiy izlanishlar olib bordi. Milliy gazlama terminologik maydon komponentlarini o'ziga xos deryativ xususiyatlarini yoritib A (o'zb)+Af (o'zb), A (o'zb)+Af (o'zga), A (o'zga)+Af

(o'zga), kabi o'linish asosida tadqiq etgan.<sup>102</sup> Bunday bo'linishni kulolchilik va boshqa sohaviy terminlarning derevativ xususiyatlarini o'rganishda tadbiq etish mumkin.

X.Berdiev o'zbek tilining o'tovsuzlik leksikasiga doir birliklarni yozma manbalarda, o'zbek adabiy tili va shevalarda qo'llanishi, ularni tartibga solish yuzasidan batafsil ma'lumotlar berib, o'tovsuzlik sohaning terminologik apparati shakllantirilgan. Soha leksikasi terminlari o'zbek xalqining milliy an'ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklar ekanligini ta'kidlab, o'tovsuzlik terminlarining adabiy til va Markaziy Osiyo turkiy tillarida qo'llanishidagi fonetik, leksik-semantik farqlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishini amalga oshirgan va materiallar asosida dalillab borgan. Jumladan, Alisher Navoiy asarlari lug' atidagi, "O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug' ati"dagi 60 ga yaqin, "Surxondaryo o'zbek shevalari lug' ati"dagi 20 dan ortiq, "Qashqadaryo o'zbek xalq shevalari so'zligi"dagi 100 dan ziyod, "Zominning til qomusi"dagi 30 ga yaqin, shuningdek "O'zbek klassik asarlari uchun lug' ati"dagi 40 ta, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug' ati"dagi 30ga yaqin so'z/terminlar<sup>103</sup> ustida tadqiqot ishlarini olib borgan.

A.Ibatova O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug' aviy birliklarni tahlil etib mazkur birliklarning sistem-struktur xususiyatlari, lingvokulturalogik, konseptual jihatlarini ochib borgan. Non va non mahsulotlari ularning terminologik tizimda tutgan o'rni, ular bilan bog'liq etnografizmlarni o'rganib, o'zbek tilining milliy an'ana va qadriyatlarini ifoda etuvchi lingvistik birlik sifatida tadqiqotga tortib, Samarqandda non va non mahsulotlariga nisbatan qo'llanadigan 50 dan ortiq, Zomin tumanida 30 ga yaqin, Qashqadaryo viloyatida 20 ga yaqin, Qoraqalpog'istonidagi o'zbek shevalarini 10 ga yaqin<sup>104</sup> birliklarini sharhlab o'tgan.

Ko'rindiki, sohaviy terminologiyaning bir qancha yo'naliishlari yoritilgan, ammo kulolchilik sohasiga oid terminlar monografik tarzda o'rganilmagan. Mazkur sohada ilk ilmiy izlanishlar olib borgan olim, sohaviy o'zbek terminologiyasining asoschisi S. Ibrohimovdir. U xalq tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan boy terminologiyaning qonuniyatlarini o'rganmay, , bunday nazariy masalalarni maqsadga muvofiq hal etib bo'lmasligini hisobga olgan holda olim Farg'ona shevalari uchun xos bo'lgan kasb-

<sup>102</sup> М. Алиева Ўзбек миллий газлама дизайнерилиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. -Б. 16

<sup>103</sup> X. Berdiев Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2017.- В 14

<sup>104</sup> . Ibatova A O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug' aviy birliklar tadqiqi.- : Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2023.-В. 14

hunar leksikasini tadqiq etishga kirishgan. Ilmiy izlanishlarida degezlar va rixtgardlar leksikasi, metallsozlik leksikasi uchun xos bo'lgan birlıklarni tahlil etgan, Jumladan, olim ipakchilar, tandirchilar, shuvoqchilar, kulollar, degezlar, rixtgarlar, metallsozlar, temirchilar, qulfsozlar, ignachilar, pichoqchilar, chilangarlar, taqachilar, na'lgarlar, misgarlar, anjomsozlar, mixgarlar, zanjirsozlar, naqqoshlar, zargarlar, miynogarlar, savatgarlar, gahchilar leksikasidan 2500 ga yaqin leksik birlıklarni yig'ib olib, ular ustida tadqiqot ishlari olib bordi. Natijada keyinchalik bajarilgan ko'plab ishlar uchun uning asarlari qimmatbaho manba vazifasini o'tamoqda. S. Ibrohimov kulolchilik bo'yicha izlanishlar olib borar ekan, Farg' ona vodiysida kulolchilik sohasida uzoq yillar ishlagan, tajriba orttirgan, kulolchilik ravnaqining rivojiga hissa qo'shgan usta kulollar anchaligini ta'kidlagan. Kulolchilikka oid terminlarning leksik-semantik guruuhlarini tuzish, kulolchilik terminlari o'rtaqidagi paradigmatic munosabatlarni o'rganish, terminlarning nomlanish prinsiplari haqida, ularning struktur xususiyatlarini ochib berilmagan, boyish manbalari haqida fikr yuritmagan. S.Ibrohimov mazkur sohaning ayrim jarayonlarida qo'llangan terminlar ustida ish olib borgan. Olim ilmiy izlanishlarida ham asosiy e'tiborni kulollik buyumlarini ishlab chiqarish jarayoniga qaratadi. Kulolchilik terminlarining lisoniy tahlili yana chetda qolgan. Jarayonda qo'llangan kulolchilik terminlarini o'rni bilan sharhlab, ularning qaysi tildan o'zlashganligi, shevadagi variantlari, agar bu termin yasama bo'lsa, morfem tarkibi haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Masalan, **Kosa** -[ F. ] bir kishi ovqat yeydigan idish. Bu so'zni Andijon, O'sh, Shahrixonda ka:sa:, Qo'qon, Marg' ilon, Farg' ona, Rishton hududlarida yashovchi aholi esa Ko:sa shaklida talaffuz etadi. Muallif kulolchilik idishlarining ishlab chiqarish jarayoniga to'xtalib o'tgandan so'ng, sopol idish nomlari va turlari xususida fikr yuritib loydan yasaladigan idishlardan: kosa, lagan, charxi, xurma, xum, ko'za va ularning qay maqsadda mo'ljallanganligi haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Shundan so'ng tandirchilik leksikasini tadqiq etishga kirishadi. Terminlarning tematik tasnifi, morfologik, leksik-semantik xususiyatlari nazardan chetda qoladi.

Demak, Rishton kulolchilik leksikasiga mansub so'z va terminlar o'zbek tili lug'at tarkibida ma'lum semantik maydonni tashkil qiladi. Mazkur birlıklarni lisoniy tahlil etish milliy madaniyatimiz, tarix, etnografiya, lingvokulturalogiya yo'naliishlarida ham ahamiyatga molik masaladir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Алиева М. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. -Б. 16
2. Бердиев Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. - Самарқанд, 2017.- В 14
3. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I.-Тошкент: Фан, 1959
4. Ibatova A. O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog' liq lug' aviy birliklar tadaqiqi.- : Filol. Fan. bo'yicha falsafa dokt...diss.avtoref.- Samarqand 2023.-B. 14
5. Собиров С. Узбек тилининг системалар системаси тамойиллари асосида тадқик этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. –Б. 27-28.

## RISHTON KULOLCHILIGIDA QO'LLANILADIGAN TUPROQ, MODDA-MA'DAN VA BOSHQA XOMASHYO NOMLARINI ANGLATUVCHI TERMINLAR

**Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna**

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

**Sharipova Gulchehra Erkinovna**

Far DU akademik litseyi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kulolchilik jarayonida qo'llanuvchi terminlar, jumladan tuproq, modda-ma'dan va boshqa xomashyo nomlarini anglatuvchi terminlarning sistem-struktur jihatdan yondashilib, ular etimologik jihatdan tabiati tadqiq etilgan. Tuproq turlari anglatuvchi terminlar misollar yordamida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Tuproq, etimologik lug'at, izohli lug'at, loyi guldon, chinni loy yoki oq loy, kesma koshin loy, kosagar loy, ko'zagar loy.

Ona tabiat saxiylik bilan yer yuziga in'om etgan tuproq mazkur hududda tabiiy holda kulolchilik uchun xomashyo sanaladi. Shuning uchun ham asrlar davomida mazkur hududda kulolchilik rivojlangan va ravnaq topib kelgan. Tuproq nafaqat kulollar uchun aziz balki, shoirlarning madhida ham tuproq mo'tabar sanalib, ona tuproq deb ulug'lanadi:

Men nechun sevaman O'zbekistonni,

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.

Nechun Vatan, deya yer-u osmonni,

Muqaddas atayman, atayman tanho.

A. Oripov

Islom dinida inson tuproqdan yaralganligi va yana tuproqqa qaytishi ham tuproqni aziz va mo'tabar qilgan. Jumladan , Qur'onning Haj surasi 5-oyatida bu haqida ma'lumotlar bor.<sup>105</sup> Bugungi kun olimlari ham bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida olib borgan izlanislari shuni ko'rsatadiki, inson organizmidagi to'qimalarda 26 xil element mavjud bo'lib, ularidan 6 tasi boshqalarga nisbatan juda ko'p miqdorda uchraydi. Ular: uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, oltingugurt moddalaridir. Inson tanasidagi 95% to'qimalarni ana shu 6 element tashkil qiladi. Mazkur elementlar tuproq tarkibida erkin holatda yoki brikmalar holatida uchraydi. Erkin holatdagi tuproq ham, inson organizmidagi to'qimalar ham, aynan bir xil

<sup>105</sup>Куръони карим маъноларининг таржима ва татафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур,-Тошкент:”Мунир” наширёти 332- бет.

elementlardan tashkil topganini hozirgi zamon ilmi ham tasdiqlamoqda<sup>106</sup>.

Bu xususida shoirlar ham bir necha baytlar yozgan.

Sen-mendan	oldin	ham	tun-kun	bor	edi,
Aylanga	falak	ham	butun	bor	edi.
Tuproqqa	avaylab		qadamingni		qo'y,
Bu tuproq qora ko'z bir nigor edi.			Umar Xayyom		

Ota-bobolarimiz azal-azaldan inson va tabiat o'rtasida uzviy aloqa borligini tushunib yetishgan. Tabiat unsurlarini ulug'lashga, ularni asrash va sof holda saqlashga urinib kelishgan. Zardushtiyarning muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto»da: «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov – umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir», – deb yozilgan<sup>107</sup>.

Mazkur unsurlardan biri sanalgan tuproq nafaqat kulollarning xomashyosi balki odamlar uchun rizq manbai hamdir. Insonning hayot kechirishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri tuproqdir. O'zbek tilida tuproq bilan bog'liq bo'lgan leksemalarning o'ziga xos qatlami mavjud. Tuproq so'zi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da shunday izohlanadi:

Tuproq. 1. Yerning kovlash, chopish, haydash va sh.k. natijasida xosil bo'lgan yumshoq qismi, qatlami. 2. Yer qobig'inining o'simlik rizq olib o'sadigan ustki qatlami; yer. 3. O'lgan kishining xoki; xok. 4. Ma'lum yurt, o'lka, mamlakatga qarashli hudud<sup>108</sup>. (O'TIL 4-jild, 193-bet) Tuproq leksemasining yuqoridagi 1 va 2-ma'nolari yer leksemasi bilan ba'zi o'rinnarda sinonomik qatorni tashkil etadi Sh. Rahmatullayev tuproq so'zining etimologiyasiga to'xtalib quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Tuproq- yerning mayda kukun holati. Tuproq olsang- oltin bo'lsin (Duo). Qadimgi turkiy tillarda ham shunday ma'noni anglatuvchu bu ot asli topraq(toprag') (PDP, 432; DS, 575), tupraq(Devon, I, 133, 434; III, 29) tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida bu so'zning birinchi shakli tarkibidagi **o** unli **u** unlisiga, **q(g')** undoshi oldidagi **a** unli **choziq** **a** unlisiga almashgan: tupraq(tuprag')>tupra:aq(tupra:ag')" DS dagi **topurg'on**(576-bet), KRS dagi topurak (732-bet) so'zlaridan ko'rinish turibdiki, **topuraq** oti qadimgi turkiy tildagi "kukun holatiga keltir"- ma'nosini anglatgan **topur** – fe'lidan(DS, 575: topray-, toprash-)-(a)q qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmagani natijasida **topraq** shakli yuzaga kelgan: topur-

<sup>106</sup> @Gozilla bot.

<sup>107</sup> Йўлдошев К., Валиев Ш. "Авесто"нинг фалсафий ва иқтисодий гоялари.– Тошкент: Молия, 2003.– Б.10.

<sup>108</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008.– Б. 193.

+ak=topuraq>topraq. Bu ot so'zlashuv nutqida **tupra:aq** saklida ham talaffuz qilinadi, bunda pr undoshlari o'rin almashadi. Tupraq> turpaq"<sup>109</sup>.

Kulolchilikda asosiy xomashyo tuproq sanaladi. Bundan tashqari gil, oqtosh, oq qum, singari materiallar ham xomashyo sifatida ishlatiladi. Tuproq va loyning kulolchilikda qo'llanuvchi quyidagi 29 ta termini aniqlandi: **sof tuproq/sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimir tuproq, qizil loy tuproq, tuproq, sho'tuproq/sho'rxok, ohak, ohaki oqsil, loyqa, kesak, guvalak, gil, gilmoya, gilvata, bo'tana, loyi guldron, chinni loy, oq loy, koshin loy, kesma koshin loy, jusha loyi, pat loy, tovoq loy, sershira loy, kosagar loy, ko'zagar loy, loy, yog'li loy, plastik yog'li loy** singari. Quyida ularning ayrimlariga izoh keltiramiz.

*Loyi guldron* - sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldronlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

*Chinni loy* yoki oq loy – yarimfayans bo'lib, qoramtilor oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi.

*Kesma koshin loy* – o'tga chidamli qoramtilor loydan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil koshinlar tayyorlanadi. *Koshin loy* – shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

*Kosagar loy* – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qog'ozini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

*Ko'zagar loy* – ko'p miqdorda plastik yog'li loy va oz miqdorda sog' tuproqdan qilingan loy. Undan xum, guldron, ko'za va boshqalar tayyorlanadi.<sup>110</sup>

Demak, kulolchilik sohasida qo'llanuvchi terminlar tilshunoslikning o'rganish obyektlaridan biri sifatida qaraladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва татафсири/таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур.-Тошкент:"Мунир" наширеёти 332- бет.

2. .Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.- Тошкент. Мехнат 1991. 290-бет

<sup>109</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологији лугати. - Тошкент. Университет, 2009. Б-280

<sup>110</sup> Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.- Тошкент. Мехнат 1991. 290-бет

3. Йўлдошев Қ., Валиев Ш. "Авесто"нинг фалсафий ва иқтисодий ғоялари.– Тошкент: Молия, 2003.– Б.10.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 193.
5. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологији лугати. - Тошкент. Университет, 2009. Б-28
6. @Gozilla bot.

## RISHTON KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASIGA OID BIRLIKLARNING NOMLANISH TAMOYILLARI

**Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna**

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Zilolamsmstqulova [1988@gmail.com](mailto:1988@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasb-hunar terminologiyasi, uning tilshunoslikda tutgan o'rni yoritilgan. Rishton kuolchilik terminlaring nomlanish tamoyillari va uning asoslari misollar yordamida izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Kasb-hunar, kasb, kuolchilik leksikasi, o'xshatish tamoyili, xoslash tamoyili, nisbat berish tamoyili, materialiga ko'ra nomlash tamoyili, ovoziga ko'ra nomlash tamoyili, vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili, o'rniga ko'ra nomlash tamoyili, tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash tamoyili, o'Ichoviga ko'ra nomlash tamoyili, jarayon, harakat e'tibori bilan nom berish tamoyili, urf-odatlar bilan bog'lab nom berish tamoyili, mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili...

O'zbek kuolchilik terminlarining yuzaga kelish tarixi uning ijodkori bo'lgan xalq tarixi bilan hamohang sifatda shakllanib boradi. Tilshunos olim V.Vinogradov bu haqida shunday ta'kidlaydi: "Tilning lug'at tarkibi uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot jarayonida tarkib topadi va rivojlanadi. Til tarixini xalq tarixidan ajratib olib, uni alohida o'rganish mutlaqo mumkin emas. Tildagi har bir so'zda jamiyat hayotining barcha jihatlari to'g'ridan-to'g'ri va bevosita aks etgan bo'ladi".<sup>111</sup> Ajdodlarimizning ko'p asrli xalq amaliy san'ati natijasida vujudga kelgan kuolchilik terminlarini to'plash va tartibga solish, tilshunoslikka oid ishlarda ulardan nazariy va amaliy foydalanish adabiy til me'yorlarini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kuolchilik terminlarining leksik-semantik tuzilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, terminlar kasb-hunar egalarining narsa va hodisalarga ularning belgilarini to'g'ridan to'g'ri tushunish hamda boshqa narsa va hodisa belgilariga o'xshatib, qiyoslab, obrazli tushunish yo'li orqali nomlanadi. S.Ibrohimovning fikricha, umumiste'mol birliklarning terminologik mohiyat kasb etishi, uning mavjud ma'nolari asosida yangi terminologik ma'noning yuzaga kelishi quyidagi asoslarda vujudga keladi:

<sup>111</sup> Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразующей роли в истории языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва: Наука, 1977. - С.47.

- 1) o'xshatish prinsipi asosida (inson va uning a'zolariga o'xshatish, hayvon a'zolariga o'xshatish, qushlar va ularning a'zolariga o'xshatish, hashorat va mayda jonivorlarga o'xshatish, o'simlikka o'xshatish, turli xil asbob va qurollarga o'xshatish, samoviy jismlarga o'xshatish);
- 2) xoslash prinsipi;
- 3) nisbat berish prinsipi (qabila va xalq nomiga nisbat berish, shaxs nomiga nisbat berish);
- 4) materialiga ko'ra nomlash prinsipi;
- 5) vazifasiga ko'ra nomlash prinsipi;
- 6) o'rninga ko'ra nomlash prinsipi;
- 7) tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash prinsipi;
- 8) ovoziga ko'ra nomlash prinsipi<sup>112</sup>.

Rishton kulollchilik terminlarini yuqorida qayd etilgan qarashlardan foydalanib tahlilga tortdik. Chunonchi:

1. **O'xshatish tamoyili.** Kulolchilik buyumlari va bu sohada ishlatiladigan terminlarning aksariyati o'xshatish tamoyiliga asoslanadi. Bunda o'xshatish quyidagicha bir necha turlarga ega:

1. **Inson va uning a'zolariga o'xshatish:** piyolaning labi, choynakning og'zi, ko'zaning bo'yni, xumchaning qorni. M: Qo'shqulqoq - sopol idishlarning sut quyiladigan, qatiq ivitiladigan va dalaga osh quyib olib boriladigan turi bo'lib, bu idishlarning bo'yi past, ichi toypoq, sayoz, osti to'garak, poshnali ko'rinishga ega.

2. **Hayvon va parrandalarning a'zolariga o'xshatish:** choynakning tumshug'i, dumi kaptar, tuyatovon – sopol idishlarga berilgan naqshning bir turi

3. **Poyabzal qismiga o'xshatish:** kosanining poshnasi, piyolaning poshnasi, poshna chiqarish.

4. **O'simlikka o'xshatish:** sepoya- sebarga o'simligini bargi shaklidagi, uch quloqli, yupqaroq sopol asbob

5. **Turli xil asbob va qurollarga o'xshatish:** Kulolchilikda idishga chekma xol tushirish uchun yog'ochdan uzunchoq shaklda qolip yasashadi uni taroq termini bilan nomlashadi. Uning yuzi soch taraydigan taroqning tishlari shaklida bo'ladi. Bu gulni ham, qolipning nomi bilan taraq nomlashadi.

6. **Samoviy jismlarga o'xshatish:** Kasb-hunar leksikasida narsalarni samoviy jismlarga o'xshatib yasash emas, ularga tushirilgan naqshlar nomida uchratamiz. Chunonchi, yulduz gul – idishlarga solinadigan naqsh elementlaridan biri bo'lib, yetti tomonga gultojbarg yozib ochilib turgan

<sup>112</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б.23.

gulga o'xshaydi.

**7. Turli xil ro'zg'or buyumlari, daraxtlar va boshqa narsalarga o'xshatish va tasvirlash yo'li bilan o'xshatish:** „anorgul“ (naqsh), „bulbulzor“, (naqsh), „gultojixo'roz“ (naqsh), „toj“ (naqsh), „tuya bo'yin“ (naqsh), „tumorchha“ (naqsh), „osh pichoq“ (naqsh), „pichoq“ (naqsh), „qumg'on“ (naqsh). Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, mazkur birliklarning barchasi naqsh nomlari yoki uning elementlarini tashkil etuvchi birliklardir.

**II. Xoslash tamoyili.** Narsalarga nom qo'yishning bu tamoyilida narsaning nimaga xoslab ishlanishi ko'zda tutiladi. Masalan, beshik tuvak, gul tuvak, somovor tovoq, to'y tovoq; Chunonchi, xoslash tamoyilida buyumlarga ularning qanday maqsadda qo'llanishiga qarab ham nom beriladi. Jumladan, qatiq kosa (Rishton), don kosa (Rishton), suv kosa (Rishton), sharbat kosa (Rishton), nisholda kosa (Rishton), shinni kosa (Rishton), qaymoq kosa (Rishton) – piyoladan kattaroq kosadan kichikroq hajmdagi kosa nomi. Qaymoq solish uchun mo'ljal-langanligi uchun aynana shu nom bilan ataladi.

**III. Nisbat berish tamoyili.** Hunarmandlar turmush uchun kerakli narsalarni yasashda, o'zları ixtiro etishlaridan tashqari, boshqalar, boshqa xalqlar tomonidan ishlangan narsa nusxalariga ham o'xshatib yasab, u buyumni o'sha xalq nomi bilan ataydilar yoki narsani boshqa biror qabila yo xalqning didiga moslab ishlaydilar. Bu holatda narsa nomi ham shu qabila yoki xalq nomiga nisbat beriladi. Bundan tashqari, bir shahar ustalari tomonidan yaratilgan biror yangilik boshqa joylarga ham tarqalib, u yerlarda yasalgan narsalarning nomida o'sha shaharga nisbat beriladi. Kulollar leksikasida nisbat berish tamoyili quyidagi turlarga ega: Arabiy naqsh (qabila va xalq nomiga nisbat berish.) Joyga nisbat berish. Toshkent piyolasi, Angren tuprog'i, Rishton tovog'i

**IV. Materialiga ko'ra nomlash tamoyili.** Bu tamoyilga muvofiq, narsalarga o'zi yasalgan xomashyoning nomi asos qilib olinadi. Bunda, ko'pincha, turi ko'p narsalarning birini boshqasidan farqlab ko'rsatish ko'zda tutiladi. Masalan; materialiga ko'ra: sopol kosa, chinni kosa; ser to'zg'oq loy, sirli idish, sirsiz idish besir idish – angob va teva sir berilmagan sopol idish; asosan xum, ko'za, kir tog'ora, quvur, gul tuvak, qo'shqulqoq kabi, sirsiz idishlar. Mis suvi – Misni yanchib, ezib, xosil etilgan poroshogidan qilingan ayron. Bu bilan kulollar xom idishlarga yashil tusli gul chizadilar.

**V. Ovoziga ko'ra nomlash tamoyili:** hushtak((husht+tak), qulqulcha(qul-qul+cha);

**VI. Vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili.** Kulollarlar ish jarayonida ishlataladigan mehnat qurollarining turlari turlichadir. Ba'zan bir qurol uning

vositasi bilan yasaluvchi buyumning turli o'rnlarda ishlashga moslab har xil formalarda yasaladi va u qurollarga shu vazifasiga ko'ra nom beriladi. Chunonchi, sepoya -tojikcha so'z bo'li, uch oyoqli degan ma'noni anglatadi. Tayyor bo'lgan xomashyoni sepoyaga taklab otashdonga yuklashadi. Sepoyaning bu jaraayondagi vazifasi shuki, yarim tayyor mahsulotlat bir-biriga yopishmasligi uchun ishlatiladi. Sepoyaning ustiga bir dona kosani ichki yuzi bilan to'ntaradilar. So'ng kosaning poshnasiga yana bir sepoya qo'yib, uning ustiga yana bitta kosa qo'yiladi. Shu tariqa jarayon davom etadi.

**VII. O'rniغا ko'ra nomlash tamoyili.** Bu turga kiruvchi terminlar asosan kulolchilik buyumlari emas, balki kulolchilik buyumlarini pishiruvchi xumdonning tarkibiy qismlarini anglatuvchi birliklardir. Jumladan, Xumdonning o'chog'iga ketma-ket ikki og'iz teshik qilinadi. Kulollar tilida bu teshiklar murg'ak (mo'richa ma'nosida) atamasi bilan nomlanadi. Bu qo'yilgan teshiklarning tepasini teva murg'ak, pastini esa tak murg'ak termini bilan nomlaydilar. Ba'zi kulollar teva o'choq og'zi va pastki o'choq og'zi terminini ishlatadilar. Yoki tak sir – sopol idishlarga gul solmasdan ilgari berilgan turli tusdag'i (yo oq, yo sariq, yo qizil, yoki ko'kish) bo'yoq. Buning suyuqligi gilvo'ta yoki loyadan murak kabidir. Idishlarga tak sir berib bo'lib, ustidan naqsh, uning ustidan teva sir beradilar

**VIII. Tashqi shakl va holatiga ko'ra nomlash tamoyili.** Kulollar o'zları yasagan buyumlarga o'z tashqi shakl tuzilish va holatiga ko'ra nom berishdan tashqari boshqa narsalarning tashqi shakl, tuzilishi va holatiga o'xshatib ham nom beradilar. Chunonchi, o'rdak shaklidagi dekorativ buyumlardan birining nomi, bunga nom berish tashqi ko'rinishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

**IX. O'Ichoviga ko'ra nomlash tamoyili.** Bu tamoyilda sopol buyumlarning yo og'irligi, yoki sopol idishlarga qancha og'irlilikda narsa sig'ishi ko'zda tutiladi. Chunonchi: Charxi tovoq turlicha kattalikda bo'lib, har qaysi turining belgi va xususiyatiga muvofiq maxsus nomi bor. Charxining eng katta turiga 4—5 kilogramm guruchning oshi (palovi) sig'adi va bunda 8—10—12 kishi ovqat(solib) yeydi. Buning yuzi va labi sirli, guldor, orqasi sirsiz bo'ladi. Bu idishni arava charxi (mubolag'a bilan „arava g'ildiragiday”, „katta” ma'nosida), Samovar tovoq / samavar tavaq, ya'ni samovarda (choyxonada) ko'pchilik bo'lib ovqat solib yeyiladigan tovoq ma'nosida), yoki katta tovoq termini bilan ham ataygan.

O'rta tovoq yoki o'rta charxi deb, 2—2,5 kilogramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni; xonaki yoki xonaki charxi (xonadonda ishlatiladigan charxi) deb, 1 kilogramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli,

guldor tovoqni; *to'y tovoq* (*to'y*larda 2—3 kishiga osh suzib beriladigan tovoq) yoki *nim charxi* deb, 600—700 gramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni; *lappak tovoq* yoki *ma'raka tovoq* (*ma'raka tavaq*) deb, 500 gramm guruchning oshi sig'adigan, yuzi sirli, guldor tovoqni aytadi. Andijon kulollari katta, „*samovar tovoq*» dan tashqari, yana bir necha turli tovoq ishlab chiqaradilar. Ularni quyidagi ikki nom ostida yuritiladi: 1) *uy tovoq*. Bunda 4—5 kishi osh yeydi (*xonaki*, *xonaki charxi* deb atagan edi); 2) *to'y tovoq* (2—3 kishi ovqat solib eydi; *lappak*, yoki *ma'raka tovoq* atagan edi) kabi turlari mavjud.

**X. Jarayon, harakat e'tibori bilan nom berish tamoyili.** Bu tamoyilda termin tuzishda jarayon, harakat nima vositasi bilan yuzaga kelishi, oqibat natijada nima narsa xosil etilishi asosga olinadi va ularga berilgan nomlar quyidagilardir: Kasb-hunar leksikasida ish jarayoniga ko'ra berilgan nomlar leksikaning katta bir qismini tashkil etadi. Jumladan, *loy tepish*, *loy tarosh*, *tobini olish*, *zulma ochish*, *zulma tortish*, *tobga kelish*, *poshna chiqarish* kabilardan iborat.

**XI. Urf-odatlar bilan bog'lab nom berish tamoyili.** *To'y tovoq*, *to'y lagan*, *ma'rakat tovoq*. Sarishoyak – 19-asrlarda vodiylar kelinlarning sepi uchun maxsus yasalgan sopol idish. Undan kelinlar taroq, oyna, surma va shu kabi buyumlarni qo'yishda foydalanganlar.

**XII. Mifik tushunchalar va afsonalar bilan bog'lab nomlash tamoyili.** Avvallari naqqoshlarning tafakkurida har xil mifik tushunchalar va diniy ideologiya ta'siri kuchli edi. Shuning orqasida ularning leksikasida mifik tushunchalar, diniy e'tiqod va afsonalarni ifoda etuvchi so'z va iboralar ham anchagina o'rinn olgan edi. Bu holat sopol idishlarga tushirilgan naqshlarda ham ko'rinadi. Masalan, ilgari naqqoshlar, biror kishining tepasiga kelib qo'nsa, u kishi podshohlikka yoki zo'r davlatga tuyassar bo'ladi, deb sanalgan — *humo nomli afsonaviy* qushning tasvirini sopol idishlarning badiiy naqshi motiviga kiritar edilar. Bu tasvirning takrorlanishi bilan islaming yangi bir xilini o'yib, uni *islimi humo* deb yuritardilar; ilgari ko'pincha savdogarlar, amaldorlar bu naqshni idishga chizdirar va „*yaxshi niyat*“ bilan deb o'z uylarida asrar edilar. Yoki butun Farg'ona vodiysiga keng tarqalgan „*Qalampir*“ naqshiga ham oid necha asrlik xalq orasida shunday bir afsona bor. Vodiya bir necha asrlar oldin o'lat kaslligi tarqagan, ko'pchilikning yostig'ini quritgan, unga shifo bo'lib qalampir xizmat qilgan. Shuning uchun millatimizga xos barcha xalq amaliy bezak san'atida bu naqsh turini uchratish mumkin. Vodiyyagini do'ppido'zlar faqat qalampir naqshidan foydalananadilar. Odamlar esa uni e'zozlab boshiga ko'tarib kiyib yuradilar. Nafaqat do'ppido'zlar, balki, kulollar, kashtachilar, adreschilar ijod

namunalarida bu naqsh keng ko'lamda qo'llanadi. Quyidagi jadval orqali kulolchilik terminlarining nomlanish tamoyillarini umumlashgan holda ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki, terminlar ma'nosini bilish va ular ustida jiddiy lingvistik tadqiqotlar olib boorish, bizga mazkur terminlarning yuzaga kelishi, shakllanishi, nomlanish tamoyili, etimologik kelib chiqishi kulolchilik terminlarning milliy madaniyatimizning bir bo'lagi asl holda saqlab qolish va kelgusi avlodga shu holda yetkazish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:**

1. Виноградов В.В. Об основном словарном фонде и его словообразующей роли в истории языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. - Москва: Наука, 1977. - С.47.
2. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959. – Б.23.
3. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. -382 б.
4. Нафасов Т. Ўзбек ҳунармандчилиги ва ўзбек топонимияси // Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва кўча номлари. – Тошкент: Маънавият, 2008. –бет
5. Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. - Тошкент:Ўқитувчи, 1968. - 32 б.

## KASB-HUNAR TERMINLARI TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

**Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna**

Far DU mustaqil tадqiqotchisi

Zilolamsmstqulova [1988@gmail.com](mailto:1988@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasb-hunar terminologiyasi, uning tilshunoslikda tutgan o'rni, kasb-hunar sohasidagi ilmiy izlanishlar yoritilhgan. Rishton kuo'lchilik terminlari o'rganish oyekti sifatida tanlab olingan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, kasb, kulolchilik leksikasi, dunyo kasblari, poyabzaldo'zlik terminlari, tikuvchilik terminlari, quruvchik terminlari, kosibchilik terminlari

Olimlar hisob kitobiga ko'ra, hozirda dunyoda kasblar soni 70.000ni tashkil etadi<sup>113</sup>. Mutaxassisilar fikricha har yili 500 ga yaqin yangi kasb paydo bo'ladi. Mavjud kasblar olimlar tomonidan quyidagicha guruhlarga ajratilgan:

1. Odam yovvoyi tabiat. Ushbu turdag'i kasb yovvoyi tabiat bilan, ya'ni o'simliklar va hayvonlar bilan ishlashni o'rganish: parvarish qilish, yangi turlarni yaratish va h.k. Masalan: chorvachilik mutaxassisi, ekolog, arborist, mikrobiolog va boshqalar.

2. Odam - bu texnikadir. Texnologiya bilan bog'liq kasblar: ishlab chiqish, yaratish, ta'mirlash, o'rnatish, boshqarish. Masalan: chilangar, muhandis, texnolog, haydovchi va boshqalar.

3. Odam - bu odam. Jamiyat bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan inson faoliyatining turi: tibbiyot sohasi, insonning huquqiy himoyasi. Masalan: shifokorlar, yuristlar, psixologlar, menejerlar va boshqalar.

4. Odam - bu ishora tizimi. Tillar, belgilar, formulalar bilan bog'liq barcha narsalar. Masalan: dasturchi, hisobchi, iqtisodchi, tarjimon va boshqalar.

5. Inson badiiy timsol. San'at sohasida yangi narsalarni yaratish bilan bog'liq ijodiy kasblar. Masalan: rassomlar, musiqachilar, me'morlar, sartarosh va boshqalar.<sup>114</sup>

Biz tadqiq etayotgan kulolchilik kasbi "Inson badiiy timsol" guruhiga mansub kasb sanaladi. Qora loyga kulol yurak qo'ri bilan ishlov berib, undan nafis san'at asarini yaratadi.

<sup>113</sup>. <https://zarnews.uz>.

<sup>114</sup>. <https://zarnews.uz>.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek tili leksikasi atamalarga boy bo'lib, har bir soha o'zining tegishli atamalari bilan tilshunoslikning terminologiya sohasiga oid hisobilanadi. Aytish joizki, tilshunoslikdagi ushbu soha aniqlik asosida ish ko`radi hamda xalq tilining boyishiga xizmat qiladi. Terminologiya sohasida kasb-hunar atamalari ma'lum bir yo`nalishni tashkil qilib, ular fanda professionalizmlar deb yuritiladi.

O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelishi natijasida kasb-hunar tarmoqlari tashkil topgan va taraqqiy etgan. Kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, temirchilik, beshikchilik, atlasdo'zlik, do'ppido'zlik, ovchilik, tikuvchilik, kosibchilik, chorvachilik va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Har bir kasb-hunar tarmog'ining o'ziga hos terminlari mavjud bo'lib, ular shu kasb egali nutqida faol qo'llanadi va o'zbek tili lug'at boyligini bir qismini tashkil etadi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibiga nazar solsak, kasb-hunarga doir terminlarni uchratish mumkin. Quyida kasb-hunar terminlarning ayrimlariga izoh keltirib o'tganmiz.

